2-topshiriqda berilgan so‘zlar atoqli va turdosh otlarga ajratiladi. Buni “**Kim topqir va zukko?**” o‘yini asosida bajarish yaxshi samara beradi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida mashqlar bajariladi.

<b>Shaxs nomi</b>	<b>Shaxs oti</b>
<b>Dildora</b>	O‘quvchi

<b>Narsa nomi</b>	<b>Narsa oti</b>
<b>Snikers</b>	shokolad

<b>O‘rin nomi</b>	<b>O‘rin oti</b>
<b>O‘zbekiston</b>	davlat

O‘quvchilar 300-mashqqa ko‘ra turdosh otlarni aniqlab, tavsif beradilar, ma’no guruhlariga ajratadilar.

**Namuna:** *Tog‘liklarning biron to‘yi, ma‘rakasi, gap-gashtagi usiz o‘tmaydi. (Said Ahmad) To‘y, tog‘liklar, gap-gashtak* — turdosh otlar.

**301-mashq og‘zaki tarzda bajariladi.** O‘quvchilar berilgan gaplardan turdosh otlarni topib, ularni izohlaydilar.

Namuna: *Shamol qorni yuz-ko‘zlarga keltirib uradi. (P.Qodirov) Shamol* — narsa oti, turdosh ot kabi.

302-mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadilar va “**Bu so‘z bizniki**” o‘yini o‘tkaziladi. Bunda birinchi guruh shaxs, ikkinchi guruh narsa, uchinchi guruh o‘rin-joy, to‘rtinchi guruh faoliyat-jarayon otlariga o‘ntadan misol yozadi. **Namuna:**

“**1-guruh**” - shaxs otlari: *inson, tog‘a, xola.*

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida shu topshiriqni rus va ingliz tillarida bajariladi. Darsda “Ingliz tili daqiqasi” o‘tkaziladi.

*Dog, Hedgehog, Egg, Glue, Suit, Pilot, Driver, Aunt, Daughter, Uncle, Teaching, Examination, Muting, Election, Competition, Village, Playground, Canteen, Pasture, Residence.* Dars jarayonida “Rus tili daqiqasi” ham o‘tkaziladi. Yuqoridagi shart asosida rus tilida berilgan so‘zlar guruhlarga ajratib yoziladi. Yana bir misol tariqasida “To‘rtinchisi ortiqcha” ta’limiy o‘yini o‘tkazilishi ham mumkin. Bunda o‘quvchilarga tarqatmalar tarqatiladi. Har bir tarqatmada to‘rttadan so‘z joylashtirilgan. Ulardan biri ortiqcha.

Masalan: **urush, saylov, qatnov, olov** (bu yerda olov so‘zi ortiqcha chunki, olov narsa oti, qolganlari faoliyat jarayon oti)

1. Shaxs otlari deb nimaga aytiladi?
2. Narsa otlariga misollar keltiring.
3. O‘rin-joy otlariga misol ayting.

Shu tarzda ona tili darslarida integratsiyadan foydalanish mumkin.

Psixolog olim L.S.Vigotskiy tomonidan o‘yinlarning bolalarni ma’naviy va jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Unga ko‘ra, barqaror vaziyatga asoslangan o‘yinlar ta’lim va nutqiy faoliyatda o‘zini mujassam etadi. Dinamik vaziyatga asoslangan o‘yinlar simulyatsiya qilinadi, ta’lim va nutq vaziyatlari didaktik o‘yinlar shaklida o‘zaro uyg‘unlashadi.

Til o‘rganishda o‘quvchilarga ana shu til faqat o‘quv predmeti emasligini, balki aloqa vositasi ham ekanini anglatish, tafakkurning boshqacha, yana-da bog‘lanishli yo‘llarini tushunishga yordam beradigan ta’limiy usullarini qo‘llash juda muhimdir. Shuningdek, o‘quvchilar diqqatini o‘zlari odatlangan ona tilidagi tafakkur shakllaridan chetga tortadigan maxsus ishlarni amalga oshirish zarur. Ta’lim jarayonida kishilarning hayotdagi, mehnatdagi, turli aqliy va amaliy faoliyatdagi aloqa hamda munosabatlariga oid aniq masalalarni hal qilish ikkinchi tilni o‘zlashtirishning asosidir.

Psixologik omillar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni, metodik omillar esa ta’lim jarayonini yana-da izchil boshqarishni taqozo etadi. Fanlararo integrativ o‘qitishda dars jarayonida so‘z birikmalari, gaplar, ayrim so‘zlarning tuzilishini o‘rganishga e’tibor qaratiladi. Shunday ekan, til ta’limida ana shu tildagi nutq faoliyati boshqa tilni o‘qitishning butun jarayoni o‘quvchilarning zarur talaffuz va leksik-grammatik qurilmalarni o‘zlashtirishlari, o‘rganilganlarni takrorlamaydigan, balki boshqa tilda aloqa bog‘lashning haqiqiy doirasiga ko‘ra qayta taqsimlash va shakl o‘zgarishini taqozo etadigan mustaqil fikrlar yaratishlari asosida olib boriladi. Bunda o‘quv materialidan boshqa tilda fikr almashishning vositasi sifatida foydalanish lozim. Til nazariyasini o‘rganish nutqdagi o‘quv birliklaridan foydalanish amaliyoti bilan



almashinadi. Ya’ni nutq qurilmalari: leksik, grammatik, talaffuzga doir vazifalarni bajarishlarida, so‘zlash, o‘qish va yozishni o‘rganayotganlarida o‘quvchilarda nutq malakalari shakllanadi va rivojlanadi.

**Xulosa.** O‘quvchilarning tillararo integratsiyada ona tiliga tayanishlari juda muhim va foydalidir. Chunki o‘z ona tilisini to‘liq o‘zlashtirish, ikkinchi tilning o‘ziga xos qonuniyatlarini bilib olishlarida, uning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunib yetishlarida katta yordam beradi. Binobarin, boshqa tilni bilish ham, ona tilini to‘liq idrok etishlariga imkon yaratadi. Bu holatda ikkala tildagi semantik o‘xshashlik va farqlarning aniqlanishi hamda o‘zaro bog‘lanishi, so‘zlar, iboralar, va kontekstlarning ma’nosi to‘g‘ri o‘zlashtirilganligini tekshirish katta ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2020. – 249 b.
2. Safarova R., Nurjanova R. O‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashda modulli texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2017. – № 5. – B. 22-26.
3. Sodiqova N., Mo’minova M. Ingliz tilidagi predloqlarni o‘zbek tilidagi kelishiklar bilan qiyoslab o‘rgatish // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 1. – B. 8-13.
4. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishni loyihalashtirish metodikasi //Pedagogik mahorat// ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 11.
5. Suyunova H.A. “Til ta’limiga integrativ yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati xususida” // Muallim jurnali. Nukus, 2021. – № 4/1. – B. 12-15.

## PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISHGA DOIR QARASHLARI

*Matquliyeva Marg‘uba Farxodovna,*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*“O‘zbek va rus tili adabiyoti” kafedrasi mudiri, (PhD)*

*marguba1783@mail.ru*

*Matkarimova Nuriya G‘ayrat qizi,*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*Ta‘lim va tarbiya nazariyasi boshlang‘ich ta‘lim 221- guruh magistranti*

*Ushbu maqolada pedagog-psixologlarning boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini nutq o‘stirishga doir qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish va uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlari batafsil yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *nutq, ta‘lim-tarbiya, muloqot, nutq ontogenezi, monologik nutq, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Jahon ta‘limini rejalashtirish instituti (Parij), Oliy ta‘limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta‘limi Assotsiatsiyasi (ATEE).*

## ВЗГЛЯДЫ ПЕДАГОГОВ-ПСИХОЛОГОВ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*В данной статье анализируются взгляды педагогов-психологов на речевое развитие младших школьников. Также подробно освещены использование передовых педагогических и информационных технологий в образовательном процессе в начальных образовательных учреждениях, профессиональные навыки, творческий подход к деятельности, а также важные направления реформ, проводимых в системе непрерывного образования.*

**Ключевые слова:** *речь, образование и воспитание, коммуникация, онтогенез речи, монологическая речь, Национальная программа подготовки, Всемирный институт планирования образования (Париж), Европейский центр высшего образования (Бухарест), Европейская ассоциация педагогического образования (ATEE).*

## ATTITUDES OF EDUCATORS-PSYCHOLOGISTS ON THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN PRIMARY EDUCATION

*This article analyzes the views of pedagogues-psychologists on speech development of primary school students. Also, the use of advanced pedagogic and information technologies in the educational process in primary educational institutions, professional skills, creative approach to activities, and the important directions of the reforms carried out in the continuous education system are covered in detail.*

**Key words:** *speech, education, communication, speech ontogeny, monologic speech, National Training Program, World Education Planning Institute (Paris), European Center of Higher Education (Bucharest), European Teacher Education Association (ATEE).*

**Kirish.** Boshlang‘ich ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, Boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shuningdek, MTM larda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Pedagog kadrlarning uzluksiz ta‘lim olishini tashkil etish muammolari bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta‘limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta‘lim bo‘yicha instituti (Gamburg), Oliy ta‘limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta‘limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda tadqiq etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda Boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; Boshlang‘ich ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi[1]. Bu qaror Boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning Boshlang‘ich ta‘lim bosqichiga e‘tibor ortib borishi bilan bir qatorda Boshlang‘ich yoshdagi bolalarni Boshlang‘ich ta‘lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlarga yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, ta‘kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta‘lim bosqichlarining nechog‘lik samarali ishlashi ma‘lum darajada Boshlang‘ich ta‘lim sifatiga bog‘liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo‘ladi. Unga to‘g‘ri mazmun va yo‘nalish berish pedagogika fani, ta‘lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leontev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili Boshlang‘ich yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Boshlang‘ich ta‘lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘qitish zarurligi masalasini ko‘tarib chiqdi. U tomonidan o‘tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958-1960-yillar) natijasida Boshlang‘ich katta yoshli o‘zbek bolalariga ruscha og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan.

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan Boshlang‘ich yoshdagi katta bolalarda o‘qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi. S.O.G‘oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) Boshlang‘ich katta yoshdagi bolalarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan (xalq ertaklari, o‘yinlar) foydalanish asosida atrofda tilga adolatli munosabatda bo‘lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi.

1979-yildan boshlab to bugungi kungacha Boshlang‘ich yoshdagi bolalarga ona tili va o‘zga tilni (rus, o‘zbek) o‘qitish muammosi O‘zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta‘siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik, o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarning lug‘atni o‘zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko‘rsatilgan: atrofda til olam lug‘atini (so‘z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug‘atni til birligi sifatida o‘zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig‘ida ham, til mantig‘i borasida ham so‘z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari Boshlang‘ich yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘rganishga alohida e‘tibor

qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo‘lgan bosqich muhim rol o‘ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevsckaya va boshqalar bolalarning og‘zaki nutqi va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so‘z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o‘rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e‘tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Bolalar tomonidan tilning tovush tizimini o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda (G.M.Lyamina, Ye.I.Radina, G.A.Tumakova, A.I.Maksakov, M.I.Gening, N.A.German va boshq.) o‘rganish predmeti sifatida xizmat qildi.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta‘limning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi (F.A.Soxin, YE.M.Strunina, A.M.Borodich, M.R.Lvov va boshq.).

Nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qo‘shilgan nutqiy harakat kabi til orqali bog‘langan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida ko‘rib chiqiladi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyaya).

Modelda fahmlab yetilgan axborotni nutq yordamida uzatish, ya‘ni nutqiy semantika muammosi; bunda grammatik qoidalardan foydalanish, ya‘ni tilni ishga solish; akustik kanalni ishga tushirish imkoniyati; nutqdan muloqot va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida foydalanish; ushbu barcha hodisalarni miya harakatiga muvofiq holda tavsiflash kabi hodisalar o‘z izohini topishi lozim[2].

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir[3].

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlarni qiziqtirib qoldi. K.D.Ushinskiy[2] bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildirdi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning [4] madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning[5] faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan.

Natijada bolalar nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro‘y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida faol o‘zlashtiradi.

A.A.Leontev[6] L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo‘lib, ularni o‘zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarining yetilganligi bilan, o‘zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq.

M.I.Lisina konsepsiyasi ruhida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muloqot – bolada so‘zning paydo bo‘lish fakti, vujudga kelish muddatlari va bola nutqi rivojlanishining sur‘atlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa fikrlash, o‘z xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurda bola nutqini rivojlantirish, bir tomondan, tashqi



ta'sirlar bilan belgilanishi, o'zga tomondan esa to'satdan yuz berishlik, «o'zini-o'zi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Bolalarning passiv nutqni o'zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so'zni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi uch jihatga, ya'ni emotsional aloqalar, birgalikdagi harakat chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunikativ omilga bog'liq bo'ladi.

Monologik nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasining yanada rivojlanishi bolalar ravon nutq turlari va fikr bildirishning turli xillarini o'zlashtirish xususiyatlarining chuqur tadqiq etilishi bilan tavsiflanadi. Izohlovchi nutqlar, mulohaza shaklidagi jummalarning xususiyatlari o'rganiladi va uning negizida bolalarga monologlarning turli xillarini o'rgatish metodikasi yaratiladi. F.A.Soxin, O.S.Ushakova va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqni shakllantirishning turli jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni baholashning shunchaki mantiqlilik, izchillikdan ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni galdagi vazifalardan biri qilib qo'ydi. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida so'zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o'rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan. Olimlar bolalarni o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'llarini topish borasida faol ish olib bormoqdalar. Nutqni o'qitishning nazariy va empirik muammolarini tadqiq etish quyidagi nazariy qoidalardan kelib chiquvchi umumiy boshlang'ich pozitsiyalarga ega:

- ta'lim boshlang'ich yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniqsa, zamonaviy noqulay nutqiy muhit sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega;

- nutqni o'rgatish - «.. dan to .. gacha» kabi qattiq qoliqlar to'g'ri kelmaydigan hamda nutqni rivojlantirishning yosh qonuniyatlari va bolaning individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir;

- nutqni rivojlantirish asosida kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, xususan: ona tilini o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga qo'shilishi, o'quv sharoiti tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;

- o'qitish vaziyatida katta yoshli odamning bola bilan o'zaro hamkorligining xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

- til ustida nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov-motivatsiya, yo'naltirish-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur;

- nutqni o'qitish bolalarning tilni o'rganish bo'yicha mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bolalar faolligining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hozirgi paytda Boshlang'ich yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish muammosini ishlab chiqish mazkur metodologik holatlardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda.

**Xulosa.** Boshlang'ich yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- nutqni rivojlantirish – bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir;

- nutqni rivojlantirish – bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas;

- bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Turkiston ro'znomasi 2017-yil 1-fevral 3-bet.
2. Ушинский К.Д. Родное слово // Собр.соч. - М., 1949. Т - С. 242-243
3. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. - 1972. -№ 9. С.95-108.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982. Т. 2.
5. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. - 1972. -№ 9. С.95-108.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - М., 1969. С. 135.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ЛЕКСИКЕ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Кенджаева Шарофат Бахтияровна,**  
Бухарский международный университет Азии,  
магистрант группы ДМ1-НО22(ММ1-БТ22)  
факультета «Начальное образование»

*В статье представлен обзор инновационных методов обучения лексике в начальной школе. Учителя применяют разнообразные подходы, включая работу с текстами, справочными материалами и анализ словообразования. Особое внимание уделяется значению словарной работы для развития речевых навыков и лексического богатства учеников. Исследование также анализирует опыт работы с синонимами и подчёркивает важность корректного использования слов в контексте обучения. Обсуждаются примеры из художественных текстов и произведений классических авторов, которые дополняют представление о методах обучения лексике. В целом, статья предоставляет полный обзор современных подходов к развитию лексических навыков учащихся начальной школы.*

**Ключевые фразы:** инновационные подходы, обучение лексике, начальная школа, русский язык, тексты, справочные материалы, словообразование, словарная работа, синонимы, корректное использование.

## INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING VOCABULARY IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES AT ELEMENTARY SCHOOL

*The article provides an overview of innovative methods for teaching vocabulary in elementary school. Teachers employ various approaches, including text analysis, reference materials, and morphological analysis. Special attention is given to the importance of vocabulary instruction for developing students' language skills and lexical richness. The study also analyzes experiences with synonyms and underscores the significance of proper word usage in the instructional context. Examples from literary texts and classic works complement the discussion, offering a comprehensive review of contemporary approaches to developing vocabulary skills in elementary students.*

**Keywords:** innovative approaches, vocabulary instruction, elementary school, Russian language, texts, reference materials, morphological analysis, vocabulary work, synonyms, proper usage.

## BOSHLANG'ICH MAKTABDA RUS TILI DARSLARIDA SO'Z BOYLIGINI O'RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

*Maqolada boshlang'ich maktabda so'z boyligini o'qitishning innovatsion usullari haqida umumiy ma'lumot berilgan. O'qituvchilar turli xil yondashuvlardan foydalanadilar, jumladan matn tahlili, ma'lumotnomalar va morfologik tahlil. O'quvchilarning til ko'nikmalari va leksik boyligini rivojlantirish uchun lug'atni o'qitishning ahamiyatiga alohida e'tibor beriladi. Tadqiqot shuningdek, sinonimlar bilan tajribalarni tahlil qiladi va ko'rsatma kontekstida so'zlarni to'g'ri ishlatishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy matnlar va klassik asarlardan misollar munozarani to'ldiradi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'at ko'nikmalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarni har tomonlama ko'rib chiqishni taklif qiladi.*

**Kalit so'zlar:** innovatsion yondashuvlar, lug'atni o'qitish, boshlang'ich maktab, rus tili, matnlar, ma'lumotnomalar, morfologik tahlil, lug'at ishi, sinonimlar, to'g'ri foydalanish

**Введение.** Обучение лексике на уроках русского языка в начальной школе играет ключевую роль в формировании языковых навыков у учащихся. Этот процесс не только предполагает освоение новых слов и выражений, но и способствует развитию речи, расширению словарного запаса и повышению языковой компетенции в целом. Сегодня в контексте быстро меняющейся образовательной среды актуальным становится поиск инновационных подходов к обучению, которые могли бы эффективно сочетать традиционные методики с современными образовательными технологиями.

**Цель** данной статьи - проанализировать инновационные подходы к обучению лексике на уроках русского языка в начальной школе. В рамках исследования будет рассмотрен опыт как

зарубежных, так и отечественных учёных в области методики обучения лексике, а также выявлены основные тенденции и результаты их работ. Проведённый анализ позволит определить перспективные подходы к обучению лексике, которые могут быть успешно применены в практике начального образования.

**Литературный обзор.** В области обучения лексике на уроках русского языка в начальной школе наблюдается растущий интерес к инновационным методам и подходам. Современные исследования, проведённые в России и Узбекистане, сфокусированы на разработке и апробации новых методик, способных повысить эффективность усвоения материала учащимися.

В России значительный вклад в развитие методов обучения лексике внесли учёные, такие как П.А. Грушников. Его работа с «Орфографическим словариком» подчёркивает важность словообразовательного анализа в понимании лексических значений. Эффективность использования художественных текстов и устной речи педагогов в обучении подтверждается в исследованиях Е.Пермяка, который акцентирует внимание на развитии навыков восприятия и понимания образного языка.

Исследователи из Узбекистана, в частности из Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы, активно изучают применение современных технологий и интерактивных методов в обучении лексике. Они демонстрируют, как интеграция технологий в учебный процесс способствует улучшению восприятия и усвоения новой лексики.

Основной вывод из современных исследований заключается в том, что для эффективного обучения лексике необходим комплексный подход, сочетающий традиционные и инновационные методы. Такой подход включает анализ текстов, словообразование, а также использование интерактивных техник и современных образовательных технологий.

Инновационные методы обучения лексике на уроках русского языка в начальной школе направлены на активное вовлечение учащихся в образовательный процесс. Такие методы не только способствуют усвоению новых слов и выражений, но и развивают креативность, критическое мышление и понимание культурного контекста языка, что делает обучение более эффективным и интересным для младших школьников.

**Материалы и методы.** В рамках данного исследования для расширения словаря использовались разнообразные материалы, включая художественные тексты, учебные пособия, сценарии кинофильмов и телепередач, а также устная речь педагогов. Особое внимание уделялось выделению и анализу сложных слов в процессе обучения чтению. В этом контексте применялся «Орфографический словарик» П. А. Грушникова, ориентированный на начальные классы.

Обучение включало анализ словообразования для определения значений слов и их оттенков, а также использование контекста для глубокого понимания терминов. Дополнительно, учащиеся самостоятельно создавали новые контексты для использованных слов, углубляя их понимание, при этом учителя оказывали необходимую поддержку в формировании этих контекстов.

Важной частью процесса обучения было применение справочных материалов, включая энциклопедии и словари. Эти ресурсы использовались для уточнения значений слов, особенно в начальных классах, где учащиеся должны были научиться самостоятельно пользоваться этими материалами. Кроме того, использование наглядных материалов, таких как схемы и графики, показало свою эффективность в объяснении абстрактных понятий.

В процессе обучения особое внимание уделялось работе с синонимами и антонимами. Это включало понимание значений слов через их противопоставление, а также изучение оттенков значений и различий в использовании. В начальных классах акцент делался на практической работе с синонимами, где учащиеся учились выявлять их в текстах, подбирать альтернативные слова и исправлять ошибки, связанные с неудачным выбором слов.

Учебная программа начинала работу с синонимами уже в первом классе, где дети изучали различия между такими словами, как «крошечный» и «маленький», и учились улавливать их эмоциональную окраску. Во втором и третьем классах ученики работали с более сложными группами синонимов и глаголами речи, а также начинали понимать и использовать антонимы.

Особое внимание уделялось словам, характерным для определённого стиля речи, как, например, «аршин» и «зипун» в произведении Н. А. Некрасова, что помогало учащимся понять устаревшие слова и их неупотребимость в современном языке. В художественных текстах активно использовались тропы с образным значением, в то время как научные и популярно-научные тексты часто включали специализированные термины. Регулярная работа со словами в различных контекстах способствовала развитию речевых навыков учащихся и обогащению их лексического богатства.

**Результаты и обсуждение.** Для расширения словаря используются художественные тексты, учебные пособия, сценарии и устная речь педагогов. Учитель выделяет сложные слова для обсуждения на уроке чтения. В работе над словами применяется «Орфографический словарь» П.А.Грушникова для начальных классов.

Обычно в классе найдутся ученики, которые понимают все новые слова, в то время как до 10 человек могут не знать 10-12 слов из текста. В словарной работе учителя ориентируются на более подготовленных учеников. Методы анализа словообразования и контекстуального понимания слов активно используются для разъяснения значений и оттенков слов. Примеры включают анализ происхождения слов, сравнение паронимов и использование контекста для объяснения значения терминов, таких как «гипербола» или «аллегория».

А) Создание учениками нового контекста для использования слова углубляет его понимание, при необходимости учитель помогает в формировании контекста.

Б) Применение справочных материалов, включая энциклопедии и словари, помогает уточнить значение слов. В начальных классах используются энциклопедические издания и сноски в учебниках, ученики должны уметь их самостоятельно применять.

В) Использование наглядных материалов, например, схем и графиков, эффективно для объяснения абстрактных понятий.

Г) Замена слова синонимами требует аккуратности, чтобы не потерять эмоциональную окраску речи. Важно сравнивать синонимы, выявляя их различия и выразительность.

д) Применение антонимических пар помогает в понимании значений слов, например, понимание «благодарного» через противопоставление с «неблагодарным».

Е) Подробное описание слова, включающее группу слов или предложения, сохраняет естественность общения и способствует пониманию значений.

В начальных классах осуществляется практическая работа с синонимами без теоретических сведений. Упражнения включают выявление синонимов в текстах, подбор синонимов для замены слов, активизацию синонимов в речи и исправление ошибок с заменой неудачно подобранных слов.

В 1-м классе дети начинают различать синонимы, как в рассказах Е. Пермяка, выявляя разницу между «крошечный» и «маленький» и улавливая их эмоциональную окраску. Во 2-м и 3-м классах ученики работают с группами синонимов, например, «смелый», «храбрый», «отважный» и «сильный», «мощный», «могучий». В рассказе Л. Воронковой акцентируется на глаголах речи, предлагая альтернативы слову «сказала». Также начинается работа с антонимами, например, «большущий» и «крохотный» в рассказе Е. Пермяка.

Учащиеся начальных классов также знакомятся со словами, характерными для определённого стиля речи, как «аршин» и «зипун» в произведении Н. А. Некрасова, учатся понимать устаревшие слова и их нынешнюю неупотребимость в современном языке.

В художественных текстах используются тропы с образным значением, в то время как научные и популярно-научные тексты чаще содержат термины типа «картофелекопательные машины» и «киллюминатор». Школьники регулярно сталкиваются с полисемией слов, начиная осознавать это через иносказание. Система словарной работы в школе направлена на корректное восприятие слова в тексте, понимание его оттенков и значений, освоение и включение в активный словарный запас, а также на подготовку к самостоятельному использованию слов в речи. Эта работа является ключевой для развития речевых навыков и лексического богатства, обеспечивая правильное использование слов в контексте.

**Заключение.** Исследование, ориентированное на анализ методов словарной работы в начальных классах, подчёркивает значимость комплексного подхода к обучению лексике. Применение разнообразных материалов и методик позволяет формировать у учащихся глубокое понимание значений слов, их использования в различных контекстах и стилях речи.

Основные материалы для расширения словарного запаса включали художественные тексты, учебные пособия, сценарии и устную речь педагогов. Использование «Орфографического словарика» П. А. Грушникова в начальных классах оказалось эффективным в обучении правильной орфографии и пониманию лексических значений.

В обучении применялись методы, такие как анализ словообразования, контекстуальное понимание, создание нового контекста учащимися, использование справочных материалов, а также работа с наглядными материалами. Особое внимание было уделено развитию умений работы с синонимами и антонимами, что способствует развитию точности и выразительности речи учащихся.

Наблюдалось, что уже в первом классе учащиеся начинают осознавать различия между синонимами и учатся улавливать их эмоциональные оттенки. Во втором и третьем классах ребята



продолжают работу с более сложными группами синонимов и начинают понимать значение антонимов, что способствует более точному и разнообразному выражению мыслей.

Обучение в начальных классах также охватывает знакомство с устаревшими словами и словами, характерными для определенного стиля речи. Это позволяет учащимся развивать понимание исторических и культурных аспектов языка. Важной частью обучения становится осознание полисемии слов и их использование в различных контекстах.

Таким образом, исследование показывает, что систематическая и разнообразная работа над словарем в начальной школе способствует комплексному развитию языковых навыков учащихся. Это включает в себя не только пополнение словарного запаса и понимание лексических значений, но и развитие навыков критического мышления, креативности и культурного осознания. Результаты данного исследования могут быть полезными для разработки образовательных программ, нацеленных на повышение эффективности преподавания русского языка в начальных классах.

### Литература:

1. Аминова, М. Реализация инновационных методов в личностноориентированном подходе педагогической деятельности. Жамият ва инновациялар - Общество и инновации - // Society and innovations, Специальный выпуск - 6 (2021). ISSN 2181-1415. С.53-55.

2. Грезнева, О.В. Инновационные технологии на уроках русского языка и литературы. Доступно на: <https://nsportal.ru/shkola/mezhdistsiplinarnoe-obobshchenie/library/2020/08/17/innovatsionnye-tehnologii-na-urokah>. Дата доступа: [11.03.2023].

3. Егорова, М.М. Анализ реализации полисемии в художественном тексте как средство совершенствования речевой культуры студентов: диссертация кандидата педагогических наук. Москва, 2011. - 245 с.

4. Елдашева, Г.В. Современные педагогические технологии как средство повышения качества образования. Проблемы педагогики, 2020.

5. Инновационные технологии в преподавании русского языка как иностранного. Доступно на: [https://revolution.allbest.ru/pedagogics/01266716\\_0.html](https://revolution.allbest.ru/pedagogics/01266716_0.html). Дата доступа: [20.02.2024].

6. Инновационные технологии на уроках русского языка и литературы. Доступно на: <https://nsportal.ra/shkola/mezhdistsiplinarnoe-obobshchenie/library/2020/08/17/innovatsionnye-tehnologii-na-urokah>. Дата доступа: [24.12.2023].

7. Манету Ндяй, Нгуен Ву Хьонг Ти, Е.О. Грунина. Инновационные технологии в преподавании русского языка как иностранного 1. Russian Language Studies, 2020, Том 18, № 1, С. 7-38.

8. Самоварова, Т.В. Интеграция образовательных технологий на уроках литературы как средство повышения уровня образованности студентов. Доступно на: <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/322790-statja-na-temuintegracija-obrazovatelnyh-tehn>. Дата доступа: [28.10.2023].

9. Тальгамер, А.Б. Развитие интеллектуальной и творческой активности обучающихся на уроках русского языка и литературы. Доступно на: <https://urok.1sept.ru/articles/691713>. Дата доступа: [11.03.2024].



## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

### TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FIZIKA FANINING ROLI

*Bahromova Anzura Akrom qizi,*

*Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi  
everest11@gmail.com*

*Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda fizika fanining roli keltirib o'tilgan.*

*Maqolada ma'lum bir texnik yo'nalish talabalarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan fizika kursining mazmunini tanlashga imkon beradigan yagona yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ma'lum bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyati tahlil qilingan, belgilangan kasbiy faoliyat turlarini maqsad va yakuniy mahsulot bo'yicha umumlashtirilgan, o'zaro bog'liq harakatlar ketma-ketligidan iborat kasbiy faoliyatni amalga oshirish usulini aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** *texnika, mexanika, magnetizm, tahlil, optika, dispersiya, diffraksiya, standart, kvant.*

### РОЛЬ ФИЗИКИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

*В данной статье отмечена роль физики в развитии профессиональной подготовки будущих инженеров технических вузов.*

*В статье разработаны унифицированные подходы, позволяющие выбрать содержание курса физики, направленное на развитие методов профессиональной деятельности студентов определённого технического направления. Проанализирована профессиональная деятельность бакалавра в определённой области образования, обобщены указанные виды профессиональной деятельности по цели и конечному продукту, определён метод профессиональной деятельности, состоящий из последовательности взаимосвязанных действий.*

**Ключевые слова:** *техника, механика, магнетизм, анализ, оптика, дисперсия, дифракция, стандарт, квантовая.*

### THE ROLE OF PHYSICS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*In this article, the role of physics in the development of professional training of future engineers in technical higher education institutions is mentioned.*

*In the article, unified approaches have been developed that allow choosing the content of the physics course, aimed at developing methods of professional activity of students of a certain technical direction. The professional activity of a bachelor in a certain field of education was analyzed, the specified types of professional activity were summarized according to the goal and the final product, and the method of professional activity, consisting of a sequence of interrelated actions, was determined.*

**Keywords:** *technique, mechanics, magnetism, analysis, optics, dispersion, diffraction, standard, quantum.*

**Kirish.** Zamonaviy ishlab chiqarish uchun yuqori malakali va raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlash butun ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Bo'lajak mutaxassislarni samarali tayyorlash o'quv jarayonining kasbiy yo'nalishi bilan ta'minlanishi mumkin. Bo'lajak muhandisning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish talabalar o'quv rejasidagi tabiiy fanlarni o'rganishdan boshlanadi. Shubhasiz, bu fanlar orasida fizika yuqori ustunlikka ega. Fizikani o'rganishda texnik va muhandislik bilimlarining poydevori qo'yiladi va maxsus fanlar bilan mantiqiy aloqa ko'rinadi. Bo'lajak muhandisga fizik bilim kerak, chunki u barcha asbob-uskunalar va mashinalarning ishlashiga asoslanadi, ular yordamida obyektlarni ishlab chiqarish texnologiyalari ishlab chiqiladi, ular murakkab texnologik muammolarning yechimlarini topishga imkon beradi va texnik taraqqiyot uchun yangi yo'llarni ochadi.

Mashhur fizik, eng yirik fizika maktablaridan birini yaratuvchisi, akademik L.I.Mandeshtam mashhur fizika-matematika jurnalida chop etilgan "Kvant" fizika kursiga kirish ma'ruzasida bo'lajak muhandis uchun fizikaning ahamiyati haqida gapirdi: "Men muhandisga fizika kerak deganimda, men nafaqat fizikani nazarda

tutyapman, balki u o‘zining amaliy faoliyatida bevosita duch keladigan o‘sha individual hodisa va qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Bo‘ljak muhandis qattiq jism mustahkamligini hisoblashda egiluvchanlikning asosiy qonunlarini bilishi kerak, elektr muhandisi, yoritish tarmog‘ini loyihalashda, oqim kuchini, qarshiligini va elektr harakatlantiruvchi kuchini bog‘laydigan Om qonunini bilishi kerak. Men muhandisga fizika kerak deganimda, bu fan bo‘yicha to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi zarurligini nazarda tutyapman; muhandis uchun uning faqat eksperimental qismini bilishning o‘zi yetarli emas, balki u nazariyani yaxshi bilishi kerakligini ta‘kidlayman”.

Shu bilan birga, keyingi yillarda fizika kursini o‘rganishga ajratiladigan soatlar qisqartirilib, darsni dalil va xulosalarsiz ro‘yxatga olish qoidalari darajasiga qadar soddalashtirish xavfi mavjud. Vaqtning chegaralanganligi va undan unumli foydalanish zarurati fizikani o‘qitishning mavjud usullarini qayta ko‘rib chiqish va fizikaning fundamental mohiyatini buzmaganda holda yangilarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Kimyo texnologiyalari” yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar uchun fizika kursi mazmuni misolida zamonaviy fizika kursining mazmunini ko‘rib chiqamiz va uni o‘rganishga ajratilgan vaqtni tahlil qilamiz. Fizika "Kimyo texnologiya" yo‘nalishi bo‘yicha asosiy o‘quv dasturining matematik va tabiiy-ilmiy fanlari siklining asosiy qismidir. Uni o‘rganish uchun 2 semestr ajratiladi. "Kimyo texnologiyalari" yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash uchun oliy ta‘limning taxminiy asosiy ta‘lim dasturi 10 kredit birligini ajratishni tavsiya etadi. O‘quv yuklamasi bo‘yicha 1-semestrda 30 soat ma‘ruza, 24 soat amaliy, 12 soat laboratoriya mashg‘uloti, 2-semestrda 30 soat ma‘ruza, 16 soat amaliy, 8 soat laboratoriya bo‘lib, jami auditoriya soati 120 soat. Mustaqil ta‘lim – 180 soatni tashkil etadi. Mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarining “Kimyo texnologiyalari” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, oliy o‘quv yurtlari fizika fanini o‘rganishga ajratilishi tavsiya etilgan soatlar soniga qaramay, imkon qadar ko‘proq soat ajratishga intiladi.

«Kimyo texnologiyalari» yo‘nalishi bo‘yicha taxminiy bazaviy ta‘lim dasturida tavsiya etilgan fizika kursining mazmuni, «Kimyo texnologiyalari» yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tuzilgan ish dasturlari va fizika fanini o‘rganish uchun tavsiya etilgan darsliklar mazmuni tahlili shuni ko‘rsatdiki, fizika kursi quyidagi bo‘limlarda taqdim etilgan: mexanikaning fizik asoslari, molekulyar fizika va termodinamika, elektr va magnetizm, geometrik va to‘lqin optikasi, atom va yadro fizikasi. Har bir bo‘lim o‘rganilgan mavzularning aniq ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

**Asosiy qism.** Shunday qilib, "Mexanikaning fizik asoslari" bo‘limida moddiy nuqta va absolyut qattiq jismining kinematikasi, dinamika, mexanik ish va energiya, aylanma harakati dinamikasi, mexanik tebranishlar kabi tushunchalar o‘rganiladi. Molekulyar fizika va termodinamika ideal, real gazlar, bug‘lar, suyuqliklar, kristall qattiq jismlar kabi tushunchalarni hamda termodinamika qonunlarini ko‘rib chiqadi. "Elektr va magnetizm" bo‘limida elektrostatika qonuniyatlari va hodisalari, metallar, suyuqliklar, gazlar va yarim o‘tkazgichlardagi elektr toki, magnit maydoni, elektr va magnit maydonlarda zaryadlangan zarrachalarning harakati, elektromagnit induksiya, moddalarning magnit xossalari o‘rganiladi. "Optika" bo‘limi geometrik va to‘lqin optikasi qonunlari haqida tushuncha beradi, yorug‘likning interferensiyasi, diffraksiyasi, dispersiyasi va qutblanishi kabi hodisalarni o‘rganadi. Atom va yadro fizikasi kvant mexanikasi elementlari, atomlar, molekullar, elementar zarralar va yadro reaksiyalari haqida tushuncha beradi. Barcha bo‘limlar fizik laboratoriya amaliy ishlari bilan ta‘minlangan.

Turli xil o‘quv profillarini amalga oshirishda fizika kursining mazmuni bir xil bo‘lib qoladi, bu esa kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish maxsus fanlarga yo‘naltiriladi.

Texnik oliy ta‘lim muassasalari uchun fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tahlil qilish ularning kasbiy yo‘nalishini aniqlamadi. Fizika fanidan laboratoriya ishlarining ro‘yxatlari oliy ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning barcha yo‘nalishlari uchun xosdir. Fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari texnika oliy ta‘lim muassasalarida deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Savollar tug‘iladi: "Ta‘limning texnik yo‘nalishlari bakalavrlari qanday fizik qonunlar, tushunchalar va hodisalarni o‘rganishlari kerak va fizika kursi mazmunini qanday tanlash kerak?" Ushbu savollarga javob berish uchun biz bakalavrning ma‘lum bir ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy faoliyati turlarini ("Kimyo texnologiya" bakalavriat yo‘nalishi misolidan foydalanib), tegishli kasbiy standartni tahlil qildik.

Tahlil kimyo texnologiyalari sohasida ishlaydigan bo‘ljak muhandislarni yordamchi uskunalar va boshqa asosiy vositalarning to‘g‘ri ishlashini ta‘minlashi kerakligini aniqlashga imkon berdi; nuqsonlarning oldini olish va mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish rejimlarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishda ishtirok etish; materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish tartibiga qo‘yiladigan talablarni ta‘minlash; texnologik jarayonlarga rioya etilishini nazorat qilish; ilg‘or texnologik jarayonlarni ishlab chiqish; mavjud texnologik jarayonlarni takomillashtirish; maxsus jihozlar, asboblarni, moslamalarni loyihalash uchun texnik shartlarni ishlab chiqish; ishlab chiqarish sohasidagi ilg‘or tajribalar asosida yangi texnologik jarayonlarini joriy etish.

Davlat ta'lim standartlarida taqdim etilgan tanlangan bakalavrning kasbiy faoliyati turlari va uning kompetensiyalarining ro'yxati ishlab chiqarish sohasida bakalavr uchun zarur bo'lgan fizik bilimlarni ta'kidlash uchun yetarli emas. Ushbu bakalavrning kompetensiyalari va kasbiy vazifalarining formulalari noaniq va ko'rsatilmagan. Ulardan ba'zilar faoliyatning yakuniy mahsulotlarini o'z ichiga olmaydi. Ushbu shakldagi vazifalarga duch kelgan holda, ushbu yo'nalishda bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirgan bitiruvchi qanday kasbiy ko'nikma va qobiliyatlarni egallashi kerakligi noaniq bo'lib qolmoqda. Ularning asosidagi fizik bilimlarni aniqlash uchun barcha kimyoviy texnologik jarayonlarini tahlil qilish kerak.

**Kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan asosiy fizik bilimlar**

<b>Fizika bo'limlari</b>	<b>Fizik obyektlar</b>	<b>Fizik kattaliklar</b>	<b>Fizik hodisalar va jarayonlar</b>	<b>Fizik qonunlar</b>
Fizikaning mexanik asoslari	-Qattiq jismlar. -Ideal elastik jismlar.	- Kuch. - Normal va tangensial ezlanish. - Absolyut uzayish. - Nisbiy uzayish. - Yung moduli. - Puasson koeffisienti. - Elastik deformatsiya. - Hajmiy zichlik. - Siljish moduli. - Chiziqli kengayish koeffisienti. -Hajmiy kengayish koeffisienti.	- Qattiq jismning elastik deformatsiyasi. - Plastik deformatsiya. - Issiqlikdan kengayish. - Torayish.	Guk qonuni
Molekulyar fizika va termodinamika	-Ideal gaz. -Real gaz. -Bug'. -Qattiq jism. -Suyuqlik. -Monokristallar. -Polikristallar. -Amorf jismlar.	- Entalpiya. - Sirt energiyasi. - Sirt taranglik. - Qovushqoqlik koeffisienti. - Hidrostatik bosim. - Qattiq jismlarning issiqlik sig'imi. - Solishtirma bug'lanish issiqligi. - Solishtirma erish issiqligi.-- Solishtirma yonish issiqligi	- Gazning siqilishi. - Fazaviy o'tishlar. - Bug'lanish. - Erish. - Kondensasiya. - Yoni - Kristallanish..	Van-der Vaal's qonuni. Termodinamikaning birinchi qonuni. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Dyulong-Pti qonuni.
Elektrli magnetizm	O'tkazgichlar. Dia-, para- va ferromagnetiklar.	- Elektr maydon kuchlanganligi. - Zaryad. - Tok kuchi. - Kuchlanish. - Quvvat. - Lorens kuchi. - Magnit induksiyasi	-Elektr o'tkazuvchanlik. -Magnit maydoni. -Emissiya. -Elektromagnit induksiya	-Om qonuni -Joul'-Lens qonuni -Faradey qonun
Optika	-Yorug'lik	-Yorug'likning tushishi, qaytishi, sinishi, to'la ichki qaytish. -Yutilish koeffisienti. -Qaytish koeffisienti. -Intensivlik.	-qaytish. -sinish. -qutblanish. -yutilish.	-Sinish qonuni. -Qaytish qonuni. -Buger qonuni. -Malyus qonuni.

Kimyo texnologiyalari soha mutaxassislari metallarning fizik-kimyoviy xossalarini, ularni qayta ishlash va sinash usullarini bilishi kerak; kimyoviy mahsulotlarda ichki kuchlanish va deformatsiyalarning paydo bo'lish sabablari va ularni oldini olish choralari, nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari, va ularni oldini olish va bartaraf etish usullari, fizik, termokimyoviy va mexanik xususiyatlarini, kimyoviy

mahsulotlarining detallari va agregatlarini loyihalashda namunaviy hisoblash usullarini egallash; foydalaniladigan materiallar va tayyor mahsulotlarning fizik-mexanik xossalari va texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun standart sinov usullarini qo‘llay olish; mahsulot va obyektlar sifatini nazorat qilishning o‘z usullari, kimyo texnologiyasida texnologik jarayonlarning buzilishi sabablarini tahlil qilish va ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish lozim.

Fizik hodisalarni va ular bilan birga keladigan jarayonlarni ajratib ko‘rsatish uchun biz texnologik ishlarning turlari va jarayonlarini tahlil qildik. S.V.Anofrikova barcha fizik bilimlarni fizik obyekt, fizik hodisa, fizik miqdor, fizik qonun tushunchalariga tasnifladi.

Turli texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha fizika fanidan ishchi dasturlari va baholash vositalarining fondlari mazmunini tahlil qilish va ishlab chiqarish sohasida ishlaydigan bakalavr uchun ahamiyatli bo‘lgan fizik bilimlar bilan taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, bunday muhim mavzu fizika "qattiq jismning elastik deformatsiyalari" sifatida to‘liq taqdim etilmagan yoki to‘liq o‘rganilmagan. Bizning fikrimizcha, ushbu mavzu bo‘yicha o‘rganilgan bilimlar bakalavrlar uchun zarur, shuning uchun uni “Kimyo texnologiya” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Akademik va amaliy bakalavriat yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-boshqaruv malakalari turli darajada shakllantirilishi belgilandi. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartida taqdim etilgan shakldagi ushbu faoliyat turlarini "Fizika" o‘quv fani, "akademik" va "amaliy" uchun fizika ta'limi mazmuni orqali shakllantirish mumkin emas. Muhandislik ta'limi mazmunidagi farqlar yuqori kurslarda maxsus fanlarni o‘rganishda, loyihalar ustida ishlashda va amaliyotni tashkil etishda kuzatiladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, tahlil ma'lum bir texnik yo‘nalish talabalarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan fizika kursining mazmunini tanlashga imkon beradigan yagona yondashuvni ishlab chiqishga imkon berdi, shu jumladan:

- ma'lum bir ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrning kasbiy faoliyatini tahlil qilish;
- belgilangan kasbiy faoliyat turlarini maqsad va yakuniy mahsulot bo‘yicha umumlashtirish;
- o‘zaro bog‘liq harakatlar ketma-ketligidan iborat kasbiy faoliyatni amalga oshirish usulini aniqlash;
- harakatlar tarkibiga kiruvchi, ketma-ket amalga oshirilishi maqsadga erishishga olib keladigan operatsiyalarni aniqlash;
- kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan va fizikani o‘qitish maqsadlariga mos keladigan fizik bilimlarni ajratib ko‘rsatish;
- kasbiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan didaktik vositalarni ishlab chiqish.

Fizika kursi texnika oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning kasbiy rivojlanishida asos bo‘lib, texnologik jarayonlarni tushunishga imkon beradigan fizik bilimdir. An'anaga ko‘ra, texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika katta rol o‘ynaydi, bu uni o‘rganishga sarflangan soatlar sonining ko‘payishida namoyon bo‘ladi. Fizika kursi mazmunida ma'lum bir texnik ta'lim yo‘nalishi bakalavri uchun zarur bo‘lgan fizik bilimlarga e'tibor qaratish lozim. Fizika bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash vositasiga aylanishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
  2. Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Farmonov Sh.Q., Turgunbayev R.M., Sharipova L.D., Parpiyeva N.T., Toshkent, 2007
  3. Abduqodirov A.A. Mamatov N.D. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 133 b.
  4. Yuldashev U., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. “INFORMATIKA” Toshkent. 2002 yil.
  5. Современные языки программирования: учебное пособие / Ф. М. Закирова. Л. М. Набиулина: Мин-во высшего и среднего спец. образования РУз, Национальное общество философов Узбекистана. 2012. -192 с
  6. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент. 2016.
  7. Усаров Ж.Э. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этиш: муаммо ва ечимлар // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2016. - № 6. – Б. 40-48.
  8. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. Noshir. 2009, 368 b.
  9. Смирнов Е.Н. О воспитании информационной культуры студентов вуза.-Л.: ЛГПИ,1990-54с.
  10. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O‘quv qo‘llanma. T.: “Voriz”, 2013 y.
- Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. ... дисс. - Т.: 2007. - 45 б.



### TIBBIYOT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA BIOLOGIK KIMYO FANINI O’QITISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Maxammadjonov Tursunboy A’zamjon o’g’li,  
Andijon davlat tibbiyot instituti Biologik kimyo kafedrasasi assistenti  
Andijon, O’zbekiston  
mahammadjonovt@gmail.com*

*Ushbu maqolada Tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni, talabalarning bilim olish, ko’nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo’g’rilgan talaba va pedagoglarning o’zaro hamkorligi, boshqacha aytganda, ta’lim mazmunining o’qitish metodlari yordamida o’zlashtirilishi yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** tibbiyot, biologik kimyo, o’qitish metodlari, tibbiy ta’lim, pedagog, shifokor.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

*В данной статье рассматриваются учебный процесс в медицинских вузах, взаимное сотрудничество студентов и педагогов, направленное на развитие знаний студентов, приобретение навыков и квалификации, их научного мировоззрения, творческих исследований, иными словами, овладения учебными содержанием с использованием методов обучения.*

**Ключевые слова:** медицина, биологическая химия, методика обучения, медицинское образование, педагог, врач.

### IMPROVEMENT OF TEACHING METHODS OF BIOLOGICAL CHEMISTRY IN HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS

*In this article, the educational process in medical higher education organizations, the mutual cooperation of students and pedagogues aimed at the development of students' knowledge, acquisition of skills and qualifications, their scientific outlook, creative research, in other words, the mastering of educational content using teaching methods, are highlighted.*

**Keywords:** medicine, biological chemistry, teaching methods, medical education, pedagogue, doctor.

**Kirish.** Metod so’zi umumiy ma’noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O’qitish metodlari tom ma’noda o’qituvchining bilimlarni talabalar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni talabalar tomonidan o’zlashtirib olish usulidir. O’qitish metodlari talabalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo’llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag’batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. O’qitish metodlari yagona ta’lim jarayonining ikkita subyekti bo’lgan o’qituvchining pedagogik va o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyatini uyg’unlashtiruvchi, hamkorligini ta’minlovchi faoliyat usulidir.

**Tadqiqotning metodologiyasi va obyekti.** Biologik kimyo o’qitish metodikasi - pedagogikaning tarkibiy qismi bo’lib, u didaktika bilan chambarchas bog’langan. O’qituvchining ishi o’quvchini o’qitish va tarbiyalash metodikasi bo’lsa, biologik kimyo o’qituvchisi ishini asosi – biologik kimyo o’qitish metodikasidir. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoni uchta asosiy funksiyalarni bajarishi kerak: talabalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdir. O’qitish funksiyasi didaktika, tarbiyalash-tarbiya nazariyasi, rivojlantirish esa psixologiya fanlari yordamida o’rganiladi. Biologik kimyo fani ham tushunchalarning murakkab sistemasi bo’lib yuqorida qayd qilingan fanlar bilan o’zaro ta’sirlashadi. Bu o’zaro ta’sirlashuv yangi bilimlar sistemasi – biologik kimyo o’qitish metodikasini takomillashtirishga asos soladi.

Biologik kimyo fanini o’qitishda **dogmatic** (og’zaki bayon qilish, leksiya, ekskursiya), **illyustrativ** (ko’rsatmali, illyustratsiya, demonstratsiya), **evristik** (mustaqil fikrlash, reproduktiv, muammoli-izlanish) **o’qitish metodlari** qo’llash ko’zlangan samarani berdi. Biz bu metodlarni maqsad va vazifasiga ko’ra turkumlab oldik.

1. Talabalarni Biologik kimyo fanidan o’quv axborotini berish va qabul qilish bo’yicha:

a) og’zaki bayon qilish (hikoya, suhbat, leksiya, ekskursiya)



b) ko'rsatmali (illyustratsiya, demonstratsiyalar)

v) amaliy tajribalar (mashqlar, unumli o'quv mehnati).

2. Talabalar tafakkurining bilimlarini egallashdagi mustaqil fikrlar darajasiga ko'ra:

a) reproduktiv (o'zlashtirishi past bo'lgan talabalar bilan guruhiy ishlashda qo'llanadigan metod)

b) muammoli-izlanish (talabalarni mustaqil fikrlashga, izlanishga o'rgatuvchi metod)

**Qo'llanilgan metodlar.** Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida biologik kimyo darslari asosan 1-2 bosqichda o'tilishini hisobga olib, ularning oliy ta'lim muhitiga moslashuvchanlik jarayoni bilan birgalikda ko'proq darslarida bayon etish metodlaridan foydalanamiz, chunki murakkab metodlarni birdaniga qo'llash talabada ko'nikma va malaka yetishmasligi tufayli ularni darsga qiziqishi pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

1. Og'zaki bayon qilish (so'zlab berish, hikoya) metodi. Talabalar biologik kimyo fani bo'yicha o'tilayotgan mavzu bo'yicha ayni material to'g'risida hech narsa bilmasalar, yoki juda oz bilsalar o'qituvchi so'zlab berish yoki leksiya usulidan foydalaniladi. Ularga umumiy o'rta maktabda o'rgangan biologiya va kimyo fanlarining maqsadi, vazifasi va nimalarni o'rgatishi bo'yicha so'zlab beradi. Bu metodni qo'llash talabalar fanga moslashgunga qadar qo'llanilgani maqsadga muvofiqdir. Agar talabaga bu metod barcha mavzular bo'yicha har darsda qo'llanilsa, talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini bayon qilish, kreativlik ko'nikmalari shakllanmay qolishiga olib kelishi mumkin. Talabalarining biologik kimyoni tushuna boshlashgandan, ya'ni adaptatsiya jarayonidan keyin esa so'zlab berish usuli bilan birgalikda leksiya usuli qo'llaniladi. Ikkala usul ham, asosan, talabalarga ular uchun ham noma'lum narsa berish kerak bo'lganda ishlatiladi. So'zlab berish va leksiya metodida juda ko'p umumiylik bor. Bu ikkala usulda ham bilim beradigan asosiy manba talabadir. O'qituvchi darsda talabalarga fan asoslarini ochib beradi, talabalar ega o'qituvchi so'zini tinglaydi xolos. So'zlab berish va leksiya jarayonida o'qituvchining vazifasi-talabalarining fikrini imkoni boricha kuzatishdan iborat bo'ladi. Bu metodlarning hamma "siri" talabalarni fanga qanday qilib qiziqtirish, bu qiziqishni qanday qilib oshirish, bayon etiladigan materialini butun o'qitish va tushuntirishdan iborat bo'ladi. Sababi Biologik kimyo fani murakkab fanlardan bo'lib, maktabda o'rganilgan kimyo, biologiya, fizika, matematika fanlarining xosilasidan iboratdir. Qaysi birini qo'llay bilishi o'quv materialining mazmuniga va talabalarining tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Agar talabalar ayni material to'g'risida ancha ma'lumotga ega bo'lsalar, unda so'zlab berish hamda leksiya metodlaridan foydalanishi talabalarining qiziqishini, maqsadga intiluvchanligini, faolligini, demak, bilimlarining sifatini pasaytiradi. Bunday hollarda o'qituvchi suhbat usulidan foydalaniladi. Nihoyat, o'qituvchining vazifasining obyektlari bilan tanishtirish bo'lsa, u holda eng yaxshi o'quv vositasi ekskursiyadan (qishloq oilaviy vrachlik punktlariga, klinikalarga, farmzonalarga) foydalaniladi. Shunday qilib, o'quv materialini tushuntirishning og'zaki bayon etish metodlarini bir - biridan ajratib bo'lmaydi, ular uchun umumiy bo'lgan ko'p narsa bor. Ammo bu metodlarning har biri o'ziga ma'lum darajada xos xususiyatiga ega. O'quv materialini darsda bayon etishda usullarning hammasidan foydalanishga imkon beradi. Bu narsa nihoyatda muhimdir. Og'zaki bayon qilish metodiga o'qituvchi yaxshilab tayyorgarlik ko'radi, eng qiziqarli material tanlab olinadi, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, sxema, adabiyot, kinofilm konkret faktlarga asoslangan holda so'zlashga tushadi. Bayon etishga qo'yilgan talabalar:

a) Aniqlik - bayon etish muammosining talabalar oldiga aniq qilib qo'yish;

b) Ochiq - oydin, jonli so'zlab berish;

c) Xilma-xil usullardan foydalanish, tajriba ko'rsatish, rasm, sxemani tushuntirib berish;

d) Doskaga reaksiya tenglamalarini yozish va hokazo.

Uzoq vaqt davomida so'zlab berish talabalarni charchatib qo'yadi, u yangi materialni idrok etishi juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun uzoq vaqt davomida talabalarining idrok etish qobiliyatini sekin - asta o'stiriladi. Biologik kimyo kursining boshida o'qituvchi materialni qisqacha so'zlab berish bilan kifoyalanadi. Keyin esa so'zlab berishini ancha murakkablashtiradi. Talabalarining fanni o'zlashtirish darajasiga qarab, leksiyaga tayyorgarlik ko'rib, o'quv materialini darsning ancha ko'p qismi leksiya usuliga olib boriladi. So'zlab berish dars davomida to'xtalib, boshqa usuldan foydalanishga imkon beradi: mustaqil ishlash, laboratoriya ishlari va hokazo.

Suhbat metodining xususiyati shuki, yangi bilimlar olish jarayonida talabalarni ham ma'lum darajada jalb qiladi. Talabalarda tasavvurlar zaxirasi qancha ko'p bo'lsa, suhbat shuncha mazmunli, qiziq o'tadi. Suhbat o'tkazish so'zlab berish va leksiyaga qaraganda qiyinroq o'tadi, chunki suhbatda butun auditoriya faol ishtirok etadi. Suhbat vaqtida auditoriyani boshqarib borish-suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi garovidir.

2. Ko'rsatmali (illyustratsiya, demonstratsiyalar)metodi. Ilyustrativ o'qitish metodi turkumiga kiruvchi bu metod ham tayyor bilimlar usuli hisoblanadi. Uning dogmatik usulidan farqi shundaki o'qituvchi berish kerak bo'lgan o'quv materialini dalil isbot, ko'rgazmali qurol bilan bayon etadi.

Ilyustratsion metod odatda plakatlar, jadvallar, sxemalar, rasmlar, doskadagi yozuvlar yoki ko'rgazmali materialni yordamchi vositalar (kodoskop, o'quv kinosi, videomagnitafon, televidenie va h.k.) dan ko'rsatish bilan bog'liq. Ular har doim boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi. Namoyish va ko'rgazmali metodlarning uslublari quyidagilardan iborat: ularni verbal metodlar bilan birga qo'shib olib borish, sharhlay olish, kuzatish mantig'i, eng muhimini ajratish, tushuntirishning aniqligi. Foydalanish metodikasi 3 bosqichdan iborat: 1) kuzatishga tayyorgarlik, 2) bevosita kuzatish, 3) kuzatish natijalarini tahlil qilish. Biologik kimyo fani doimo nazariyadan amaliyotga yo'naltiriladi. Shu sababli darsda mavzuni to'g'ridan-to'g'ri tushuntirmasdan demonstratsiya ko'rinishida namoyon etib, so'ng mazmuni va qaysi qonuniyatga asoslanganligi to'g'risidagi savolni talabalar e'tiboriga havola etish mumkin. Yoki laboratoriya stoli ustiga asboblarni tartibsiz qo'yib, talabalarga ish uchun kerakli asboblarni o'zlari tanlashlari topshiriladi. Bu usulni kichik guruhlarda interfaol metodlardan foydalanib qo'llash mumkin. Masalan, «Sherigini top» metodi orqali «Oqsillarning bo'linish shartlari» mavzusini o'tganda (bu tajribani bir necha usulda bajarish mumkin) ish uchun kerakli asboblarni stol ustiga aralash holda qo'yib, guruhlarga har bir usulni alohida topshiriq qilib berilsa, har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq uchun kerakli asbobni tanlab oladi va ishni mustaqil bajaradi.

Ba'zi ko'rgazmali tajribalarni o'qituvchi ko'rsatib berishi shart emas. Uni talabalarga uyga vazifa qilib berishi mumkin. Masalan, «Moddalar massasining saqlanish qonuni», «Oqsillarning biologik funksiyalari (insulin, oksitotsin, pepsin, gemoglobin)», «Tarkibning doimiylik qonuni» kabi mavzularni ana shu tarzda vazifa qilib bersa bo'ladi.

Talabalarga shunday topshiriq beriladi:

1. Uyga borib stakanga suv solasiz va unga biror qalam yoki barmog'ingizni solib kuzatasiz. Tajribani 3 marta takrorlaysiz. Nimani ko'rdingiz? Daftaringizga yozing.

2. Suv solingan idishga rang soling va nimani ko'rsangiz, daftaringizga yozing. Yoki xonaga biror o'tkir hidli suyuqlik sochib, nimani his qilganingizni daftaringizga yozing.

3. Uyga borib tovuq patini olib, uni ko'zingizga tutib quyoshga qarang. Nimani ko'rdingiz? Daftaringizga yozing.

Yana bir usul. Bir kun oldin o'qib kelishga berib yuborilgan yoki o'tilgan mavzuga doir biror tovushsiz tajribani o'tkazib, «Bu nima edi? Buni tushuntirib bering. Bu kashfiyotni birinchi bo'lib kim kashf etgan?» degan savollar bilan murojaat etish va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, «Tovush manbalari va uni qabul qilgichlar» mavzusini o'qitishda, asosan, quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- tovush, ultratovush, infratovush, Tebranma harakat, kamerton haqida ma'lumotlar berish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;

- talabalarning mustaqil bilim egallash va ko'nikmalarini rivojlantirish, nutq va muloqot madaniyatini oshirish;

- talabalarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.)

3. Amaliy tajribalar (mashqlar, laboratoriyalar). Amaliyot o'qituvchining dars jarayonida talabalarga bergan bilimlari yig'indisining amaldagi tadbig'idir. Biologik kimyo fanidan barcha nazariy bilimlar amaliyotda qo'llanilmasa, o'z samarasini bermaydi. Shunday ekan, R.Boyl aytganidek, biologik kimyo qonuniyatlari, tushunchalar, moddalarning xossalari, ularni hosil qilishni tajribalarga asoslangan holda o'rganish fanni yanada mukammal tadqiq qilishga imkon beradigan omil ekanligini anglash qiyin emas. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda, laboratoriya mashg'ulotlarining talabalarning aqliy qobiliyati, so'zlash madaniyati, bir-biriga do'stlik, inoqlik munosabatlarini hisobga olingan holda tashkil qilinishi talabalarda bir-biriga yordam, do'stlik, inoqlik hissi uyg'onishiga va bu orqali ularning malaka va ko'nikmalarini egallashlari osonlashishiga olib keladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, avvalo, talabalarning shu fandan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, turli sifat va miqdoriy reaksiyalarning rang va miqdor o'zgarishi bilan borishi, cho'kma tushishi va gaz ajralishi bilan boradigan tajribalar ularda fanga katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlarini o'tkazishda turli xil kimyoviy idishlar, kimyoviy moddalar mavjudligi va o'qituvchining ulardan oqilona foydalana olishi zaruriy shartlardandir. Laboratoriya mashg'ulotlarida kimyoviy tajribalarni bajarish, biologik kimyo fanini muvaffaqiyatli o'rganishning eng zaruriy shartlaridan biri bo'lib, o'quvchilar ongida nazariy o'quv materialini mustahkamlash vazifasini qo'yadi. Eksperimentni kibernetik nuqtayi nazardan tushunish birinchi marta V.M.Glushkovning tadqiqot ishlarida berilgan. O.K.Tixomirovning aytishicha „eksperiment“ – bu ma'lum sharoitda ko'rsatilgan maqsad. L.L.Gurova eksperiment tushunchasini quyidagicha izohlaydi: „Eksperiment- bu uning ma'lum va noma'lum elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beruvchi shartlarni izlash yo'li bilan nazariy savol-javob yoki amaliy o'zgarishlarni talab etishdan iborat fikrlash faoliyati obyektidir.“ S.L.Rubinshteyn eksperimentga maqsad va sharoitlarning isboti sifatida qaraydi. D.I.Mendeleyev: „Eksperiment“ tabiatni so'roq qilish san'atidir

degan. Talaba eksperimenti talabalarning mustaqil holda biokimyoviy tajribalarni bajarishidir. Biokimyoviy eksperiment nafaqat talabalarda uni o‘tkazishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, balki talabalar tomonidan egallangan bilimlarning haqqoniyligini asoslab beradi. Bilimlarning egallanishi o‘quv materialini chuqur, to‘laqonli o‘zlashtirishga olib keladi. U biologik kimyoni tibbiyotdagi ahamiyatini idrok qilishda, fanning turmush bilan bog‘liqligini anglagan holda o‘ziga xos turtki bo‘lib hisoblanadi. Har doim ham o‘qituvchi o‘zi xohlagan tajribani bajara olmasligi mumkin, chunki kabinetning moddiy bazasi har doim ham zamonaviy biologik kimyo kabinetining talablariga javob bermaydi. Shuning uchun bu yerda kompyuter vositalaridan foydalanish ushbu muammoni samarali hal qilishga yordam bera oladi. Talabalarning dasturiy ta‘minot bilan ishlash afzalligi shundaki, bunday faoliyat tadqiqot va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun xizmat qiladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Pedagogik tajriba-sinov ishlarida kuzatuv, anketa so‘rov, test, interfaol metodlar, matematik-statistik, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.

Pedagogik kuzatuv usulidan tibbiyot institutlarida tashkil etiladigan dars jarayoni kuzatib tajriba sinov ishlarini boshidagi va yakunidagi ko‘rsatgichlar orasidagi farqlarni solishtirishda foydalanildi.

Anketa va so‘rovlar, suhbatlar o‘tkazish metodidan esa talabalarni dars mashg‘ulotlari jarayonida biologik kimyo fanidan nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalari darajasini aniqlab olish uchun foydalaniladi. Nazorat (test) usulidan talabalarning bilim saviyasini aniqlab olish maqsadida foydalaniladi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayoni tibbiyot instituti talabarlari uchun quyidagilar hisobga olindi:

- Tibbiyot instituti talabalariga biologik kimyo fanini o‘qitishda foydalanilgan har bir metod ularning fikrlashini va kasallikka tashxis qo‘ya olish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati;
- Tajriba sinov uchun tanlab olingan tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarida biologik kimyo faniga bo‘lgan qiziqishni orttirish ilmiy-metodik jihatdan o‘rinlilik;
- Tajriba sinov uchun tanlab olingan tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarida biologik kimyo fani mavzularini o‘rgatishga yordam beradigan didaktik materiallar, talabalar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilishi;
- An‘anaviy ta‘limdan ko‘ra zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik metodlar yordamida dars o‘tilganida talabalarning darsga nisabatan qiziqishi ortganligi;
- Tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarida biologik kimyo fanidan mustaqil ish va mustaqil ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirganligi;
- Masofaviy ta‘lim moodle tizimida biologik kimyo fanidan ma‘lumotlarni mustaqil o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni ortganligi.

Pedagogik tajriba-sinov davrida tibbiyot instituti talabarlari uchun biologik kimyo fanidan o‘quv-metodik ishlanmalar ishlab chiqildi. Ular biologik kimyo fanining “Qon tarkibi, plazma oqsillari, limfaretikulyar tizimi biokimyosi”, “Jigar biokimyosi”, “Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi” va “Buyrak biokimyosi” mavzulariga oid innovatsion pedagogik texnologiyalar tasnifi hamda ulardan foydalanish darajasi, laboratoriya mashg‘ulotlari, mavzular bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar, vaziyatli masalalar, mavzuga oid kasalliklar hamda ularga tashxis qo‘yish ko‘nikmalari didaktik materiallar mazmunida o‘z aksini topdi.

Tajriba sinov ishlarining o‘zlashtirish darajalari hisobi va statistik hisob jadvalining qiymatlariga ko‘ra, umumiy natijalar asosida olingan  $\chi^2_{kuz} > \chi^2_{kr} = 7,81$  bo‘lganligi uchun nolinch gipoteza rad etiladi, birinchi gipoteza qabul qilinadi. Tajribaning 2021-2022- o‘quv yilida tajriba va nazorat guruhlarining natijalari bir biri bilan taqqoslanganda samaradorlik 1.15 barobar (o‘rtacha 15%)ga oshganligini, ishonch intervalining bir-biri bilan ustma-ust(kesishi) tushmasligi, olib borilgan tadqiqot ishlarining olingan natijalarda farq mavjudligi haqidagi  $N_1$  gipotezaning qabul qilinishiga olib keladi.

Mavzular bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi


T\y	Ta'lim muassasalari	Mavzular	Guruhlar	Talabalar soni	"a'lo" – a'lo natija, minimal xatoliklar bilan	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim xatoliklar bilan va "yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli xatoliklar bilan	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan, "o'rtacha" – minimal natijaga teng	"qoniqsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi kerak va "mutloq qoniqsiz" –
					5	4	3	2
					A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqsiz
1	Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	61	15	31	15	0
			N.G	63	8	20	32	3
		“Jigar biokimyosi”	T.G	61	13	33	14	1
			N.G	63	7	19	33	4
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	61	14	32	15	0
			N.G	63	7	22	32	3
“Buyrak biokimyosi”	T.G	61	13	31	17	0		
	N.G	63	6	20	32	5		
2	Samarqand davlat tibbiyot instituti (SamDTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	62	12	37	13	0
			N.G	59	6	21	30	2
		“Jigar biokimyosi”	T.G	62	14	36	12	0
			N.G	59	7	19	30	3
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	62	13	35	13	1
			N.G	59	5	19	30	5
“Buyrak biokimyosi”	T.G	62	14	34	14	0		
	N.G	59	7	19	30	3		
3	Farg'ona jamoat solomatligi tibbiyot instituti (FJSTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	64	14	35	15	0
			N.G	60	7	20	28	5
		“Jigar biokimyosi”	T.G	64	15	34	15	0
			N.G	60	7	20	29	4
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	64	14	35	15	0
			N.G	60	7	20	28	5
“Buyrak biokimyosi”	T.G	64	13	36	15	0		
	N.G	60	6	21	28	5		
4	Jami	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	187	41	103	43	0
			N.G	182	21	61	90	10
		“Jigar biokimyosi”	T.G	187	42	103	41	1
			N.G	182	21	58	92	11
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	187	41	102	43	1
			N.G	182	19	61	90	13

	“Buyrak biokimyosi”	T.G	187	40	101	46	0
		N.G	182	19	60	90	13

2-jadval.


Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida olingan natijalarning statistik tahlili

T/r	Ta'lim muassasalari	Guruhlar	O'rtacha baho	Samaradorlik	Xi kvadrat	kritik qiymat	tanlanma dispersiya	standart xatolik	Ishonch intervali		Xulosa
1	Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)	T.G	3,98	1,15	15,22	7,81	0,48	0,69	3,81	4,16	N <sub>1</sub>
		N.G	3,48						3,31	3,65	
2	Samarqand davlat tibbiyot instituti (SamDTI)	T.G	4,00	1,15	16,81	7,81	0,42	0,65	3,84	4,16	N <sub>1</sub>
		N.G	3,49						3,33	3,66	
3	Farg'ona jamoat solomatligi tibbiyot instituti (FJSTI)	T.G	3,98	1,14	15,24	7,81	0,45	0,67	3,82	4,15	N <sub>1</sub>
		N.G	3,48						3,31	3,65	
4	Jami	T.G	3,99	1,15	47,12	7,81	0,45	0,67	3,89	4,09	N <sub>1</sub>
		N.G	3,48						3,39	3,58	



1-rasm. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari





2-rasm. 2021 – 2022- o'quv yilida samaradorlik ko'rsatkichlari

Tajriba - sinov o'tkazilgandan keyin guruhlarining natijalari o'zaro solishtirildi. Ko'rinib turibdiki, nazorat va tajriba guruhlarida orasidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rtaacha 15% ga farq qilyapti.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda kompyuter texnologiyalardan foydalanish orqali tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabalari biologik kimyo mavzularini o'zlashtirishni osonlashtiradi, professor-o'qituvchilarning ishini esa osonlashtiradi. Tadqiqot ishida tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tegishli izlanishlar olib borildi va ularning natijalari bevosita amaliyotga bog'langan.

#### Adabiyotlar:

1. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va b. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013.
2. Дўмонов Б.М. Кимё ва биология фанини ўқитиш методикаси. Услубий қўлланма. Андижон. 2014 йил
3. Соловьев Ю. И. Эволюция основных теоретических проблем химии.— М.: Наука, 1971, 380 с..
4. Eila Jeronen , Irmeli Palmberg and Eija Yli-Panula. Teaching Methods in Biology Education and Sustainability Education Including Outdoor Education for Promoting Sustainability-A Literature Review. Basel, Switzerland, 2016. [www.mdpi.com/journal/education](http://www.mdpi.com/journal/education).
5. Толипова Ж.О., Гофуров А.Т. Биология ўқитиш методикаси. Ўқув методик қўлланма. Т . “Билим”, 2004.

## ANORGANIK KIMYO DARSLARIDA “4K” MODELINING KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASIDAN FOYDALANISH

*Nurmurodova Munisa Azamat qizi,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi  
munisa.nurmurodovaa@gmail.com*

*Ushbu maqolada kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, tafakkurning egiluvchanligi, kreativlikning mezonlari bayon etilgan. Kimyo darslarida tabiiy-ilmiy savodxonlikning ahamiyati yoritilgan. Talabalarda kimyoga oid bilimlarni yangicha g‘oya va fikrlar bilan birgalikda tushunish imkoniyati xususida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, ozonning kreativ fikrlash asosidagi savol va topshiriqlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tabiiy-ilmiy savodxonlik, kreativ fikrlash, ziddiyatli vaziyat, tafovutli fikrlash, intellekt, aqliy salohiyat, individual qobiliyat.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОДЕЛИ «4К» НА УРОКАХ НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

*В данной статье раскрыты сущность креативности, термин креативности, социальные факторы, влияющие на развитие творческих качеств, индивидуальная активность, пути и формы формирования критического и творческого мышления у студентов, гибкость мышления, критерии креативности. На уроках химии подчёркивается значение естественнонаучной грамотности. Дана информация о возможности учащихся усвоить знания по химии вместе с новыми идеями и мыслями. В частности, даются вопросы и задания, основанные на творческом мышлении озона.*

**Ключевые слова:** *естественнонаучная грамотность, творческое мышление, конфликтная ситуация, дивергентное мышление, интеллект, умственный потенциал, индивидуальные способности.*

## USING CREATIVE THINKING COMPETENCE OF «4K» MODEL IN INORGANIC CHEMISTRY LESSONS

*This article describes the essence of creativity, the term creativity, social factors affecting the development of creative qualities, individual activity, ways and forms of forming critical and creative thinking in students, flexibility of thinking, criteria of creativity. The importance of natural-scientific literacy is highlighted in chemistry lessons. Information is given on the possibility of students to understand the knowledge of chemistry together with new ideas and thoughts. In particular, questions and tasks based on ozone's creative thinking are given.*

**Keywords:** *Natural-scientific literacy, creative thinking, conflict situation, divergent thinking, intellect, mental potential, individual ability.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim iqtisodiy, rivojlanish, ijtimoiy, madaniy barqarorlik, ma’naviy intellektual yuksalish, fuqarolik jamiyati hamda yoshlarda pozitiv dunyoqarashning rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy pedagogik ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadlar belgilab qo‘yildi. Chunonchi, “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash” nazarda tutilgan.

Bu, o‘z navbatida, bo‘ljak o‘qituvchilarni bilimga asoslagan mikrosotsiumda munosib faoliyat ko‘rstishga tayyorlash imkonini beradi. Yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlashda oliy pedagogik ta’lim muassasalari muhim o‘rin egallaydi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalari va professoro‘qituvchilari turli ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilib pedagogik amaliyot orqali o‘zlashtirgan kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini sinovdan o‘tkazadilar. Professor-o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalovchi asosiy subyekt sifatida o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsion mexanizmlar va modellarni tatbiq etadilar, aksariyat, hollarda esa ularni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ladilar. Professor-o‘qituvchilar va talabalar birgalikda oliy pedagogik ta’lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladigan innovatsiyalar ustida izlanishlarni amalga oshirishlari taqozo etilmoqda. Ular ta’lim-tarbiyaga oid yangi

bilimlarni izlab topadilar, boyitadilar, shu asosda innovatsion xarakterdagi ta’lim amaliyotini vujudga keltiradilar. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni uchun innovatsion pedagogik amaliyotga ega bo’lgan mutaxassislarini tayyorlash vazifasi yanada dolzarblashmoqda. Oliy pedagogik ta’lim taraqqiyotiga bir qator omillar sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Bunday omillar sirasiga birinchi navbatda madaniy hamda iqtisodiy omillarni ko’rsatish mumkin. Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda jamiyat ehtiyojlarga asoslangan ijtimoiy buyurtmani hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda pedagogik ta’lim jarayonida har bir shaxsning betakrorligi, o’ziga xos iqtidorga egaligini talab etilmoqda. Bunday sifatga ega yuo’lgan bo’lajak o’qituvchilar jamiyat va uning a’zolari taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o’z zimmlariga olishga tayyor bo’ladilar. Bu shuni anglatadiki, pedagogik ta’limni yaxlit tarzda qadriyatli yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi shunday sifatlarga ega bo’lgan pedagoglarni tayyorlash imkonini beradi. Bu esa, o’z navbatida, kasbiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Tabiiy-ilmiy savodxonlik deganda o’quvchining tabiiy fanlarga oid terminlarni bilishi, idrok qila olishi, mustaqil fuqaro sifatida esa shu fanlarga oid bo’lgan barcha muammolarga fikr bildira olishi, hamda bu muammolarni bartaraf qila olishlari tushuniladi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikka ega bo’lgan shaxs esa tabiiy fanga oid ziddiyatli vaziyatlarni, texnologiyaga oid muammolarni o’zlarida bor bilimlariga asoslangan holatda muhokamalarda qatnasha oladi va bunday vaziyatlarda qanday ish ko’rish zarurligini biladilar. Tabiiy- ilmiy savodxonlik jamoat miqyosidagi ta’sir doirasiga ega bo’lgan o’ziga xos soha hisoblanishi bilan birgalikda, biror kim ishonishi mumkin bo’lganidan-da universal va umumlashgan hodisadir. Ya’ni, keng yoki nisbatan tor ma’noda olib qaralganda, har bir inson tabiiy- ilmiy savodxonlik imkoniyatiga egadir. Bundan tashqari psixologlar va o’qituvchilar orasida keng tarqalgan umumiy tushunchaga ko’ra, ijodkorlik bilan chambarchas bog’langan va fikrlash jarayonlarida ishtirok etish deb tushuniladigan fikrlash boshqa alohida bir qator fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi. Jumladan, metakognitiv qobiliyatlarni o’zaro va shaxsiy muammoni yechish ko’nikmalarini, tenglik tushunchasini rivojlantirilishini, fanlarning o’zlashtirilishini, kelajakda kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishni va jamiyat bilan uyg’unlashuvini yaxshilaydi. [1]

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o’zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko’nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o’z ichiga oladi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo’lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo’naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo’ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko’nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko’rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo’l olish;
- o’ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya). [2. 230].

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro’yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o’qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to’laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo’ladi: iste’dodning kreativligi va shaxsning o’z-o’zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o’z-o’zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog’langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko’p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X. Maslou kreativlikda o’z-o’zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o’tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlaniq, qiyin kechinmalarga ega bo’ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og’ir mehnat bilan bog’liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik”.

A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya‘ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma‘lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi, deb hisoblaydi. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovalar Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2021) / ISSN 2181-1415 355 pedagogikada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta‘lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi [3. 129].

Ta‘lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishda ta‘lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta‘lim manbayi, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– ta‘lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta‘lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta‘minlash;

– ta‘lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta‘lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlash, har bir ta‘lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini ta‘lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– ta‘lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta‘lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta‘lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta‘limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta‘lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi [4. 77].

Masalan, yangicha va qiymatli g‘oyalarni berish qobiliyati avval, boshqa muammoni jo‘yali ta‘riflash kabi jarayonlarni amalga oshirishga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, Getzels va Csikszentmihalyi (1976) aniqlashicha, rassomchilik bo‘yicha talabalarning muammoni ta‘riflashdagi muvaffaqiyatlari ular chizgan rasmlarning estetik qiymati hamda o‘ziga xosligining mezonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu mezonlar, o‘z navbatida, ushbu talabalarning uzoq muddatda rassom sifatidagi muvaffaqiyatiga ham bog‘liq bo‘lgan. [5]

Kimyo darslarini o‘qitishda tabiiy-ilmiy savodxonlikning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Uni bir nechta misollar bilan ko‘rib chiqishimiz mumkin. “Olti shlyapa” usuli. Edvard de Bono taklif etgan “Olti rangli shlyapa usuli”da biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shapkalar kiyiladi: oq — diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora — kamchiliklar aniqlanadi; sariq — mavjud holat tahlil etiladi; yashil — yana yangi bir necha g‘oyalar qo‘shiladi; qizil — emotsional munosabat bildiriladi; ko‘k — ish xotimalanadi. [5]

Masalan, anorganik kimyo kursida kristall panjaralar mavzusi ko‘rilayotgan bo‘lsa, avval kristall panjaralar mavzusi mukammal o‘rganiladi, ya‘ni kristall panjaralar o‘zi nima, kristall panjaralar deb nimaga aytiladi? Kristall panjaralarning necha turlari bor? Har bir turlariga qanday moddalar misol bo‘la oladi kabi savollarga javob beradigan holatda bilimga ega bo‘lishlari kerak. So‘ngra, barcha fikrlar tekshiriladi. Tekshirilgan vaqtda qanday kamchiliklari borligi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha barcha tushunchalar tahlil qilinadi. Agar o‘quvchilarda qo‘shimcha holatda fikr va g‘oyalar bo‘lsa ularni ham qo‘shimcha sifatida kiritiladi. O‘quvchilarning fikr va mulohazalari tekshiriladi. Berilgan yangi fikrlarning qanchalik to‘g‘riligi va mavzuga mosligiga qarab mavzuni tez va oson o‘rganishga takliflar kiritiladi. Bu takliflarning qay darajadagi samarasi bir nechta fikrlar bilan izohlanadi. Taklif loyiha shaklida rasmiylashtiriladi.

**Ozon.** Atmosfera – bu havo okeani va yerda hayotni ta’minlovchi bebaho tabiiy resurs. Afsuski, insonning shaxsiy manfaatiga asoslangan faoliyati umumiy resursga zarar yetkazmoqda, bu yerdagi hayotni himoya qiluvchi ozonning yupqa qobig’i yemirilishi bilan ifodalanadi.


Ozon molekulari ikki atomli kislorod molekularidan farq qilib, kislorodning uchta atomida tashkil topadi. Ozon molekulari nihoyatda siyrak: havoning bir million molekulasida o’ntadan kamroq bo’ladi. Biroq, qariyb milliard yillar davomida ozonning atmosferada bo’lishi yerda hayot saqlanishida katta ahamiyatga ega. Ozon qayerda joylashishiga qarab yerdagi hayotni himoya qilishi yoki unga zarar yetkazishi mumkin. Troposferadagi ozon (Yer yuzasidan 10 km gacha bo’lgan balandlikda) “yomon” ozon bo’lib, u o’pka to’qimalari va o’simliklarga zarar yetkazishi mumkin. Ammo stratosferadagi (Yer yuzasidan 10 km dan 40 km gacha bo’lgan balandlik) 90 % ga yaqin ozon “yaxshi” bo’lib, quyoshdan kelayotgan zararli ultrabinafsha nurlarni tutib qolishi bilan foydalidir. Bunday foydali ozon qatlami bo’lmaganda edi, odamlarda Quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlar bilan bog’liq kasalliklar yanada ko’proq yuzaga kelardi. Oxirgi o’n yilliklarda ozon miqdori kamaydi. 1974- yilda bunga Freon (chlorofluorocarbons – CFCs) sabab ekani taxmin qilindi. 1987 -yilga qadar ilmiy tadqiqotlarda ozonning yemirilishiga freonning aloqadorligi ishonchli dalillar bilan tasdiqlanmagan. Ammo 1987 -yilda jahonning turli mamlakatlarining rasmiy vakillari Monreal (Kanada)da uchrashib, 44oppi (CFCs) dan foydalanishga qat’iy cheklov qo’yishdi.[7]

**Ozon** (qadimgi yunon tilidan ὄζω – hidli) – bu O<sub>3</sub> triatomik molekularidan tashkil topgan kislorodning allotropik modifikatsiyasi. Oddiy sharoitlarda u ko’k zaharli gazdir. O’tkir hidga ega. Suyultirilganda u indigo suyuqligiga aylanadi. Qattiq shaklda u quyuc ko’k, kulrang, deyarli qora kristallardir.

Dunyoda biologik muvozanatni saqlaydigan atmosferadagi eng muhim gazlardan biri bo’lgan ozon, havoni tozalash orqali dunyo hayotining davom etishiga hissa qo’shadi. Bir necha oy davomida oziq-ovqat va suvsiz yashay oladigan odam havosiz 5 daqiqa yashay olmaydi. Shu sababli, hayotning qurilish bloklaridan biri bo’lgan turli xil kislorod shakllari ham sog’lom hayot uchun ishlatiladi. Ozon bu shakllardan biridir. Havoga ko’k rang beradigan ozon deyarli barcha yomon hidlarni yo’q qila oladigan noyob gazdir. Bu ma’lum bo’lgan eng kuchli dezinfektsiyalovchi va oksidlovchi gaz hisoblanadi.

**1-topshiriq.** Yuqorida keltirilgan matnda ozon haqida ma’lumot berildi. Keltirilgan ma’lumotlarga qo’shimcha qilib kreativ yondoshgan holda ozon uchun sxema tuzing.

**Masalan:** (1-rasm)



1-rasm. Ozonning yemirilishini aks ettiruvchi sxema



**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, Oliy Ta’lim tizimiga kreativ kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o’qitish shakli, o’qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi munosabatlarida jiddiy o’zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunga ko’ra, oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo’lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg’ulotlarini mazmun jihatidan o’zgartirish nazarda tutiladi. Ma’ruza darslarini muammoli ta’lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg’ulotlarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo’lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**Adabiyotlar:**

1. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. – С. 285.
3. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол уқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.
4. [timssandpirls.bc.edu](http://timssandpirls.bc.edu) – TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlari sayti
5. [centeroko.ru](http://centeroko.ru) – Ta’lim sifatini baholash markazi (Центр оценки качества образования, Россия )
6. Connect, UNESCO International Science, Technology & Environmental Education Newsletter, Section from an article entitled ‘The Chemistry of Atmospheric policy’, Vol. XXII, No.2, 1997 (spelling adapted)
7. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

**TIBBIYOT UNIVERSITETI TALABALARIGA “BIOKIMYO” FANINI O‘QITISHDA  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Nurutdinova Feruza Muidinovna,  
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi*

*Maqolaning asosiy maqsadi "Biokimyo" fanini o‘qitish va ularning samaradorligini tahlil qilishda qo‘llaniladigan o‘quv va uslubiy ta‘minot hamda o‘quv texnologiyalarini tavsiflashdan iborat bo‘lib, bunda quyidagi usullardan foydalanilgan: talabalarni tekshirish; kuzatuvlar; axborot texnologiyalardan foydalanish: javoblar statistikasini profillarni tayyorlash, tadqiq qilish, qayta ishlash va yig‘ish; YouTube - o‘quv videolarini ishlab chiqish va nashr etish. Shuningdek, axborot texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilinadi, “Biokimyo” fanidan o‘quv jarayonini o‘quv-uslubiy ta‘minlashni rivojlantirish imkonini beruvchi xizmatlar tanlanadi. Ushbu kurs mavzulari bo‘yicha virtual-simulatsion amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya mashg‘ulotlari tayyorlandi. Talabalar uchun eng katta qiziqish uyg‘otadigan mavzular aniqlandi va belgilandi. Tibbiyot OTMLari bitiruvchi-talabalarini klinik-diagnostik mahoratini oshirishda biz tomondan taklif etilayotgan uslubiy tavsiyalar o‘qitishning an‘anaviy shakllarini virtual-simulatsion imkoniyatlaridan faol foydalanish bilan birlashtiradi. Ishlab chiqilgan virtual-simulatsion metodologiyasi nafaqat fundamental fanlarni o‘rganayotgan tibbiyot universiteti talabalarining guruh va jamoaviy ishlarini rejalashtirish va amalga oshirishda, balki amaliyotchi shifokorlarning kasbiy malakasini oshirish tizimida ham foydali bo‘lishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** didaktik material, axborot texnologiyalari, biokimyo kursi, virtual-simulatsion darslar, elektron ta‘lim resurslari.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ  
ДИСЦИПЛИНЫ «БИОХИМИЯ» СТУДЕНТАМ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ**

*Основная цель статьи - описание учебно-методического обеспечения и образовательных технологий, используемых при преподавании дисциплины «Биохимия», и анализ их эффективности, при котором использовались следующие методы: обследование студентов, наблюдение; использование информационных технологий: подготовка, исследование, обработка и сбор профилей статистики ответов; YouTube – для разработки и публикации обучающих видеороликов. Анализируются возможности информационных технологий, выбираются услуги, позволяющие развивать учебно-методическое обеспечение учебного процесса по предмету «Биохимия». По темам данного курса подготовлены виртуально-симуляционные практические занятия и лабораторные занятия. Были выявлены и обозначены темы, представляющие наибольший интерес для студентов. Предлагаемые нами методические рекомендации по совершенствованию клинико-диагностических навыков выпускников медицинских вузов сочетают традиционные формы обучения с активным использованием возможностей виртуального моделирования. Разработанная методология виртуального моделирования может быть полезна не только при планировании и реализации групповой и коллективной работы студентов медицинских вузов, изучающих фундаментальные науки, но и в системе профессиональной подготовки практикующих врачей.*

***Ключевые слова:** дидактический материал, информационные технологии, курс биохимии, виртуально-симуляционные уроки, электронные образовательные ресурсы.*

**USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING “BIOCHEMISTRY” TO  
MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS**

*The main purpose of the article is to describe the educational and methodological support and educational technologies used in teaching the discipline “Biochemistry”, and analyze their effectiveness, in which the following methods were used: examination of students, observation; Use of information technologies: preparation, research, processing and collection of response statistics profiles; YouTube – for developing and publishing educational videos. The capabilities of information technologies are analyzed, services are selected that allow the development of educational and methodological support for the educational process in the subject “Biochemistry”. Virtual simulation practical exercises and laboratory exercises have been prepared on the topics of this course. Topics of greatest interest to students were identified and outlined. The methodological recommendations we offer for improving the clinical and*

*diagnostic skills of graduates of medical universities combine traditional forms of training with the active use of virtual simulation capabilities. The developed virtual modeling methodology can be useful not only in planning and implementing group and collective work of medical students studying basic sciences, but also in the system of professional training of practicing doctors.*

**Keywords:** didactic material, information technology, biochemistry course, virtual simulation lessons, electronic educational resources.

**Kirish.** Respublikamizdagi zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar dinamikasi jamiyatning barcha asosiy sohalariga ta’sir ko‘rsatdi, ularning izchil rivojlanishi mahalliy ta’limni doimiy ravishda takomillashtirishsiz va oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashni sifat jihatidan yaxshilashsiz mumkin emas. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga muvofiq, ta’lim muassasasi talabalarning asosiy kompetensiyalar majmuasini egallashi uchun shart-sharoitlarni ta’minlashi kerak, bu esa ta’lim jarayonidagi faoliyatni tashkil etishning innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishga qayta yo‘naltirishni talab qiladi.

Oliy ta’lim oldida har qanday turdagi axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi, bilimlarning tarqalishiga ko‘maklashuvchi, o‘quv jarayonini kuzatish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtiradigan pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ochiq ta’limni joriy etish bilan bog‘liq yangi vazifalar turibdi. Global axborotlashtirish davrida oliy kasbiy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri talaba va o‘qituvchi o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida aloqalarni ta’minlash, foydalanuvchi (talaba, o‘qituvchi) va ta’lim ma’lumotlarining interaktiv manbai o‘rtasidagi axborotning o‘zaro ta’siridir. Bu yutuqlar xorij mamlakatlari ta’lim tizimida allaqachon faol foydalanilmoqda [1-2].

**Asosiy qism.** Talaba, o‘qituvchi va axborot resursining interaktiv manbasi o‘rtasidagi onlayn o‘zaro ta’sirga asoslangan ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini amalga oshirishda axborot muhitida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan barcha tarkibiy qismlarni aks ettiradi [3]. Axborot muhitida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda topshiriqlarni bajarishda mustaqillikni rivojlantirishga imkon beradi, ularning tafakkuri va ijodiy faolligini rivojlantiradi.

Biroq nashrlar tahlili va o‘z tajribamiz shuni ko‘rsatadiki, ommaviy amaliyotda bo‘lajak shifokorlarni tayyorlash hali ham kasbiy faoliyatni o‘zlashtirishning an’anaviy usullariga qaratilgan, biroq bir qator tadqiqotlar tibbiyot OTM talabalarini tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolarini o‘rganadi. A.V. Arzamasova [4], M.A. Kozhevnikova [5], G.S. Mal, O.V. Polyakova, I.A. Dorodnix [6] va boshqalarning ilmiy ishlari tibbiy profildagi OTMlari talabalarining nazariy tayyorgarligi tarkibi va mazmunini axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida takomillashtirishga bag‘ishlangan; tibbiyot universitetlarida ta’limni axborotlashtirish tamoyillari - E.I. Kefeli-Yanovskaya [7] tadqiqoti; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish – R.M. Abdulgalimov, G.N. Abdulgalimova [8], E.G. Melnik, M.G. Melnik [9] asarlari. Ammo ko‘pchilik mualliflar, asosan, tashkiliy va umumiy uslubiy jihatlarni ko‘rib chiqadilar va aniq tibbiy fanlarni o‘qitishda AKTdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalmaydilar.

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda talabalar uchun eng qiyin bo‘lgan fundamental fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda OTMlardagi ta’limni takomillashtirish muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarining fikriga ko‘ra, fundamental fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘plab muammolarni hal qiladi va bu tajribani mamlakatning ayrim universitetlari ko‘rsatmoqda.

Bo‘lajak shifokorni tayyorlashda asosiy fanlardan biri biokimyodir. Bu fan eng keng predmet sohasini qamrab oladi, u o‘zining asosiy, molekulyar darajasida hayotning har qanday ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi; Oliy tibbiy ta’lim tizimida biokimyoy organizmning rivojlanishi va faoliyati qonuniyatlari haqida tasavvur hosil qiladi. Bo‘lajak shifokor sog‘lom va kasal organizmning hayotiy jarayonlarini, turli patologik holatlarni tashxislash usullarini to‘g‘ri tushunishi kerak.

Biokimyoviy testlar natijalarini sharhlay olmaslik diagnostika xatolarining manbai bo‘lishi mumkin va biokimyoviy tadqiqot usullarini egallash mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini oshiradi.

Tibbiyot OTMlarida, ayniqsa, Buxoro davlat tibbiyot institutida biokimyoy kursi deyarli barcha yo‘nalishlarda milliy dastur asosida ta’lim olayotgan talabalarga 3-o‘quv semestrndan boshlab 2 semestr davomida o‘tiladi. Kursning davomiyligi va kreditlar yo‘nalishlarda farqlansa-da, biroq asosiy mavzularidagi urg‘ular deyarli bir-biriga juda yaqin. Bizning fikrimizcha, biokimyoy kursi talabalarda tirik mavjudotlarning molekulyar mantig‘i asoslarini, fundamental bilimlarni uyg‘unlashtirish va ularni insonni davolashga yondashuvlar bilan kasallikning patologik manzarasini chiqarishda ham amaliy qo‘llash qobiliyatini shakllantirishi kerak.

Biokimyoni o‘qitishning keng tarqalgan usullaridan biri uni formulali materiallardan foydalanmasdan o‘rganishdir. Biroq bu transformatsiya sxemalari va metabolitlarning nomlarini mexanik ravishda eslab qolishga olib keladi, bu esa ushbu fanning mantig‘ini tushunishga imkon bermaydi [10].

Talaba bioorganik kimyo asoslarini, shuningdek, minimal miqdordagi formulalar, reaksiyalar va metabolik jarayonlarni minimal darajada o‘zlashtirmasdan turib, biokimyoviy jarayonlar haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish mumkin emas, deb hisoblaymiz.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar ushbu fanning mazmunini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu, asosan, abituriyentlarning kimyo va biologiya bo‘yicha tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, katta hajmdagi nazariy materiallarni o‘rganish va yodlash zarurati bilan bog‘liq. Buning oqibati talabalarda biokimyoga kognitiv qiziqishning yetishmasligidir. Ushbu muammoni hal qilish ba‘zi nashrlarda keltirilgan [3], ularning mualliflari amaliy mashg‘ulotlarda vaziyatli topshiriqlarni o‘z ichiga olgan o‘quv metabolik xaritalaridan foydalanishni, shuningdek, interfaol texnologiyalar va maxsus ishlab chiqilgan kompyuter o‘qitish tizimlaridan foydalanishni taklif qiladilar, buning natijasida talaba nazariy materialni grafik va matnli ma‘lumotlar hamda ma‘lumotnoma obyektlari yordamida o‘rganish va test topshiriqlarini bajarishda bilimlarni mustahkamlashi mumkin. Shu bilan birga, talabalarining o‘quv va kognitiv faoliyatini faollashtiradigan interaktiv kompyuter modellarini ishlab chiqish juda ko‘p vaqt va moddiy investitsiyalarni talab qiladi.

Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, biokimyoni o‘qitish sohasida elektron ta‘lim potensialining salohiyati imkoniyatlariga qaramay yetarli darajada rivojlanmagan. Zamonaviy interaktiv axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat talabalarining biokimyoni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki talabalarining pozitsiyasini sezilarli darajada o‘zgartiradi, ularni kasbiy rivojlanishining haqiqiy subyektiga aylantiradi.

Bunday texnologiyalarni o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun bir nechta omillarni hisobga olish kerak:

- o‘qituvchi axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanmalarini o‘z ichiga olgan o‘quv va uslubiy yordamni ishlab chiqish, amalga oshirish va tuzatishga tayyor bo‘lishi kerak;
- talabalarining qiziqishini turli yo‘llar bilan rag‘batlantirish va ularning o‘zaro munosabatlarning turli shakllariga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olish kerak;
- sinfda o‘zaro muloqotda qulay muhitni saqlash kerak;
- darslarni tashkil etishning an‘anaviy va interaktiv shakllarining oqilona kombinatsiyasi talab qilinadi [11].

Zamonaviy axborot texnologiyalari dasturlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan o‘qituvchiga juda qiziqarli multimedia simulyatorlari va o‘quv interfaol videolarini yaratish, talabalarni sinab ko‘rish va talabalar nuqtayi nazaridan eng qiyin kurs mavzularini aniqlash uchun fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, interaktivlik nuqtayi nazaridan bulutli texnologiyalarning guruh va jamoaviy faoliyatni tashkil qilish vositalarini taqdim etish qobiliyatini ta‘kidlash kerak. Interfaol ta‘lim muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, guruh tajribasining ma‘nosini tushunishga yordam beradi, guruh ishidagi ishtirokingizni nazorat qilishni, guruh tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va qoidalarni hurmat qilishni, fikringizni asoslashni va o‘z pozitsiyangizni himoya qilishni o‘rgatadi. Boshqacha qilib aytganda, interaktiv ta‘lim bilan birgalikda axborot ta‘minoti, E.S. Alpatova to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, talabalarining kasbiy ta‘lim jarayonida faolligini rag‘batlantiradi [12].

Nihoyat, tarmoq xizmatlariga asoslangan o‘quv-uslubiy ta‘minotning individual elementlarini ishlab chiqish jarayoniga talabalarining kiritilishi o‘qitishning innovatsion shakllari va usullarini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi.

Biokimyo kursi doirasida talabalarining o‘quv va kognitiv faolligini oshirish uchun biz quyidagi onlayn xizmatlarni tanladik:

- YouTube videoxostingi;
- mindmeister.com aqliy xaritani ishlab chiqish xizmati;
- bulut texnologiyasi xizmati google.com;
- ta‘lim va o‘yin interaktiv ilovalarini ishlab chiqish servisi learningapps.org.

“Moddalar almashinuvi. Katabolizmning umumiy yo‘llari. Biologik oksidlanish”, “Oqsil almashinuvi”, “Uglevod almashinuvi”, “Fermentlar va ularning laboratoriya diagnostikadagi ahamiyati” mavzularida ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni to‘ldiradigan videoroliklar joylashtirish uchun videoxostingdan foydalanildi. Ushbu tizim ko‘rinishni oshiradi va talabalarining bilimga qiziqishini oshiradi, bundan tashqari, ularni o‘quv yutuqlari to‘g‘risida hisobot sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan laboratoriya ishlari uchun o‘z videolarini yaratishga undaydi. Videoxosting saytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri videoga eslatma va sharhlar qo‘yish imkonini beruvchi vositalar mavjud.



Kimyoviy formulalar va murakkab transformatsiya sxemalarini tasvirlashni talab qiluvchi fanlarni o‘qitish uchun multimedia yordami haqida turli fikrlar mavjud. Sof an’anaviy ta’lim shakllari tarafdorlari, agar o‘qituvchi doimiy ravishda doskada bo‘r bilan formulalarni chizsa, talaba materialni taqdim etish mantiqini o‘zlashtira oladi, deb hisoblashadi, uni mustahkamlash adabiyot bilan keyingi ishlashni o‘z ichiga oladi [8; 13-14]. Bu dalillar qandaydir ma’noga ega, ammo zamonaviy yoshlar bosma manbalardan ma’lumot olishga emas, balki elektron resurslarning imkoniyatlariga e’tibor qaratishadi. Aslida, ma’lumot olish stereotipi o‘zgardi: yoshlar katta avlod vakillariga xos bo‘lgan psixologik to‘siqlarni boshdan kechirmasdan, kompyuterdan foydalanishni yaxshi bilishadi va har qanday innovatsiyalarni o‘zlashtirishda ular ko‘pincha qog‘oz axborot vositasiga muhtoj emaslar [15-16]. Bundan tashqari, talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyati elektron matnlar bilan emas, balki interaktiv videolar bilan ishlashni afzal ko‘radi.

Fikrlash va muqobil yozuvlarni vizualizatsiya qilishning qulay va samarali usuli bu aqliy xaritalarni yaratish uchun mindmeister.com xizmatidir. Ushbu ko‘p funksiyali va foydalanish uchun qulay xizmatdan yangi g‘oyalarni yaratish, ularni qayd etish, ma’lumotlarni tahlil qilish va tartibga solish, o‘qilgan materiallardan konturlar, konspektlar tuzish uchun foydalanish mumkin. Bu juda an’anaviy emas, balki oddiy an’anaviy vositalarga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lgan fikrlashni tashkil etishning juda tabiiy usuli. Aqliy xaritalardan foydalanish talabalar o‘rtasida hamkorlikdagi tarmoq faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Aql xaritalari aqliy hujumga imkon beradi, bu har bir talabaning boshlang‘ich ma’lumotlari va qiziqishlarini aniqlash uchun juda muhimdir. Ushbu o‘qitish vositasi talabalar guruhlarida rejalashtirish ishlarini samaraliroq qiladi.

Biokimyo kursida talabalarning aqliy xaritalarini tuzishlari “Oqsil almashinuvi” kabi ancha murakkab mavzuni tushunish darajasini oshiradi. Ushbu mavzu bir nechta bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: "Oqsillarning hazm bo‘lishi", "Aminokislotalarning karboksil guruhi, aminokislotalar va radikallar bo‘yicha metabolizmi", "Me‘da shirasining kislotaliligini, qon zardobidagi aminotransferazalarning faolligini aniqlash". Belgilangan mavzular bo‘yicha didaktik materialni ma’lum bir asos yoki xususiyatga ko‘ra birlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash vizual xaritaning yaratishga imkon beradi. Ushbu tasnif bo‘limning nazariy materialini ham, bitiruvchi-talabalarning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan materialni ham qamrab oladi. Aminokislotalar va oqsillar almashinuvi haqidagi bilimlar biokimyoning turli bo‘limlarida, shuningdek, patofiziologiya, farmakologiya, terapiya va boshqa fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Shunday qilib, qon va siydikda oqsilni aniqlash jigar, oshqozon-ichak trakti, buyraklar va boshqa organlar va tizimlarning kasalliklarini tashxislash uchun talab qilinadi. Oshqozon shirasining tarkibini, uning ajralib chiqish mexanizmlarini va kislotalilik darajasini bilish oshqozonning turli kasalliklarini aniqlash uchun zarurdir. Aminotransferaza faolligini o‘lchash jigar patologiyalari va miyokard infarkti tashxisi uchun katta ahamiyatga ega.


Mindmeister.com xizmati resurslaridan foydalanish tamoyillari bilan oldindan tanishgandan so‘ng, talabalarga "Oqsil almashinuvi" mavzusida mustaqil ravishda birgalikda aqliy xarita ishlab chiqish taklif etiladi.

Sindagi dars davomida umumiy ish qoidalari muhokama qilinadi, talabalar mavzular va kichik mavzular bo‘yicha mas’uliyatni o‘zaro taqsimlaydilar, kalit so‘zlar orqali o‘ylashadi va xarita yaratishga kirishadilar. Asosiy mavzu uning markazida joylashgan bo‘lishi kerak, undan birinchi darajali shoxchalar olinadi, ularda bevosita unga tegishli kalit so‘zlar joylashgan. Keyin chizilgan shoxlarga o‘z kalit so‘zlariga ega bo‘lgan kichik shoxchalar qo‘shiladi. 1-rasmda bunday xaritaning bir qismi ko‘rsatilgan.

Masalan, oqsillarning funksiyasi uchun kalit so‘zlar "fermentativ", "immun", "himoya", "transport", "o‘ziga xos", "qisqartiruvchi", "membrana"; oqsillarni hazm qilish uchun - "oshqozonda oqsillarni hazm qilish", "oshqozon osti bezi sekretsiyasi bilan oqsillarni hazm qilish", "oqsil hazm qilishning yakuniy mahsulotlarini singdirish"; ovqat hazm qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi fermentlar uchun - "pepsin", "tripsin", "ximotripsin", "karboksipeptidaza", "aminopeptidaza", "dipeptidaza".

Quyida shoxchalarning keyingi darajasi oqsillar o‘tkazadigan reaksiyalarni o‘z ichiga oladi. Kalit so‘zlar "dekarboksillanish" yoki "karboksil guruhining biogen aminlarni hosil qilish uchun bo‘linishi", "deaminatsiya" yoki "aminokislotalarning bo‘linishi". Ushbu turdagi reaksiyalar qo‘shimcha ravishda kichik tarmoqlarga bo‘linadi, chunki bu reaksiyalarning bir nechta turlari mavjud (molekulyar, oksidlovchi, gidrolitik), transaminatsiya (transaminlanish) - ammiakning oraliq hosil bo‘lmasdan aminokislotalardan keto kislotaga amino guruhlarning molekulararo o‘tish reaksiyalari.





1-rasm. «Oqsil almashinuvi» mavzusidagi aql xaritasi

Axborotning keyingi darajasi oqsil tuzilmalari almashinuvi va ularning klinik diagnostikadagi ahamiyati bilan bog'liq reaksiyalarni katalizlovchi fermentlardan iborat. Aminotransferaza sinfining fermentlari, masalan, alanin aminotransferaza (ALT) kabi fermentlar bilan ifodalanadi. Transaminaz jigar kasalliklarini aniqlash uchun, shuningdek, vaqt o'tishi bilan patologik holatni kuzatish uchun ishlatiladi; aspartat aminotransferaza (AST) - yurak mushaklari kasalliklarini tashxislash uchun. Ushbu fermentlar klinik amaliyotda jigar va miokard kasalliklarini differentsial diagnostika qilish, zararlanish chuqurligi va ularni davolash samaradorligini nazorat qilish uchun qo'llanilganligi sababli, bu ma'lumotlarning tasviri ruhiy xaritaning boshqa darajasi bilan tavsiflanadi. Barcha novdalar taxminan bir xil masofada teng ravishda joylashtiriladi. Mavzu kalit so'zlari to'g'ridan-to'g'ri ularning munosabatlarini ko'rsatadigan satrlarda ko'rsatilgan. Aniqroq bo'lishi uchun ma'lumot darajalarini ajratib turadigan asosiy va qo'shimcha chiziqlar turli xil ranglarda ko'rsatilgan. Xaritaning tuzilishi mavzuning murakkabligi va o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

**Xulosa.** Bu usul, bizning fikrimizcha, har qanday murakkablikdagi materialni o'rganish uchun javob beradi. Aqliy xarita ko'rinishidagi tasvir aqliy faoliyatni faollashtirishga yordam beradi, chunki u vizualizatsiya orqali ma'lumotni idrok etish jarayonlarini - turli qalinlikdagi chiziqlar va novdalar ranglari, turli xil belgilarni amalga oshiradi; shuningdek, aniq tanlangan kalit so'zlar. Mental xaritalarni yaratish texnikasi nafaqat ma'lumotni tartibga solishga, balki uni yaxshiroq tushunishga, eslab qolishga va bog'lashga yordam beradi. Talabalar samarali faoliyatga jalb qilinadi va guruhda ishlash ularning hamkorlik qilish qobiliyati va istagi, nizolarni hal qilish va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Khatony A., Dehghan N., Ahmadi F., Haghani H., Vehvilainen-Julkunen K. The effectiveness of web-based and face-to-face continuing education methods on nurses' knowledge about AIDS: a comparative study// BMC Medical Education 2009. № 1. Available at: <http://bmcmededuc.biomedcentral.com/articles?query=&section=&searchType=journalSearch&page=2&sort=relevance> (Accessed 29 December 2015).

2. Vaganova O.I., Medvedeva T.Y., Kirryanova E.R. Innovative Approaches to Assessment of Results of Higher School Students Training// International Journal of Environmental and Science Education. 2016. № 11 (13). P. 6246–6254.
3. Syakir M., Mahmud A., Achmad, A. The Model of ICT-Based Career Information Services and Decision-Making Ability of Learners// International Journal of Environmental and Science Education. 2016. № 11 (13). P. 5969–5979.
4. Арзамасова А.В. Использование информационных технологий в подготовке специалистов медицинского профиля// Проблемы и перспективы развития образования в России. 2012. № 16. С. 85–89.
5. Кожевникова М.А. Информационные технологии в медицинском образовании// Информационные технологии в образовании: материалы Международной заочной научно-практической конференции. УлГПУ им. И.Н. Ульянова / под ред. Ю.И. Титаренко. Ульяновск, 2014. С. 58–59.
6. Маль Г.С., Полякова О.В., Дородных И.А. Использование современных информационных технологий при обучении в медицинском вузе// Современные наукоемкие технологии. 2014. № 12–1. С. 67–68.
7. Кефели-Яновская Е.И. Основные принципы применения информационных технологий в совершенствовании подготовки студентов на первых курсах обучения в медицинских университетах// Запорожский медицинский журнал. 2014. № 2 (83). С. 135–136.
8. Абдулгалимов Р.М., Абдулгалимова Г.Н. Информационные и коммуникационные технологии в системе медицинского образования// Мир науки, культуры, образования. 2013. № 1 (38). С. 3–5.
9. Мельник Е.Г., Мельник М.Г. Возможности информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе медицинского вуза// Международный журнал экспериментального образования. 2013. № 4–1. С. 189–190.
10. Максимов И.В., Попов И.И. Компьютерные сети: учебное пособие. Москва: Форум, 2005. 336 с.
11. Старченко Б.Е. Синхронная и асинхронная организация учебного процесса в вузе на основе информационно-технологической модели обучения// Педагогическое образование в России. 2013. № 3. С. 23–31.
12. Алпатова Э.С. Современное высшее образование в России и за рубежом: проблемы и вызовы времени// Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. 2012. № 5–6. С. 42–47.
13. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения: учебное пособие. Москва: Институт профессионального образования, 1995. 86 с.
14. Наконечный С.В., Маль Г.С., Дородных И.А. К вопросу об информационных технологиях в медицинском вузе// Международный журнал экспериментального образования. 2012. № 7. С. 103.
15. Клюев С.А. Компьютерное моделирование: учебное пособие. Волжский: ВПИ ВолгГТУ. 2009. 89 с.
16. Стариченко Б.Е. Методика использования информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе: учебное пособие. Ч. 1: Концептуальные основы компьютерной дидактики. Екатеринбург: УрГПУ, 2013. 141 с.

## BIOLOGIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARNI PISA TADQIQOTI TOPSHIRIQLARI ASOSIDA ISHLASHGA O’RGATISH

*Xasanova Shoxista Boboxolovna,*

*Navoiy viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

*dilnoza22@mail.ru*

*50@inbox.uz*

*Maqolada yurtimizda jahon andozalari asosida o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan, erkin shaxs sifatida tarbiyalash masalasiga jiddiy e’tibor berib kelinayotganligi hamda PISA topshiriqlari o’quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan bo’lib, o’quvchilarning maktabda egallagan bilim va ko’nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo’llay olishlarini aniqlashga mo’ljallangan. PISA tadqiqotlariga tayyorlash o’quvchilarning “hayotga tayyorlik” darajasi, ya’ni ularning maktabda egallagan bilim va ko’nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo’lgan muammolarni hal etishda foydalana olishlariga o’rgatadi, maqolada o’quvchilarni biologiya darslarida PISA topshiriqlari asosida ishlash malaka va ko’nikmalarini shakllantirish haqida so’z boradi.*

**Kalit so’zlar:** *texnologiya, PISA, o’yin, innovatsiya, kreativ tarbiyachi, kompetensiya, interfaol metodlar, globallashuv, ijtimoiylashuv, jamiyat, integral yondashuv, loyihali ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, shaxs.*

## ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ РАБОТЕ НА ОСНОВЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ЗАДАНИЙ PISA НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

*В статье серьёзное внимание уделяется вопросу воспитания подрастающего в нашей стране молодого поколения на основе мировых стандартов как свободных и независимых личностей, а задачи PISA направлены на оценку грамотности учащихся в области естественных наук, а также знания и навыки, приобретённые учащимися в школе, призванные определить, смогут ли они использовать свои навыки в реальных жизненных ситуациях. Подготовка к исследованию PISA учит учащихся уровню «жизненной готовности», то есть умению использовать полученные в школе знания и навыки для решения проблем, с которыми они могут столкнуться в жизни, статья обучает учащихся компетентности для формирования навыков работы по заданиям PISA на уроках биологии.*

**Ключевые слова:** *технология, PISA, игра, инновации, творческий педагог, компетентность, интерактивные методы, глобализация, социализация, социум, комплексный подход, проектное обучение, развивающее обучение, личность.*

## TEACHING STUDENTS TO WORK ON THE BASE OF PISA RESEARCH TASKS IN BIOLOGY LESSONS

*In the article, serious attention is being paid to the issue of raising the young generation growing up in our country on the basis of world standards as free and independent individuals, and the PISA tasks are aimed at assessing the literacy of students in natural sciences, and the knowledge and skills acquired by students at school designed to determine whether they can use their skills in real life situations. Preparation for PISA research teaches students the level of "life readiness", that is, the ability to use the knowledge and skills they have acquired in school to solve problems that they may encounter in life, the article teaches students the competence to work on PISA tasks in biology classes and skills formation.*

**Keywords:** *technology, PISA, game, innovation, creative teacher, competence, interactive methods, globalization, socialization, society, integrated approach, project education, developmental education, personality.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8- dekabrda 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” Qarori bilan yoshlarni ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash ularning bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg’or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va

talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish maqsadida ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi. Jahonda tabiiy fanlar, jumladan, biologiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida fanlarni integratsiyalab o‘qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, biologik bilimlarni kundalik va hayotiy faoliyatda qo‘llay olish layoqatini oshirish, bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ta‘lim sohasini rivojlantirish, ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta‘lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar biologiya fanini o‘qitish jarayoniga xalqaro tajribalarni samarali tatbiq etish, o‘quvchilarning tabiiy-intellektual qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirdi[1].

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Mamlakatimizda olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash zarurati ortib bormoqda.

Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug‘vor vazifalar turadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida yoshlarni bu jarayonga yo‘naltirish poydevori hisoblanadi. Maktablarda o‘quvchilarimizni xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, o‘quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish muhim omildir. PISA topshiriqlari namunalaridan dars mavzusini mustahkamlash, takrorlashda hamda darsdan tashqari to‘garak va fakultativ mashg‘ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta‘kidlash lozimki, PISA dasturining o‘ziga xosligi shundaki, u hech bir ishtirokchi mamlakat o‘quv dasturlarini takrorlamaydi, shu sababli PISA topshiriqlarini aynan bitta sinf va bitta mavzuga bog‘lash mushkul: bitta topshiriqning bir savoli qaysidir sinfning qaysidir mavzusiga tegishli [1] bo‘lsa, ikkinchi savoli boshqa sinfning qaysidir mavzusiga tegishli yoki ko‘p hollarda, integratsiyalashgan bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchilar PISA topshiriqlarining har bir savolini tegishli mavzuga bog‘lashlari tavsiya etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** PISA topshiriqlari o‘quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlarini aniqlashga mo‘ljallangan. PISA tadqiqotlariga tayyorlash o‘quvchilarning “hayotga tayyorlik” darajasi, ya‘ni ularning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishda foydalana olishlariga o‘rgatadi, o‘quvchilarning matematika, o‘qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo‘nalishlari va global muammolarni hal etish borasidagi funksional savodxonligi tarkib topadi.

Har bir PISA topshirig‘i bir yoki bir nechta savolni o‘z ichiga oladi. Har bir savolning o‘z maqsadi bo‘lib, u quyidagi toifalarga ko‘ra tasniflanadi: kompetensiya, ilmiy bilish turi, kontekst, kognitiv daraja. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi:

- hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish;
- ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash;
- ma‘lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi – texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash. Bunda quyidagi ko‘nikmalar namoyish etiladi:

- tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- tegishli prognozlar qilish va asoslash;
- izohlovchi farazlarni taklif etish;
- ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi – ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo‘llarini taklif etish. Bunda quyidagi ko‘nikmalar namoyish etiladi:

- berilgan ilmiy tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash;

- ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo'lgan savollarni farqlash;
- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;
- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;
- ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash.

Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi – turli ko'rinishdagi ilmiy ma'lumotlar, dalillarni tahlil qilish va baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish. Bunda quyidagi ko'nikmalar namoyish etiladi:

- ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalash;
- ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish;
- ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash;
- ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo'lmagan boshqa qarashlardan farqlay olish;

- turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, internet)dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash [2]

PISA topshiriqlari tabiiy fanlarning mazmuniga oid, metodologik va epistemik bilimlarga doir savollarni qamrab oladi. Fanning mazmuniga oid bilimlar deganda o'quvchilarning tabiat haqida fan tomonidan aniqlangan faktlar, qonuniyatlar, g'oyalar, nazariyalarni bilishlari tushuniladi. Metodologik bilimlar ilmiy tadqiqot metodlari va tadqiqot jarayonlari va epistemik bilimlar ilmiy tadqiqot metodlarining imkoniyatlari, tadqiqotlarning ahamiyati haqidagi bilimlardir. Biologiya darslarida o'quvchilarda mazkur bilimlarni shakllantirish PISA topshiriqlaridan foydalanish namunalari bilan tanishamiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

#### **NON UCHUN XAMIR**

Novvoy osh tuzi, un, suv va achitqilarni idishga solib, ularni aralashtiradi, xamir qoradi. Shundan so'ng, xamirda achish jarayoni boshlanishi uchun bir necha soatga olib qo'yiladi. Achish davomida xamirda kimyoviy jarayonlar kechadi: achitqilar (bir hujayrali zamburug'lar) un tarkibidagi kraxmal va shakarni karbonat angidrid va spirtga aylantiradi.

#### **1-savol**

Achish natijasida xamir ko'tariladi (hajmi ortadi). Xamir nima sababdan ko'tariladi?

- A. Xamir ko'tariladi, chunki gazsimon holatga o'tadigan spirt hosil bo'ladi.
- B. Xamir ko'tariladi, chunki bir hujayrali zamburug'lar ko'payadi.
- C. Xamir ko'tariladi, chunki karbonat angidrid gazi hosil bo'ladi.
- D. Xamir ko'tariladi, chunki achish jarayonida suv bug' ga aylanadi

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar biologiya fanidan bir hujayrali (achitqi) zamburug'lar, achish jarayoni haqidagi bilimlarni yodga olishlari kerak: achitqilar hayot faoliyati natijasida un tarkibidagi shakar va kraxmalni dastlab glukozaga, so'ng karbonat angidrid va spirtga parchalaydi, xamir hosil bo'lgan karbonat angidrid gazi hisobiga ko'tariladi. Agar o'quvchilar to'g'ri javob sifatida “C. Karbonat angidrid gazi hosil bo'lishi natijasida xamir ko'tariladi” variantini belgilashsa, javob to'liq qabul qilinadi. Bu topshiriqdan o'qituvchi amaldagi dasturning 8-sinfida “Moddalar almashinuvi” mavzusini o'qitishda o'quvchilar bilan bajarishlari mavzuni tushunib olish va kompetensiyalarni shakllantirishlariga yordam beradi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

#### **TAMAKI CHEKISH**

Tamaki sigaret, sigar va chekish naychalari ko'rinishida chekiladi. Tadqiqotlardan ko'rindiki, butun dunyoda har kuni 13 500 ga yaqin odam tamaki chekish bilan bog'liq kasalliklardan o'ladi. 2020-yilga kelib, dunyodagi barcha o'limlarning 12 % iga tamaki chekish bilan bog'liq kasalliklar sabab bo'lishi prognoz qilinmoqda. Tamaki tutuni tarkibiga ko'plab zararli moddalar kiradi. Eng ko'p zarar yetkazadigan moddalar: smola, nikotin va uglerod monoksidi.

2-SAVOL. Tamaki tutuni o'pkalarga yutiladi. Tutundagi smola o'pkalarga yig'iladi va bu o'pkalarning normal faoliyatiga to'sqinlik qiladi. Quyidagilarning qaysi biri o'pkalarning funksiyasidir?

- A) Kislorodga to'yingan qonni tanangizning barcha qismlariga yetkazib berish
- B) Siz nafas olayotgan kislorodning bir qismini qoningizga o'tkazib berish
- C) Karbonat angidrid miqdori nolga tushgunga qadar qoningizni tozalash
- D) Karbonat angidrid molekularini kislorod molekulariga aylantirish [3]

Baholash mezonlari.

Mazkur savolga javob berish uchun o'quvchilar nafas olish a'zosi o'pkaning funksiyasiga oid bilimlarni yodga olishlari kerak. Agar o'quvchilar “B Siz nafas olayotgan kislorodning bir qismini



qoningizga o‘tkazib berish” javob variantini tanlashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball). Bu topshiriqni 7-8-sinflarda “Hafas olish” mavzusini o‘qitishda foyalanish lozim.

Jarrohlik amaliyoti.

3-SAVOL. Bemorlar operatsiyadan keyin ovqat va suv iste‘mol qila olmaganliklari sababli ularga tarkibida suv, glukoza va minerallar bo‘lgan tomchi qo‘yiladi. Ba‘zi hollarda tomchiga antibiotiklar va tinchlantiruvchi vositalar ham qo‘shiladi. Nima sababdan tomchiga qo‘shiladigan glukoza operatsiyadan keyin bemorlar uchun nihoyatda zarur sanaladi?

- A) Suvsizlanishning oldini olish uchun
- B) Operatsiyadan keyingi og‘riqni kamaytirish uchun
- C) Operatsiyadan keyingi infeksiyalarni davolash uchun
- D) Zarur bo‘lgan oziq moddalar bilan ta‘minlash uchun

Baholash mezon.

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar biologiyadan tegishli bilimlarni yodga olishlari kerak: iste‘mol qilingan oziq-ovqat tarkibidagi uglevodlar glukozagacha parchalanib, qonga so‘riladi. Bu jarayon uchun ko‘p vaqt talab etiladi. Tomchi orqali yuborilgan glukoza parchalanib, undan energiya hosil bo‘lishiga esa nisbatan kamroq vaqt sarflanadi. Operatsiyadan keyin ovqat hazm qilish sistemasi o‘z funksiyasini to‘liqligicha davom ettirishi uchun esa ko‘p vaqt talab etiladi.

Agar o‘quvchilar “D. Zarur bo‘lgan oziq moddalar bilan ta‘minlash uchun” javob variantini belgilashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball) Bu topshiriqdan 7-8 sinflarda “Ovqat hazm qilish”ga doir mavzularda foydalanish lozim. Demak, o‘quvchi bir vaqtda bitta topshiriqni bajarish jarayonida yuqoridagi uch turdagi bilimlarni o‘rganib boradi. Mazkur bilimlarni o‘quvchilarda shakllanishi uchun PISA topshiriqlaridan samarali foydalanish lozim. Bilamizki, PISA tadqiqotining alohida dasturi mavjud emas, shuning uchun PISA topshiriqlaridan biologiya darslarida har bir mavzuni o‘qitishda o‘qituvchi foydalanib o‘quvchida tabiiy fanga oid bilimlarni shakllantirib borishi maqsadga muvofiq.

**Meri Montegyu**

**Vaksinatsiya tarixi**

Meri Montegyu go‘zal ayol edi. U 1715-yilda tabiiy chechak bilan kasallanganidan so‘ng omon qoldi, biroq uning butun terisi chandiqlar bilan qoplandi.

U 1717-yilda Turkiyada yashagan vaqtda o‘sha yerda keng tarqalgan emlash deb atalgan usulni kuzatgandi. Bunda baquvvat, yosh odamlarning terisini tirnab, tabiiy chechak virusining kuchsiz formasi kiritilgan, so‘ngra ular kasallikka chalinganlar, ammo kasallik ko‘pincha yengil kechgan.

Meri Montegyu emlashning xavfsizligiga o‘ta ishongani sababli o‘g‘li va qizini emlash ga rozilik bergan.1796-yilda Edvard Jenner tabiiy chechakka qarshi antitelolar ishlab chiqarish uchun bu kasallikka yaqin bo‘lgan sigir chechagidan foydalanib, emlash o‘tkazish va uning salbiy ta‘siri tabiiy chechakniki- ga nisbatan kamroq bo‘lgan, shuningdek, emlangan odam kasallikni boshqalarga yuqtirmagan. Bu usul vaksinatsiya deb atala boshlandi.

1- Savol

Yuqorida keltirilgan gazetadan olingan maqolani o‘qing va quyidagi savollarga javobbering. Odamlarni qaysi turdagi kasalliklarga qarshi emlash mumkin?

- A. Gemofiliya kabi irsiy kasalliklarga qarshi
- B Poliomiyelit kabi virusli kasalliklarga qarshi
- C Diabet kabi organizmning funksional o‘zgarishlari bilan bog‘liq kasalliklarga qarshi
- D Dorisi kashf etilmagan har qanday kasallikka qarshi

**Baholash mezon**

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar biologiya fanidan emlash ayrim yuqumli kasalliklarga qarshi amalga oshirilishi, ammo irsiy kasalliklar va moddalar almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga chiqadigan kasalliklarga qarshi emlash o‘tkazilmasligini bilishlari kerak [4].

Agar o‘quvchilar “B Poliomiyelit kabi virusli kasalliklarga qarshi” javob variantini belgilashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball). Javob yo‘q yoki boshqa javoblar bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi (0 ball). Bu topshiriqdan 8-sinfda “Immunitet” mavzusini o‘qitishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

O‘quvchilar darslar jarayonida shu tariqa PISA topshiriqlari bilan tanishib borishlari mazkur topshiriqlarni bajarish jarayonida bilimlaridan to‘g‘ri foydalana olishga o‘rganadi. Ular kelajak hayotida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda zarur bo‘ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan

va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari bo‘lib shakllanadi. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko‘nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa “yoshlarni hayotga tayyorlash”da markaziy o‘rinni egallaydi.

**Adabiyotlar:**

1. “Ta‘lim sifatini baholash xalqaro dasturlari va innovatsion texnologiyalar” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua, Sh Xasanova, Navoiy, 2021. –B. 5.
2. Ismailov A.A. va b. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo‘nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo‘ljallangan axborotnoma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2020-yil.
3. Ismailov A.A. va b. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash (Kimyo, biologiya, fizika, geografiya fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil.
4. Radjiev A.B. va boshq. O‘quvchilarning savodxonligining baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo‘llanma. Toshkent, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi – 2019.

## НОБИОЛОГИК ИХТИСОСЛИК ТАЛАБАЛАРИДА ЭКОЛОГИК БИЛИМЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДИДАКТИК ТАМОЙИЛЛАР

*Базарова Нигора Шамсиевна,*

*Қарши давлат университети Агрокимё ва экология кафедраси доценти*

*Махаммадиева Муниса Абдусаломовна,*

*Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти*

*Экология ва меҳнат муҳофазаси кафедраси ўқитувчиси*

*Ушбу мақолада нобиологик ихтисослик талабаларига экологик таълим-тарбия беришнинг муҳимлиги тўғрисида ёритилган. Бўлажак мутахассислар қайси соҳани эгаллашларидан қатъий назар, табиатга ижобий муносабатда бўлишлари талаб этилади. Муаллиф талабалар экологик билимларни эгаллашлари ва экологик саводхон бўлишлари учун, таълим-тарбия тизимини дидактик жиҳатдан таъминлаш муҳимлигини таъкидлайди. Мақолада талабаларга бериладиган экологик билимлар, уларнинг мутахассисликларини эътиборга олган ҳолда жадвал асосида мазмунан бойитилган.*

**Калит сўзлар:** *нобиологик ихтисослик, узлуксиз таълим, турли мутахассисликлар, экологик мазмун, экологик таълим ва тарбия, экологик дунёқараши, экологик маданият, экологик концепция.*

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У СТУДЕНТОВ НЕБИОЛОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

*В этой статье подчёркивается важность обеспечения экологического образования студентам небиологических специальностей. От будущих специалистов требуется положительное отношение к природе, независимо от того, в какой сфере они работают. Автор подчёркивает важность дидактического обеспечения системы образования для приобретения учащимися экологических знаний и формирования экологической грамотности. В статье экологические знания, полученные студентами, обогащаются содержанием на основе таблицы с учётом их специальностей.*

**Ключевые слова:** *небиологическая специальность, непрерывное образование, различные специальности, экологическое содержание, экологическое образование и воспитание, экологическое мировоззрение, экологическая культура, экологическая концепция.*

## DIDACTIC PRINCIPLES IN FORMING ECOLOGICAL KNOWLEDGE IN NONBIOLOGICAL SPECIALTY STUDENTS

*This article highlights the importance of providing environmental education to non-biological major students. Future professionals are required to have a positive attitude towards nature, no matter what field they occupy. The author emphasizes the importance of didactic provision of the educational system in order for students to acquire environmental knowledge and become ecologically literate. In the article, environmental knowledge given to students is enriched with content based on the table, taking into account their specialties.*

**Keywords:** *non-biological specialty, continuing education, various specialties, ecological content, ecological education and upbringing, ecological outlook, ecological culture, ecological concept.*

**Қириш.** Олий ўқув юртлари йил сайин халқ хўжалигининг барча тармоқларига илмли ва малакали мутахассис кадрларни тайёрлаб бермоқда. Улар бугунги ўзгарувчан шароитда ўз билимларини амалий фаолиятларида татбиқ эта олишга, мунтазам равишда малакасини ошириб боришга, турли шароитда тез мўлжал ола билишга қодир бўлган муҳандис, агроном, ҳуқуқшунос, иқтисодчи, педагог, геолог, кимёгар, физик, техник, шифокор ва бошқа мутахассисликлар эгаларидир. Бу мутахассислар олий ўқув юртларини битиргач, халқ хўжалигининг турли соҳаларида ишлаш жараёнида атроф-муҳит билан муносабатда бўладилар. Бўлажак мутахассислар юксак даражадаги умумий экологик саводхонликка эга ва касб маҳоратини эгаллаган, миллий ва умуминсоний кадриятларни ўзлаштирган, табиатни муҳофаза қилиш билан боғлиқ бўлган ўзбек халқининг миллий анъаналарига таянадиган, табиат қонуниятларига бўйсўнадиган бўлса табиатга ва

унинг захираларига салбий таъсир этмайди. Шу сабабдан ҳам бўлажак мутахассислар ўз касбий фаолияти бўйича чуқур билим, юқори экологик саводхонликка эга бўлишлари зарур.

Мухтарам Президентимиз таъкидлаганларидек, “Энг муҳим масала – аҳолининг экологик маданиятини ошириш ҳақида жиддий бош қотиришимиз зарур... Албатта, бундай муаммоларни фақат маъмурий йўл билан ҳал этиб бўлмайди. Бунга ёш авлод қалбида она табиатга меҳр-муҳаббат, унга дахлдорлик ҳиссини тарбиялаш орқали эришиш мумкин” [1]. Бу таълим-тарбия жараёнида амалга ошириладиган муҳим педагогик жараёндир.

**Асосий қисм.** Зеро, экология фанини ўқитишда талабаларга табиатни муҳофаза қилиш, унинг бойликларидан оқилона фойдаланиш, экологик муаммоларга қарши курашиш ва уларнинг ечимини топишга оид бериладиган билим, кўникма, малакаларни шакллантириш, ихтисосликларини эътиборга олиб, ўқитишда қўйилган мақсад ва вазифаларга мос равишда ҳамда танланган экологик материаллар мазмунига мос ҳолда танлаб олинишига эътибор қаратилади.

Экологик таълим-тарбия ёшларга жамият ва табиатнинг ўзаро бир-бири билан чамбарчас боғлиқлиги ҳақида билим беради. Ватанимиз табиатини ўрганиш, уни муҳофаза қилиш қонунлари билан танишиш, табиатга нисбатан онгли муносабатни шакллантириш экологик тарбиянинг асосини ташкил этади.

Экологик таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил қилиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси томонидан экологик таълимни ривожлантириш концепцияси қабул қилинди [2]. Унга асосан, Республикамизда барча ёшларга экологик таълим-тарбия беришнинг муҳимлиги ва узлуксизлигини таъминлаш, таълим тизимининг муҳим таркибий қисми сифатида қараш ва таълим тизими жараёнига кенг жорий этишнинг усул ва йўллари кўрсатиб берилган.

Экологик узлуксиз таълим орқали ёшларнинг табиат олдигаги жавобгарлигини ошириб, уни ардоқлашига, табиий ресурслардан илмий асосланган ҳолда оқилона фойдаланишига, экологик муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича ўз мустақил фикрларини баён қилишига, ҳамда шахсий ташаббускорлигига эриша олган бўламиз. Зеро, экология фанида ханузгача ўз ечимини топмаган илмий-назарий асослар мавжуд.

Шуларни эътиборга олган ҳолда, ёшларнинг экологик тайёргарлигига оид бир қатор талабларни ҳал этиш муҳим масала ҳисобланади. Буларга:

- ёшларда табиат ва жамиятнинг ўзаро алоқадорлигига оид экологик таълим беришнинг узлуксизлигига эришиш;

- талабалар таълим-тарбия жараёнида атроф-муҳитни муҳофаза қилишни экологик кадрият сифатида англаб етишларига илмий-амалий жиҳатдан шароит яратиш;

- "табиат-жамият-техника" тизими туфайли юзага келган экологик муаммоларни тушунтириш;

- республика ҳудудидаги экологик муаммолар, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, оқибатлари; катастрофик (катаклизма) ҳолатдаги экологик вазиятларни яхшилашга оид масалаларнинг ечимини топишга ўргатиш;

- табиатни муҳофаза қилишга оид қонунчилик билан таништириш;

- ёшларда табиатни муҳофаза қилишга оид фаолиятга ундовчи экологик таълим бериш асосида табиат билан соғлом муносабатда бўлишга ўргатиш;

- ўлкадаги экологик муаммоларни ҳал этишда иштирок этиш туйғуларини уйғотиш орқали экологик дунёқараш ва маданиятни шакллантириш кабилар киради [3].

Қолаверса, бўлажак мутахассислар табиат ва унинг қонуниятларини илмий жиҳатдан англаган ҳолда чуқур билим, интеллектуал салоҳият, юқори экологик маданиятга эга бўладилар. Ёшлар келгусида қайси соҳа мутахассиси бўлиб ишлашларидан қатъий назар, улар яратаётган турли хил маҳсулотлар ва фаолият кўрсатаётган корхоналардан чиқаётган чиқиндилар табиатга, унинг асосий унсурлари: ҳаво, сув, тупроқ, ўсимлик ва ҳайвонот оламига зарар келтирмаслигини тушуниб етадилар.

Экология ўз мазмунига кўра инсониятнинг табиат объектлари билан бўладиган барча хилма-хил алоқалари моҳиятини акс эттиради. Шу боис, эндиликда шаҳар, ишлаб чиқариш, техника, кишлоқ хўжалиги, сув ҳавзалари, биохилма-хиллик, инсон, шаҳар, маҳалла экологияси каби тушунчалар мавжуд.

**Муҳокама ва натижалар.** Экологик тушунчаларни экология фани ўз ичига қамраб олади. Бу умумийлик, шахс дунёқарашига оид халқаро, ҳуқуқий, сиёсий, эстетик йўналишларни ҳам қамраб олувчи тизимли мазмунни ўзида акс эттиради. Шу сабабдан ҳам экологик таълим мазмуни табиий, аниқ, ижтимоий ўқув фанларига оид билимлар синтезини ўзида ифодалайди ва аксинча, барча ўқув фанлари умумий экология ўқув фани мазмунини ўзида сингдиради ва экология фани амалда ўрганиладиган ўқув фанларини онгли равишда ўзлаштиришга имкон яратиб, талабада фан

асосларини ўрганишга қизиқиш уйғотади. Уларнинг интеграллашган ҳолати талабада экологик саводхонликни шакллантиради. Шунга кўра, экологик таълим кўп қиррали ҳисобланиб, талабаларда экологик кўникмаларни шакллантириш учун уларнинг мутахассислигига қараб маърузаларни ташкил этиш яхши натижа беради ва таълим самарадорлиги ошади. Бу жараён қуйидаги жадвалда ўз аксини топган.

**Нобиологик ихтисослик талабаларида экологик саводхонликни оширишда экологик билимлар мазмуни**

Йўналиш Мавзу	кимё	физика	техника	Ижтимоий
1	2	3	4	5
Биосфера ва унда кечаётган жараёнлар	Биосфера ҳақида тушунча. Биосферада модда ва энергия алмашинуви. Муҳит ва экологик омиллар ҳақида тушунча. Биотик, абиотик, антропоген омиллар ҳақида умумий тушунча. Атроф-муҳитга тирик организмларнинг мослашуви	Биосфера ҳақида тушунча. Биосферада модда ва энергия алмашинуви. Муҳит ва экологик омиллар ҳақида тушунча. Биотик, абиотик, антропоген омиллар ҳақида умумий тушунча. Атроф-муҳитга тирик организмларнинг мослашуви	Биосфера ҳақида тушунча. Биосферада модда ва энергия алмашинуви. Муҳит ва экологик омиллар ҳақида тушунча. Биотик, абиотик, антропоген омиллар ҳақида умумий тушунча. Атроф-муҳитга тирик организмларнинг мослашуви	Биосфера ҳақида тушунча. Биосферада модда ва энергия алмашинуви. Муҳит ва экологик омиллар ҳақида тушунча. Биотик, абиотик, антропоген омиллар ҳақида умумий тушунча. Атроф-муҳитга тирик организмларнинг мослашуви
Сайёрамизда содир бўладиган глобал даражадаги экологик муаммолар	Ҳозирги кунда мавжуд бўлган экологик муаммоларни кимёвий нуқтаи назардан асослаш ва тушунтириш (энергетика)	Мавжуд бўлган экологик муаммоларни физика нуқтаи назаридан кўриб чиқиш (ҳаво ҳароратининг ошиши, қуёш радиациясининг ошиши)	Асосий экологик муаммолар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари, саноатнинг ривожланиши натижасида ҳосил бўлиши (қишлоқ хўжалиги, оғир ва енгил саноат, машинасозлик)	Асосий экологик муаммолар, уларнинг келиб чиқиш сабаблари ва олдини олиш учун ҳуқуқий меъёрлар ишлаб чиқиш (РЭМ, РЧЧМ)
Атмосфера ҳавосининг ифлосланиши ва уни муҳофаза қилиш	Атмосфера ҳақида умумий тушунча. Атмосфера ҳавоси ифлосланишининг кимёвий нуқтаи назардан тушунча бериш, ифлослантирувчи манбалардан чиқадиган моддалар	Атмосфера ҳақида умумий тушунча. Озон қатламининг емирилиши, тропосфера ҳавосининг иссиши, атмосфера ҳавосини ифлослантириш тартиби	Атмосфера ҳақида умумий тушунча. Саноатдан чиқадиган чиқиндиларнинг атмосферага таъсири, уларни олдини олиш чора-тадбирлари (янги технологиялар ишлаб чиқиш, татбиқ этиш)	Атмосфера ҳақида умумий тушунча ва инсон ҳаётидаги аҳамияти. Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий меъёрларини ишлаб чиқиш (яшаш муҳит учун, дам олиш муҳити учун,



				ишлаш муҳити учун)
Сув захиралари ни муҳофаза қилиш ва оқилона фойдаланиш	Сувнинг табиатдаги аҳамияти ва физикимёвий хоссалари тўғрисида умумий тушунча. Сувни ифлослантирувчи асосий манба ва кимёвий моддалар. Сувни кимёвий тозалаш усуллари	Сувнинг табиатдаги аҳамияти ва физикимёвий хоссалари тўғрисида умумий тушунча. Сувнинг ифлослантирувчи манбалари ва уларни физикавий омилларга таъсири	Сувнинг табиатдаги аҳамияти тўғрисида умумий тушунча. Сувни ифлослантирувчи sanoat манбалари (оғир ва енгил sanoat), сувни тозалаш технологиясини такомиллаштириш	Сувнинг табиатдаги аҳамияти тўғрисида умумий тушунча. Сув хавзаларини муҳофаза қилишга доир ҳуқуқий меъёрларини ишлаб чиқиш
Ер ресурсларини муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш	Ер ҳақида умумий тушунча ва унинг табиатдаги аҳамияти. Тупроқнинг кимёвий моддалар билан ифлосланиши ва уларни ифлослантирувчи манбалар. Тупроқни кимёвий тозалаш усуллари	Ер ҳақида умумий тушунча ва унинг табиатдаги физикимёвий аҳамияти. Радиоактив чиқиндилар билан ифлосланиши, ер структурасининг зичлашиши муаммолари	Ер ҳақида умумий тушунча ва унинг табиатдаги аҳамияти. Sanoat чиқиндиларининг ер структурасига таъсири ва уларни олдини олиш чора тадбирлари	Ер ҳақида умумий тушунча ва унинг табиатдаги аҳамияти. Ер ресурсларини муҳофаза қилишга доир ҳуқуқий меъёрларни ишлаб чиқиш
Ўсимлик ва ҳайвонот оламини муҳофаза қилиш	Ўсимликлар ва ҳайвонлардан кимёвий моддаларни олиш, медицина ва sanoatда қўлланилиши, ҳамда уларнинг табиатдаги ўрни	Физикавий омилларнинг биотага таъсири ва уларни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари	Фан-техника таракқиётининг ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсининг ривожланишига таъсири ва уларни муҳофаза қилиш	Ўсимлик ва ҳайвонот оламини ҳуқуқий жиҳатдан муҳофаза қилиш
Ландшафтларни ва ер ости бойликларини муҳофаза қилиш	Кимё sanoatининг ландшафтларга таъсири. Ер ости бойликларидан кимёвий моддалар олиш	Ландшафтларни антропоген-физик омиллардан муҳофаза қилиш. Замонавий физикавий усуллар ёрдамида ер ости бойликларини топиш ва аниқлаш	Табиатга sanoat корхоналари фаолиятининг таъсири натижасида сунъий ландшафтларнинг пайдо бўлиши. Ер ости бойликларини казиб олишда	Ландшафтларни ва ер ости бойликларини муҳофаза қилишда ҳуқуқий меъёрларини ишлаб чиқиш

			hozirgi fan- texnika yotuklarining ahamiyati	
Tabiatni muhofaza qiliشning tashkiliy va huqukiy asoslari	Tabiatni muhofaza qiliشning tashkiliy va huqukiy masalalari. Tabiatni muhofaza qiliشda xalqaro aloqalarning ahamiyati	Tabiatni muhofaza qiliشning tashkiliy va huqukiy masalalari. Tabiatni muhofaza qiliشda xalqaro aloqalarning ahamiyati	Tabiatni muhofaza qiliشning tashkiliy va huqukiy masalalari. Tabiatni muhofaza qiliشda xalqaro aloqalarning ahamiyati	Tabiatni muhofaza qiliشning tashkiliy va huqukiy masalalari. Tabiatni muhofaza qiliشda xalqaro aloqalarning ahamiyati

Нобиологик ихтисослик талабаларида экологик саводхонликни оширишда, албатта, уларнинг мутахассисликларига мос равишда экологик маълумотларни тўплаш ва билимлар мазмунини бойитиб бориш муҳим масала ҳисобланади ва таълим жараёнида ўз самарасини беради.

Шулар асосида талабанинг экологик саводхонлигини оширишга йўналтирилган таълим-тарбия тизимини дидактик жиҳатдан таъминланишига эришилади. Бунинг учун экологияга оид ўқув материалларини танлаш, табиатни муҳофаза қилишга оид фаолият турлари ва улар моҳиятини талабалар онгига сингдириш, инсоннинг табиат ҳодисаларини чуқур ўрганиши ва табиат қонуниятларига амал қилиши, мазкур ҳодисаларнинг узвийлиги ва мукамаллигининг устуворлигини англаши зарур.

**Хулоса.** Президентимиз Ш.М.Мирзиёев, “Бугун давлатимиз томонидан илм-фан, таълим ва тарбия, маданиятни ривожлантириш учун қанча куч, қанча маблағ керак бўлса, ҳаммасини топамиз. Қандай имконият зарур бўлса – яратамиз”, деб таъкидлаганлар [4]. Шу боис, ёшлар “Экология” фанини чуқур ва ҳар томонлама ўрганишлари, инсон фаолияти (антропоген таъсир) натижасида биосферада рўй бераётган ҳодисаларнинг сабаб ва қонуниятларини таҳлил этишлари, табиат муҳофазасини илмий асосда англашлари муҳим аҳамият касб этади. Биз бугун мана шу ҳақиқатни англаб етмоғимиз даркор.

Биобарин, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирларидан устувори - бу ёшларга экологик таълим-тарбия бериб боришдир, чунки табиатда бўладиган ўзгаришларни тўғри англай олган инсон аниқ ва атрофлича хулоса чиқара олади. Шундай экан, экология фанларини узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинларида олиб бориш ниҳоятда муҳим ҳисобланади.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. «Авлодларимиз биздан кейин ҳам муносиб табиий муҳитда яшаши керак» Ўзбекистон Республикаси Президенти видеоселектори. 03.02.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/4955>.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси тўғрисида” ги 2019 йил 27 май 434-сонли Қарори.
3. Базарова Н. Табиат муҳофазасида экологик таълимнинг аҳамияти. // Экология хабарномаси. 2021 йил 2-сон. 38-41-бетлар.
4. Мирзиёев Ш.М. “Ўқитувчи ва мураббийлар янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир”. Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2020 йил 30 сентябрь. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>.

**TIBBIYOT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA BIOLOGIK KIMYO FANINI O’QITISH  
METODIKASINI FANLARARO INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

*Maxammadjonov Tursunboy A’zamjon o’g’li,  
Andijon davlat tibbiyot instituti Biologik kimyo kafedrasida assistenti  
Andijon, O’zbekiston  
mahammadjonovt@gmail.com*

*Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida biologik kimyo fanini o’qitishda bo’lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishining nazariy asoslari tahlil qilinib, tibbiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish orqali tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti talabalarining biologik kimyo faniga oid motivatsiyalarini oshirishning didaktik mohiyatlari o’rganilgan.*

**Kalit so’zlar:** tibbiy ta’lim, biologik kimyo, integratsiya, pedagogik texnologiya, metodika.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ  
ХИМИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ  
ИНТЕГРИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*В статье анализируются теоретические основы развития профессиональных компетенций будущих врачей при преподавании биологической химии в медицинских вузах, дидактическая сущность повышения мотивации студентов медицинских вузов по биологической химии путём использования в процессе междисциплинарной интеграции медицинского образования.*

**Ключевые слова:** медицинское образование, биологическая химия, интеграция, педагогическая технология, методика.

**IMPROVING METHODS OF TEACHING BIOLOGICAL CHEMISTRY IN MEDICAL  
UNIVERSITIES BASED ON INTERDISCIPLINARY INTEGRATED EDUCATIONAL  
TECHNOLOGIES**

*This article analyzes the theoretical foundations for the development of professional competencies of future doctors when teaching biological chemistry in medical universities, as well as didactic methods of increasing the motivation of medical students in the field of biological chemistry by using the essence of interdisciplinary integration in the process of medical education.*

**Keywords:** medical education, biological chemistry, integration, educational technology, methodology.

**Kirish.** Integratsiya jarayoni ta’limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng asosiy shakli hisoblanadi. Shuni ta’kidlash mumkinki, integratsiya jarayonining ildizlari klassik pedagogikaning uzoq o’tmishiga taqaladi va fanlararo aloqalar g’oyasi bilan chambarchas bog’liqdir. Fanlararo aloqalar g’oyasi o’quv manbalarining mazmunida tabiatning yaxlitligini aks ettirish yo’llarini izlash jarayonida paydo bo’ladi. Buyuk didaktik olim Yan Amos Komenskiy shunday ta’kidlaydi: “o’zaro aloqada bo’lgan hamma narsa bir xil aloqada o’qitilishi kerak”.

**Tadqiqotning metodologiyasi va obykti.** Biokimyoni o’rganish shifokorlarning umumiy tayyorgarligining majburiy bosqichi bo’lib, uning vazifalari inson organizmidagi biokimyoviy jarayonlarning mohiyati va o’zaro bog’liqligini tushunishga asoslangan bo’lajak shifokorning klinik tafakkurini shakllantirishni o’z ichiga oladi. Hech kimga sir emaski, shifokor uchun biokimyoviy tadqiqot usullari diagnostika ma’lumotlarining muhim manbai bo’lib, amaliyotchilarning biokimyoviy tahlil natijalarini sharhlay olmasliklari jiddiy diagnostika xatolarining manbai bo’lishi mumkin. Tibbiyot oliy o’quv yurtlarida biokimyo fanini o’qitishdagi qiyinchiliklar I-II-kurslarda talabalar haligacha klinik fanlar bo’yicha bilimga ega emasligi, fanni o’rganishga ajratiladigan auditoriya soatlarining xorijiy oliy o’quv yurtlariga qaraganda 2,5-3 baravar kamligi bilan bog’liq. Lekin molekulyar biologiyaning rivojlanishi va uning usullarini tibbiyot amaliyotiga joriy etilishi munosabati bilan bo’lajak shifokor o’rganishi kerak bo’lgan ma’lumotlar miqdori keskin ortib ketadi. Shuni ta’kidlash kerakki, biokimyo o’qitish muammosini hal qilishda O’zbekistonning Boloniya bitimiga qo’shilishi kabi harakati ham ta’sir ko’rsatdi. Masalan, biokimyo

o'qitishning kredit-modul tizimiga o'tgandan so'ng, biokimyo fanidan ma'ruzalar 30 soat, laboratoriya soati 30 soat va amaliy mashg'ulot 30 soat qilib belgilandi, ammo talabalarning mustaqil ishlariga yuklamasi 100 soatgacha oshirildi. Bu, bir tomondan, bo'lajak shifokorlarga materialni taqdim etish jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, mustaqil izlanish va motivatsion yo'nalishini faollashtirishga olib keldi.

Ta'lim va bilimlarni baholashning kredit-modul tizimi modulli ta'lim texnologiyalari va ta'lim kredit birliklari (zachyot kreditlari) integratsiyasiga asoslanadi. Bu tizimga ko'ra biokimyo fanini o'rganish 3 modulga bo'linadi: bioorganik kimyo (1-modul), biomolekulalar almashinuvi (2-modul) va 3-modul organ va to'qimalarda moddalar almashinuvining o'ziga xos xususiyatlari va ularni tartibga solishga bag'ishlangan. Oxirgi modul molekulyar biologiya bo'limini ham o'z ichiga oladi, ya'ni maksimal axborot yukini ko'taradi, lekin asosiy kimyoviy ta'limni talab qiladigan kamroq formulali materialni o'z ichiga oladi. Talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni nazorat qilish har bir amaliy darsda amalga oshiriladi va nazariy savollarga qo'shimcha ravishda, tezkor test-topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi test-topshiriqning o'ziga xos xususiyati klinik vazifa va 5 ta taklif qilingan javobni o'z ichiga olgan holatning mavjudligi, ulardan faqat bittasi to'liq to'g'ri, qolganlari esa noaniqliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi testlar nafaqat dars davomida, balki har bir modulni topshirish bilan birga olib boriladi va kurs oxirida talabalarning yakuniy bilimlarini baholash uchun foydalaniladi.

Tibbiyot oliygohlarida 6 yillik o'qish davomida talabalar bilimini 3 bosqichli bosqichma bosqich test nazorati tizimi joriy etilgan. Biroq tibbiyot oliygohlari o'quv jarayonini modernizatsiya qilish va birlashtirishning oxirgi besh yillik tajribasi kredit-modul tizimining nafaqat afzalliklarini, balki bir qator kamchiliklarini ham ochib berdi, ularning asosiysi bizning fikrimizcha, talabalarning javoblarni "yodlash", asosiy bilimlarni tahlil qilaolmaslik va undan foydalana olmaslik kabilarni ochib berdi. Yuqorida aytilganlarni tasdiqlash uchun - biokimyo asoslarini qisman o'rgangan va ushbu kursdan 2 ta yakuniy moduldan o'tgan ikkinchi kurs talabalar o'rtasidagi anonim so'rovnoma o'tkazildi.

**Qo'llanilgan metodlar.** Biz tuzgan so'rovnomada talabalar javoblar tagiga chizish usuli yordamida javob berishlari kerak bo'lgan 10 ta savol javobi bilan taqdim etiladi. Ularga quyidagilarni kiritamiz:

1 - siz tibbiyot institutiga kirgansiz (ixtiyoringiz bilan, ota-onaningizni so'zini ikki qilolmasdan, boshqa sabab bilan);

2 - test natijalariga ko'ra maktabda kimyo fanidan olgan bahongiz;

3 - maktab darajasida kimyo bo'yicha bilimingizni shaxsiy baholashingiz;

4 - dorivor kimyo fanidan olgan bahongiz;

5 - bioorganik kimyo fanidan bahongiz (1-modul);

6 - biokimyodan 2-modul uchun o'rtacha bahongiz;

7 - biokimyo fani bo'yicha bilimingizni qanday deb baholaysiz?

8 - Biologik kimyoni tushunish uchun kimyo fanini yaxshi o'zlashtirish kerakmi?

9 - Biokimyo fanidan bilimlarni testlar orqali tekshirish samaralimi?

10 - Sizningcha, biokimyo fani, bo'lajak mutaxassis sifatida siz uchun foydali bo'ladimi? Tibbiyot mutaxassisligi o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, talabalarning 70 % dan ortig'i Andijon tibbiyot institutiga o'z xohishiga ko'ra va atigi 4,4% qanday sabablarga ko'ra kirganligini ayta olmadi. So'rovda qatnashgan talabalarning qariyb yarmidan ko'pi (65 foizi) mustaqil umumiy test natijalariga ko'ra kimyo fanidan "yaxshi", 20 foizdan ortig'i "a'lo", qolgan qismi "qoniqarli" bahoga ega bo'ldi. Biroq talabalarning maktabda kimyoviy tayyorgarligi ancha quyi darajani tashkil etadi. Masalan, "A'lo" - 24%, "yaxshi" - 46% va 30% kimyo bo'yicha o'zlarining asosiy darajasini "qoniqarli" deb baholadilar. Tibbiy kimyo bo'yicha imtihon natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiyot fakulteti talabalarining kimyoviy bilim darajasi bundan ham past: respondentlarning atigi 11 foizi imtihonni "a'lo" deb topshirgan, "qoniqarli" baholar soni esa 37 foizga oshgan. Taxminan bir xil baholash nisbati birinchi modul - "Bioorganik kimyo" dan o'tgandan keyin sodir bo'ldi. Talabalarning biokimyoni assimilyatsiya qilish bo'yicha fikrlarini o'rganishdan so'ng kutilmagan natijalarga erishildi. Agar biokimyodan ikkinchi modul natijalariga ko'ra 20% "a'lo" bahoga, 38% esa "qoniqarli" bahoga ega bo'lsa, talabalarning fikri buning aksi bo'lgan - atigi 4% o'z bilimlarini "a'lo" deb baholagan va 54% - qoniqarli baholarni tashkil etgan. Biz ushbu paradoksal holatni baholashning muhim qismi mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda test natijalaridan iborat ekanligi bilan bog'laymiz. Ko'pgina talabalar to'g'ri javoblarni ularning ma'nosini chuqurlastirmaslikni afzal ko'radilar. Bunday yuzaki yondashuv nafaqat mavzuning murakkabligi, balki yetarli kimyoviy tayyorgarlikning yo'qligi bilan ham bog'liq: 70% talabalar biokimyoni o'rganishdagi muvaffaqiyatsizliklarini tushuntirishda buni ta'kidlaydilar, garchi xuddi shu 70% biokimyo bo'yicha bilimlarni hisobga oladi. Lekin biokimyo kelajak shifokorining ajralmas bilim zaxirasi bo'lib xizmat qilishi kerak.

O'z kuzatishlarimiz va so'rov natijalarini umumlantirib, biz quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

1) tibbiyot oliy o'quv yurtlarida biokimyoni o'rganish talabning yetarli darajada asosiy kimyoviy tayyorgarligini talab qiladi;

2) Test nazorati asosida o'quvchilar bilimni baholash samarali va tezkor usul bo'lib, ularning bilim chuqurligini adekvat baholash imkonini bermaydi.

Tajribalardan ko'rinadiki, talabalarning maktabda olgan kimyo, biologiya, fizika va matematikadan bilimlari yetarli emasligi tufayli biologik kimyo fanini o'zlashtirishi qiyin bo'lmoqda. Ko'pincha, talabalar biologik kimyo darsdagi muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun talabalar nafaqat ilgari o'rganilgan ichki aloqalarni, balki predmetlararo aloqalarni (kimyo, biologiya, fizika va matematika) jalb qilishlari kerak. Misol uchun, tabiatdagi moddalarning aylanishi bo'yicha darslar. Tabiatdagi kislorod aylanishi masalasini o'rganishda o'qituvchi talabalarga muammoli savolni beradi: "Nima uchun atmosfera kislorodining zaxiralari turli jarayonlarda (nafas olish, Gorenje) ushbu moddaning katta iste'moliga qaramasdan doimiy darajada (21% hajmda) qoladi? Biologiya va kimyo darslarida olingan kislorod haqida ma'lumotdan foydalanib, talabalar atmosferadagi doimiy kislorod miqdori harakatga qarama-qarshi bo'lgan ikki jarayonning muvozanatining natijasidir, chunki bir jarayonning mahsulotlari boshqa moddalar uchun boshlang'ich bo'lib xizmat qiladi, bu oksidlanish (nafas olish, Gorenje) va fotosintez[13]. Yana bir misol. "Moddaning agregat holatlari", "fazaviy o'tish", "atom tuzilishi" mavzusini o'rganayotganda, issiqlik miqdorini, moddalarning o'ziga xos issiqligini va shunga o'xshash narsalarni topish uchun hisoblangan muammolarga elementlarning kimyoviy xossalari, qiziqarli faktlar, ko'rib chiqilayotgan moddani boshqa kimyoviy elementlardan olish usullari bilan bog'liq savollarga javob topishda fizika va kimyo fani o'rtasidagi fanlararo aloqadorlik, ya'ni kimyoviy elementni tavsiflash rejasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol. atomida 17 proton va 17 neytron mavjud bo'lgan ushbu kimyoviy elementni rejaga muvofiq tavsiflang:

1. Davriy jadvaldagi pozitsiya. A) X belgisi; B) davr raqami (katta yoki kichik); C) guruh raqami; D) nisbiy atom massasi; Y) seriya raqami.

2. Atomning tuzilishi: A) atom formulasi (atomning tarkibi –protonlar, neytronlar, elektronlar soni); B) atom tuzilishining diagrammasi; S) energiya diagrammasi, va hokazo.

3. Atomning xususiyatlari: A) metall yoki metall bo'lmagan atom; B) elektronlarni beradi yoki qabul qiladi; C) oksidlovchi yoki qaytaruvchi vosita; D) oksidlanish holati: eng yuqori oksidlanish darajasi ("+" qiymatiga ega va guruhning soniga teng. Ye) oksidlanish-qaytarilish xususiyatlarini (metall va metall bo'lmagan) taqqoslash: davrda, guruhda.

4. Moddaning tavsifi. A) oddiy moddaning formulasi; B) kimyoviy bog'lanish turi, kristall panjaraning turi; C) xususiyatlari. Bu mavzularni talabalar o'zlashtirishlari uchun fizika va kimyo fanidan olgan bilimlari kerak bo'ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Pedagogik tajriba – sinov o'tkazish uchun tanlab olingan tajriba va nazorat guruh talabalarining bilim saviyasi aniqlab olindi. Guruhlarning barcha talabalari Biologik kimyo fani bo'yicha og'zaki savol-javob hamda 25 ta test savollari asosida sinov o'tkazdik.


Guruhlarda natijalar quyidagicha bo'ldi.

1-jadval.

T/r	Ta'lim muassasalari	Guruhlar	Talabalar soni	Og'zaki savollarga javob berganlar		Test savollarga javob berganlar	
				Sonda	Foizda	Sonda	Foizda
1.	Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)	T.G	58	31	53,4%	28	48,3%
		N.G	60	32	53,3%	29	48,3%
2.	Samarqand davlat tibbiyot instituti (SamDTI)	T.G	60	31	51,7%	30	50,0%
		N.G	61	33	54,1%	31	50,8%
3.	Farg'ona jamoat solomatligi tibbiyot instituti (FJSTI)	T.G	63	35	55,6%	32	50,8%
		N.G	62	34	54,8%	32	51,6%
4.	<b>Jami</b>	T.G	181	97	53,6%	90	49,7%
		N.G	183	99	54,1%	92	50,3%

Davolash ishi ta'lim yo'nalishi guruhda dastlakbi natijalarga ko'ra og'zaki savol javob foiz ko'rsatkichi 53,6 % ni, nazorat guruhlarida 54,1 % ni, test savollariga javoblari tajriba guruhlarida 49.7% ni, nazorat guruhlarida 50,3% ni ko'rsatdi (1-rasm).





1-rasm. Talabalarning og'zaki va test savollari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, guruhlarning o'zaro bilim darajasi bir-biriga deyarli yaqin. Shuning uchun tanlangan guruhlarda pedagogik tajriba o'tkazish mumkin.

Talabalarning bilimini, mavzularni o'zlashtirganlik darajasini dastlab, muammoli savollar orqali aniqlab olindi. So'ngra kompyuter texnologiyalarni qo'llab, pedagogik tajriba o'tkazildi. Nazorat guruhi sifatida tanlab olinganligi sababli ularga an'anaviy usulda dars o'tildi. Davolash ishi ta'lim yo'nalishi tajriba guruhi sifatida tanlab olinganligi sababli ularga kompyuter texnologiya dasturlari orqali tayyorlangan metodik ishlanmalar orqali dars o'tildi.

Olingan natijalarning statistik taxlili  $\chi^2$  kvadrat mezoni orqali tekshirildi. Ushbu natijalarning haqqoniyligini tekshirish va samaradorligini aniqlash maqsadida matematik statistika usullaridan biri  $\chi^2$  kvadrat usulidan foydalanildi. Bunda tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi olingan natijalarning mezonga mos rivojlanganlik darajalari Pirsonning  $\chi^2$  matematik-statistik metodi yordamida tahlil qildik.

Bunda  $N_0$  gipoteza sifatida har ikki bosqichda baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollar teng ( $r_{11}=r_{21}, r_{12}=r_{22}, \dots, r_{1s}=r_{2s}$ ) deb, al'ternativ  $N_1$  gipoteza sifatida ( $r_{11}\neq r_{21}, r_{12}\neq r_{22}, \dots, r_{1s}\neq r_{2s}$ ) olindi. Ushbu statistik gipotezani tekshirish uchun  $\chi^2$  mezonidan foydalanildi. Ya'ni

$$\chi^2_{kuzatuv} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^c \frac{(n_1 O_{2i} - n_2 O_{1i})^2}{O_{1i} + O_{2i}} \quad (3.2.1.)$$

formulasidan foydalanamiz. Bu yerda  $\chi^2$  statistik qiymat,  $n_1$  va  $n_2$  tajriba natijalarida ishtirok etgan guruhlardagi talabalar soni bo'lib,  $n_1$  - tajriba guruhi talabalar soni,  $n_2$  - nazorat guruhi talabalar soni,  $O_{1i}$  va  $O_{2i}$  lar mos ravishda tajriba guruhi va - nazorat guruhi nisbatan olingan baholash darajalar soni.

$\chi^2_{kuzatuv}$  qiymati  $\chi^2_{kr}$  bilan taqqoslanadi. Agar  $\chi^2_{kuzatuv} > \chi^2_{kr}$  bo'lsa,  $N_0$  gipoteza rad etilib,  $N_1$  gipoteza qabul qilinadi.

Bu yerdagi  $\chi^2_{kr}$  - normallashtirilgan chetlanish ishonch ehtimoli  $p$  asosida aniqlanadi. Ozodlik darajasi esa  $v = S - 1$  formulasi orqali topiladi,  $S$ -baholash turlari.

$N_0$  va  $N_1$  gipotezalarini quyidagicha kiritamiz:

$N_0$ : tajriba guruhi va nazorat guruhi talabalarning olingan natijalaridagi statistik qiymatda sezilarli darajada farq qilmaydi.

$N_1$ : tajriba guruhi va nazorat guruhi talabalarning olingan natijalari sezilarli darajada farq qiladi.

Tajriba sinov ishlarida o'zini o'zi rivojlantirish kontseptsiyasining rivojlanishi a'lo, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz darajalarida baholangangi uchun, baholash turlari soni 4 ga teng, ya'ni  $C = 4$ ,  $\alpha = 0,05$  deb olsak,  $v = 4 - 1 = 3$  bo'lib,  $\chi^2$  mezonining G jadvali acocida olingan  $\chi^2_{kr} = 7,81$  ga teng.

Hamda baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun ishonch oraliq intervallarini topish formulalaridan foydalanamiz. Ya'ni tajriba guruhidagi ishonch oraliq intervali ishonch chetlanishlari.

$$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \text{ ga teng, nazorat guruhida esa: } \Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

ga teng. Bu yerda  $t_y$  kritik qiymat hisoblanib, uning kritik qiymati 1.96 ga teng.  $S_x$   $S_y$  lar tanlanma dispersiya hisoblanib, u quyidagi formula orqali topiladi.

$$S_x = \sum_{i=3}^{n=3} \frac{n_i(x_i - x)^2}{m-1}, \quad S_y = \sum_{i=3}^{n=3} \frac{n_i(y_i - y)^2}{n-1}$$

Topilgan natijalardan tajriba yakunidagi ishonchli intervali:

$$\bar{X} - t_{kr} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{kr} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

Tajriba boshidagi ishonch intervali:


$$\bar{Y} - t_{kr} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{kr} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

formulalar orqali hisoblanadi.


Ishonch oralig'i chegara qiymatlari bir-biri bilan ustma-ust yoki kesishishi natijalarining ishonchligini yo'qotadi. Shuning uchun har bir guruhlardagi ishonch oralig'i bir-biri bilan kesishmasligini taxmin qilish lozim.

Tajriba sinov ishlari samaradorligini aniqlash maqsadida samaradorlik koeffitsenti aniqlanadi bu koeffitsent tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtacha qiymatlarining nisbati sifatidir.  $\eta = \frac{\bar{X}}{\bar{Y}}$

Bu formulalar asosida yuqorida keltirilgan turli bosqichdagi olingan natijalarning statistik hisoblash ishlarini keltiramiz.



2-rasm. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari



3-rasm. Samaradorlik ko'rsatkichlari

Mavzular bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi asosida olingan natijalarning statistik tahlili

T <sub>r</sub>	Ta'lim muassasalari	Mavzular	Guruhlar	O'rtacha baho	Samaradorlik	Xi kvadrat	kritik qiymat	tanlanma dispersiya	standart xatolik	Ishonch intervali		Xulosa		
1	Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	4,00	1,15	16,13	7,81	0,49	0,70	3,82	4,18	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,48						3,30	3,65			
		“Jigar biokimyosi”	T.G	3,95	1,16	17,76	7,81	0,46	0,68	3,78	4,12	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,41						3,25	3,58			
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	3,98	1,15	15,99	7,81	0,48	0,69	3,81	4,16	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,48						3,31	3,65			
		“Buyrak biokimyosi”	T.G	3,87	1,15	14,81	7,81	0,50	0,70	3,69	4,05	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,37						3,19	3,54			
		2	Samarqand davlat tibbiyot instituti (SamDTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	3,98	1,13	15,07	7,81	0,40	0,63	3,83	4,14	N <sub>1</sub>
					N.G	3,53						3,36	3,69	
“Jigar biokimyosi”	T.G			4,02	1,14	16,73	7,81	0,44	0,66	3,85	4,18	N <sub>1</sub>		
	N.G			3,51						3,34	3,68			
“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G			3,94	1,16	16,21	7,81	0,47	0,68	3,77	4,11	N <sub>1</sub>		
	N.G			3,39						3,22	3,56			
“Buyrak biokimyosi”	T.G			3,95	1,14	13,31	7,81	0,50	0,71	3,78	4,13	N <sub>1</sub>		
	N.G			3,47						3,29	3,65			
3	Farg'ona jamoat solomatligi tibbiyot instituti (FJSTI)	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	3,98	1,14	15,24	7,81	0,45	0,67	3,82	4,15	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,48						3,31	3,65			
		“Jigar biokimyosi”	T.G	4,00	1,14	14,88	7,81	0,47	0,68	3,83	4,17	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,50						3,33	3,67			
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	3,98	1,14	15,24	7,81	0,45	0,67	3,82	4,15	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,48						3,31	3,65			
		“Buyrak biokimyosi”	T.G	3,97	1,14	15,34	7,81	0,44	0,66	3,81	4,13	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,47						3,30	3,63			
4	Jami	Qon tarkibi, plazma oqsillari va limfa-retikulyar tizimi biokimyosi	T.G	3,99	1,14	46,30	7,81	0,45	0,67	3,89	4,09	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,49						3,40	3,59			
		“Jigar biokimyosi”	T.G	3,99	1,15	48,70	7,81	0,45	0,67	3,89	4,09	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,47						3,37	3,57			
		“Fiziologik faol birikmalar hamda endokrin tizim biokimyosi”	T.G	3,97	1,15	46,97	7,81	0,46	0,68	3,87	4,07	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,45						3,35	3,55			
		“Buyrak biokimyosi”	T.G	3,93	1,14	42,92	7,81	0,48	0,69	3,83	4,03	N <sub>1</sub>		
			N.G	3,43						3,33	3,53			

Tajriba - sinov o'tkazilgandan keyin guruhlarining natijalari o'zaro solishtirildi. Ko'rinib turibdiki, nazorat va tajriba guruhlari orasidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi o'ratacha 15% ga farq qilyapti.

**Xulosa.** Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, talabalar biologik kimyo fani bilan boshqa fanlarni o'zaro integratsiyasini dars jarayonida to'g'ri qo'llash asosida bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri shakllantirish hamda fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga erishiladi. Integratsiyalashgan darslarning ko'pgina afzalliklariga qaramay, uni tayyorlashda ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu mavzularni qo'llanish dasturlari o'rganish vaqtida mos kelmasligi mumkin, keyin esa mavzu bo'yicha o'xshash mavzularni aniqlash uchun rejalashtirishga o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Shomurotova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalarida “Kompleks birikmalar kimyoci” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2020. – 22 b.

2. Shernazarov I.E. Axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar integratsiyasida organik kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2020. –24 b.

3. Abdullaeva N. Kimyo fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning turli shakl va metodlari. - Urganch, 2011.

4. Пак М. С. Дидактика химии: Учебник для студентов вузов. Издание 2-е, переработанное и дополненное. – СПб.: ООО «ТРИО», 2012. – 457 с

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

*Ro‘ziyeva Nilufar Komiljon qizi,*

*Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti 3-kurs talabasi*

*Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida matematika fanini xalqaro tajribalardan foydalangan holda o‘qitish natijasida erishiladigan yutuqlar, shuning bilan birgalikda o‘quvchilarni matematika fanini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga nimalarga ahamiyat qaratilishi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Maqolaning asosiy maqsadi o‘quvchilarga misol va masalalarni sodda va hayotiy misollar orqali tushuntirish, chet el davlatlari tajribasidan foydalanib yuqori samaradorlikka erishishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *tadqiqot, xalqaro baholash, mantiqiy fikrlash, o‘zlashtirish, tafakkur, Singapur, diagramma, usul, kompetensiya, atama, hajm, abstrakt, modellashtirish.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ

*В этой статье рассматриваются достижения, достигнутые в результате преподавания математики в государственных школах с использованием международного опыта, а также то, что в совокупности может иметь значение для повышения интереса учащихся к овладению математикой. Основная цель статьи - разъяснить читателям на примерах простые и жизненные вопросы, добиться высокой эффективности, используя опыт зарубежных стран.*

**Ключевые слова:** *исследование, международная оценка, логическое мышление, мастерство, мышление, Сингапур, диаграмма, метод, компетенция, термин, объем, абстракция, моделирование.*

THE USE OF INTERNATIONAL BEST PRACTICES IN TEACHING MATHEMATICS  
USE OF ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCES IN TEACHING MATHEMATICS

*This article examines the achievements achieved as a result of teaching mathematics in public schools using international experience, as well as what together can be important for increasing students' interest in mastering mathematics. The main purpose of the article is to explain simple and vital issues to readers using examples, to achieve high efficiency using the experience of foreign countries.*

**Keywords:** *research, international assessment, logical thinking, mastery, thinking, Singapore, diagram, method, competence, term, scope, abstraction, modeling.*

*“Matematika hamma aniq fanlarga asos.*

*Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”.*

**Sh. Mirziyoyev**

**Kirish.** Ta‘lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendensiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini obyektiv baholashni amalga oshirish zarur. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o‘rta ta‘lim darajasida muhim ahamiyatga ega. Shunday xalqaro tajribalardan sanalgan tadqiqotlarni ko‘rib o‘tsak.

**PISA** - The Programme for International Student Assessment - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

**TIMSS** - Trends in International Mathematics and Science Study - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash;

**PIRLS** - Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

**TALIS** - The Teaching and Learning International Survey - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish va ta‘lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish. Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rishi o‘quvchilarda quyidagilarni shakllantirishga olib keladi.



- o‘quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish
- o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari, shuningdek, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish
- o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun mustaqil ta’limni joriy etish;

#### **PISA tadqiqotlari**

PISA (Programme for International Student Assessment) O‘quvchilar bilimini baholash xalqaro dasturi, 15 yoshli bolalarning matematika, tabiiy fanlar va ona tilidan hayotiy ko‘nikmalarni egallaganligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot. PISA tadqiqotlari 2000 yildan boshlangan va har uch yilda o‘tkaziladi.

Tadqiqot natijalari ishtirokchi mamlakatlar o‘quvchilari ta’lim yutuqlari, ta’lim tizimida o‘zgarishlar, o‘rta ta’lim islohotining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish va ularning amalga oshirish uchun to‘siqlarni aniqlash, natijalarning o‘zgarish dinamikasini kuzatish va tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi.

Xalqaro PISA tadqiqotlarining maqsadi 15 yoshli o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha hamda ona tili bo‘yicha savodxonligini baholashdan iborat. Tadqiqot maktab o‘quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o‘quvchilar hayot sharoitida o‘qitish jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini oshirishdan iborat.

**Asosiy qism.** Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o‘quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me‘zonlar bo‘yicha baholanadi:

- Kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish;

- muammolarni matematika tilida ifodalash;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
- muammoning yechimini tushuntirish;
- hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

#### **O‘quvchilariga taqdim etilgan topshiriqlaridan namunalar**

1. Fudji tog‘iga ko‘tarilish. Yaponiyadagi Fudji tog‘i “uyqudagi” vulkani bilan mashhur tog‘ hisoblanadi. Fudji tog‘i faqat 1 iyuldan 27 avgustgacha bo‘lgan davrda odamlar uchun ochiq. Taxminan 200 ming kishi hozirgi vaqtda Fudji tog‘iga chiqmoqda. O‘rtacha har kuni Fudji tog‘iga qancha odam ko‘tariladi?

#### **Matematika imtihonlarida o‘quvchilar qanday muammolarga duch kelishi mumkin?**

1. Darsliklarda PISA topshiriqlariga o‘xshash masalalarning yo‘qligi yoki kamligi va shuning uchun o‘quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida ularning natijalari past bo‘lishi mumkin.

2. PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo‘limiga murojaat qilish haqida ko‘rsatmalar yo‘q.

3. PISA topshiriqlari (matnli, rasmi, diagramma va jadvallar, real bog‘lanishlar grafiklari) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga o‘girish va yechim topilgandan so‘ng uni yana real sharoit bilan bog‘lab baholash va sharhlash talab qilinadi.

4. Odatda matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya‘ni o‘quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma‘lum algoritmlar asosida yechishga o‘rgatiladi.

5. Odatda matematika darsliklaridagi masalalar muayyan bobda beriladi va bu bilan ularni yechish usullari ham shu bobda ko‘rilgan usullarga bog‘langan holda beriladi, ya‘ni muayyan bo‘limining masalalari qanday yechilishi haqida ko‘rsatma beriladi.

6. Bundan tashqari, darslikdagi masalalar sof matematik masalaning tavsifidan iborat bo‘lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo‘ladi. Bizning darsliklarda PISA topshiriqlariga o‘xshash masalalar juda kam yoki umuman yo‘q. Masalalarda ko‘rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko‘p yangi matnli ma‘lumotlarning borligi – masalani tushunish va uni yechishni yana og‘irlashtiradi.

#### **PISA tadqiqotlaridan kelib chiqadigan saboqlar**

PISA-2015 tadqiqotlari o‘quvchilarning quyidagi o‘quv kompetensiyalari asosida olib borildi:

- o‘zlashtirilgan bilimlar asosida amaliy mashqlarni, o‘quv topshiriqlarini bajara olishi,
- o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni maktabdan tashqaridagi hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi;
- o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ustida fikr yurita olishi, ya‘ni mantiqiy fikrlay olishi.

#### **PISA tadqiqotlari natijalariga ko‘ra:**

- Aksariyat o‘quvchilar XXI asrda yashashga tayyor emaslar, ya‘ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetensiyalariga to‘liq ega emaslar;
- Maktab ta‘limi ko‘p jihatdan bu kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan;
- O‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini qaerda ishlatilishini bilishmaydi;

–Hali ham ko‘p maktablarda eskicha usullarda ta‘lim berilayapti, ya‘ni tayyor bilimlar berilayapti. Aslida maktab o‘quvchilarni “o‘rganishga o‘rgatishi” lozim, ya‘ni mustaqil bilim olishga o‘rgatishi kerak bo‘ladi;

### **TIMSS xalqaro tadqiqotlari**

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) Matematika va tabiiy fanlarni o‘qtish bo‘yicha xalqaro an‘analar deb nomlangan xalqaro tadqiqotlari o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari sifatini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan har 4 yilda o‘tkaziladi. TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha 4- va 8- sinf o‘quvchilari o‘quv yutuqlarini baholash orqali ishtirokchi mamlakatlarda bu fanlar bo‘yicha yutuqlarni kuzatib borish imkonini beradi. O‘quv yutuqlarini baholash uchun o‘quvchilar testdan o‘tkaziladi hamda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va maktab ma‘murlari so‘rov varaqalarini to‘ldirishadi, shuningdek bu bilan ta‘lim natijalariga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar haqida ma‘lumot olinadi.

Matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish

Uyda topshiriqlar bajarish o‘quvchilarga maktabda o‘rganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi va o‘qituvchilar uchun mavzu bo‘yicha o‘qitish vaqtini uzaytiradi. Natijada, ko‘p miqdorda uy vazifasi olgan o‘quvchilar kam miqdorda uyga vazifa olgan yoki umuman olmagan o‘quvchilarga qaraganda yuqori natijalarga erishishi kutiladi. Uy vazifasini bajarish an‘analari ko‘p mamlakatlar tomonidan keng tarqalgan. Ba‘zi mamlakatlarda 4- sinfda ular kamdan-kam hollarda uyda, asosan tuzatuv maqsadlarida, individual o‘quvchilarni o‘zlarining tengdoshlari bilan materiallarni o‘zlashtirib olishlariga imkon berish uchun so‘raladilar. Umuman olganda, uy vazifasining katta miqdori

### **8-sinf o‘quvchilariga taqdim etilgan topshiriqlaridan namunalar**

1. Sakkizinchi sinfda 30 nafar o‘quvchi bor. Sinf ro‘yxatidan tasodifiy tanlangan o‘quvchining 13 yoshdan kichik bo‘lishi ehtimolligi  $\frac{1}{5}$  ni tashkil etadi. Bu sinfda nechta o‘quvchining yoshi 13 yoshdan kichik?

### **Singapur matematikasi**

1995-yildan boshlab singapurlik o‘quvchilar matematikadan o‘tkazilayotgan turli xalqaro olimpiadalar g‘olibi bo‘lib kelishmoqda. Buning siri nimada? Ko‘pgina davlatlar Singapur matematikasini butunligicha joriy etishga yoki undan nusxa olishga urinib kelishmoqda. AQSh, Yaponiya, Isroil, Rossiya va Koreya davlatlarida ham bu yondashuvni asos qilib olib, Singapur matematikasi uslubiyotini matematika fanini o‘qitishda joriy etib kelishmoqda. Singapur matematikasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**1. Ta‘lim jarayonining mohiyati katta hajmdagi o‘quv materialini o‘rganishga emas, balki kiritilayotgan matematik atama va faktlarni tushunish chuqurligiga e‘tibor beriladi.** Odatdagi, xususan bizning maktab matematika fani o‘quv dasturlarimizda buning aksi: dasturlarimiz o‘quv yuklamasi juda katta, o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzular juda ko‘p, vaqtimiz esa cheklangan. Buning oqibatida bu mavzularni chuqur o‘rganish imkoniyatlari cheklangan.

**2. Ta‘lim jarayoni muayyan amaliy tajribadan boshlanadi va abstrakt tushunchalarga tomon boriladi.** Tushunchalarni o‘rganish uch bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich (enactive stage)da o‘quvchilar kiritilayotgan tushunchaga doir turli faoliyat o‘yinlarini o‘ynaydilar, tushunchaga doir turli moddiy narsalarni (sanoq cho‘plari, kubchalar, qog‘ozlar va plastilindan yasalgan turli shakllar va predmetlar hamda boshqa turli maxsus o‘quv qurollari)ni qo‘llari bilan ushlab ko‘radilar yoki ulardan turli modellarni yasaydilar.

Ikkinchi bosqich (iconic stage) da yangi tushunchani timsollar yordamida ifodalaydilar. Ularni turli rasmlarda, diagramma yoki chizmalarda tasvirlaydilar.

Shundan keyingina uchinchi bosqich (symbolic stage)ga, yangi tushunchaga oid abstrakt ta‘rif, matematik timsol va belgilashlarga o‘tiladi. Boshqacha qilib aytganda matematik tushunchalar bilan tanishish ko‘rgazmali misoldan boshlanadi, uning asosida abstrakt tushunchani “ushlash” va “ko‘rish” imkoniyati beriladi. Ta‘limning amaliy tajribadan abstrakt tushunchalarga tomon borishi o‘quvchilarda har bir mavzu bo‘yicha muayyan assotsiatsiyalar (yorqin, xotirada chuqur va mustahkam o‘rnashuvchi taassurotlar) hosil qilinadi. Bu taassurotlar eslanganda mavzuning turli jihatlari yodga tushishi ta‘minlanadi. Ta‘lim jarayonining boshidan amaliy ishga yo‘naltirilganligi u yoki bu matematik tushunchaning nima sababdan o‘rganilayotganligi va uning hayotiy vaziyatlarda qachon va qaerda kerak bo‘lishini oldindan bilishga va ta‘lim olishga bo‘lgan motivatsiyani (qiziqishni) oshiradi. Bu esa, matematika fani hayotda kerakli va foydali bo‘lishi bilan birga, uning jozibador fan ekanligini ham ta‘minlaydi

**3. Juda katta e‘tibor (model drawing) modellashtirishga qaratiladi.** Bu bilan berilgan masala sharti ko‘rgazmali qilib vizuallashtiriladi. Masala modellashtiriladi va berilganlardan qulay ravishda foydalanish tashkil qilinadi va bosqichma-bosqich masalani yechishga kirishiladi.

**4. Hamkorlikda o‘rganish va o‘zaro muloqotga katta e‘tibor beriladi.** Singapur matematikasidagi ko‘pgina masalalar shartini “Qara!” va “So‘zlab ber!”, deb tavsiflash mumkin. Bu masallalarni yechishda

o‘quvchilarga matematik tushunchalarni va masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishi, ularni birgalikda muhokama qilish va boshqalar fikrini ham tinglash imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘quvchilar tushunchani yaxshiroq o‘zlashtirishadi, matematika tilidan to‘g‘ri foydalanishga o‘rganishadi, ba‘zi hollarda u yoki bu masalaning bir necha yechimi bo‘lishi mumkinligini tushunib yetishadi. Darslikdagi masalalarning deyarli ko‘pchiligida, masala sharti, uni yechish usullari va yechimi haqida har safar sinfdoshlariga yoki o‘qituvchiga ovoz chiqarib so‘zlab berishga undov bor. Bu esa o‘z navbatida mavzuni, masalani yechish yo‘llarini yaxshiroq eslab qolishlarini ta‘minlaydi.

**5. Har bir mavzu chuqurroq o‘rganiladi.** O‘quvchilar oldin o‘rganilgan mavzuga uni takrorlash uchun emas, balki chuqurroq o‘rganish maqsadida qayta-qayta murojat qilishadi. Ya‘ni mavzuga uni jiddiyroq darajada chuqurroq o‘rganish uchun yana qaytiladi.

**6. O‘quvchilarni eslab qolishga emas, masala yechish (problem solving)ga o‘rgatiladi. Singapur matematika ta‘limining fan dasturidan ko‘ra ko‘proq samara berayotgan quyidagi ajoyib xususiyatlarini sanab o‘tish mumkin:**

- O‘qituvchi kasbi Singapurda eng hurmatli kasblardan biridir.

- Ota-onalar o‘qituvchilarni har tomonlama qo‘llab quvvatlashadi va bolalarini uyda ta‘lim olish uchun jiddiy mehnat qilishga yo‘naltirib ularga katta yordam berishadi. O‘qituvchi mavqei va obro‘si hech qachon ota-onalar tomonidan shubha ostiga olinmaydi. Ular har doim o‘qituvchi tomonida turishadi.

- Singapur o‘qituvchilari kuniga 10-12 soatdan ishlashadi. Maktabda dars berishdan oldin ular katta tayyorgarlikdan o‘tishadi. Oliy o‘quv yurtini bitirgan yosh o‘qituvchi maxsus tayyorgarlik kursidan o‘tgandan keyingina maktabda dars berishga qo‘yiladi. Ular o‘z dars berish malakalarini yana bir marta isbotlab berishi lozim bo‘ladi.

- Boshlang‘ich maktabda matematika har kuni 1 soat hajmida o‘qitiladi.

- O‘quvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishi darsdan keyingi,

- Odatda dars yangi turdagi masalani yechish qoidasidan emas, balki bevosita notanish masalani yechishdan boshlanadi. O‘quvchilar oldingi bilim va ko‘nikmalari asosida intuitiv ravishda masalani yechishga urinib ko‘radilar. Ular birgalikda “urinish, xato qilish va uni tuzatish” orqali mulohaza yuritadilar, xatolar qiladilar hamda bu xatolar ustida ishlashadi, shu asosida to‘g‘ri yechimga bosqichma-bosqich yaqinlashib borishadi. Bu o‘rinda, o‘quvchilar xato qilish unchalik yomon ish emasligini, aynan turli xato yechimlarni tahlil qilish va tekshirish (kichik tadqiqot) jarayoni bora- bora ularni to‘g‘ri yechimga olib borishini o‘z tajribalari asosida tushunib yetishadi.

- O‘quvchilar bir necha kishilik kichik guruhlarda interfaol ishlar bilan shug‘ullanadilar. Masalani jamoa bo‘lib yechishga o‘rganadilar, mavzuni

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘limning yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. Maktab ta‘lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘naltiruvchi nuqtasi sifatida maktab o‘quvchilari funksional savodxonligini rivojlantirish ularning jamiyatda faol ishlash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi bandlarda keltirilgan xalqaro tadqiqotlar natijalari va tahlillaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish uchun ularning bilim va ko‘nikmalariga quyidagi talablarni qo‘yish mumkin:

- matematikaga oid ta‘riflar, formulalar va boshqa faktlarni o‘quv va ma‘lumotnomalardan qidirish va foydalanish;

- turli hayotiy vaziyatlarda algebraga doir bilim, ko‘nikma va grafik malakalarini qo‘llash;

- ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash, sintez qilish;

- o‘zlashtirilgan algebraik almashtirishlarni va funksional grafik tasvir va tasavvurlarni tevarak-atrofdagi yoki boshqa fanlardagi tegishli ob‘ektlarni ifodalash va tahlil qilishda qo‘llash;

- o‘z nuqtai nazarini asoslay olish, uning muhokamasida ishtirok etish va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri xulosa chiqarish;

- matematik matn bilan ishlash (tahlil qilish va kerakli ma‘lumotlarni chiqarib olish), o‘z fikrini matematik atamalar, timsollar va ramzlar yordamida aniq va to‘g‘ri yozish hamda og‘zaki va yozma izhor qila olish;

- amaliy xarakterdagi hayotiy masalalarni yechish, zarur hollarda ularni yechishda kerakli ma‘lumotnomalar va hisoblash vositalarini qo‘llay olish,

- jadvallar, diagrammalar, grafik ko‘rinishdagi real raqamli ma‘lumotlarni hamda statistik xarakterdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish;

Mavjud vaziyatni hal qilish uchun matematika o‘qituvchilariga quyidagilarga e‘tibor berish **tavsiya** etiladi:

- matematik nutqni to‘g‘ri va aniq shakllantirish;
- matnli masalalarini yechishda matematik mazmun va usullarni ajratib ko‘rsatish va yangi holatga qo‘llash;
- masala shartlarini matnli ko‘rinishdan matematik tilga o‘girish va bu shakl almashtirishlarning mazmun va mohiyatini ochib borish;
- o‘quvchilarda ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va faol aqliy harakatlarni amalga oshirishlari uchun muammoli vaziyatlarni yaratish.
- ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning tabaqalashtirilgan individual shug‘ullanish traektoriyalarini yaratish;
- darsda interfaol va faol ta‘lim texnologiyalari:
- loyiha metodi, keys, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, matn bilan ishlash, klaster,

#### **Adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004,
2. Yunusova D. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. 2020 y.
4. Xodjiyev S, A.Ubaydulloyev Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalarini o‘rganish bo‘yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet <http://erus.uz/index.php/er/article/view/16>
5. Ubaydullayev A.N. Methodology for Developing Professional Competence of Students Using Digital Technologies in Practical Training. Journal of Survey in Fisheries Sciences (SFS) 10(2S) 1355-1362, ISSN: 2368-7487, 2023. url: <https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/870>.
6. Turdiyev N.Sh , Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari, T. Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015.-160.
7. Abdurahmonov B. Matematik induksiya metodi/ Toshkent, 2018 y.

## KIMYO DARSLARIDA ASOSIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

*Qaxxorov Madamin Abdinabievich,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti  
mqaxxorov@gmail.com*

*Ushbu maqolada kimyo darslarini yangi texnologiyalar asosida o‘quvchilarga ijodkorlik muhitini yaratishga qaratilgan. O‘quvchilarga nafaqat reproduktiv vazifalar, balki kompetensiyaga yo‘naltirilgan vazifalar ham taklif etiladi, ularning maqsadi turli xil hayotiy vaziyatlarda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga qaratilgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, oriyentatsiya, shakllantirish, kimyo, moslashish, fikrlash, motivatsiya, tadqiqot ishi, mezon, tahlil, dars, usul, maktab, ta‘lim, vazifa, qiziqish, tabiiy.*

### ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ ХИМИИ

*Данная статья направлена на создание атмосферы творчества учащихся на уроках химии на основе новых технологий. Учащимся предлагаются не только репродуктивные задания, но и компетентностно-ориентированные задания, целью которых является развитие базовых компетенций, направленных на умение применять полученные знания в различных жизненных ситуациях.*

***Ключевые слова:** компетентность, направленность, формирование, химия, адаптация, мышление, мотивация, научно-исследовательская работа, критерий, анализ, урок, метод, школа, обучение, задача, интерес, естественный.*

### WAYS TO DEVELOP BASIC COMPETENCIES IN CHEMISTRY LESSONS

*This article is aimed at creating an atmosphere of creativity for students in chemistry lessons based on new technologies. Students are offered not only reproductive tasks, but also competency-oriented tasks, the purpose of which is to develop basic competencies aimed at the ability to apply acquired knowledge in various life situations.*

***Key words:** competence, orientation, formation, chemistry, adaptation, thinking, motivation, research work, criterion, analysis, lesson, method, school, education, task, interest, naturalness.*

**Kirish.** “O‘zbekiston Respublikasida ta‘limni modernizatsiya qilish konsepsiyasi”da o‘quvchilarning ta‘lim faoliyatining mustaqilligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘rta maktab bitiruvchisiga qo‘yiladigan talablar nafaqat o‘quvchilarning fan bilimlari, ko‘nikma va malakalarini egallashlarini, balki turli faoliyat usullarini ham egallashlarini nazarda tutadi. Dars o‘quvchilarning tabiiy qiziquvchanligini, ularning qiziqish va muammolarni hal qilish uchun mustaqil ishlash istagini saqlab qolishga yordam beradigan sharoitlarni yaratishi kerak. O‘quvchilarning malaka va malakalarini rivojlantirish ustuvor maqsaddir.

Umumta‘lim fanlari bo‘yicha uzluksiz ta‘limning o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat ta‘lim standartlari (DTS) va o‘quv dasturlari loyihalarining tajriba-tadqiqot ishlari amaliyotga joriy etish va erishilgan natijalardagi kamchilik-muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy-metodik kengashlarda tajriba-tadqiqot ishlarini o‘tkazilish maqsadga muvofiqligi aniqlangan.

Umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablari umumta‘lim fanlari bo‘yicha ta‘lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta‘lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi.

O‘quvchining kompetentligiga doir turli kompetensiyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular kreativ (ijodiy) yo‘nalishga ega. Kreativ kompetensiyalarga «tajribadan biror foydali ma‘lumot chiqarib olish», «muammoni yecha olish», «oldingi va hozirgi voqealar orasidagi o‘zaro aloqani ochish», «yangi yechimlarni topa olish» kabilar kiradi. Ma‘lumki, ba‘zi kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ularni uchta darajaga bo‘lish mumkin:

- 1) tayanch kompetensiyalar – ta‘lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;
- 2) umumpredmet kompetensiyalar – ma‘lum doiraga kiruvchi o‘quv predmetlari va ta‘lim sohalariga tegishli;



3) predmetga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib, o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Umumta'lim maktabida muammolarni yechishga tayyorlik, o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik, sxemalar, dialoglar, savol-javoblar, ularni muammoli vaziyatlarga o'tkazish, o'yin lahzalari, taqqoslash va o'xshatish, badiiy vositalardan foydalanish, o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik asoslarini yaratish zarur va mumkin. AKTdan foydalanish.

Kimyo darslarida biz ijodkorlik muhitini, atrofimizdagi dunyoni o'rganish va anglash istagini yaratishga qaratilgan texnologiyalardan foydalanamiz. O'quvchilarga nafaqat reproduktiv vazifalar, balki kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar ham taklif etiladi. Vazifalari, ularning maqsadi turli xil hayotiy vaziyatlarda olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga qaratilgan asosiy vakolatlarini rivojlantirishdir.

Kompetensiyaga yo'naltirilganlikdan kutilgan natijalar, vazifalar:

- bilim darajasini oshirish .
- OUNning shakllanishi .
- o'quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini shakllantirish.

Quyida keltirilgan kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar o'quvchilarning axborot, muloqot va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularga ma'lumotni izlash va tanlashga, sinfdoshlari bilan ochiq gapirishga, savollarga javob berishga o'rgatishga qaratilgan. Topshiriqlar o'quvchilarning ma'lumotni takrorlash yoki individual harakatlarini emas, balki ularning faoliyatini tashkil qiladi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar:

- "Nima keraksiz."

Muayyan mavzu mazmunini aks ettiruvchi assotsiativ turkum taklif etiladi. O'quvchilarga materialni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beruvchi qo'shimcha tushunchani topish taklif etiladi. Vazifa fan kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

- "Haqiqiy bayonot".

Mavzu bo'yicha to'g'ri va noto'g'ri bayonotlarni o'z ichiga olgan bayonotlar taklif etiladi. Topshiriq o'qituvchiga mavzuni o'zlashtirishini, sabab-natija munosabatlarini tushunishini nazorat qilish imkonini beradi va fan kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

- "Samarali vazifalar".

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** O'quvchilardan mavzu bo'yicha diagramma, jadval yoki qo'llab-quvvatlovchi xulosa tuzish va taqdim etish taklif etiladi. Vazifalarning matni faqat savolni o'z ichiga oladi - o'quvchidan aniq harakatlarni talab qiladigan vazifaning bir qismi. O'quvchi nafaqat ma'lumotni ajratibgina qolmay, balki uni qayta ishlash bo'yicha harakatlarni ham bajaradi.

Qobiliyatga yo'naltirilgan vazifalarni kuzatish mezonlari:

1-bosqich - umumiy madaniy: o'quvchi mavzuning asosiy qoidalarini tushunadi, qoidani tushuntira oladi, uni namuna bo'yicha qo'llaydi va samarali xarakterdagi savollarga javob beradi.

2-bosqich – qo'llaniladigan: yuqoridagilardan tashqari o'quvchi o'zgargan vaziyatda topshiriqlarni bajaradi, mavzuning konseptual apparatining tizimli mohiyatini (o'zaro aloqalarini) tushunganini uning doirasidan chiqmasdan ko'rsata oladi.

3- bosqich - ijodiy: o'quvchi o'z doirasidan tashqaridagi muammolarni hal qila oladi, maqsad va harakat dasturini mustaqil ravishda tanlaydi.

Aralashmalarni ajratish usullarini o'rganishdan 4 yil o'tganiga qaramay (aralashmalarni ajratish 7-sinf mavzusi), o'quvchilarning ko'pchiligi berilgan savolga to'g'ri javob berishdi: geterogen aralashmada moddalarning turli xil eruvchanligini qo'llash erituvchining bug'lanishi va bir xil aralash aralashmalardagi moddalarning qaynash nuqtalaridagi farqlardan foydalanish (distillash). Ba'zi ishlarda "improvizatsiya qilingan" materiallardan foydalanilgan holda suvni tozalashning kimyoviy usullari taklif qilingan: kaltsiy gidroksidi (o'chirilgan ohak), kaltsiy karbonat (bo'r, ohaktosh) yoki soda, so'ngra eritmani distillash.

Savolga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, ayrim o'quvchilar moddalarning kimyoviy xossalarni yaxshi tushunganlar, lekin ularning biologik ta'sirini bilishmaydi. Shu bilan birga o'quvchilar matematika darslarida olgan bilimlaridan foydalandilar. Masalan, bir o'quvchi shunday yozadi:

“Shunday qilib, bizga noma'lum sabablarga ko'ra avtomobil akkumulyatoridagi elektrolit ichimlik suvi qudug'iga tushib ketdi. Va bu sulfat kislotadan boshqa narsa emasligi sababli ( $H_2SO_4$ ), unda bu "umidsiz" vaziyatda biz kislotani gidroksidi bilan neytrallashimiz kerak. Bunday holda, pishirish soda 5% eritmasidan foydalaning . Shunday qilib, bizning harakatlar rejamiz quyidagicha bo'ladi:

Quduqimizdagi suv hajmini hisoblaymiz:

dumaloq quduq :  $V = \pi r^2 h$  Qayerda  $r = \frac{AB}{2}$ ; h - quduqdagi suv darajasi ;

b) to'rtburchak (kvadrat) quduq  $V=abh$  bu erda

a - kenglik,

b - uzunlik,

h - quduqdagi suv darajasi ;

Eslatma: qulaylik uchun biz kerakli miqdorlarni litrda o'lchaymiz. Olingan raqam - quduqdagi litrlar soni.

Kislota neytrallash uchun kerakli miqdordagi sodani hisoblaymiz.

Sodani suvda tezroq eritish uchun quduqdan 1 chelak (5 litr) suv oling va hisob-kitob natijasida olingan sodaning kerakli massasini eritib yuboring.

Olingan eritmani quduqqa to'kib tashlang va aralastiring (tayoq bilan).

Bizning harakatlarimiz davomida  $2\text{NaHCO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$  biz natriy sulfatni oldik, u inson tanasi uchun oz miqdorda zararsizdir (siz uni ichishingiz mumkin).

Ishini tahlil qilganda, faqat bitta ish natijasida hosil bo'lgan natriy sulfat kuchli laksatif ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi, shuning uchun kislotani neytrallashdan keyin suvni distillash kerak.

Ko'pgina o'quvchilar sulfat ionlarini bariy ionlari bilan cho'ktirishni taklif qilishdi, bu kimyoviy nuqtai nazardan to'g'ri, lekin, birinchidan, uyda amalga oshirish mumkin emas, ikkinchidan, eruvchan bariy birikmalarining yuqori toksikligini hisobga olmaydi.

Suvni sulfat kislotadan tozalashning mutlaqo hayoliy usullari taklif qilindi, bu zamonaviy inson har kuni duch keladigan moddalarning xususiyatlaridan to'liq bexabarligini ochib berdi: "Elektrolitning zichligi suv zichligidan kamroq bo'lgani uchun u yer yuzasiga suzadi va, yonayotgan gugurt bilan o'tkazilsa, yonadi va yonib ketadi, shunda chuchuk suv tozalanadi": "Chuchuk suv kislota bilan birlashganda NaOH ni olish mumkin. Suvdan natriyni olib tashlash uchun  $\text{NaOH} + \text{HCl} = \text{NaCl} + \text{H}_2\text{O}$  reaksiyasini olib borish kerak. Bu NaCl hosil qiladi, lekin u odamlar uchun zararsizdir.

Adabiyotlarni tahlil qilganda, ular ma'lumotni grafik shaklda taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. O'quvchilarning aksariyati aralashmaning tarkibiy qismlaridan birini ajratish uchun foydalanishni taklif qilgan "o'rnatish" ning chizmalarini taqdim etmadi, faqat og'zaki tavsif bilan cheklandi.

Bu topshiriq o'quvchilarning 7-sinfda o'rgangan aralashmalarni ajratish usullari haqidagi bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Bu bilimlar kimyoni keyingi o'rganishda amalda qo'llanilmadi. Vazifaning matni va aralashmalarning tarkibi o'quvchilarni kundalik hayotga iloji boricha yaqinroq qildi, chunki ularning faktik asoslari ommaviy axborot vositalaridan olingan kuzatishlar va bilimlar va maktab o'quvchilariga ma'lum bo'lgan shaxsiy tajriba edi. Malakaga yo'naltirilgan vazifalarga bir nechta misollar keltirishingiz mumkin :

Atom elektr stansiyasida jiddiy muammolar mavjud. Ulardan biri chiqindilarni utilizatsiya qilishdir. Atom elektr stansiyalarining radioaktiv chiqindilari barcha tirik mavjudotlar uchun halokatli hisoblanadi. Ko'mir kuli bilan qilinganidek, ularni axlatxonalarda qoldirish mumkin emas. Yoqib yuboring, eritib yuboring - ham. Bundan tashqari, deyarli barcha AES uskunalari oxir-oqibat "chiqindiga" aylanadi. 25-30 yildan so'ng - va aynan shu AESlar ishlash davri uchun mo'ljallangan - ularning jihozlarini demontaj qilish va... biror joyga qo'yish kerak. Qayerda? Hozircha hech kim bilmaydi. Dunyoda hali bunday tajriba yo'q. Qo'rg'oshin idishlaridagi sarflangan grafit bloklari chuqur konlarga tushiriladi, okeanlarga botiriladi va suyuq shisha bilan to'ldiriladi. Endi bunday chiqindilar nisbatan kam - lekin qachon minglab tonnalar bo'ladi? Nima qilish kerak? Ko'pchilik talab qilganidek, atom elektr stansiyalaridan voz kechish kerakmi? Bu muvaffaqiyatga erishishi dargumon, chunki hali atom energiyasiga jiddiy muqobil yo'q. Dunyoda 440 ta atom elektr stansiyasi mavjud. Ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi allaqachon 18 foizdan oshdi, atom elektr stansiyalarining umumiy quvvati esa har yili 8-10 foizga oshib bormoqda.

Radioaktiv chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun qanday yechim taklif etiladi? Turli yondashuvlarni solishtiring va o'z nuqtayi nazarini bildiring.

**Tabiatdagi vodorod.** Boussingo (1833) va ayniqsa A.Gotye (1899) tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, havo doimo, hatto baland tog'larda ham, taxminan 0,02% (hajm bo'yicha) vodorodni o'z ichiga oladi. Atmosferadagi vodorod qisman suvda oksidlanishi va qisman sayyoralararo bo'shliqqa olib tashlanishi kerakligi sababli, uning harakatining yuqori tezligi diffuziyani belgilaydi, shuning uchun havoda vodorodning doimiy mavjudligini doimiy bo'lmasa, tushunib bo'lmasligi aniq. vodorod hosil bo'lish manbalari tabiatda mavjud.

**Xulosa.** Kompetentsiyaga yo'naltirilgan vazifalardan foydalanish olingan kompetentsiyalarni hayotiy vaziyatlarda amalda qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi. Asosiy kompetensiyalarning rivojlanishini monitoring qilish usullaridan biri o'quv yili yakunida bo'lib o'tgan ilmiy-amaliy konferensiyada taqdim etilgan o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlaridir.

O'quvchilar tanlangan mavzu bo'yicha o'zlarining tadqiqotlarini o'z ichiga olgan tezislar tayyorlaydilar, maqsad qo'yishni o'rganadilar (muammolarni hal qilish kompetensiyasi), elektron taqdimotlar

yaratadilar (axborot kompetensiyasi) va turli darajadagi ilmiy va amaliy konferentsiyalarda nutq so'zlashni o'rganadilar (kommunikativ kompetensiya).

Shunday qilib, asosiy kompetensiyalarning rivojlanishi butun o'quv yili davomida nazorat qilinadi. Tadqiqot mavzusining murakkabligi, uni ochib berishning chuqurligi, turli manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot olish qobiliyati, so'z boyligining o'sishi va natijada kognitiv faollikning o'sishi o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish bo'yicha olib borgan ishining natijasidir.

Zamonaviy dars o'qituvchining darsning rivojlanish potentsialiga qarashini nazarda tutadi: o'quvchilarning muammoli-ijodiy, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, o'quvchilarning mavzu, fandan tashqari, asosiy ta'lim qobiliyatlarini shakllantirish, hissiy va motivatsion qobiliyatlarni rivojlantirish. shar. Bilim o'z-o'zidan maqsad emas, balki insonning dunyoda o'zini o'zi belgilash vositasi, bolaning madaniyatga kirishi va madaniy makonda o'zini anglashi uchun vosita - zamonaviy o'qituvchi shunga intiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Максимова А.А. Развитие коммуникативных умений школьников в сюжетно-ролевых играх. // Нач.шк. Плюс. До и после. 2005. №1.
2. Хуторский А.В. Ключевые компетенции: технология конструирования. // Народное образование. 2003. №5.
3. Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. М. Из-до БИНОМ. Лаборатория знаний. 2013.

## JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

### 18-21 YOSHLI GANDBOLCHI QIZLARINING JISMONIY SIFATLARINI OSHIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING O‘QUV-MASHG‘ULOT JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI

*Abduyeva Sitorabonu Sariddin qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida o‘qituvchisi  
sitorabonu.savriddinovna93@mail.ru*

*Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida gandbolchilarni tayyorlashning usullarini ishlab chiqish, gandbolchilarni jismoniy sifatlarini oshirishga va musobaalarda yuqori natijalarini jadal o‘shirishda dastlabki tayyorgarlik bo‘lajiklarida zamon talablariga javob beradigan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkillashtirishning optimal tizimini izlab topish talabini qo‘ymoqda. Shu bois gandbolchilar bilan o‘tkaziladigan har bir mashg‘ulotni ilmiy asosda tashkil etish kelajakda raqobatbardosh jamoani shakillantirishda muhim vazifalardan hisoblanib sohada ham nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** harakatli o‘yinlar, gandbolchi qizlar, jismoniy sifatlar, chidamlilik, tezkor-kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, o‘quv-mashg‘ulot*

### РОЛЬ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПОВЫШЕНИИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ДЕВУШЕК-ГАНДБОЛИСТОК 18-21 ЛЕТ

*В данной статье ставится задача разработки методов подготовки гандболисток в образовательных учреждениях, поиска оптимальной системы организации тренировок, отвечающей требованиям времени на начальных этапах подготовки гандболисток к повышению их физических качеств и стремительному росту их высоких результатов на соревнованиях. Поэтому организация каждой тренировки с гандболистками на научной основе будет считаться одной из важнейших задач формирования конкурентоспособной команды в будущем и будет иметь как теоретическое, так и практическое значение.*

***Ключевые слова:** подвижные игры, гандболистки, физические качества, выносливость, быстрота, сила, ловкость, гибкость, учебное занятие.*

### THE ROLE OF ACTIVITY GAMES IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF 18-21-YEAR-OLD GIRLS HANDBALL PLAYERS

*In this article, the development of methods for training handball players in educational institutions is demanding to improve the physical qualities of handball players and seek an optimal system of organizing training sessions that meet the requirements of the times in the initial preparatory barrels in the rapid growth of their high results in competitions. Therefore, the organization of each training session with handball players on a scientific basis is considered one of the important tasks in the formation of a competitive team in the future and acquires both theoretical and practical significance in the field.*

***Keywords:** action games, handball girls, physical qualities, endurance, speed-strength, agility, flexibility, training.*

**Kirish.** Harakatli o‘yinlar talabalarni charchashdan chalg‘ituvchi tarbiyaviy va ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani uchun organizmga yengiroq ta’sir etadi. Shuningdek, bu o‘yinlar tanlab olgan sport turiga xos maxsus malakalarni takomillashtirishga juda qo‘l keladi. O‘yin odamzod taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan.

**Asosiy qism.** Gandbol mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlar sportchilarni har tomonlama jismoniy tarbiyalashning eng samarali vositasidir. Harakatli o‘yinlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular yosh gandbolchi qizlar tomonidan quvonch bilan qabul qilinadi hamda katta hayajon va yuqori shodlik darajada o‘tadi. Bularning barchasi murabbiy-o‘qituvchi uchun tarbiyalanuvchilar tashabbusini boshqarish va ularga aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan irodani singdirishning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi [8; -83 b.].

Sport o‘yinlaridan gandbol turli-tuman harakat faoliyati bilan ifodalanadi. Gandbol o‘yin asosini

yugurish, sakrashlar, to‘pni uzatish, to‘pni qabul qilish, to‘pni ilib olish, darvozaga to‘p otishlar hamda turli xil chaqqonlik, tezkor-kuch mashqlarni o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotlar ta‘sirida, shuningdek, musobaqalarda shug‘ullanuvchilarning ruhiy faoliyati takomillashadi, tezlik reaksiyasi, ijodiy fikr yurguzish, diqqatning ko‘lamini oshirish, tashabbuskorlik, irodasini mustahkamlash kabi sifatarni rivojlantiradi [6;-7 b.].

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, gandbolchilarning chaqqonligini, tezkor-kuch sifatlarini, harakat samaradorligini rivojlantirish va takomillashtirish borasida o‘z fikrlarni bildirishganki, bunga ko‘ra o‘yindagi vaziyatlarni tezkor baholash, tez o‘zgaruvchan o‘yin sharoitiga moslasha bilish, kuzatuvchanlik, mo‘ljalga aniq otish, mo‘ljalda maydonni aniq his qila olish, qisqa fursat ichida turli murakkab vaziyatda aniq to‘xtamga kelish, uni his qilish va o‘z harakatlarini shu vaziyatga moslashdek hayotiy zaruriy amaliy harakat malakalarini shakllantirishda sport o‘yinlari, harakatli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [2; -219 b.]. Tezkorlikka tayyorgarlik jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini zamonaviy sport amaliyoti tasdiqlaydi va ilmiy- nazariy asoslab beradi.

Harakatli o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarda asab zo‘riqishlarini uyg‘otishga va ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirishga imkon beruvchi samarali vosita va usullardan biridir. Shu asnoda harakatli o‘yinlar nafaqat yangi shug‘ullanuvchilar bilan, balki tajribali sportchilar mashg‘ulotlarida ham qo‘llaniladi [9; -126 b.].

Dastlabki o‘quv mashg‘ulotining asosiy qismida maxsus mashqlar bilan bir qatorda harakatli o‘yinlari ham qo‘llash ijobiy natija beradi. Ular sportchilarning jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligi vazifalarini hal etishga yordam beradi. Ko‘pchilik murabbiylar o‘quv-mashg‘ulotni o‘rgatish jarayonida shug‘ullanuvchilarga to‘p bilan mashq bajarishning o‘yinli shaklini taklif qiladilar. Shuningdek, sport o‘yinlarini asta-sekin murakkablashtirilgan holatda, shug‘ullanuvchilarni mustaqil ravishda mashg‘ulotdagi yoki musobaqa jarayonidagi muammolar yechimlarini tanlashga o‘rgatadilar. Bunday xatti-harakatlar kerakli malakani mustahkamlashga va uni musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan sharoitlarda takomillashtirishga imkon beradi [9; -90 b.].

Bu vositalar sifatida harakatli o‘yinlar, maxsus o‘yinli o‘quv-mashqlari ishtirokida ularning mazmuni hal etilishi mumkin, birinchi navbatda, koordinatsion sifatlar: maydonda mo‘ljal olish, vaziyatlarda reaksiyaga kirish va harakatlarga vaqti kelganda o‘zgartirish, qayta tiklanish tezkorligi, hamda aniqligi, harakatlarning fazoviy, vaqt va kuch parametrlarining aniq tabaqalash ritmini his qilishini shakllantirish va maqsadli ta‘sir ko‘rsatish imkonini yaratadi [5; -75 b.].

Jismoniy sifatlarning eng muhim qirrasini bu uning har tomonlamaligi deb hisoblash qabul qilingan. U quyidagilarni ham o‘z ichiga oladi:

-Axborotni qayta ishlash yengilligi, tezligi va pishiqligi;

-Vaziyatni baholash va uning yechimini oldindan ko‘zlay bilish asosida qarorlar qabul qilish ko‘nikmasi;

-Samarali, mustaqil va ijodiy harakat qilish qobiliyati;

-Texnikalarni egallash ko‘nikmasi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish yo‘li bu-faoliyatni baholash va uni son hamda sifat jihatdan rag‘batlantirishdir.

Gandbol o‘quv- mashg‘uloti jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish ustida ishlash harakat malakalarini puxta egallashga, tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Hozirgi davrda amaliyotchilar va tadqiqotchilar tomonidan bu narsa isbotlanganki, jismoniy sifatlar, agar o‘quv-mashg‘ulotlar turli xil vositalarni qo‘llagan holda umumiy uslub asosida o‘tkazilsa, muvaffaqiyatliroq shakllantiriladi [4; -110 b.; 8; -77 b.].

T.S.Usmanxodjayev [2017] va boshqalar tomonidan keltirilgan fikrlarga ko‘ra, dastlabki tayyorgarlik davrida tezlik sifatini oshirish uchun samarali vositalaridan biri harakatli va sport o‘yinlaridan osonlashtirilgan qoidalari bo‘yicha foydalanish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Qisqa masofalarga yugurish, estafetalar, sakrashlar, gimnastik va akrobatik mashqlar, tezlikni rivojlantirish asosiy kompleks uslubi, ya‘ni uslubiyati majmuasi uning mazmunini muntazamlilik bilan harakatli va sport o‘yinlaridan, ya‘ni o‘yinli mashqlar, turli tezlik kuchi va tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar orqali harakat shiddatini maksimal darjada oshirish [6; -20 b.; ].

O‘yinlar eng samarali tarbiya vositasi bo‘lib, bolalarda harakatli va boshqa o‘yinlar orqali jismoniy hamda axloqiy fazilatlarini shakllanadi, hayotga tayyorganlik ko‘radi, turmushdagi qiyinchiliklarni yengishni mashq qiladi, ish va kurashda g‘alaba qilishga o‘rgatadi. Masalan, “Bo‘ron”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Koptok talashish”, “Burgut va burgutchi” kabi harakatli o‘yinlarning sport mashg‘ulotlariga kiritilishi bir qator maxsus vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi. Sportchilarning o‘yindagi harakatlari samaradorligi o‘yindagi vazifalarini tezkor ravishda baholashga va o‘yinchilarning harakatlariga, texnik usullarni takomillashtirishga, jismoniy rivojlanish darajasiga bog‘liq.



Harakatli o‘yinlarni saralab olish yo‘li orqali 18-22 yoshli qizlarda gandbol sport turiga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga maqsadli ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Masalan, ”Qal’a ximoyasi”, ”Doiradan surib chiqar”, ”To‘p uchun kurash” hamda ”Merganlar”. Bu harakatli o‘yinlar gandbolda yuqori darajadagi samaradorlik bilan ajralib turishi aniqlangan. O‘quv mashg‘ulotlarda maxsus mashqlar bilan bir qatorda harakatli o‘yinlarini kiritilishi sportchilarning jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligi vazifalarini hal etishga yordam beradi. Ko‘pchilik murabbiylar o‘rgatish jarayonida shug‘ullanuvchilarga to‘p bilan mashq bajarishning o‘yinli shaklini taklif qiladilar. Ular sport o‘yinlarini asta-sekin murakkablashtirib berib, shug‘ullanuvchilarni mustaqil ravishda yechimlarni tanlashga o‘rgatadilar. Bunday xatti-harakatlar kerakli malakani mustahkamlashga va uni musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan sharoitlarda takomillashtirishga imkon beradi.

**Talabalarning gandbol sport turini tez va oson o‘rganib olishlari maqsadida ularda quyidagi o‘yinlar orqali tajriba sinov ishlari olib borildi:**

T/r	O‘yinlarning tasniflanishi	O‘tkaziladigan o‘yinlar
1	<b>Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar</b>	<p><b>Kuch:</b> ”Arqon tortish”, ”Chillak”, ”Maymunchalar”, ”Oq ayiqlar” ”Tortishmachoq”, ”Tosh ko‘tarish”, ”Doirada tortish”, ”Xaltachalarni otish” ”Do‘ngdan do‘ngga” ”Oq terakmi, ko‘k terak”, ”Koptok talashish”, ”To‘p sardorga”, ”Doiradan surib chiqar”, ”Ovchilar”</p> <p><b>Tezkorlik:</b> ”Kun va tun”, ”Qo‘lingni ber petna”, ”Arg’amchi bilan sakrab yugurish” ”Quvlashmachoq”, ”Estafeta yugurish” ”Ovchilar va o‘rdaklar”, ”Tun va kun”, ”To‘p uchun kurash”, ”Burgut va burgutch”, ”Qo‘l to‘pi musobaqasi”, ”To‘pni yugurib olib yurish”, ”To‘p bilan” estafetasi, ”Jamoali yugurish”</p> <p><b>Chidamlilik:</b> ”Zambil-g‘altaklar”, ”Baqalar estafetasi”, ”Qurshovdan chiqib ketish”, ”Yuklar bilan yugurish” ”Baqa”, ”Uzatdingmi o‘tir”, ”Kengurular estafetasi” ”Bo‘ron”, ”To‘pni ustunlararo olib yurish” ”Merganlar”, ”Kengurular”</p> <p><b>Egiluvchanlik:</b> ”Ko‘prik va mushuk”, ”Kartoshka ekish”, ”To‘ldirma to‘pni uzatish”, ”Mergan”, ”To‘ldirma to‘p bilan o‘ynash”, ”Epchil darvozabon”, ”To‘p bilan to‘pni urish”, ”Qubba 2”</p> <p><b>Chaqqonlik:</b> ”Bo‘ron” ”Bulavalar bilan estafeta”, ”Hujum”, ”Arg’amchi bilan sakrab yugurish”, ”Chaqqon qo‘llar”, ”Kim chaqqonroq ” ”Qal’ani ximoyalash”, ”To‘pni yerga tushirma”, ”To‘pni uzatish”, ”To‘pni oldirma”, ”To‘satdan nishonga”, ”To‘pni qaytib otib o‘tir”, ”Yaguar”</p>
2	<b>Texnik va taktik harakatlarni o‘rgatuvchi o‘yinlar</b>	<p>”To‘p o‘rtaga”, ”To‘p bosh ustida”, ”To‘pni sherikka uzatib yugurish estafetasi”, ”To‘pni yerga urib olib yurish”, ”Nishonga tekiz”, ”To‘pni kim ko‘p uradi”, ”Regbi”, ”Tennis koptokchani uzatish”, ”Harakatlanish estafetasi”, ”Ko‘chma darvoza”, ”Kengurular estafetasi”, ”to‘p talashish”, ”Signalga quloq sol”, ”Sakrab oshish estafetasi”, ”To‘p bilan to‘pni urish”</p>
3	<b>Psixologik qobiliyatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar</b>	<p><b>Diqqat:</b> ”Ta‘qiqlangan harakat”, ”Shaxmat”, ”Signalga quloq sol”, ”Ko‘chma nishon”, ”Juftmi-toq”, ”Danak”,</p> <p><b>Xotira:</b> ”Daqiqa”, ”Xotira mashqi ” ”Ta‘qiqlangan harakat”,</p>
4	<b>Nutq-talaffuzni shakllantiruvchi o‘yinlar</b>	<p>”Kim oladi”, ”Oq terakmi ko‘k terak”, ”Tez aytish” ”G‘ozlar va bo‘ri”</p>

18-22 yoshli dastlabki tayyorgarlik bohqichidagi gandbolchi qizlarning o‘quv mashg‘ulotlariga saralab olingan etnosport va harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali ularning UJT, MJT hamda harakat tezkorligini rivojlantirish va ularni tayyorlash tadqiqot ishimizning eng muhim vazifasidir. Tadqiqot davomida dastlabki tayyorlov bosqichida gandbol o‘quv-mashg‘ulotlari jarayonida tanlab olingan harakatli o‘yinlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi mezonlarini inobatga olib, o‘yinlar qizlarda quyidagi mushak guruhlarni, harakat qobiliyatlari va sportga xos fazilatlarini rivojlantiradi:

Chidamlilikni ustivor rivojlantirishiga qaratilgan harakatli o‘yinlar: ”Zambil-g‘altaklar”, ”Baqalar estafetasi”, ”Qurshovdan chiqib ketish”, ”Yuklar bilan yugurish” o‘yinlari gandbol uchun xos bo‘lgan harakat yo‘nalishini o‘zgartirgan holda o‘tkazilib, ushbu sport turi uchun muhim bo‘lgan turli xil koordinatsion qobiliyatlarning kompleks rivojlantirishga yordam beradi. Bu o‘yin tezlik, tezkor-kuch va

chidamlilikni rivojlantiradi. “Bo’ron” “Bulavalar bilan estafeta”, “Hujum”, “Arg’amchi bilan sakrab yugurish”, “Chaqqon qo’llar”, o’yini qo’llar va son mushaklarini, shuningdek, chaqqonlik va kuchini rivojlantirishga yordam beradi.

“Do’ngdan-do’ngga” va “Kengurular” o’yini vertikal sakrashlarda depsinishi tezkorligini rivojlantiradi, shuningdek, boldir mushaklari, tovon mushaklari, shuningdek, tezkor-kuch hamda chaqqonlikni rivojlantiradi.

“To’p uzatish” hamda “To’p bilan” estafetasi o’yinlari tezkorlik, chaqqonlik, umumiy chidamlilik, shuningdek, ma’lum darajada yugurishdagi koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Kuchni ustivor rivojlantirishga qaratilgan harakatli o’yinlar: “Arqon tortish”, “Chillak”, “Maymunchalar”, “Oq ayiqlar”, “Tortishmahoq”, “Tosh ko’tarish”, “Doirada tortish”, o’yinlari jarayonida gandbolchilarni maxsus kuch chidamliligini, shuningdek, elka kamari, qo’llar va qo’l kafti kuchi hamda oyoqlar kuchini rivojlantiradi.

**Xulosa.** Tezkorlikni ustivor rivojlantirishga qaratilgan o’yinlar “Kun va tun”, “Qo’lingni ber petna”, “Arg’amchi bilan sakrab yugurish”, “Quvlashmahoq”, “Estafeta yugurish” “Ovchilar va o’rdaklar”, “Tun va kun”, “To’p uchun kurash”, “Burgut va burgutcha”, “Qo’l to’pi musobaqasi”, “To’pni yugurib olib yurish”, “To’p bilan” estafetasi, “Jamoali yugurish” jamoa bo’lib siljib harakatlanish tezkorligini rivojlantirishga yordam beradi, “Kun va tun” o’yini start tezligi hamda murakkab reaksiyalar va harakatlanish tezkorligini rivojlantiradi. “To’p uchun kurash”, “To’p sardorga”, “Koptok talashish”, “To’pni oldirma”, “Qo’l to’pi musobaqasi” va “To’p bilan to’pni urish” kabi harakatli o’yinlarda to’pni uloqtirish va ilib olish malakalarini rivojlantiradi, shuningdek, maxsus shart- sharoitlarda harakatlanish tezkorligini va oqilona taktik yechimlarni izlab topish malakasini rivojlantirib gandbol o’yiniga tayyorlab o’yin jarayonida shug’ullanuvchilarda ziyraklik, diqqat, merganlik xislatlari rivojlanadi.

“Merganlar”, “Mergan”, “Ovchilar”, “Qubba-2” kabi o’yinlar qo’llar va panjalar kuchi hamda nishonga aniq tegish malakasini rivojlantirishga yordam beradi.

“Ovchilar va o’rdaklar”, “To’satdan nishonga”, “Burgut va burgutcha” o’yinlari harakatlar parametrlarini baholash qobiliyati, aniqlik, mo’ljal olish va harakatlarni qayta qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordamberadi.

“To’p bilan to’pni urish” o’yini nishonga olish va chamalash aniqligini hamda harakat amallarining tabaqalashgan parametrlari aniqligi qobiliyatini rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Тўлаганов Ш.Ф., Рахманова М.М. Гандбол назарияси ва услубияти. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Ўзкитобсавнашриёт”. 2020 й – 7 б.
2. Годик М.А. Педагогические основы нормирования и контроля. Автореф. дисс. соревновательных и тренировочныхнагрузок...докт.пед.наук. М.: 1982 г. 48 стр.
3. Акромов Ж.А., Павлов Ш.А., Абдурахмонов Ф.А.Гандбол. Программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. Т.; “Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти”. 2017 г. - 80 стр.
4. Асанов Б.И. Тактическая подготовка гандболисток-юниорок на основе организации стандартных групповых взаимодействий. Диссертация пед. наук. Ташкент 1993г. -33с.
5. Попович, Г. И. Мехович, Т.А. Коломийчук, С.Д.Кунышева, Е. А. Гончарова. Методика подготовки гандболистов на основе их анатомо-физиологических и индивидуальных особенностей. Екатеринбург. Издательство Уральского университета 2016. 83 стр.
6. Усмонхўжаев Т, Мелиев Х. “Миллий ҳаракатли ўйинлар”. Тошкент. “Ўқитувчи” . 2000.” - 22 бет.
7. Максимова С.С., Щенникова А.Г., Дружинина О.Ю. «160 игр для детей младшего школьного возраста на уроках гимнастики» учеб.метод. пособие.-ФГБОУ ВПО «УдГУ». Ижевск, 2012. 6-10 с.
8. Усмонхўжаев Т, Мелиев Х. “Миллий ҳаракатли ўйинлар”. Тошкент. - “Ўқитувчи” . 2000.” - 22 бет.
9. Максимова С.С., Щенникова А.Г., Дружинина О.Ю.«160 игр для детей младшего школьного возраста на уроках гимнастики» учеб.метод. пособие. - ФГБОУ ВПО «УдГУ». Ижевск, 2012. 6-10 с
10. Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball // Innovatsionnoe razvitie nauki i obrozovanie mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2020.

11. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi Analysis of the Theoretical Basis of Using Handball Teaching to 18-21- Year-Old Student Girls through Action Games Volume: 3 Issue:1 | January–2024 ISSN: 2720-6874 <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>

12. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi The Role of Action Games in the Training of Female Handball Players Volume: 3 Issue:1 | January–2024 ISSN: 2720-6874 <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>

## HOZIRGI BOSQICHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI

*Ikramov Amirbek Aminovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada yosh avlodning salomatlik holati jamiyat va davlat farovonligining eng muhim ko'rsatkichi ekanligi, yangi avlod standartlari-bu ma'lum bir ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlash va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish vositasi ekanligi, oliy o'quv yurtlari talabalari va bitiruvchilari kasbiy tayyorgarligining yuqori sifatini ta'minlashning eng muhim omili ularning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida amalga oshirilayotgan faol o'quv va kognitiv faoliyati ekanligi, hozirgi bosqichda oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning holati va istiqbollari, birinchi navbatda, ijtimoiy faoliyatning ushbu sohasi ta'lim sohasida kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi va kasalliklarning oldini olish, salomatlikni mustahkamlash va sog'liqni saqlashning zarur va muhim vositasi sifatida ko'rib chiqilishi bilan belgilanishi to'g'risida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, jismoniy rivojlanish, jismoniy mukammallik, sport, hayotiy faoliyat, zamonaviy o'qitish usullari, gigienik chora-tadbirlar, kasbiy tayyorgarlik, xalqaro malakalar.

## СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В ВУЗАХ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

*В данной статье объясняется, что состояние здоровья подрастающего поколения является важнейшим показателем благосостояния общества и государства, стандарты нового поколения-это средство обеспечения стабильности и постоянного совершенствования качества конкретного образования, важнейшим фактором обеспечения высокого качества профессиональной подготовки студентов и выпускников высших учебных заведений является их профессиональная подготовка, осуществляемая в результате применения современных образовательных технологий. Активная учебно-познавательная деятельность, состояние и перспективы развития физической культуры и спорта в высших учебных заведениях на современном этапе определяются, прежде всего, тем, что данная сфера общественной деятельности рассматривается как важная составляющая профессиональной подготовки в сфере образования и необходимое и важное средство профилактики заболеваний, укрепления здоровья и сохранения здоровья.*

**Ключевые слова:** физическая культура, физическое развитие, физическое совершенство, спорт, жизнедеятельность, современные методы обучения, гигиенические меры, профессиональная подготовка, международная квалификация.

## STATUS AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AT THE CURRENT STAGE

*This article states that the condition of health of the younger generation is the most important indicator of the well-being of society and the state, that the standards of the new generation are a means of ensuring the stability of a certain educational quality and its continuous improvement, that the most important factor in ensuring the high quality of professional training of students and graduates, at the present stage, it is stated that the state and prospects for the development of physical education and sports in higher educational institutions are determined, first of all, by the fact that this area of social activity is considered an important component of professional training in the field of education and as a necessary and important means of disease prevention, health promotion and health.*

**Keywords:** Physical Education, Physical Culture physical development, physical excellence, sports, vital activity, modern teaching methods, hygienic measures, Professional Training, International qualifications.

**Introduction.** In the world, it is of urgent importance to ensure the Spiritual, at the same time physical perfection of young people, the formation of their healthy life, physical culture by means of a socio-pedagogical phenomenon, physical exercise, that is, sports, which has been tested for centuries. Because sport is one of the factors that gives everyone a wide range of opportunities to form a healthy lifestyle,


regardless of nationality, race, religion. In foreign countries, special attention is paid to the content of integralization in the social, economic spheres, training of personnel in accordance with the requirements of international qualifications, the formation of their physical culture in education, the formation of practice in improving the educational process of the institution and the strengthening of its scientific and methodological base in this area. In education, the use of methods aimed at ensuring quality and studying advanced experiences, such as methods indicating the characteristics of mechanisms that shape and develop the physical culture of students, a system for maintaining indicators in balance, gross Quality Management, Quality Assurance, key indicators of efficiency, improving the quality of continuing education, is of scientific and practical importance. One of the main tasks in the conditions of updates carried out in the field of education in Uzbekistan is to increase the level of Health, Physical Culture of the growing younger generation. The new model of Education sets itself the goal of the formation of knowledge, skills and qualifications in students, as well as the formation of their physical culture, or rather, first of all, the development of a holistic physically healthy personality. Therefore, our President Sh. Mirziyoev notes the following about this: "We will attach great importance to the rapid development of Sports, the promotion and support of athletes who have achieved high results in international competitions." As an urgent issue, despite the fact that today the directions for improving the educational system of jisomny education are clearly defined, it can be observed that in the following years the number of adolescents and young students with low levels of physical and mental health increases. Therefore, the elimination of physical and mental deficiencies in students physical culture is one of the pressing pedagogical problems of the communicative development of teachers.

**Main part.** The health status of the younger generation is the most important indicator of the well-being of society and the state, because it not only reflects the situation in reality, but also predicts the future. The country's labor resources, its security, political stability, economic well-being and the moral level of the population are directly related to the health of students. New generation standards are a means of ensuring the stability of a given level of education quality and its constant reproduction and development. Being stable over a certain period of time, they are at the same time dynamic and open to change, reflecting changing social needs and the educational system's ability to meet them. It should be noted that the most important factor in ensuring the high quality of professional training of students and graduates of universities is their active educational and cognitive activities carried out as a result of the use of modern educational technologies.

The status and prospects for the development of physical culture and sports in universities at the present stage are determined primarily by the fact that this sphere of social activity is considered in the educational space as an important component of professional training and as a necessary and important means of preventing diseases, strengthening health, and maintaining the working capacity of students. Scientists and practitioners have repeatedly proved that regular physical education and sports activities stimulate mental activity. Students who regularly attend physical education classes are less likely to be addicted to drugs, alcohol, and nicotine compared to those who rarely turn to physical exercise. Having started systematic classes, many students simultaneously begin to observe the basic elements of a healthy lifestyle: eat rationally, give up bad habits, and be stricter about personal hygiene. All this determines and actualizes the importance of the academic discipline "Physical culture" at the university.

The educational process of higher education is based on the complex, systematic nature of education, upbringing and professional training of specialists, in which the formation of a worldview, socio-political, labor, moral, physical, aesthetic and other types of education organically merge. Time has proven that parenting is successful only when it is systematic. Currently, humanistic educational systems are beginning to take shape in higher educational institutions. At the same time, each general education system should give due place to both physical culture and sports. This is necessary to establish a balance and strengthen the relationships between the constituent elements of education.

The main concepts of the theory of physical education include:





**Physical culture** is a part of universal human culture aimed at strengthening and improving the human body and improving its vital functions through the use of a wide range of means: various systems of physical exercises, sports, natural forces of nature, hygienic measures in public practice and everyday life. Socially, physical culture is understood as a set of spiritual and material values created and used by society to optimize the physical development and motor activity of people and indirectly their entire life activity for the purpose of physical improvement.

**Physical education** is a pedagogical process aimed at the formation of a healthy, physically perfect, socially active and morally stable younger generation. Physical education solves the tasks of strengthening health, realizing the needs of the human body for motor activity, comprehensive development of physical and spiritual forces, increasing efficiency, prolonging creative longevity and the lives of people engaged in all fields of activity. For students, an essential element of physical education is to further increase the level of physical culture, deepen knowledge about physical training, and form a stable motivation for systematic physical exercises with both sports and wellness orientation.

Physical education is a category of social life, one of the spheres of social relations. The ideas, goals, tasks, content, organization, and management system of the physical education process are historically conditioned, developing on the basis of public relations.

**The system of physical education** is a set of ideological, scientific and methodological foundations of physical education, as well as organizations and institutions that carry out and control physical education of citizens. It is aimed at developing the spiritual and physical qualities of a person, at preparing him for a certain kind of activity in specific socio-economic conditions.

The system of physical education closely interacts with its other aspects – mental, moral, labor, and aesthetic education. It is designed to influence the formation of a person’s physical appearance, a conscious attitude to work, and the education of student youth in the spirit of patriotism, internationalism, and boundless devotion to the Motherland. Physical activity is one of the essential components of a healthy lifestyle. It consists in the systematic, appropriate to gender, age, health status and interests, the use of a variety of motor actions, including physical education and sports to ensure the vital activity of the human body.

**The physical culture movement** is a specific form of social movement aimed at promoting the improvement of the level of physical culture of the population, targeted activities of state and public organizations and the population for the development of physical culture and sports. Integrative functions are characteristic of the physical culture movement. It unites multilateral practical activities in the field of physical culture and sports into a single, harmonious, holistic system of society’s influence on the formation of the physical and spiritual appearance of people.

**Physical and functional fitness** is the result of physical training achieved in mastering motor skills and in the development of physical qualities with a simultaneous increase in the physiological reserves of the body due to an increase in the level of activity of its functional systems – cardiovascular, respiratory, nervous, digestive, excretory, endocrine, etc.

**Psychophysical preparedness** is carried out in the educational and training process through a versatile influence on mental functions, ensuring their activity, correction and stability. In direct dependence on the level of physical and functional fitness, stability of attention, perception, memory, ability to logical thinking and analysis, etc. are also manifested.

**The professional orientation of physical education** is the use of means of physical culture and sports to prepare for high-performance work with the help of a certain profiling of physical education, taking into account the characteristics of the chosen profession, contributing to ensuring high professional performance.

In the new conditions, the social importance of physical education increases in the formation of a comprehensively and harmoniously developed personality of a university graduate with a high degree of readiness for social and professional activities. Physical culture and sport in the educational process of the university act as a means of social formation of future specialists, active development of their individual and professional significant qualities, as a means of achieving physical perfection. The purpose of physical education is to assist in the preparation of future specialists for high-performance work and the protection of the Motherland, the formation of their ability to use various forms of physical exercise in their personal lives, in the family, in the conditions of future industrial activity.

Physical culture and sports in modern universities play a key role in shaping a healthy lifestyle, professional development of students, and also contribute to strengthening spiritual and moral values. In recent decades, attention to physical activity has increased at universities, which is why there is an increase in interest in sports, the expansion of infrastructure and the development of sports programs. However, the


issues of quality, accessibility and effectiveness of sports activities in universities remain relevant. Let’s look at the current state and prospects for the development of this area.

г) данная методика тренировки используется как эффективное средство развития коленного рефлекса при тренировках бегунов. Использование этого средства развивает тазобедренные, коленные и икроножные суставы. Без развития вышеперечисленных суставов невозможно достичь высокого спортивного результата. В беге, особенно на короткие дистанции, коленный рефлекс важен на этапах старта, при ускорении и бега на дистанцию.

1. Развитие сухожильных рефлексов посредством сгибания упражнений умеренной амплитуды тазобедренных, коленных и икроножных суставов.

2. Стоя на месте, поднимается колено маховой ноги на среднюю высоту, один раз нажимается ладонью на опорную ногу, меняются ноги и продолжается движение. Это упражнение повторяется 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд.

3. Стоя, поднять колено маховой ноги на среднюю высоту, дважды нажать ладонью на опорную ногу, двигаться вперед и продолжать движения меняя ноги. Это упражнение повторяется 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд.

4. Стоя, поднять колено качающейся ноги на среднюю высоту, четыре раза опустить ладонь на опорную ногу, двигаться вперед и продолжать движения, меняя ноги. Это упражнение повторяется 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд.

5. Стоя поднимается колено качающейся ноги на среднюю высоту и делается одно опускание вперед ладонью на опорную ногу, при этом движения продолжают в «поступательном», т.е. нарастающем порядке, меняя ноги.

Это упражнение выполняется на каждую ногу сначала в порядке «1-2, 1-2-3 и 1-2-3-4», затем в регрессивном порядке, т. е. «4-3-2-1, 3- 2-1, 2-1 и в конце упражнение завершается введением скачками на каждую ногу. Интервал отдыха 30 секунд.

1. Развитие сухожильных рефлексов посредством высокоамплитудных упражнений на сгибание бедра, колена и икры.

2. Подпрыгивание из положения стоя на паре ног и приземление на землю руками, а также выполнение повторных прыжков с большой амплитудой без поднятия пятки. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха -1 минута.

3. Подпрыгивание на одной ноге из положения стоя и приземление с упором на руке, а также выполнение повторных прыжков большой амплитуды с поочередным чередованием ног. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха – 1 минута.

4. Прыжок из положения стоя, ноги вместе и с приземлением на землю на пятках. После этого движения повторяется упражнение 4 раза на каждую ногу, динамично сгибая левую ногу и переключаясь на правую, откидывая пару ног назад и повторяя прыжок из положения сидя обратно в исходное положение. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха – 1 минута.

5. Спортсмен принимает беговое положение, подпрыгивая на 10 секунд, меняя положение рук и ног в воздухе, а при приземлении возвращает ноги и руки в исходное положение (1,7,11).

1. Развитие сухожильных рефлексов посредством малоамплитудных сгибательных упражнений тазобедренных, коленных и икроножных суставов. При выполнении упражнения интенсивность и темп выполнения упражнения определяются исходя из уровня подготовки спортсмена.

1) Приседание под углом 90 градусов с поднятыми лодыжками и ступнями на максимальной скорости в течение 10 секунд осуществляя движения вниз. Норма – 10 раз с 10- секундным интервалом отдыха.

2) Стоя на месте, не сгибая тазобедренные и коленные суставы, попеременно приседая голеностопным суставом и подошвой стопы. 50 раз по 30 сек на каждую ногу, с интервалом отдыха. (по 4 серии).

3) Стоя, не сгибая тазобедренные и коленные суставы, двигаться вперед поочередно пяткой и подошвой стопы. 50 раз по 30 сек на каждую ногу с интервалом отдыха. (по 4 серии).

4) Ип - положение стоя 1. Подняться на носках. 2. Опуститься на пятку. 3. Подняться на цыпочки. 4. Опуститься на пятку. Вернуться в И.п. Это упражнение предназначено для голеностопного сустава. Продолжительность – 30-60 сек., (по 10 серии).

Если данный метод тренировки используется как эффективное средство развития коленного рефлекса бегунов в тренировочном процессе, за счёт использования технических средств тренировки, путём развития тазобедренных, коленных и голеностопных суставов, освоения ими элементов практического мастерства учитывая повышение опыта. Необходимо учитывать, что без развития вышеперечисленных суставов невозможно добиться высокого спортивного результата, это важно в беге, особенно в беге на средние, длинные и другие дистанции (1,2,9).

2. Развитие сухожильных рефлексов посредством упражнений на сгибание бедра, колена и голеностопного сустава средней амплитуды. При выполнении упражнения интенсивность и темп выполнения упражнения определяются исходя из уровня подготовки спортсмена.

1) стоя на месте, поднять колено маховой ноги на среднюю высоту, один раз надавить на него ладонью опорной ноги, поменять ноги и продолжить движение. Это упражнение повторяется по 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд;

2) стоя поднять колено маховой ноги на среднюю высоту, дважды нажать ладонью опорной ноги, продвинуться вперед и продолжить движение, меняя ноги. Это упражнение повторяется по 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд;

3) стоя поднять колено маховой ноги на среднюю высоту, четыре раза опустить ладонь опорной ноги, продвинуться вперед и продолжать движение, меняя ноги. Это упражнение повторяется 20 раз на каждую ногу, интервал отдыха составляет 30 секунд.

4) стоя поднять колено маховой ноги на среднюю высоту, сделать один шаг вперед ладонью опорной ноги, поменять ноги и продолжить поступательное движение, т. е. по нарастающей. Выполняйте это упражнение на каждую ногу сначала в порядке «1-2, 1-2-3 и 1-2-3-4», затем регрессивно, т. е. «4-3-2-1, 3-2-1». 2-1 и в конце упражнение завершается опусканием на каждую ногу. Интервал отдыха 30 сек.

3. Развитие сухожильных рефлексов посредством упражнений на высокоамплитудное сгибание бедра, колена и голеностопного сустава. При выполнении упражнения интенсивность и темп выполнения упражнения определяются исходя из уровня подготовки спортсмена.

1) прыжки вверх с парой ног стоя на месте и приземление на землю с упором на руки и выполнение повторных прыжков вверх с большой амплитудой без поднятия пятки. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха -1 минута.

2) подпрыгивание на одной ноге стоя и приземление на землю опираясь на обе руки, а также смена ног, выполнение повторных прыжков вверх с большой амплитудой. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха -1 минута;

3) подпрыгивание на паре ног стоя на земле и приземление на землю опираясь на обе руки. После этого движения повторяется 4 раза на каждую ногу, динамично сгибая левую ногу, переходя на правую ногу, и вернувшись в исходное положение, повторяется прыжок из положения сидя. Это упражнение следует выполнять 10 раз с высокой интенсивностью. Интервал отдыха -1 минута;

4) и.п - спортсмен принимает беговое положение, подпрыгивает на 10 секунд, меняет положение рук и ног в воздухе, а при приземлении возвращает ноги и руки в исходное положение.

Спортивные результаты исследуемых спортсменов были получены на основе проведенного исследования результатов соревнований Чемпионата Узбекистана. Согласно ему, лучший результат в одном соревновании, средний результат спортсменов, вышедших в финал (из 8 спортсменов на дистанциях 600 и 800 м, 12 спортсменов на 1000 и 1500 м), и последний, являющихся были изучены наименьшие результаты спортсмена. Также были оценены результаты спортсменов 13-14 лет, 14-15 лет, 15-16 лет и 16-17 лет на старте основных соревнований в своей возрастной категории.

Описан процесс получения данных с помощью исследований и современных технологий. Проведены анализы результатов исследований. Рассматривалось содержание программы подготовки бегунов на средние дистанции и показатели физического развития, физической подготовленности, анализ техники бега, динамика показателей функциональной подготовленности бегунов на средние дистанции, а также были описаны методы совершенствования техники и эффективность их использования на тренировках.



Рисунок 1. Модель технического мастерства бегунов на средние дистанции

Основным фактором технического мастерства бегуна являются его физические качества (сила, скорость, выносливость). Параллельно, необходимо постоянно совершенствовать технические навыки и физические качества. В то же время следует отметить, что в отличие от лучших бегунов из-за рубежа, многие наши бегуны очень грубо, недостаточно расслабляют мышцы при постановке стопы на землю, наблюдается напряжённое положение тела, головы, рук и лишние раскачивающиеся движения. На наш взгляд, так называемый гимнастический метод, то есть обучение беговым движениям с помощью беговой и прыжковой гимнастики, не всегда может быть полезен в процессе освоения техники бега. В результате использования в тренировочном процессе большого количества прыжковых и беговых упражнений техника бега наших спортсменов имеет силовые характеристики. Это незначительно влияет на естественность их движений. Мы не против использования беговых и прыжковых упражнений в качестве дополнительного средства в обучении технике бега, но его нельзя применять в качестве основного средства (3,9,10).

Беговые упражнения и прыжки должны служить дополнительным средством устранения ошибок в технике бега, но рекомендуется применять подобранные упражнения к каждому отдельному бегуну, исходя из особенностей техники бега.

За счёт разработки тренировочной модели, совершенствующей технику бега в тренировочных процессах бегунов на средние дистанции, и применения в тренировочной практике расширились возможности достижения хороших результатов за меньшее время. Это помогает избежать затрат времени на технику бега или использования малоэффективных упражнений в течение годового цикла подготовки.

Модель под названием «Модель технического мастерства бегунов на средние дистанции» будет применим не только для бегунов на средние дистанции, но и на занятиях другими видами лёгкой атлетики.

**Выводы.** благодаря разработанным нами предложениям и рекомендациям, а также комплексу упражнений, содержащие специально беговые упражнения и направленные на совершенствование техники бега на средние дистанции, за счёт увеличения длины и частоты шагов и освоения красивой техники были улучшены спортивные результаты.

Разработанные специально беговые упражнения рекомендуется применять в последовательности для развития навыков выполнения движений в субмаксимальной зоне интенсивности, постановки стоп на грунт, что впоследствии повлияет на совершенствование техники бега на средние дистанции, а также для развития скорости бега спортсменов. Не рекомендуется выполнять эти упражнения после интенсивных нагрузок. При достаточно высоком уровне подготовленности спортсменов не рекомендуется выполнять эти упражнения при утомлении, а для повышения уровня скоростной выносливости их необходимо выполнять перед основной частью тренировки.

#### Литература:

1. Салимов, Г. М., et al. "Показатели констатирующего этапа экспериментальной работы по физическому развитию учеников 7-10 лет общеобразовательных организаций Узбекистана. // " Педагогическое образование и наука 1 (2020): 91-97.
2. Rasulovich, R. R. "Age-specific dynamics of attack and defense response speed in handball players. // " Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.1 (2022): 414-423.
3. Raxmonov, R. R. "O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rta masofaga yugurish dinamikasini tahlil qilish ahamiyati. // " Ozbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy metodik jurnali. Toshkent (2020).
4. Rasulovich, Rakhmonov Rauf. "Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners. // " Academicia: an international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 744-753.
5. Raxmonov, Rauf. "Ўрта масофаларга югуришда мусобака олди тайёргарлигининг тузилиши ва асосий жиҳатлари. // " центр научных публикаций (buxdu. Uz) 1.1 (2020).
6. Raxmonov R. R. "Ommaviy sport musoboqalarda o'rta masofalarga yuguruvchilarning tutgan o'rni." Innovastionnoe razvitie nauki i obrazovaniya. Pavlodar, Kazaxstan. Mejdunar. nauch.-prakt. konf. 2021.
7. Rasulovich, Rakhmonov Rauf. "Effectiveness of Improving the Technical and Tactical Movements of Middle-Distance Runners." E-Conference Globe. 2021.

8. Rasulovich, Rakhmonov Rauf. "Content of running loads and used facilities of medium distance runners in annual preparation stage. // " Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 1070-1077.
9. RR Rasulovich, NM Uktam o'g'li Development of Physical Qualities of School Students through Activity Games Related to Athletics Miasto Przyszłości 35, 391-394.
10. Rasulovich, Rakhmonov Rauf. "The Use of Instruments and Methods in Annual Preparation of Middle Distance Runners. // " Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2.4 (2023): 447-450.
11. Fatullayeva, Muazzam. "Maktab o'quvchilari uchun (11-12 yoshli) yengil atletika sport mashg'ulotlarining asosiy vosita va uslublari. // " Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.8 (2021).
12. Рахмонов Р.Р. Состав беговых нагрузок и используемых средств бегунов на средние дистанции на этапе годовой подготовки // Физическая культура. Рекреация. Спорт, 427-433.



## OLIJ TA'LIM SPORT MUTAXASSISLIKLARIDA TALABALARGA SUZISHNI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI XUSUSIDA

*Urazimbetova Mardjina Sultamuratovna,*

*O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
Nukus filiali stajiyor-o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada oliy ta'lim talablariga muvofiq, sport mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish asosida, jismoniy tarbiya va sport universitetida olib borilgan tajriba sinov ishlarining tahlili bayon etiladi. Bunda barcha sport mutaxassisliklarida suzish sportini joriy etish texnologiyalarini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi. Tajriba tariqasida velosport va jang san'ati sport turlari bilan shug'ullanuvchi talabalar jalb qilinishi va ularning mashg'ulotlar davomida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini inobatga olgan holda mashg'ulotlar kompleksining tabaqalashtirilgan turlarining o'tkazilganligi borasida tahlillar yuritiladi. Shuningdek, suzish usullarini o'rgatish samaradorligining bir qancha usul va vositalarini tanlash imkoniyatlari haqida fikr bildiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *oliy ta'lim, jismoniy tarbiya, suzish sporti, velosport, o'qitish dasturi, innovatsion texnologiyalar, mashg'ulot texnikasi, kombinatsiya, kompetentsiya, ta'lim, talaba, jismoniy madaniyat.*

## ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ ПЛАВАНИЮ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ СПОРТИВНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

*В данной статье описаны анализ экспериментально-тестовой работы, проведённой в университете физической культуры и спорта, в соответствии с требованиями высшего образования, а также разработка инновационных технологий для эффективной организации спортивной подготовки и повышения качества образования. В этом случае при внедрении вида спорта плавание во все спортивные специальности будут рассматриваться вопросы развития технологий. Экспериментальным путём проводятся анализы по факту привлечения студентов, занимающихся велоспортом и видами единоборств, и проводятся дифференцированные виды тренировочного комплекса с учётом ошибок и недочётов, которые они допустили во время тренировок. Высказываются также мнения о возможностях выбора нескольких методов и средств повышения эффективности обучения методам плавания.*

**Ключевые слова:** *высшее образование, физическое воспитание, плавательный спорт, велоспорт, учебная программа, инновационные технологии, методики обучения, сочетание, компетентность, образование, студент, физическая культура*

## ISSUES OF IMPLEMENTATION OF TECHNOLOGIES FOR TEACHING SWIMMING TO UNIVERSITY STUDENTS OF SPORTS SPECIALITIES

*This article describes the analysis of experimental and test work carried out at the University of Physical Culture and Sports, in accordance with the requirements of higher education, as well as the development of innovative technologies for the effective organization of sports training and improving the quality of education. In this case, when introducing the sport of swimming into all sports specialties, issues of technology development will be considered. Experimentally, analyses are carried out on the fact of attracting students engaged in cycling and martial arts, and differentiated types of training complex are carried out, taking into account the mistakes and shortcomings that they made during training. Opinions are also expressed about the possibilities of choosing several methods and means to improve the effectiveness of teaching swimming methods.*

**Keywords:** *higher education, physical education, swimming, cycling, curriculum, innovative technologies, teaching methods, combination, competence, education, student, physical culture.*

**Kirish.** Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini ta'minlash va barcha ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishning muhim omilidir. Bu olijanob maqsad yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar sportini rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi

yo‘nalishlardagi izchil islohotlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda. Mamlakatimizning mustaqilligi va istiqboli buyuk kelajagimiz istiqbollarini ta‘minlashni taqozo etadi. Bunda aholi salomatligini himoya qilish, ularning jismonan va ma‘naviy barkamolligini doimo ta‘minlab borish jamiyatimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu asosda oila, maktab va ayniqsa, mahalla, mehnat jamoalarida sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tibbiy va jismoniy madaniyat tadbirlaridan maqsadli foydalanish ustuvor turishini hayotning o‘zi isbotlayapti. O‘zbekiston Respublikasida Suv sporti, ya‘ni suzish sportini rivojlantirishning bugungi kun bosqichida mazkur sport turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning yuqori natijalarga erishishini ta‘minlashda jismoniy madaniyat va pedagogik tizimlar takomillashtirilib borilmoqda. Buni yangi O‘zbekistonda suzish sportiga innovatsion texnologiyalarning joriy etilib yangi pedagogik tizimlar amaliyotga tadbiriq etilayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2018- yil 5- iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, 2019- yil 8- oktyabrdagi PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909-sonli Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni [1]da belgilangan ezgu maqsadlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida belgilangan vazifalar, suzish sportining ommaviyligini oshirish [2], suzuvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta‘minlash va unga tayyorlash, suzish sportida yuqori natijalarga erishishda, innovatsion pedagogik sport texnologiyalarini [3] amaliyotga tadbiriq etish kabi masalalarni o‘rganish imkoniyatini orttiradi.

Hozirgi kunda Alpomish va Barchinoy maxsus test me‘yoriy sinov talablaridan foydalanish amalga oshirilmoqda. O‘zib kelayotgan talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarligini tobora oshirish, iqtidorli yoshlarni sport turlariga jalb etish va ularning mahoratlarini oshirish yo‘li bilan yetuk mutaxassislar tayyorlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasining - Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi, Turizm to‘g‘risidagi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining - O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi, Ommaviy sport targ‘ibotini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari muhim ahamiyatga egadir. E‘tiborli tomoni shundaki, hukumat qarorlarida kasb-hunar kollejlari talabalar sportini rivojlantirish Respublika va viloyatlarning sport tashkilotlari, xalq ta‘lim hamda oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining Umid nihollari, Barkamol avlod va Universiada, ya‘ni uch bosqichli sport musobaqalari muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Musobaqalarni zamirida, asosan, talaba yoshlarni jismoniy barkamolligini oshirish, mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli qilib tarbiyalash, eng muhim, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportdan maqsadli foydalanish mujassamlashtirilgan. Yoshlarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini tarbiyalashda, iqtidorli yoshlarni sport mahoratlarini oshirishda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari hamda sport turlari murabbiylarining amaliy ijodiy faoliyatlari ancha ustuvor turadi. Ularning ibratli xizmatlaridan biri shundaki, talaba yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, (tarbiya, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish va hokozalar) alohida ularning amaliy maxsus jismoniy tayyorgarliklari bilan qurollantirishda ma‘lum darajada xizmat qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarni jismoniy tarbiya va sport orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mehnat qobiliyatlarini mukammallashtirish, uzoq umr ko‘rish, sog‘lom turmush tarzini singdirish va nazariy hamda amaliy malakalar bilan doimiy uyg‘unlashtirib boradi. Mustaqilligimizning qo‘lga kiritgan qisqa vaqt ichida Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilish va usullari, shakllari va mazmuni tubdan o‘zgarib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jismoniy tarbiya va sport universitetida o‘qitishni tashkil etish samaradorligi oliy ta‘lim talablariga muvofiqligiga bog‘liq tarzida olib borilib, ta‘lim sifatini boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirishni ta‘minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya va sport universitetlarida barcha sport mutaxassisliklarida suzish kursi [4] orqali uning usul va texnikalarini o‘zlashtirgan yetuk kadrlarni tayyorlash asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Ko‘p yillik pedagogik kuzatish va tajribalar, talabalarda mashg‘ulotlarining boshlang‘ich davrida, suzish usullarini o‘zlashtirishda ma‘lum darajada qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi natijasida o‘quv jarayonini uzaytirish zarurati paydo bo‘layotganligini ko‘rsatadi [1,2]. Oliy ta‘lim muassasalarida suzish mashg‘ulotlari kursi uchun ajratilgan soatlarning cheklanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, suzishning turli usullarini o‘rganishni tezlashtirishda yangi pedagogika va jismoniy texnologiyalarni kompetentsiyaviy ishlab chiqishni talab qiladi [5].

Suzish bo‘yicha mashg‘ulotlarga oid ilmiy adabiyotlarda pedagogik jarayonni individual tarzida olib borishning ma‘nosi, mazmuni va mohiyatini bugungi bosqichda suzish sportining rivojlanishi sportchilarning texnik imkoniyatlarining samarali ko‘rsatkichlarini o‘rganish bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi, amalda esa individual tarkibiy qismlar hisobga olinmasligi e‘tirof etiladi [6]. Amaliyot jarayonida bu kabi pedagogik jarayonning maqsadi “standart” deb nomlanuvchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bilan xarakterlanuvchi aniq natijaga erishish samaradorligi bilan ifodalanadi.

Sportda yuqori natijaga erishish va unga intilish, ijobiy yuqori standart rekord sifatida, kasbiy tayyorgarlikda esa muvaffaqiyatni aniqlaydigan ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi [7]. O‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi o‘quvchilarning ilk tayyorgarlik darajasini, majoziy ma‘noda, boshliq tariqasida ko‘rib chiqadi, unga o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar kiritiladi. Bundan maqsad jismoniy mashqlar kompleksini ishlab chiqish orqali talabalarga suzish usullarini o‘rgatish samaradorligi va vaqtini oshirish bo‘lib hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu kabi tajribani o‘tkazishdan asosiy maqsad suzish sportiga ilk qadamlarini tashlayotgan talabalarga suzishni tez va yaxshi o‘rgatishda amaliy materiallar uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarining samaradorligini sinab ko‘rishdan iborat. Tadqiqot davomida sportning boshqa turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilar, masalan, velosport va jang san‘ati kabi sport turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarga xos bo‘lgan xato-kamchiliklarni hisobga olgan holda mashg‘ulotlarning tabaqalashtirilgan tanlovi o‘tkazildi. Tajribada nazorat guruhi talabalari suzish mashg‘ulotlarining an‘anaviy usulini, tajriba guruhi esa biz ishlab chiqqan amaliy mashg‘ulotlar dasturiga muvofiq ravishda shug‘ullanishdi.

Bunda o‘quv dasturi va mashg‘ulotlar majmualarining o‘ziga xos jihatlari, qanotlardan foydalanish, yordamchi kamarlar orqali suzish texnikasini o‘zlashtirish, oyoq va qo‘llar orqali mashqlardan foydalanishdan iborat edi. Boshqa sport turlari bilan shug‘ullanuvchilar guruhiga xos bo‘lgan aniq xato-kamchiliklarni inobatga olgan holda, dam olish uchun pauzalar, mashg‘ulot qonun-qoidalariga rioya qilish, mashg‘ulotlarning hajmi va intensivligi [8], bularning barchasi mashg‘ulot texnikalarini o‘zlashtirish uchun zarur ekanligini bildiradi.

**Tahlil va natijalar.** ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar to‘plami va suzish kombinatsiyalarini amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanish, tayyorgarlikning boshqichli darajasiga monand, talabalarga suzish texnikasini tez va qisqa vaqtda o‘zlashtirish imkonini berdi. Bundan, eksperimental mashg‘ulotlar an‘anaviy mashg‘ulotlarga solishtirganda samaraliroq bo‘lganligini ko‘rsatadi. Kolaberdi o‘qitish usullari bilan suzish sporti fanining standart dasturiga qo‘shimchalar kiritildi. Bu orqali tajriba davomida o‘quvchilarning individual morfo-funksional xususiyatlari va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda suzish sportining mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlaridan foydalanish samaradorligi isbotlandi.

Boshqa sport turlarining eksperimental guruhi uchun yelka-kamarining moslashuvchanligi va harakatchanligini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar, aerobik mashqlar tarkibiga kiritilgan [9]. Ko‘krak qafasi emaklash usuli texnikasini o‘rganayotganda, oyoqlarda harakatlanuvchi tayanch qo‘l harakatlari texnikasi, eshkak eshish texnikasini shakllantirishga qaratilgan mashqlarni o‘rganishga ko‘proq vaqt ajratildi. Orqaga emaklash texnikasini o‘rganish uchun dastlabki holatdagi mashqlar kiritilgan. Qo‘llar bilan ishlanadigan mashqlar qo‘llarni tepaga ko‘tarish, ikki qo‘l bilan bir vaqtda mashqlarni bajarish kombinatsiyalari dastlabki suzishni o‘rganish mashg‘ulotlarida amalga oshirilgan. Mazkur guruh talabalarining chidamliligini oshirishda eng yaxshi ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi uchun mashg‘ulotlar tarkibiga masofaviy suzish bo‘yicha vazifalar kiritilgan.

Bo‘ljak mutaxassislarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi.

- O‘z kasbiga qiziqish, vijdonan mehnat qilish, odamlarga hurmat, haqiqatparvarlik, odamlar bilan yaxshi muomalada bo‘lish, mehnatga bo‘lgan talabni tarbiyalash, suhbatni, uchrashuvni qiziqarli va ravon olib borish.

- Tez xotirlab qolish, ifodali nutq, tashkilotchilikning malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish.

- Kasb-hunarga oid ish unumini, intensiv aqliy ish bajarish qobiliyatini ta‘minlash, odamning barcha sistema (yurak, qon aylanish, nafas olish va hokazo) larni takomillashtirish.

- Sog‘liqni mustahkamlash har xil kasalliklarni oldini olish.

- Ruhiy barqarorlik sifatlarini shakllantirish, bir oz jismoniy zo‘riqlashlar, tana mushaklarining umumiy va statik chidamligi, turli holatlarda harakatlarni tez va aniq bajarish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, gipodinamiyaning oldini olish, diqqat va kuzatuvchilikni o‘stirish, tez fikr yuritish, maqsadga intilish, intizomlilik, tashabbuskorlik, qat‘iylik o‘zini tuta bilish kabi xususiyatlarni rivojlantirish zarur. Jahon ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya bo‘yicha ta‘lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash, taraqqiyot tendentsiyalariga mos ravishda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya institutida bakalavr yoki sport kollejlari sport trenerlari mutaxassisliklariga ega bo‘lgan kadrlar olimpiya zaxiralari sport kollejlari, talabalar va o‘smirlar sport maktablari, oliy mahorat sport maktablari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo‘jaligi uyushmalari va aholiga xizmat qilish muassasalarida sport tadbirlari, musobaqalar va bayramlar, umumiy jismoniy tayyorgarlik va sog‘lomlashtirish, sport to‘garaklari mashg‘ulotlarini olib boradilar.

Brass usulida suzish texnikasini ishlab chiqish jarayonida oyoq mashqlaridan ko‘proq foydalaniladi. Bu sikllik sport turlarida oyoqlarning belgilangan harakatlarni bajarishi, mushaklarning bo‘shashishi bilan birlashtirishi, oyoq mushaklarining taranglashishi orqali harakatlar amalga oshiriladi [10]. Bundan tashqari, qo‘l va oyoqlarning harakatlarini nafas olish bilan muvofiqlashtirish mashqlari ham bajarildi. Suzish sporti bilan shug‘ullanuvchi talabalarga suzish usullarini o‘rgatish uchun maxsus tayyorgarlik quyidagi tartibda keltirilgan:

- quruqlikda to‘g‘ri chiniqish-qo‘llar bilan oldinga, orqaga burilish;
- elastik tasma bilan chiniqish;
- egilgan stenddan, qo‘llar bilan aylana harakatlar, oldinga va orqaga kombinatsiyalarini bajarish;
- suvda-texnikani o‘rganish mashqlari ko‘kragida va orqaga harakatlanish;
- qo‘l bilan suzish-bunda oyoqlar bo‘shashadi va suv yuzasiga cho‘ziladi;
- boshni ko‘targan holda qo‘llarda suzish va boshqalar.

Uslubiy jihatdan olib qaraganda, bularni bajarishda tirsak bo‘g‘imda egilmasligi, tos suyagi va sonlarni ko‘tarishga yordam beradi. Bu esa sportchiga barcha katta mushaklarni qo‘llarning harakatlariga bog‘lash imkonini beradi. Ya‘ni havoda qo‘llarning harakatlarini boshqarish, suvga to‘g‘ri kirish, suzish texnikalarining to‘g‘ri bajarilishi, suv yuzasida yotishga harakat qilish, oyoq harakatlariga e‘tibor berish, ularni boshqarish va boshqalar.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya, sport va milliy xalq o‘yinlarining beqiyosligini inobatga olib, yosh avlodni jismonan barkamol, ma‘nan etuk inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bilan birgalikda barcha pedagogik jamoasining dolzarb vazifalaridan biri yosh soha mutaxassislarning bilim mahorati, malakalarini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, talabalarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishida nazariy bilim va ko‘nikmalar egallashda yoshlar bilan olib boriladigan ta‘lim tarbiya jarayonlarini sifatini oshirish va tarbiyaviy ta‘sirini yaxshilash maqsadiga qaratilganligidir.

Ishtirokchilar orasida suzish sportiga ilk qadam tashlagan suzish ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar ham bor edi. Shuning uchun mashg‘ulotlar tarkibiga to‘rda ishlash, sherik yordamidan foydalanish, qanotlar va suzish taxtalari yordamida mashqlarni bajarish funksiyalari kiritilgan [6]. Bunda ilk tayyorgarlik davrida nafas olish mashqlari va mushaklarning bo‘shashishiga alohida e‘tibor qaratilib qo‘ymasdan ilk suzish jarayonida o‘quvchilarning tez charchash holatlarini inobatga olib mashg‘ulotlar qisqa segmentlarda amalga oshirildi. Ko‘krak va orqa tomondan suzish usullari, sakrash masofalarini uzaytirishga qaratilgan mashqlar qo‘llanilgan. Orqa tomondan suzish usulini o‘rgatishda suvdagi tananing gorizontol holatiga katta e‘tibor qaratildi.

**Xulosa va takliflar.** talabalarga suzish usullarini o‘rgatishning samarali jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Suzish sportining o‘ziga xos xususiyatlari va jismoniy xususiyatlarni inobatga olgan holda mashg‘ulot usullari va texnikalarini to‘g‘ri tanlash;
2. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayonida suzish qobiliyatini ijobiy baholash dinamikasini takomillashtirish;
3. O‘quv jarayoniga individual yondashuvning joriy etilishi, bunda, talabalarning bilim ko‘nikmalari, suzish qobiliyatlarining sezilarli darajada oshishiga ko‘mak beradi.

Mazkur dasturni qo‘llash uchun ishlab chiqilgan mashqlar va texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish, suzish texnikasining sifat jihatdan o‘zgarganligini ko‘rsatadi, bu esa sportchilarning nazorat standartlarini muvaffaqiyatli bajarishiga yordam beradi.



**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 sonli Qarori. 28.01.2022. lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 333-sonli Qarori 3-may 2018-yil. lex.uz.
3. Mengliqulov X.. “14-15 yoshdagi suzuvchilarda tezlik kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyoti” <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>.
4. Нурмуханбетова Д. К., Алдабергенов Н. А., Мусаев А. Т и.т.д. «Обучение студентов способам плавания путём разработки комплекса физических упражнений в различных спортивных специализациях» // Научная электронная библиотека elibrary.ru.
5. Алексеева О. И., Григорьев В. И. Теоретико-методические основы подготовки пловца в вузе: учебное пособие // Теория и практика физической культуры. – 2003.
6. Булгакова Н. Ж. Плавание. – М.: Физкультура и спорт, 2001.
7. Кашкин Д. А. Плавание: примерные программы спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: Советский спорт, 2004.
8. Мухтарова Т. Л. Техника спортивного плавания. – М.: УГТУ, 2004.
9. Mooney R., Corley A., Quinlan L. R., O’Laighin G. Inertial Technology for Elite Swimming Performance Analysis: A Systematic Review. *Sensors* 2016, P. 16–18.
10. Magalhaes F. A., Vannozzi G., Gatta G., Fantozzi S. Wearable inertial sensors in swimming motion analysis: A Systematic review. *Et al Sports Sci.* 2015; 33(7):732-45.



## SAN’AT

### AMALIY BEZAK SAN’ATI FANINI O’QITISH JARAYONIDA TALABALARNING KOMPOZITSION TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Bakayev Shodijon Shokirovich,  
Buxoro davlat universiteti Tasviriy va  
amaliy san’at kafedrasi dotsenti  
shodijonbaqoyev@gmail.com*

*Maqolada amaliy bezak san’ati fanini o’qitish jarayonida kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning kreativ mexanizmlari va ta’lim jarayonini innovation yondashuv asosida tashkil etish, talabalarning kompozitsion tafakkurini rivojlantirish, ijokorligini va kuzatuvchanlikni takomillashtirish mexanizmlarini yaratish haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so’zlar:** Amaliy bezak san’ati, ijodkorlik qobilyati, kompozitsion fikrlash, kompozitsion tafakkur, simmetriya, assimetriya, muvozanat, ritm.*

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОМПОЗИЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО»

*В статье рассматриваются креативные механизмы развития профессионально-творческих способностей в процессе преподавания предмета декоративно-прикладного искусства и организация образовательного процесса на основе инновационного подхода, развитие композиционного мышления студентов, создание механизмов повышения их креативности и наблюдательности.*

***Ключевые слова:** декоративно-прикладное искусство, креативность, композиционное мышление, композиционное осмысление, симметрия, ассиметрия, баланс, ритм.*

### THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF COMPOSITIONAL THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE SCIENCE OF APPLIED DECORATIVE ARTS

*The article focuses on the creative mechanisms of the development of professional-creative abilities in the process of teaching the science of Applied decorative arts and the organization of the educational process on the basis of an innovative approach, the development of the compositional thinking of students, the creation of mechanisms for improving positivity and observability.*

***Keywords:** applied decorative art, creativity, compositional thinking, symmetry, asymmetry, balance, rhythm.*

**Kirish.** Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning kreativ mexanizmlari ta’lim jarayoniga tadbiiq etib kelinyapti. Bu borada soha olimlari oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy- ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirish uchun motivatsion yo’l yo’riqlar ishlab chiqish, ta’lim jarayonini modellashtirish, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirib kelinmoqdalar. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini innovation yondashuv asosida tashkil etish, talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jihatdan kasbiy soha muammolarini aniqlash, talabalarda mustaqil fikrlash ta’lim strategiyalarini belgilash, ijodkorlik qobilyatini uzluksiz yangilash, fazoviy tasavvur va kuzatuvchanlikni rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, differentsial yondashuvni tashkil qilish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib turli muammolarga yechimlar topilmoqda.

**Maqsad.** Respublikamizda tasviriy va amaliy bezak san’ati yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ salohiyatini oshirish, reflektivlik tushunchalarini singdirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o’quv reja, dastur va adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirishning huquqiy me’yoriy asoslarini takomillashtirish hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib amaliy bezak san‘ati yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy tayyorgarligi darajasini sifatli oshirish zarurati mavjud bo‘lib, unda kompozitsiya muhim o‘rin tutadi ijodiy faoliyat tajribasini umumiy didaktik tushunchalarda maktab va universitet ta‘limida ijodiy ishlarga tayyor bo‘lishining asosiy sharti sifatida shakllantirish muhim o‘rin egallaydi.

**Materiallar va metodlar.** Shu munosabat bilan, amaliy bezak san‘ati fanidagi amaliy va nazariy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilishi va fan o‘qituvchisining badiiy salohiyatini rivojlantirishning yagona muhim vositasi bo‘lib, dekorativ amaliy san‘at sohasida kompozitsion fikrlashni rivojlantirish, dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Naqsh kompozitsiyalarini to‘g‘ri tuzish, badiiylashtirish - majoziy boyitishga, ijodiy jarayon va badiiy ijod bilan uzviy bog‘lash uslublarini ishlab chiqish vazifasiga asosiy muammo sifatida yondashamiz.

Amaliy bezak san‘ati fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ijokorligini rivojlantirish, kompozitsion tafakkurini yanada kengaytirish uchun bezak san‘atida bajarilgan ishlar sinchiklab o‘rganilib uning tarixi tahlil qilinish kerak. Kompozitsiyasini to‘g‘ri qurish xususiyatlari, asosiy asarni g‘oyasi aniqlanadi, talabani kompozitsion fikrlash tabiat va insonni tasavvuri o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir aniqlanadi, naqsh kompozitsiyasining mohiyati ochib berilish kerak.

Naqqoshlik san‘ati shartli ramziy shakl, hissiy-semantik va majoziy tarkibni ifoda eta oladigan amaliy bezak san‘atining ramziy tasvurlari bo‘lishi mumkin.

Dekorativ naqsh kompozitsiyaning ifodali vositalariga gul, barg, novda, g‘uncha, tanob, shkufta, rang va boshqalar kiradi. Ularning barchasi bir vaqtning o‘zida kompozitsiyaning elementlari hisoblanadi.

Kompozitsiyani ananalar va zamondan ajratilgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas, hozirgi zamon ruhiga muvofiq badiiy shaklning rivojlanish mantig‘ini tushunish uchun davr uslubidan o‘tgan oldingi avlodlarning nazariy va amaliy tajribasini o‘zlashtirish kerak bo‘ladi.

Fikrlash, ko‘rish madaniyati, tasvirni yaratish tizimi ilmiy-texnik inqilob natijasida vujudga kelgan ko‘plab kasblarning malakaviy qiyofasida muhim ahamiyatga ega va bu kasblarga bo‘lgan qobiliyat imkon qadar erta yoshda maktabda tasviriy san‘at, to‘garak mashg‘ulotlariga va undan keyingi kasb-hunar ta‘limi yordamida o‘rnatilishi lozim, fazoviy, majoziy, ko‘z va qo‘l birligida rang-barang fikrlashni rivojlantirish mumkin.

**Muhokama va natijalar.** Talabalarning kompozitsion fikrlashi badiiy-majoziy fikrlash turlaridan biri hisoblanadi, lekin u bir xil emas, chunki badiiy kognitiv ijodiy faoliyat harakatlarida namoyon bo‘lish o‘ziga xos kompozitsion vazifalar bilan bog‘liq ushbu vazifalar qurilish mantig‘iga va umumlashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan badiiy asar tuzilishini yaratish jarayoni bilan bog‘liq.

Ijodiy fikrlash jarayoni oqilona hissiy, kontseptiv, ramziy yoki obrazli, sezgi, butun bezatiladigan yuzani his qilish va joyni loyihalashga ongli tushungan holda intilishning birligiga asoslangan faoliyat ijodiy kompozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ijodiy fikrlash jarayonlari kompozitsion faoliyatga ta‘sir ko‘rsata olish kerak. Asosan, san‘atning umumiy nazariyasi nuqtayi nazaridan ham, uni o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan kompozitsiya tuzish tartibini belgilaydi. Dunyoni vizual tasvirlash muammosining falsafiy va psixologik jihatlari juda keng va murakkabdir.

Kompozitsiya- (lot.) tuzaman, yarataman degan ma‘noni bildiradi va bu barcha san‘at turlarida qo‘llaniladi. Amaliy bezak san‘atida kerakli yuzani, buyumni badiiy bezashda ham naqsh kompozitsiyalaridan foydalaniladi. Buning uchun kishida ijodkorlik qobiliyati, malaka va ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi shart. Aks holda g‘oyani asl mohiyatini yoritib berish, mukammal kompozitsion yechimga kelish mushkul vazifadir.

Bu kunga kelib barcha sohalardagi shiddatli siljishlarni (rivojlanishlarni) vaqtini inobatga olib sifatli, mukammal mahsulot va asarlarni yaratish uchun innovatsion ijodkorlikni, metodlarni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kun davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Naqshni ketma-ket oddiy elementlarini birlashtirib yaxlit kompozitsiya tuzilishini ko‘rsatish bilan talabaga amaliy bezak san‘atining barcha turlarida ishlash, ijod qilishga motivatsiya berish mumkin.

*Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari:* insoniyat ongining mo‘jizalaridan biri bu ijodkorlik qobiliyatidir. U kishilar ruhiyatiga ta‘sir etib, ma‘naviy va moddiy olamini boyitadi. Usta naqqosh biron bir naqsh kompozitsiyasini yaratar ekan, albatta, tabiatdan ilhom oladi va undagi mavjud go‘zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi.

Xalq amaliy bezak san‘atining qaysi bir turi bo‘lmasin uning zamirida naqsh elementlari yoki naqsh kompozitsiyasi yotadi. Mavjud naqsh elementlarini ma‘lum qonun qoidalarga amal qilingan holda kompozitsiya tuzilishining o‘ziga xos usullari bor.

Har bir ishni o‘rganishda oddiqlikdan murakkabga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, naqqoshlik ham bundan mustasno emas. Kompozitsiya tuzishdan oldin naqsh elementlarini ravon mustaqil chizishni o‘zlashtirish kerak bo‘ladi.

Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda, avval ko‘plab xomaki izlanishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o‘rnini almashtirish, qo‘shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilarda ham muhim ahamiyatga ega. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyada bir butunlikni, element, shakl, ranglarning takrorlanishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklik kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan rang tuslarining ma‘lum bir koloritga bo‘ysundurishdan iborat.

Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasi simmetriya, assimetriya, muvozanat, ritm, markaz topish, detallarning o‘lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil etadi va bunga qat‘iy amal qilinadi. Shuningdek, naqsh namunalarini tuzishda yana kompozitsiyaning quyidagi asosiy qonuniyatlariga rioya qilish kerak.

- chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o‘lcham va taqismlarini mo‘ljalga olish.
- kompozitsiyaning yakka yoki qo‘sh banddan iborat bo‘lishligini nazarda tutgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish
- kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.
- naqsh bandini bofta, shukufta elementlari bilan bog‘lab boyitish
- kompozitsiyaning asosiy shakli (ramkasini) umumlashtirib va shu naqshni nomlash kabilarga rioya qilinadi.

Simmetrik joylashuvi va ranglar muttanosibligini saqlash ular mustaqil naqsh chizish jarayonida uning qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Naqsh elementlari va shakllarning o‘q chizig‘iga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslarning bir - biriga muvoffiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar, novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan bog‘lanishi va shu kabilardan iboratdir.

Talabalarning tajribalari va badiiy ijodiy qobiliyatlarini yanada o‘stirish maqsadida ularga ko‘proq mustaqil badiiy naqshlar chizdirish tavsiya etiladi. Mustaqil naqsh tuzish mashg‘ulotlaridan oldin talabalar xalq ustalari tomonidan bajarilgan naqsh namunalarini kuzatib, o‘rganadilar u yoki bu naqsh namunalaridagi o‘xshash va farq qiluvchi jihatlar, o‘zgacha tuzilishdagi naqsh elementlarini izlab topadilar va kerak bo‘lgan taqdirda ulardan namunalar ko‘chiradilar. Shuningdek, ular muzeylar, uylar va mamuriy binolarni ichki va tashqi tamonlarini bezatishda qo‘llanilgan naqsh turlari bilan ham tanishib boradilar va namunalar ko‘chiradilar.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg‘ulotlaridan tabiat qo‘yniga chiqib mashg‘ulotlarda o‘rgangan nazariy hamda amaliy bilim, malakalari asosida o‘simliklar, hayvonot dunyosini kuzatadilar. Stilizatsiyalashtirish orqali shakllarning badiiy tasvirlarini hosil qilish bilan bevosita shug‘ullanadilar.

Talabalarga maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora fotosuratlardan foydalanish orqali tushunchalar berish ham yaxshi natija beradi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzish orqali tabiat go‘zalligini chuqurroq his etib, badiiy didlarini rivojlantirib boradilar. Ularga simmetriya va assimetriya, ritm kabi qoidalar haqida tushunchalar berib boriladi va ular amaliy ishlar jarayonida yanada mustahkamlanadi.

Sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish talabalarga kerakli nazariy va amaliy tushunchalar berilib, qonun qoidalari tushuntirilib, ish tajribalari hosil bo‘lganidan so‘ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o‘ziga xos o‘lchamlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirib, bo‘lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini “xayolan” tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o‘zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo‘laklaridan iborat bo‘ladi. Bunda talabalarning tasavvurlari, ish tajribalari, falsafiy fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, shuningdek, xotiralari zaxirasida qanchalik ko‘p naqsh elementlari mavjud bo‘lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo‘ladi. Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo‘yicha tarqaluvchi element va ranglarning o‘zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab izlanish eskizlari, ya‘ni naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So‘ng, ana shu qoralama asosida har bir bo‘lakka ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joylarga ko‘chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

**Xulosa** sifatida ijodiy kompozitsiyani tuzish qobiliyatini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va naqsh kompozitsiyasini tuzish bo‘yicha mukammal bilim, ko‘nikma va samarali o‘zlashtirish, kompozitsion fikrlash amaliy bezak san‘ati bo‘yicha ishlarni bajarish jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Keyinchalik tematik kompozitsiyalardan chizma va naqshlarni bajarishda ijodiy qobiliyat, shuningdek, talabalarning ijodiy salohiyati rivojlanadi.

Ushbu uslubiy tizimdan foydalanish amaliy bezak sanʼatida kompozitsiyasini oʻqitishning uslubiy shartlariga rioya qilish, talabalarning ijodkorlik tafakkurini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi va kelajakdagi badiiy-ijodiy salohiyatini oshiradi.

**Adabiyotlar:**

1. Bakayev Sh.Sh. Amaliy bezak sanʼati. Darslik. Buxoro. Durdona 2023y.
2. Bakayev Sh.Sh. Folk decorative and applied arts of Uzbekistan Multidisciplinary Journal of Science and Technology Vol. 3 No. 5 (2023) <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/421/1187>
3. Nashvanova M., Bakayev Sh. Определённый вид препятствий в прикладном искусстве трёх цветов в системе настроение контура в создании композиции // Science and education scientific journal ISSN 2181-0842 volume 4, issue 11 november 2023 [https://drive.google.com/file/d/1wq8Ej\\_Ovu1kRB5Q\\_h8I7O-aC2wXML4AB/view](https://drive.google.com/file/d/1wq8Ej_Ovu1kRB5Q_h8I7O-aC2wXML4AB/view)
4. Abdullaev S.S., Bakaev Sh.Sh., Ostonova G.R., Sharipov Sh.Sh.. Ornamental symbolism in the folk arts and crafts of Bukhara. // European science, 17-19.
5. Bakaev Sh.Sh., Avezov Sh.N.. Development of the creative potential of students through folk art // European Science. – 2020. – No. 4 (53).
6. Bakaev Sh.Sh. Creativity of folk craftsmen of Uzbekistan. // Young scientist, 641-644.
7. J.S. Botirov, SS Bakayev, MM Avliyakov, AL Shirinov, SS Abdullaev. The same goes for art classes in private schools specific properties. // Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol 27 (2)
8. B.S Sobirova Sh. U., Aminov A. Sh. Methodology of using new pedagogical technology in teaching the fundamentals of projection. // International journal of special education, 16592-16602.
9. Bakaev S. et al. Content of innovation and innovative activity of the teacher // International Journal of psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Special Issue 1, 2020.

## INKLYUZIV TA’LIM

### BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING INKLYUZIV TA’LIMGA TAYYORLIGINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

*Kaxarova Dildora Sidikovna,*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori*

*Ushbu maqolada jahonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda bo’lajak o’qituvchilarini mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlik, muhitga tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlardan oson chiqish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy salohiyat tarkibini o’zida qaror topshirish talab etilishi, chet ellik olimlarning inklyuziv ta’limga oid qarashlari, umumta’lim maktablarda inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik faoliyatni takomillashtirishda, alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan va oddiy o’quvchilar orasidagi munosabat, muloqotchanlik, moslashuvchanlik, shuningdek, jalb etilgan o’quvchilar kasallik tashxislaridan kelib chiqib, turli korreksion pedagogik-psixologik metodlarni doimiy olib borish, mavjud muammolarni hal etishda yordam berishi, bular inklyuziv ta’lim-tarbiya tizimining sifat-samaradorligini oshirishda, integratsiyasida yetarli darajada xizmat qilishi to’g’risidagi fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so’zlar:** *inklyuziv ta’lim, olimlarning fikrlari tahlili, ta’lim-tarbiya, alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan bolalar, ko’nikma, nuqsonli bolalar, qobiliyat, zaif jihat, moslashish, pedagogik-psixologik, aqliy bilimi, xarakter, odob-axloq, psixokorreksiya mashqlari.*

### РАЗВИТИЕ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

*В данной статье объясняется, что дальнейшее совершенствование практики развития инклюзивного образования в мире требует от будущих педагогов ориентации на конкурентоспособность на рынке труда, быстрой адаптации к окружающей среде, лёгкого выхода из проблемных ситуаций, самостоятельного решения структуры профессионального потенциала на основе компетентностного подхода, взглядов зарубежных учёных на инклюзивное образование, внедрения инклюзивного образования в общеобразовательных школах, в совершенствовании педагогико-психологической деятельности образования, взаимоотношения между нуждающимися в особом внимании и обычными учениками, изложены идеи о коммуникативности, гибкости, а также о том, что при работе с вовлечёнными учащимися, исходя из диагнозов их болезней, необходимо постоянно проводить различные коррекционные педагогико-психологические методы, помогать в решении имеющихся проблем, что в достаточной мере служит повышению качественной эффективности, интеграции инклюзивной системы образования и воспитания.*

**Ключевые слова:** *инклюзивное образование, анализ мнений учёных, воспитание, воспитание детей с особыми потребностями во внимании, навыками, детьми с ограниченными возможностями, способностями, слабостью, адаптацией, педагогико-психологические, психические знания, характер, манеры, психокоррекционные упражнения.*

### DEVELOPMENT OF THE READINESS OF FUTURE TEACHERS FOR INCLUSIVE EDUCATION ON THE BASIS OF A COMPETENCY APPROACH

*This article explains that in further improving the trend of the practice of developing inclusive education in the world, it is necessary to make future teachers competitive in accordance with the labor market, quick adaptability to the environment, easy access to problem situations, the requirement to decide the composition of professional potential on the basis of a competency approach, views on inclusive education of foreign, communication, flexibility, as well as opinions are expressed that the involved students, based on the diagnoses of the disease, constantly carry out various correctional pedagogical-psychological methods, help in solving existing problems, which serve adequately in improving the quality-efficiency, integration of the inclusive education system.*



**Keywords:** *inclusive education, analysis of the opinions of scientists, education, children who need special attention, skills, defective children, ability, weak aspect, adaptation, pedagogical-psychological, mental knowledge, character, etiquette, psychocorrection exercises.*

**Kirish.** Mamlakatimizda barcha sohalar qatori inklyuziv ta’limni ham tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” hamda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorgarligi va kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni amalga oshirish texnologiyalarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Jahonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda bo‘lajak o‘qituvchilarini mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlik, muhitga tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlardan oson chiqib olish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy salohiyat tarkibini o‘zida qaror topshirish talab etiladi. Shuning uchun jahon andozalariga mos yuqori malakali inklyuziv ta’limga tayyor pedagoglarining zaruriy kasbiy xususiyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, uzluksiz ta’limning barqaror taraqqiylashishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli inklyuziv ta’lim dasturlarini yangilash, ixtisoslik fanlari mazmunini amaliy ko‘nikmalariga yo‘naltirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sharoitlarini yaratish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Inklyuziv ta’limni o‘rganish pedagogika va psixologiya fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, nogironligi bo‘lgan bolalarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo‘tadil bo‘lishi, hamisha alohida e’tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda inson psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo‘nalishlar XX asrning boshlarida vujudga keldi.

**Asosiy qism.** Tadqiqot ishida umumta’lim maktablarda inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik faoliyatni takomillashtirishda, alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan va oddiy o‘quvchilar orasidagi munosabat, muloqotchanlik, moslashuvchanlik, shuningdek, jalb etilgan o‘quvchilar kasallik tashxislaridan kelib chiqib, turli korreksion pedagogik-psixologik metodlarni doimiy olib borish, mavjud muammolarni hal etishda yordam beradi. Bular inklyuziv ta’lim-tarbiya tizimining sifat-samaradorligini oshirishda, integratsiyasida yetarli darajada xizmat qiladi. Bu jarayonda bolalarni ruhiy holat, kechinmalari tahlil qilingan.

Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishi bu nazariyalarning nogiron bolalar pedagogik-psixologiyasi fanlari rivojlanishiga ma’lum darajada turtki bo‘ldi. Bu borada, B. Bryuno, J. Piaje, A. Vallon S. Xoll, Y. Meyerman, K. Byuler, Y. Dyurkgeym, D. Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e’tirof etish mumkin. Chunonchi, Angliyalik olim Djok Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini “top-toza taxtaga” o‘xshatadi. U: “Bolaning “top-toza taxta” tarzidagi ruhiyatiga nima yozish bu kattalar ixtiyoridir, uning qanday inson bo‘lib yetishishi, unda qanday shaxsiy fazilatlar tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, o‘zgaralar bilan muloqot jarayonida qoladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlarga bog‘liqdir”, deb ta’kidlaydi.

Amerikalik olim S. Xoll: “Har qanday bola o‘zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og‘riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur”,- deb aytadi. U o‘z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to‘plab bola ta’lim-tarbiyasi haqida psixologik, fiziologik bilimlarning mujassam dasturini yaratish g‘oyasini olg‘a surgan.

Shvesariyalik pedagog-psixolog olim Y. Klapared o‘zining “Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika» asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o‘xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Olmoniyalik Ye. Meyerman fikricha: “Eksperimental pedagogika va psixologiyaning maqsadi bolaning maktab davrida uning ruhiyatida, vujudida kechayotgan o‘zgarishlarni to‘liq bilmay turib, unga buyruq berib yoki tazyiq o‘tkazib bo‘lmaydi”.

Amerikalik J. Bryuno esa: “Shaxsning tarkib topishi bilan ta’lim o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjudligini ta’kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o‘qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi”,- deya uqtiradi. Bryuno o‘z ilmiy qarashlarida ancha dalil g‘oyalarni ilgari surgan. Uning taxminiga ko‘ra: “Har qanday fanni har qaysi yoshdagi bolaga samarali o‘rgatish mumkin. Bunda faqatgina har bir yosh bosqichida bola olamni o‘ziga xos tarzda ko‘rish va tushuntirishni

e'tiborga olish hamda o'rgatiladigan bilimlarni bolaning qarashlariga monand talqin etish talab qilinadi”, - deydi. Shuningdek, A. Bine, V. Shternlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'lim tarbiyaning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, psixokorreksiya mashqlarning o'rnini ilmiy amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaganlar va bu ta'limotlar inklyuziv ta'lim yo'nalishida muhim ahamiyatga ega.

V. Shternning ta'kidlashicha, bolaning dastlabki olti yoshida olgan bilimlari o'ziga xos tarzda egallanadi. Maktabgacha yoshdagi bola hali, o'qish uchun anglanilgan irodaga ega emas, maktab o'quvchisi uchun esa o'qish berilgan materialni ongli tarzda o'zlashtirish niyati va bu bilimlardan o'zining kelajagi uchun mulk sifatida foydalanish, butun holicha saqlab olish istagidir. V. Shtern: “Maktabgacha yoshdagi bola, ayni bugungi kuni bilan shunchalik mashg'ulki, ertangi kun, kelajak uchun biror-bir narsani egallash istagidan uzoqdir” deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolaning o'qishi boshqa faoliyatning mahsuli hisoblanib, tevarak atrofdan, o'yin orqali qolgan ta'ssurotlarni ongsiz tarzda tanlash asosida hosil bo'ladi.

Shveysariyalik pedagog-psixolog J. Piajening fikricha: «Bola aqliy rivojlanishi o'zining ichki qonunlari asosida taraqqiylashib borib, sifat jihatidan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishda yoki sekinlashtirishga qodir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim insonning rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak», deydi. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatishga foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlarida bolaning tegishli pedagogik-psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yosh bilan bog'liligi ana shundan kelib chiqadi.

Rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim-tarbiyani takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, amerikalik Ture Yonssonning “Inklyuziv ta'lim” nomli qo'llanmasi ham nogironlar uchun xalqaro ta'lim dasturining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu manbada alohida e'tiborga muhtoj bolalar va o'smirlarni mustaqil hayot qurushlari va yashashlari uchun xalqaro ta'lim-tarbiya berish dasturining asosiy jihatlari ochib berilgan.

Shuningdek, kanadalik D. Baynning “Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalar” nomli dasturida nogiron va alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni maxsus joylarda tashkil etish lozimligi va shuning uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar asosida ish olib borilishi bo'yicha tavsiyalar bergan.

Kristin Maylz “Aqlan zaif o'quvchilar uchun maxsus ta'lim” monografiyasida, rivojlanishida orqada qolgan va aqli zaif bo'lgan bolalar, o'quvchilar va o'smirlar uchun maxsus ta'lim-tarbiya berishning vazifalari belgilab berilgan. Bunday vaziyatda ishlaydigan tarbiyachi, pedagog, tibbiyot xodimlari maxsus bilim va tayyorgarlikka ega bo'lishligi ko'rsatib berilgan.

Rus psixologi L. S. Vigotskiy o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik rivojlanishiga oiddir. Uning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. L. S. Vigotskiy madaniy-tarixiy konsepsiya ishlab chiqqan. Bu konsepsiya shaxsning psixik rivojlanishi haqidagi nazariyadir. Olim ilmiy qiziqishlarining markazida, bolaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi masalasi turadi. L. S. Vigotskiyning ilmiy izlanishlari oliy bilish psixik xususiyatlari: ixtiyoriy xotira, diqqat, tafakkur, mantiy fikrlash singari irodaviy harakatlarini bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmashligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushuntirish uchun, ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ta'kidlaydi.

Demak, bolaning tarbiya va o'quv faoliyatida orqada qolishi, psixik funksiyalarning o'zlashtirilmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikni buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilish xususiyatlarini egallamaganligi tufaylidir. Bunday psixik muammoni psixokorreksiyalash usullari bilan, ya'ni bolaga kiyimlarni to'g'ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar ko'rsatilishi bilan bartaraf etish mumkin.

Jahon pedagogika-psixologiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan A. N. Leontev, bolalar psixologiyasi sohasida ko'plab nazariy va amaliy muammolarni tadqiq etgan. Uning fikricha, “Shaxs ikki marta tug'iladi, shaxsning birinchi tug'ilishi maktabgacha yosh davrda vujudga keladi. Bu hodisa insonning o'z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlarga bo'ysundirishga, ilk bora urinishi motivlar orasida ierarxik munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ikkinchi tug'ilishi o'smirlik davrida yuz beradi. Bu hodisa insonning o'z motivlari va intilishlarini anglashi va ularni bo'ysundirishi bilan bog'liqdir”.

Munosabatlar pedagogikasi va psixologiyasida bola psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rgangan va shaxslararo munosabatlar konsepsiyasini yaratgan rus olimi V.N.Myasishevdir. Uning ta'kidlashicha: “Insonning psixik rivojlanishi uning atrof voqelik va, eng avvalo, boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari tizimning murakkablashib, kengayib borishiga bog'liq bo'ladi”.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'rgangan olima A. N.

Golubeva: “Noqulay sharoitda bolaga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish, unda o’jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarning o’jarligi doimiy bo’lmaydi, masalan o’z tengdoshlariga nisbatan o’jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro’y beradi, ular asosan muayyan katta yoshdagi odamlarga, xususan o’qituvchi, tarbiyachilar yoki oila a’zolarining birortasiga o’jarlik qiladilar”, deb ta’kidlaydi.

Rus olimi L. U. Krijanovskaya ham o’z asarlarida alohida e’tiborga muhtoj bolalarga inklyuziv o’qitish tizimida ta’lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo’llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha: “Inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishlarida samarali, yaxshi yutuqlarga erishishida maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog’langan bo’lishi lozim”.

Har bir olim o’z ilmiy yondashuviga ega bo’lsa-da, ularning barchasini psixik taraqqiyotning manbalari va qonuniyatlari bilan bog’liq muammolar qiziqtirgan. Rus olimlarining ushbu muammolarni o’rganish sohasida qo’lga kiritgan psixologiya fani va bolalar psixologiyasining rivojlanishi uchun, shu jumladan inklyuziv ta’limning taraqqiyotida xizmat qiladi va xizmat qilib kelmoqda.

Sharqda Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug’bek, Imom G’azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdullo Avloniy, Avaz O’tar kabi allomalar o’z zamonasida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va ularning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to’g’risida ilmiy va ilmiy pedagogik mushohadalarini bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida bayon etganlar. Bu haqda dissertatsiyaning keyingi paragraflaridan birida batafsil fikr yuritiladi.

Ta’lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta’lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash, o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish, bolalardagi nutqiy kamchilikni o’rganish va uni bartaraf etish kabi muammolar bir qator: R. Jo’raev, Sh. Qurbonov, G. Shoumarov, L. Mo’minova, H. Kalbaeva, L. Nurmuhamedova, R. Shomahmudova singari o’zbek psixolog-pedagog mutaxassislarining ilmiy ishlarida ham tadqiq etilgan. Bu olimlarning ishlarini ko’rib chiqish orqali inklyuziv ta’lim va u bilan bog’liq muammolarning ma’lum darajada ilmiy tadqiq etilganligini, oila masalalari har bir millat uchun nihoyatda muhim ekanligini anglash mumkin.

Inklyuziv ta’lim muhitida nuqsonli bolalarning zaif jihatlarini hisobga olgan holda, qobiliyatiga qarab mashg’ulotlar olib boriladi. Shunda bolaning jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish, madaniy-gigienik ko’nikmalarni o’zlashtirish kabi ijtimoiy moslashuvi ham tezlashadi. Undan yana fikrlash ko’nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o’rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Tadqiqotning vazifasi alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan bolalarning maktabga qadam qo’yayotganida nechog’li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko’nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilish ko’nikmalarini o’zlashtirishi muhim ekanligidan iborat.

Ta’lim muassasalari zamirida inklyuziv o’qitishni tashkil qilish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

– inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar, ota-onalar har doim jalb etilishi kerak. Ularni tibbiy va ijtimoiy yordam ko’rsatuvchi xodimlar hamda boshqa shu haqida qayg’urgan shaxslar yordamida izlab topish mumkin;

– inklyuziv ta’lim uchun tanlangan ta’lim muassasasi bolalardagi muammolarga moslashtirilgan tarzda shakllantirilishi, boshlang’ich qadam har doim oddiy sinflarda individual ehtiyojlarga mos ravishda ta’limni joriy etish bilan boshlanishi kerak;

– inklyuziv ta’limni iloji boricha yosh, maktabgacha yoshda bo’lgan bolalarda boshlash maqsadga muvofiqdir. Ishonchni uyg’otish uchun dastlab kasallik darajalari yengil va o’rta bo’lgan bolalarda boshlagan ma’qul;

– inklyuziv ta’limni tashkil etishda alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan bolalarni xar bir sinfdan ikkitadan yoki uchtadan ko’p bo’lmasligi maqsadga muvofiqdir;

– o’zlashtirishda qiyinchiliklari bo’lgan bolalar bo’limining shovqin darajasi past bo’lgan va ularni fikrini jamlashga halaqit bermaydigan joyda bo’lishi lozim;

– ko’rishi shikastlangan bolalar bo’limi yaxshi yoritilgan va u yerda tovush yaxshi eshitiladigan bo’lishi davor;

– eshitishi shikastlangan bolalar bo’limi tovushni yaxshi qaytaradigan mahalliy materiallardan, noto’qima matolardan yoki shishadan tayyorlanishi kerak va o’qituvchining imo-ishoralari va lab harakatlarini ko’rish uchun yaxshi yoritilgan bo’lishi kerak. U maktabning eng shovqinsiz joyida bo’lishi zarur;

– o’zlashtirishda qiyinchiliklari bo’lgan bolalar bo’limi shovqin darajasi past bo’lgan va ularning

fikrini jamlashiga halaqit bermaydigan joyda bo‘lishi kerak;

– jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ehtiyojlari ham inobatga olinishi lozim. Mavjud maktablarda harakatlanishda qiynaluvchi bolalar uchun zarur o‘zgartirishlar qilinishi zarur. Masalan, nogironlar aravachasi yuradigan yo‘lakchalar, hojatxona jihozlari va boshqalar;

– darslarni olib boruvchi o‘qituvchilar maxsus bilimlar, Brayl va boshqalarni berish bilan cheklanmasdan, xulq-atvor, tekshiruv va baholash, guruh ishlari, dasturga moslashish, individual o‘qitish metodlari, sinfni boshqarish, o‘qitish qo‘llanmalari va ulardan foydalanishga ham diqqatni qaratishlari lozim. Sinf xonalaridagi maxsus ehtiyojlar, YUNESKO resurs qo‘llanmasi shu maqsadda foydalaniladi;

– katta yoshdagi o‘quvchilar, ota-onalar, qarindosh-urug‘lar o‘qituvchilarga maxsus yordamga muhtoj bolalarga ko‘mak berishga jalb qilinishi va ruhlantirib borilishi kerak;

– inklyuziv ta‘lim resurs jamoasi tuziladi. Imkon qadar maxsus tayyorlovdan o‘tgan va turli nogironliklar haqida bilimlarga ega maxsus ta‘lim o‘qituvchilari tanlanadi;

– resurs jamoaning maqsadi oddiy maktab tizimida qisqa muddatli va mahalliy kurslarni tashkil qilishdan iboratdir. Bu inklyuziv ta‘limning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda muhimdir. Uni maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyalovchilari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan boshlash lozim;

– inklyuziv ta‘lim tizimini yaxshilash uchun eng samarali islohotlar yuritish va buning uchun zarur mablag‘larni ajratish, shu bilan birga, ta‘lim jarayoniga yengil nogironligi bo‘lgan barcha bolalarni jalb qilish kerak;

– ota-onalarga oilaviy tarbiya ustuvorligini tushuntirish, ularni ta‘lim muassasalaridagi pedagogik jarayonda ishtirok etishga yo‘naltirish, ijtimoiy, psixologik va sog‘liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish lozim.

**Xulosa.** Shu tariqa inklyuziv ta‘limni oiladan, so‘ng maktabgacha ta‘lim muassasalarida, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalarida joriy etish ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta‘lim alohida e‘tiborga muhtoj bolalarga umumta‘lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko‘rsatiladigan individual yordam alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta‘lim o‘qishning uzluksiz va muttasilligini ta‘minlaydi. Oila – bolalar bog‘chasi – maktab – kasb -hunar kolleji – ish bilan ta‘minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga alohida e‘tiborga muhtoj bolalarini umumta‘lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlariga bemaolol, xavfsirasmasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Bo‘lajak mutaxassislar inklyuziv ta‘limga tayyorligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda ularning pedagogik xususiyatlari, imkoniyatlari hamda inklyuziv ta‘limning asosiy funksiyalari shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish, xatti- harakatlarini ijtimoiy rivojlanishiga yo‘naltirish, har bir o‘quvchiga individual yondashib shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning iqtidori va shaxsiy salohiyatini ochib berish vazifasi maqsad qilinadi.

### Adabiyotlar:

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. -T, 2022.-B39. www.lex.uz

12. Брюно Ж. и др. Одаренные дети: психоло-педагогические исследования и практика. // Психологический журнал. – 1995 №4. – С. 73 – 75.

13. Клапаред Э. Психология ребенка и экспериментальная педагогика. – М.: ЛКИ, 2007. – С. 97.

14. Ture Yonsson. Inklyuziv ta‘lim. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: YuNESKO va OM Xalqaro tashkilotlari, Respublika ta‘lim markazi, 2002.

15. Devid Bayn. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalar: baholash, dastur va ko‘rsatmalar. – Kanada: Albert Universiteti, 1991.

16. Barotov Sh. R. O‘zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari. Psix. fan. dokt. ...diss. – T., 1997. – 79-b.

17. Выготский С. Л. Собрание сочинений в 6-ти томах. Т. 4. – М.: Педагогика, 1984. – С. 126.

18. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Изд-во полит. литературы, 2005. – С. 34.

19. Крыжановская Л. М «Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования». Пособие для психологов и педагогов. – М.: «ВЛАДОС», 2013. – С. 48.

20. Djuraev R. Ta‘limda interfaol texnologiyalar. –T.: O‘zPFITI, 2010.

21. Qurbonov Sh., Seytxalilov Ye., Inoyatov U., Yuzlikaeva E., Sharipov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi. «Islom Karimov modeli» – O‘zbekiston mustaqilligining yuksak yutug‘i va natijasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2013.

22. Shoumarov G‘., Shomahmudova R., Mo‘minova L., Kalbaeva H. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi. – T.: Ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash fondi, 2009.

23. Nurmuhammedova L. Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. ped.fan.nomz. ... diss. – T., 2005.

24. Shomahmudova R. Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “CHASHMA PRINT”, 2011.

25. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Myasimov,\\_Vladimir\\_Nikolaevich](https://ru.wikipedia.org/wiki/Myasimov,_Vladimir_Nikolaevich)

26. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Dar\\_professora\\_V.\\_N.\\_Golubeva](https://ru.wikipedia.org/wiki/Dar_professora_V._N._Golubeva)



## TA'LIM MENEJMENTI

### OLIV TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHNING SIFAT KOMPONENTLARI

*Isabekov Ixtiyor Adilbekovich,  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali erkin tadqiqotchisi*

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilingan bo'lib, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va ta'lim jarayonini boshqarishning sifat komponentlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, innovatsion texnologiyalar, globallashtirish, ta'lim xizmatlari, intellektual, integratsiya, startup, akseleratsiya, foresayt, kompetensiya, texnopark, innovatsion xabarlar.

### КОМПОНЕНТЫ КАЧЕСТВА УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ В ВУЗЕ

*В данной статье рассматриваются приоритетные направления улучшения содержания и качества образования в высших учебных заведениях, инновационные подходы к обеспечению качества образования на основе передового зарубежного опыта, а также качественные составляющие управления образовательным процессом.*

**Ключевые слова:** профессиональные навыки, инновационные технологии, глобализация, образовательные услуги, интеллектуальные, интеграция, стартап, акселерация, foresayt, компетентность, технопарк, инновационные хабы.

### COMPONENTS OF QUALITY MANAGEMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN A UNIVERSITY

*This article discusses the priority directions for improving the content and quality of education in higher education institutions, innovative approaches to ensure the quality of education based on advanced foreign experiences, and quality components of educational process management.*

**Keywords:** professional skills, innovative technologies, globalization, educational services, intellectual, integration, startup, acceleration, foresight, competence, technology park, innovative hubs.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda rivojlanishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashtirish ta'lim tizimi sohasida ham muhim o'zgarishlar va yangiliklarni joriy etishni talab etmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida mutaxassis kadrlarning kasbiy mahorati, innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim qattiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab qiladi. Ta'limda nazorat va boshqaruvning uyg'unligini ta'minlash sifat va samaradorlikning kalitidir. O'zbekiston ta'lim tizimida ta'lim sifati tizimli nazorat qilinmasa, o'quv jarayonida muayyan muammolar yuzaga keladi. Shuning uchun ta'limni boshqarish o'quv jarayonini, ta'lim turini, uning imkoniyatlarini hisobga olishi va shu bilan sifat menejmentining samarali ishlashini ta'minlashi kerak. Ta'limda boshqaruv samaradorligi va sifatining o'zgarishi to'g'ri tanlangan boshqaruv modeli va uni uzluksiz ta'lim tizimida izchil qo'llash amaliyoti bilan bog'liq. Zero, "Islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyoning rivojlangan, zamonaviy davlatlari

qatoridan munosib o‘rin egallashi ilm-fan va ta‘lim rivoji, bu borada jahon miqyosida raqobatlasha olishimiz bilan uzviy bog‘liqdir [2]. Shuningdek, u ta‘limning ijtimoiy taraqqiyotga ta‘sirini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta‘lim tizimini isloh qilish, sifatli ta‘lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta‘limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu vazifalar ta‘lim ustidan adolatli boshqaruv va universal nazorat tizimini rivojlantirish va mavjud shakllarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta‘lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish maqsadida nazorat va boshqaruv jarayonini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarida ta‘lim sifatini ta‘minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

**Metodika.** Innovatsion faoliyat sohasiga, ta‘lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning yechimini izlashga o‘z vaqtida F.I.Peregudov munosib hissa qo‘shdi [8].

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovasiya va ta‘lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish «O‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: - «Pedagogik tajriba sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajribasinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi» [9].

O‘qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini taqlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A. Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya‘ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

Zamonaviy ta‘lim muassasasida ta‘lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalari, ta‘lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish darajasini aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi [4].

Tezkor o‘zgaruvchan mehnat bozorining shart-sharoitlari ish beruvchilarni mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasi va uning mazmuniga bo‘lgan talablariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda kasbiy faoliyat samaradorligini ta‘minlovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida bilim, ma‘lumotlilik darajasi yoki tajribagina emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetentligi belgilanmoqda.

Ta‘lim sifatini boshqarish tizimini yaratish tamoyillarini tavsiflashga har xil yondashuvlar mavjud, lekin umuman olganda, ularni bitta fikr birlashtiradi - bunday tavsif boshqaruvning umumiy kontseptual modeliga asoslangan bo‘lishi kerak. Keng ma‘noda menejment - bu murakkab tuzilgan (biologik, texnik, ijtimoiy) tizimlarning funksiyasi, ularning tuzilishini saqlash, ishlash va barqaror rivojlanish rejimini saqlash, tizim maqsadlarini amalga oshirish. Menejment faqat ijtimoiy tizimlarning atributidir, u faqat tashkilotlarda mavjud. Boshqaruv tor ma‘noda boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv organlari deb ataladi. Samarali boshqaruv manfaatlari uchun boshqaruv tizimining tuzilishini va uning bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘liqligini aniq belgilash zarur. Umumiy holda, bu muammoning yechimi tuzilmaviy boshqaruv deb ataladi.

Bundan tashqari, tizim va uning quyi tizimlarining shunday xususiyatlarini aniqlash va shakllantirish kerakki, ular maqsadli vazifalarini bajara olsin. Bunga parametrik nazorat orqali erishiladi. Tashqi va ichki muhitdagi o‘zgarishlarga tizimning munosabati bilan bog‘liq vaziyatni boshqarish vazifalarini hal qilish vaziyatni boshqarish deb ataladigan zonada yotadi.

Sifatni ta‘minlash sifat menejmenti tizimi (menejment dasturi) doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan, boshqaruv obyektiga kerakli sifat xususiyatlarini berish imkoniyati va shartlarini belgilaydigan barcha turdagi faoliyatni anglatadi.

Ta‘lim sifatining kafolati - bu ta‘lim standartlarida, boshqa me‘yoriy hujjatlarda, shuningdek, iste‘molchilar talablarida belgilangan talablar darajasida ta‘lim sifat ko‘rsatkichlariga erishish uchun zarur choralar majmuyini ishlab chiqish.

Sifatni ta‘minlash tizimining elementlari - ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari, attestatsiyadan o‘tish tartibining mazmuni, vazifalar va vakolatlarni taqsimlash, o‘zaro aloqani tashkil etish va boshqalar. Sifatni boshqarish: sifat menejmentining sifat talablarini bajarishga qaratilgan qismi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va liberallasuvi tobora ko‘proq ta‘lim xizmatlarini, ayniqsa, oliy ta‘lim xizmatlarini talab qilmoqda. Dunyoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari kengroq va chuqurroq bilimni talab qilmoqda. Shu sababli, ta‘limning ommalashuvi va uzluksizligini ta‘minlash davlatning ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Ilg‘or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar transferi asosida ta‘lim mazmuni va o‘qitish


sifatini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi:

- ta‘limni xalqarolashtirish;
- ish beruvchilar va davlat ijtimoiy buyurtmasi integratsiyasi asosidagi kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;
- fan, ixtirochilik va innovatsiyalar transferini rivojlantirish;
- startap-ta‘lim (akseleratsiya), forsayt markazlar, biznes inkubatorlarni rivojlantirish, ixtirolarni tijoratlashtirish;
- xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazasidan foydalanish faolligini oshirish;
- OTMlari reytingini oshirish;
- ta‘lim dasturlarining moslashuvchanligini ta‘minlash;
- Total quality management (ta‘lim sifatini oshirishning umumiy boshqaruvi)ni rivojlantirish;
- o‘quv jarayoniga innovatsion shakl, metod va vositalarni kiritish;
- kompetensiyalarga asoslangan ta‘lim modelini rivojlantirish;
- masofaviy ta‘limni keng joriy etish;
- mustaqil o‘zini-o‘zi moliyalashtirish, yangi hamkorlarni izlab topish
- ta‘lim xizmatlari eksportini rivojlantirish;
- texnoparklar, innovatsion xablarni yaratish;
- ta‘lim xizmatlari provayderlarini kengaytirish;
- ish beruvchilar va jamoatchilik hamkorligini rivojlantirish [5].

Zamonaviy ilg‘or mahalliy va xalqaro tajriba ta‘lim sifati quyidagi asosiy pedagogik prinsiplarga javob berishi zarurligini ko‘rsatmoqda:

- ✓ ta‘lim dasturlari ta‘lim oluvchilar, kadr iste‘molchilari ehtiyojlaridan kelib chiqib, shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi;
- ✓ ta‘lim mazmuni va faoliyat shaklining tizimlilik, yaxlitlik, ko‘p variantlik, muqobillik, bir muammoni hal qilishda turli xildagi ko‘p fikrlilik va bir necha yechimlarni izlab topishga yo‘naltirilgani;
- ✓ mazmunning muammoli va hamkorlikdagi ta‘lim tamoyillariga asoslangani, ta‘lim-tarbiya jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro samarali muloqoti, hamkorligi yo‘lga qo‘yilgani;
- ✓ ta‘lim oluvchilarning ta‘lim-tarbiya jarayonining ishtirokchisi sifatida faolligi, mustaqilligi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga oid ijodiy faoliyati va baholay olishi va boshqalar.

Oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim jarayonini boshqarish sifati komponentlari oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirayotgan abiturentlar va talablar sifati; ta‘lim dasturlari sifati; ilmiy-pedagogik kadrlar sifati; o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat sifatida; moddiy-texnik baza sifatida; axborot-kommunikatsiya muhiti sifatida; ilmiy tadqiqot ishlari sifatida; ta‘lim jarayonini boshqarish sifati; rahbariyatning innovatsion faolligi; innovatsion jarayonlarning tatbiq qilinishi; biruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi bilan bo‘g‘liq sifati ko‘rsatkichlarini kompleks o‘rganish asosida takomillashtirilgan [7].



1-rasm. Oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim sifatining baholash tizimi

Shuningdek, ta’lim sifatini baholash ta’lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va bitiruvchilarining buyurtmachi – jismoniy yoki yuridik shaxs manfaatlari (ehtiyohlari)ga mosligini nazorat qilish bilan bog‘liq ishlar hamda oliy ta’lim muassasasida ta’lim jarayoni samaradorligi monitoringini aniqlashda ta’lim sifatini ichki va tashqi qismlar orqali tashkil qilinishi keltirilgan.

Sanab o‘tilgan omillarining barchasi bitiruvchilarning raqobatbardoshligi, oliy ta’lim muassasasi nufuzining oshishi, eng muhimi, mamlakataimiz oliy ta’lim tizimining xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim sifati – bu nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati natijasidir degan xulosaga kelishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi faoliyatimizga berilgan eng oliy qadriyatdir. 2-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.508.

4. Yuldashev M. Ta’limni boshqarish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent.: 2015. - № 12. - B. 15-19.

5. Ганжа О.А. Управление качеством в высшем образовании. – Волгоград: ВолГАСУ, 2014. – 92с.

6. Xo‘jayev A.A. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish. p.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2019- yil.

7. Hakimov V.A. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining bosqichli ishlab chiqarishning qiyinchiliklari. Toshkent, 2015. – B. 66-68 b.

8. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. - Т.: Молия, 2002. - 184 б.

9. Tursunov F.U., Baxriddinov SH.R. “Oliy ta’lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarishda muammolar”. Eurasian Journal Of Academic Research elektron jurnal. 2022 14- aprel. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

## MA’NAVIYAT VA TARBIYA

### TARBIYA DASRLARINI TASHKIL ETISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING O’RNI VA AHAMIYATI

*Asqaraliyeva Muhtasar Azizjon qizi,  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
asqaraliyevamuxtasarxon@gmail.com*

*Ushbu maqolada bugungi kunda tarbiyaning muhimligi, jamiyatda so‘nggi yillarda insonning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan shaxsning tarbiyasi va ichki salohiyatini o‘rganish muammosi haqida fikr yuritilgan. Tarbiya muammolari va masalalari – insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g‘oyalar tizimidan ham katta o‘rin olganligi, insonning ongi, e‘tiqodi uchun bo‘lgan kurashlar ham yoshlarga tarbiyaviy yo‘llar orqali ta’sir etish shaklida namoyon bo‘lishi haqida fikrlar jamlangan. Yoshlarimiz ruhiyatida insonga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ullarini singdirish jarayonida ta’lim-tarbiya tizimini bosh maqsadga aylanganligi haqida so‘z borgan. Yana aksiologiyani pedagogikada ta’limot sifatida rivojlanishi hamda shu bilan birgalikda tarbiya darslarini tashkil etishda aksiologik yondashuvning o‘rni va ahamiyati ham keng yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar:* ta’lim, tarbiya, ong, go‘ya, fikr, faoliyat, mehnat, yondashuv, qadriyat.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ВОСПИТАНИЯ

*В данной статье идёт речь о важности образования сегодня, проблеме познания образования и внутреннего потенциала человека, направленного на повышение ценности человека в обществе в последние годы. Проблемы и вопросы образования - то, что оно приняло большее место, чем система идей, во все периоды человеческой истории, борьба за человеческое сознание и веру выражается также в форме воздействия на молодёжь посредством воспитательных методов. В статье обосновывается то, что образовательная система стала главной целью. Кроме того, широко освещено развитие аксиологии как учения в педагогике, а также роль и значение аксиологического подхода в организации учебных занятий.*

*Ключевые слова:* воспитание, воспитание, ум, мысль, деятельность, труд, подход, ценность.

### THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF AXIOLOGICAL APPROACH IN ORGANIZING EDUCATION LESSONS

*In this article, the importance of education today, the problem of learning the inner potential of a person aimed at increasing the dignity of a person in recent years in society. The problems and issues of education are a bigger place than the system of ideas in all periods of human history. Thoughts have been gathered that the struggles for human consciousness and faith are manifested in the form of influencing young people through educational methods. - It was said that the education system has become the main goal. In addition, the development of axiology as a doctrine in pedagogy, as well as the role and importance of the axiological approach in the organization of educational classes, are also widely covered.*

*Keywords:* education, mind, thought, activity, work, approach, value.

**Kirish.** Insoniyat hech qachon tashqi dunyodan, o‘zini qurshab turgan olamdagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar, ro‘y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolib yoki ularni his etmagan holda hayot kechira olmaydi. Va ular bilan chambarchas bog‘liq. Butun dunyodagi davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar, ular o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta’sirlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta’sir etmasdan qolmaydi va o‘z ta’sirini, albatta, ko‘rsatadi. O‘z navbatida kishilar ongi va qalbini makon tutgan g‘oya va mafkuralar ta’lim hamda tarbiyasiz shakllanmaydi, jamiyat ravnaqiga, millat va xalqni kelajagiga xizmat qiluvchi qudratli botiniy kuchga aylana olmaydi. Bu dunyoda so‘nggi yillarda insonning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan shaxsning ichki salohiyatini o‘rganish muammosi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi va tarbiya mexanizmlarining asosiy tushunchalari: shaxsiy salomatlik, o‘z faoliyatini tashkil etish, o‘zini- o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi



jamoadagi nufuzini belgilash va jamiyat infrastrukaturalarida o‘zini o‘zi realizatsiya qilish kabi tushunchalar shaxsning umuminsoniy qadriyatlar pozitsiyasida ekanligidan dalolat bermoqda. Bu ustuvor tamoyil, bu jamiyatimiz tabiatiga, millatimiz mentalitetiga xos bo‘lgan insonparvarlik bo‘lib, u bizning milliy g‘oyamizning shakllanishini tub negizi hisoblanadi. Binobarin, yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg‘ullarini singdirish jarayonida milliy g‘oyaning ana shu tamoyilini ta‘lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Taraqqiyot strategiyasi” -islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib, unda aholini, yoshlarni ma‘naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyat va tarbiya asosida moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Aksiologiyaning pedagogikada ta‘limot sifatida rivojlanishida I.Kant katta rol o‘ynadi, u insonni o‘z falsafasining markaziga qo‘ydi, bu esa, aslida, aksiologik bilimlar taraqqiyotida yangi bosqichni ochdi. Kant an‘ana va qiymatni mahsulot deb hisoblash davrini tugatadi va Kant bilan inson uchun qadriyatni tushunish bosqichi boshlanadi. Tarbiya bo‘lmasda esa ko‘plab olimlar tomonidan bir necha yuksak darajada ishlar amalga oshirildi. Jumladan, S.P.Azarovning “Tarbiyaviy ish metodikasi”, Toshkent “O‘qituvchi”, Learner-Centered Teaching: Five Key Changes to Practice by Maryellen Weimer tomonidan yozilgan kitoblar nazariy, ilmiy ahamiyatga molik hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada bugungi kunimizda, jumladan, ta‘lim tizimida tarbiyaning o‘rni, zarurati va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida tarbiyaning sifatini oshirish hamda tarbiya darslarida aksiologik yondashuvlarning ahamiyati haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Ma‘lumki, tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, keng va tor ma‘nolarda ifoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma‘noda oladigan bo‘lsak, tarbiya – ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko‘zlagan holda avloddan-avlodga o‘tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir. Mamlakatimizda yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma‘naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, mas‘uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson uchun qadriyatli bo‘lgan hodisalar, jarayonlar, voqealar mohiyatini anglash aksiologiya jarayonida sodir bo‘lar ekan, ijtimoiy infrastrukaturalarda yoshlarda aksiologik qadriyatlar tizimini rivojlantirish, ularni yuksak ma‘naviy axloqli, insonparvarlik fazilatlariga ega, o‘z kasbini chuqur biladigan mutaxassis sifatida tarbiyalash muammolarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilish masalalari yetakchilik qilmoqda. Ma‘lumki, tarbiya va qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Qadriyatlar-jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Taraqqiyot strategiyasi” – islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib, unda aholini, yoshlarni ma‘naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash, og‘irini yengil qilish, moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birgalikda milliy merosimizning g‘oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma‘naviy ehtiyojlariga davogar bo‘lgan omillarni o‘rganishdan iborat bo‘lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma‘naviy-ma‘rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu borada “Fozil shahar aholisining maslagi” risolasida jamiyat va uni tarbiyasi haqidagi gapni aytish mumkin. “Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi”. Bu esa o‘z navbatida tarbiya ham jamoaviy birlikka ham qaratilganini bilish mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda o‘tmish allomalari, mutafakkirlarining ma‘naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g‘oyat beqiyosdir. Tarbiya muammolari va masalalari – insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g‘oyalar tizimidan ham katta o‘rin olgan. Insonning ongi, e‘tiqodi uchun bo‘lgan kurashlar ham yoshlarga tarbiyaviy yo‘llar orqali ta‘sir etish shaklida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham jismoniy sog‘lom, ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalash O‘zbekiston milliy istiqloq mafkurasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ma‘lumki, milliy modelning bosh muddaosi komil insonni tarbiyalashdir. Bu esa asosiy tushuncha va vazifalardan biridir. Bunda tarbiya darslarini ahamiyati beqiyosdir. Tarbiya darslari haqida gap ketganda quyidagilarni ta‘kidlash joiz: tarbiya darslari o‘quvchilarga ma‘naviy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishlarini ta‘minlash maqsadida o‘tkaziladigan darslardan biridir. Tarbiya o‘quvchilarga bilimlarni o‘rgatish, insoniy qadriyatlarni

shakllantirish, g'oyaviy o'ylashni mustahkamlash va ijtimoiy masalalarda tajribani oshirishga yordam beradi. Tarbiya darsi, o'quvchilarni eng asosiy adabiyotlar, matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarda tayyorlashga yo'naltirilgan darsliklardan iborat bo'lishi mumkin. Bu darslar orqali o'quvchilar, ilmiy va amaliy bilimlarni o'rganib, o'zlarini rivojlantirishlari va o'zlarini rivojlantirishlari uchun zarur bo'lgan muammolar va vazifalarga javob berishni o'rganishlari ta'minlanadi. Tarbiya darsi o'quvchilar uchun juda muhimdir, chunki bu darslar orqali ular o'zlarini o'zlashtirish, o'z fikrlarini ifoda qilish, maslahat so'rash va o'zlashtirish, jamiyat bilan muloqot qilish va jamoada tajriba olish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Tarbiya darsi, o'quvchilarni adolatli, mehribon, hurmatli, hamkorlik qilishga, maslahat so'rashga va o'z xatolaridan o'qishga o'rgatadi. Tarbiya darsi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ham e'tibor beradi. O'quvchilar sport, mushoira va boshqa fizikaviy faoliyatlar orqali jismoniy rivojlanishlarini oshirishlari, salomatlikka e'tibor berishlari va shaxsiy g'oyaviy vaqtlarni samarali o'tkazishlari uchun imkoniyat beradi. Shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishida ham tavsiya etiladi. Shu bilan birga til, adabiyot, san'at, musiqa, ma'naviyat va ma'rifat madaniyatlarini o'rganish orqali o'quvchilar o'z ma'naviy qadriyatlarini va manfaatlari bilan tanishishlari, qadriyatlarini shakllantirishlari va insoniy g'oyaviy tushunchalarini mustahkamlashlari uchun imkoniyat yaratadi. Tarbiya darsi o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga ham intiladi. Ular jamoatda ishonchli, boshqalarni hurmat qiladigan, hamkorlik qilishga tayyor, ijodkor va nutqiy qobiliyatlarini oshirgan hamda ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun tahlil qilishga qodir bo'lgan insonlar bo'lishlari uchun ha tarbiya darslarini o'rni katta. Tarbiya darsi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham e'tibor beradi. Ular o'zlariga haqida tushunishlari va o'zlarini rivojlantirishlari, o'z qobiliyatlarini va talablarni aniqlashlari, o'z o'zlariga ishonishi, bevosita vazifalarni o'zlashtirishlari uchun qo'llanma beradi. Barcha bu sabablarga ko'ra, tarbiya darsi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi va shaxsiy jarayonlarida o'zlashtirishlari uchun muhimdir. Ushbu darslar o'quvchilarni ilmiy, jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy yo'nalishlarda rivojlantirishga yordam beradi va ularning o'zlarini to'liq shaxslar sifatida shakllantirishga yo'l ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning o'zlarini o'zligini anglash va bilimlarini rivojlantirishida xususiy va shaxsiy e'tibor beradigan o'zlashtiruvchi va animatsion usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bu usullar o'quvchilarni o'zlarining o'zlashtirish jarayonlarini ko'rsatish va maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. Tarbiya darsi o'quvchilarning hayotiy bilimlarni o'rganishga ham imkon beradi, masalan, shaxsiy moliya, biznes, sog'liqni saqlash, ma'suliyatli ota-onalik, ommaviy xizmat va boshqalar. Bu darslar orqali o'quvchilar o'z ma'suliyatlarini tushunishlari, hayotiy bilimlarni o'rganishlari, ish bilan bog'liq muammolarni hal qilishlari va o'zlarining istagan kasbni tanlashlari uchun kerakli bilim va malakalarni olishlari mumkin. Bizning milliy modelning bosh muddaosi komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu masalada ham respublikamiz olimlari o'ziga xos kontseptsiyalarni ilgari surishmoqda. Jumladan, ma'naviy barkamol inson aql-idrok asosida harakat qiladi. Shu jumladan, vatanimiz ravnaqi uchun yoshlar tarbiyasi juda muhim omil sanaladi. Tarbiya esa keng ma'nodagi tushuncha bo'lib uni tadqiq etishning ham turlari va yondashuvlari ko'plab topiladi. Jumladan, aksiologik yondashuv ham shu qatorda. Aksiologik yondashuv tarbiyada va tarbiya darslarini tashkil etishda chuqur o'rin egallaydi.

Tarbiya darslarini tashkil etishda aksiologik yondashuvning o'rni va ahamiyati juda muhimdir. Aksiologiya, ma'naviy qadriyatlarini, ma'naviyot, qadr-qimmat, yaxshi va yomonlik, maqsadlar va maqsadlarga erishish, o'z-o'zini qonuniy qilish va boshqa ma'naviy mohiyatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Aksiologik yondashuv, ta'lim jarayonida tashkil etilgan faoliyatlarining qanday qadriyat va qimmatlarga ega bo'lishini belgilashga yordam beradi. Bu yondashuv, o'quvchilarning ma'naviy, etik, estetik, insoniy, milliy va boshqa qadriyatlarini shakllantirishda o'rniga keladi. Aksiologiya, qadriyat, ma'naviyat va erkinliklar qobiliyatlarini o'rgatish, insoniyatga qadr-qimmat berish va maqsadli hayotga qarashni o'rgatishga oid ilmiy tadqiqotlar va prinsiplar to'plamini o'z ichiga oladi. Tarbiya darslarida aksiologik yondashuvning o'rni haqida gap ketganda talabalar o'rtasidagi hamkorlik, hurmat va tinchlik tuyg'ularining shakllantirilishiga yordam berishini aytish joiz. Bu yondashuv, o'quvchilarga qadriyatli xulq va odatlarni shakllantirishga yordam beradi. Uning asosiy maqsadi, o'quvchilarga insoniyatga qadr-qimmat berishni, hurmat bilan munosabatda bo'lishlikni o'rgatishdir. Tarbiya darslarida aksiologik yondashuvning ahamiyati shundaki, insoniyatga qadr-qimmat berish va maqsadli hayotga qarashni o'rgatish, o'quvchilarni adolatsizlik, zulm va nifoqqa qarshi qilishga, insoniyatga qadr-qimmat berishga, ijtimoiy muammolarni yechish uchun zarur qadriyat va ma'naviyatga ega bo'lishga erishishga yo'naltiradi. Aksiologik yondashuv o'quvchilarga o'z umrini qanday qilib o'rganish, insoniyatga qadr-qimmat berish, ijtimoiy masalalarni muvofiq qilib qilish, qadriyatli xulq va hamkorlikni rivojlantirish va insoniyatga qadr-qimmat berishga ko'maklashishni o'rgatadi. Tarbiya darslaridagi aksiologik yondashuv, o'quvchilarga ma'naviy qadriyat va erkinliklarni tushunish, qadriyatli xulqni shakllantirish, ijtimoiy muammolarni yechishni va tahlil hamda xulosa qilishni o'rgatishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, adolatsizlik va zulmga qarshi qilishga, ijtimoiy muammolar yechishga va insoniyatga o'z qadr-qimmatini saqlashga yordam beradi. Aksiologik yondashuv,

tarbiya darslarini tashkil etishning asosiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. Bu tamoyillar o'quvchilarga qadriyatli xulq, adolat, erkinlik, hamkorlik, tinchlik va boshqalariga hurmat ko'rsatishni o'rgatishga asoslangan. Bu xususiyatlarni o'quvchilar o'rganib, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etadi. Aksiologik yondashuvning birinchi vazifasi, o'quvchilarni ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularning barcha insoniy qadriyatlarini oshirishdir. O'quvchilar, qadriyatlarni o'rganish orqali o'zlarini, boshqalarini va dunyoni qanday qilib qadrlay olishni o'rganadi. Bu esa o'quvchilarga o'zlarini aql va idroklarini mustahkamlash va rivojlantirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar bu qadriyatlarni o'rganib, ijtimoiy muammolarni yechishda adolatli bo'lish va zulmga qarshi chiqishning ahamiyatini tushunishlari kerak. Bunday bilim va tushunchalar, ularning ijtimoiy masalalarni yechishida va boshqalar bilan hamkorlikni o'rganishda ularga yordam beradi. Ushbu yondashuv, o'quvchilarni insoniyatga qadr-qimmat berish va maqsadli hayotga qarashga o'rgatishni ham asoslaydi. Bu – o'quvchilar uchun qadriyatli xulqni shakllantirish va o'z maqsadlariga erishishning muhim qismlarini o'rganishda yordam beradi. Bu bilan birga, o'quvchilarni insoniy muammolar yechishda, ijtimoiy muhim masalalarni muhokama qilishda va insoniyat uchun muhim va yaxshi sifatlarini o'sishiga olib keladi. Bu yondashuv o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etibgina qolmay ularning o'zlarini va atrof-muhit, jamiyat va boshqa omillarni qadrlay olishlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tarbiya darslarini tashkil etishda aksiologik yondashuvning o'rni va ahamiyati juda katta. Bu yondashuv, o'quvchilarni ma'naviy qadriyat va erkinliklarga intilish, insoniyatga qadr-qimmat berish va ijtimoiy muammolar yechishda yordam beradi. Aksiologik yondashuv orqali o'quvchilar o'zlarini, boshqalarini va dunyoni qadrlay oladilar va o'zlarini mustahkamlash va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tarbiya darslarida aksiologik yondashuv o'quvchilarni umumqadriyatlarga, insoniyatga, e'tiqodlarga, adabiyotga, madaniyatga, millatga va boshqa muhim qadriyatlarga qaratib chiqishga yordam beradi. Ushbu yondashuv, o'quvchilarning maqsadlarini, istaklarini, qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, aksiologik yondashuv, o'quvchilarning o'z-o'ziga ishonish va o'z-o'zini qadrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni ma'naviy tarbiya qilishda muhim bo'lgan qadriyatlar va qiymatlarni tushuntiradi. Bu qarash o'quvchilarda insoniylik, adabiyot, etik, hamkorlik, mehnat, e'tiqod, huquq va boshqa ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladigan mohiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning shaxsiy va jamiyat bo'ylab rivojlanishida qo'llaniladi. Shu bilan birga tarbiya darslarida o'quvchilarga o'z-o'zini qadrlash va o'z-o'zini jamiki yaxshi sifatlarini o'stirish muhimligini o'rgatishda ham ahamiyati bor. Bu yondashuv o'quvchilarga boshqa insonlarga hurmat va mehribonlik hissini uyg'otibgina qolmay, qonunlarga rioya qilishni, adabiyotga, madaniyatga va milliyatga e'tibor berishni o'rgatadi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuvning tarbiya darslarida ahamiyati o'quvchilarni o'z maqsadlariga yo'naltirish, o'z istaklarini va xohishlarini aniqlashga yordam berishda ham ko'rinadi. Bu yondashuv o'quvchilarning qadriyatlarini va maqsadlarini tushunish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiya darslarini tashkil etishda aksiologik yondashuv, avvalambor, tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi va bu ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida, uning milliy va umumbashariy zaminini mustahkamlash asosida o'quvchi-yoshlarga zamon talablari va jahon andozalari asosida bilim va ma'lumot berish bilan birga, ularda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifat, bilim, odob, fazilatlarini singdirish va anglashni mujassamlashtiradi. Tarbiya darslarida aksiologik yondashuv o'quvchilarni umumqadriyatlarga, insoniyatga, e'tiqodlarga, adabiyotga, madaniyatga, millatga va boshqa muhim qadriyatlarga qaratib chiqishga yordam beradi. Ushbu yondashuv, o'quvchilarning maqsadlarini, istaklarini, qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish to'g'risida”gi PF-5106-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son Qarori.
3. Azarov S.P. Tarbiyaviy ish metodikasi.-Toshkent “O'qituvchi”, 1991.
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. —Toshkent, «O'qituvchi», 1996.
5. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy ta'limotlar taraqqiyoti tarixidan. — Toshkent, «O'qituvchi», 1997.
6. Ibrohimov A., Sultonov X., Juraev N. Vatan tuyg'usi. — Toshkent, “Sharq”, 1996.

## ZIYORAT TURIZMI ASOSIDA YOSHLAR MA’NAVY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Eshchanova Xolida Xudayarovna,*  
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi  
yibrat@inbox.ru

*Jamiyat taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Ta’limning uzviyligi va uzliksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarni ta’minlagan holda yoshlarning bilim, ko‘nikma va malaka egallashlarini, aqliy, ijtimoiy, madaniy va kasbiy rivojlanishini, turistik faoliyatda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.*

*Maqolada ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish masalalari batafsil yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, axloq, turizm, turist, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, turizm menejmenti, turizm marketingi, madaniy meros obyektlari.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ МОЛОДЁЖИ НА ОСНОВЕ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

*Роль духовно-нравственного воспитания в развитии общества неопределима. Актуально развивать знания, навыки и квалификацию молодёжи, умственное, социальное, культурное и профессиональное развитие, а также духовно-нравственные качества в туристической деятельности, обеспечивая при этом целостность и преемственность образовательных, развивающих и социализирующих целей.*

*В статье подробно рассмотрены вопросы совершенствования педагогических механизмов формирования духовно-нравственных качеств молодёжи на основе паломнического туризма, комплексного использования имеющихся ресурсов и возможностей богатого природного и культурно-исторического наследия страны.*

**Ключевые слова:** духовность, нравственность, туризм, турист, паломнический туризм, туристическая инфраструктура, туристический менеджмент, туристический маркетинг, объекты культурного наследия.

## IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISMS OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL CHARACTERS OF YOUTH ON THE BASIS OF PILGRIMAGE TOURISM

*The role of spiritual and moral education in the development of society is incomparable. It is urgent to develop young people's knowledge, skills and qualifications, mental, social, cultural and professional development, as well as spiritual and moral qualities in tourism activities, while ensuring the integrity and continuity of education, developmental and socializing goals.*

*The article describes in detail the issues of improving pedagogical mechanisms for the formation of spiritual and moral qualities of young people on the basis of pilgrimage tourism, comprehensive use of the available resources and opportunities of the country's rich natural, cultural and historical heritage.*

**Keywords:** spirituality, morality, tourism, tourist, pilgrimage tourism, tourism infrastructure, tourism management, tourism marketing, cultural heritage objects.

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Ta’limning uzviyligi va uzliksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarni ta’minlagan holda yoshlarning bilim, ko‘nikma va malaka egallashlarini, aqliy, ijtimoiy, madaniy va kasbiy rivojlanishini, turistik faoliyatda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbayiga aylanib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotida 2015- yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2016- yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1 milliard 235 millionga ya‘ni, 3.9



foizga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015- yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2020–2023- yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin deb ko‘rsatib o‘tgan X.Eshchanova o‘zining O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlanishining tarixiy-pedagogik jihatlarini nomli maqolasida Jahon turizm tashkiloti ma’lumotiga tayanib [1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohaslaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda turizmi rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakat o‘zining salohiyati, geografiyasi, tarixi va bugungi kundan kelib chiqib, turizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirishga urinadi. Salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstrimal turizm, shuningdek, ziyorat turizmi singari yo‘nalishlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Turizm - mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sanaladi. Mamlakatimiz turistik salohiyatini oshirishga befarq bo‘lmagan aholining oilaviy mehmon uylarini, turistlar uchun kamida besh xil xizmat ko‘rsatish turlarini tashkil etganda “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishga oid, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlarni obodonlashtirish, keng ommaga tanishtirishga oid yangiliklar kiritilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” ning “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vazifalari, **“Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” yo‘nalishida** IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub asarlarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish vazifalari belgilab berilgan.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olindi.

Boshqacha qilib aytganda, biz O‘zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo‘lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim. Qo‘yilgan maqsadlarga O‘zbekistonni rivojlantirishning innovatsion modeliga to‘liq o‘tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag‘batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikaning turizm salohiyatini, birinchi navbatda investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish hisobiga rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgustdagi «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3217-son qarori, 2018-yil 3-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son, 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6165-son Farmoni, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmi jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida qabul qilingan 2017-yil 7-fevraldagi «Ichki turizmi jadal rivojlantirishni ta’minlash chora – tadbirlari to‘g‘risida» gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-son qarorlari qabul qilindi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160 – sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Allomalarimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha yetib kelgan boy tarixiy, ma’naviy meroslarimiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida ishlab chiqilgan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda (mamlakatimiz pedagogika fanida ham, chet el pedagogika fanida ham) Ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammolari deyarli o‘rganilmagan va to‘liq yechimini topmagan.

Mamlakatimiz pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida pedagog olimlarimiz yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi masalalariga yetarli darajada e’tibor qaratishgan ammo, oliy pedagogik ta’lim tizimida ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammolari deyarli o‘rganilmagan. Jumladan, K.Xoshimov, S.Nishonova, A.Zunnunovlar O‘rta Osiyo xalqlarining ta’lim – tarbiyaga oid qarashlarini tarixiy rivojlanishini, ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy ma’naviy me’rosini o‘z ilmiy ishlarida tadqiq qilishgan. M.X.Toxtaxodjayeva, R.Mavlonova, A.Q.Munavvarov, I.Y.Tursunov, O‘.N. Nishonaliyev, N.G‘aybullayev, R. Yodgorov, J.Y.Xasanboev, B.Ziyomhammadov, O.Musurmanova Sh.Mardonov, U.Aleuov, S.U.Xodjaniyozov, U.I. Mahkamov, N. Ortiqov va boshqa pedagog olimlarimiz ta’lim – tarbiya nazariyasiga oid ilmiy ishlanmalarida yoshlarning ma’naviy – axloqiy tarbiyasi masalalariga u yoki bu darajada to‘xtalib o‘tganlar.

D.Sh. Nafasov tadqiqotlarida turistik faoliyatda talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan [2, 48].

Chet ellik iqtisodchi – pedagog olimlardan F.Kotler, Dj. Bouen, Dj.Meykenzlar marketing hamda mexmondo‘stlik mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan, oliy ta’lim talabalari uchun darsliklar chop qilishgan, [3, 74] ammo ushbu ishlanmalarda ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga asoslangan innovatsion texnologiyalar keltirilmagan.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan turizm sohasiga oid bir qancha ilmiy ishlanmalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratilgan bo‘lib ularda, asosan, O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi, uning mazmun va mohiyati, turizm sohasining resurslari, turizm industriyasi, menejmenti, marketingi, turizmga amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat siyosati kabi muhim masalalarning uslubiy asoslari yoritib berilgan [4, 31].

Shuningdek, turizmning turlari, turistik marshrutlarini yaratish, turizm sohasidagi xizmatlar, ekoturizm, qishloq turizmi va gastronomiya turizmlarini tashkil qilishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari keltirilgan [5, 89]. Z.Adilova va M.Aliyeva ishlarida turizm sohasini boshqarish masalalari yoritilgan [6, 57].

**Tahlil va natijalar.** Ushbu tadqiqot ishlarida ham ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammolari deyarli o‘rganilmagan. Shunday qilib, xozirgi kunda ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar deyarli olib borilmagan va bu masala o‘zining tezkor yechimini kutmoqda. Shuning uchun ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishning samarali pedagogik yechimlarini topish, ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish muhimdir.

Muammoni o‘rganish jarayonida pedagogik kuzatuv, falsafiy, psixologik, pedagogik va sotsiologik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, anketa va so‘rovnomalar, test, suhbat hamda natijalarni matematik statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

–Ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning falsafiy-metodologik va nazariy-pedagogik asoslarini aniqlash;

–Ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirishning eng maqbul pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

–Ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun pedagogik shart – sharoitlar kompleksini aniqlash va eksperimental tarzda tekshirish;

–Ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning o‘quv-didaktik va tarbiyaviy texnologiyasini takomillashtirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishish mumkin:

–ziyosat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mukammal pedagogik modelining nazariy jihatlari, tamoyillari, omillari, samarali uslub, shakl va vositalari majmui ishlab chiqilishi;

–oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonida ziyorat turizmi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan mavzulardagi suhbat, ma’ruza, turistik sayohat va darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quv-didaktik va tarbiyaviy texnologiyalarining yaratilishi;

– bo‘ljak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish mezonlarining ishlab chiqilishi;

– oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalarining yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ziyorat turizmi asosida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy - nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogika va turizm muammosini ishlab chiqish pedagogika va turizmning nazariy asoslari va turistik ta’limning ahamiyatini, uning imkoniyatlarini keng ijtimoiy hodisa, shaxsni shakllantirish sohasi sifatida tushunishdagi chuqur, paradigmatik o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda turizm pedagogikasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- turizm pedagogikasining kategorik-konseptual apparatini shakllantirish;

- turizm pedagogikasining tarkibiy elementlarini tizim sifatida nazariy va uslubiy asoslash;

- uzluksiz turizm ta’limi konsepsiyasini ishlab chiqish;

- turistik bozorning professionallarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan kasbiy faoliyatga kontseptual yondashuvlar asosida mutaxassislik, ixtisoslashuv, tarkibni shakllantirish;

-turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashni o‘quv-metodik ta’minlashni ishlab chiqish. Turizm pedagogikasini rivojlantirishning belgilangan yo‘nalishlarining protsessual, texnologik jihatlari o‘rganish muhimdir.

#### Adabiyotlar:

1. Eshchanova X.X. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlanishining tarixiy-pedagogik jihatlari. // Muallim xem uzliksiz bilimlendirio‘.-Nukus, 2023-yil 2-son,-177 b.

2. D.Sh.Nafasov.Turistik faoliyatda talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.falsafa dok (PhD),...dis.T.:2022.-145 b.

3. Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм: Учебник для вузов. Второе издание. –М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2002.

4. Tuxliev I.S., Xayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.-Toshkent, 2014, -372 b.

5. Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО.

6. Adilova Z.D, Alieva M.T., Norchaev A. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. –Т.: TDIU. 2011.

**PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDA KASBIY, MILLIY, PEDAGOGIK DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI**

*Yusupova Feruza Hajiboyevna,  
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi  
Berdibayeva Zinnura Erkaboyevna,  
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti*

*Kasbiy milliy, pedagogik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan aniq pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va professional tarzda amalga oshirish yo‘llari yoritib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maqsad, mazmun, pedagogik o‘zaro ta‘sir vositalari, faoliyat natijasi, turli ertaklar, qo‘shiqalar, maqol va matallar, topishmoqlar, demokratik g‘oyalalar.*

**ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ**

*Эффективность процесса формирования и развития профессионального национального педагогического мировоззрения подчёркивается во многом правильным выбором конкретных педагогических технологий и способов профессиональной реализации.*

***Ключевые слова:** цель, содержание, средства педагогического взаимодействия, результат деятельности, различные сказки, песни, пословицы и поговорки, загадки, демократические идеи.*

**TECHNOLOGY OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL OUTLOOK IN THE PROCESS OF TRAINING OF PEDAGOGICAL PERSONNEL**

*Effectiveness of the process of formation and development of the professional national pedagogical worldview is highlighted in many ways, the correct selection of specific pedagogical technologies and the ways of professional implementation.*

***Keywords:** purpose, content, means of pedagogical interaction, result of activity, various tales, songs, proverbs and sayings, riddles, democratic ideas.*

**Kirish.** Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta‘limning yo‘lga qo‘yilishi oliy ta‘limda o‘quv jarayonining optimallashtirish zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchining faol mavzu pozitsiyasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib, bu uning kasbiy jarayondagi barcha ichki aloqalardagi ishtirokini belgilaydi.

Shu munosabat bilan universitetga ushbu pedagogik muammolarni hal qila oladigan yangi ta‘lim paradigmasi kerak. Ta‘limning taklif etilayotgan mafkuraviy paradigmasi ta‘limni individuallashtirish va tabaqalashtirishga, ta‘lim tizimlari va ta‘lim muassasalarining o‘zgaruvchanligi va muqobilligiga, uning prognoz qilinishiga va ijtimoiy-iqtisodiy muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishiga asoslanadi.[1]

Kasbiy pedagogik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan aniq pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va professional tarzda amalga oshirish bilan belgilanadi.

**Asosiy qism.** O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab “pedagogik texnologiya” tushunchasi asta-sekin kasbiy amaliyotga kirdi. Bu muammoga ko‘plab olimlar e‘tibor qaratdilar: L.S.Vygotskiy, T.V.Gabay, V.V.Davydov, O.V.Dolzenko, O.V.Jelezovskaya, I.K.Juravlev, L.V.Zankov, I.A.Zimnyaya, I.I.Ilyasov, S.Lednev, I.L.Lerner, V.Yamutov., A.Ma.M. Ya. Savelyev, N.F.Talyzina, Yu.G.Tatur va boshqalar.

Turli davrlarda pedagogikaning innovatorlari sifatida ular “ta‘lim texnologiyasi” atamasiga o‘xshash ta‘riflar berganlar. Ularni umumlashtirib, biz o‘qitish texnologiyasining ta‘rifini beramiz, uning mohiyati integrativ tizimning murakkabligini, shu jumladan, pedagogik maqsadni aniqlashni, mazmunli ma‘lumotlarni, o‘zlashtirishga qaratilgan mavzu va protsessual jihatlarni ta‘minlaydigan tartiblangan operatsiyalar va harakatlar to‘plamini tushunishga bog‘liq. Bilim, kasbiy ko‘nikmalarni egallash va o‘quvchilarning o‘quv maqsadlari berilgan integrativ shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdir.

Pedagogning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini dolzarblashtiruvchi an’anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari va tahliliga to’xtalib o’tamiz. Bizningcha, uzluksiz pedagogik ta’lim tizimida ham an’anaviy, ham innovatsion pedagogik texnologiyalardan oqilona uyg’unlikda foydalanish kerak. Shuning uchun biz an’anaviy yo’nalishni, ayniqsa, bu yo’nalishdagi didaktik muammolarni hal qiladigan o’qitishning yaxshi tasdiqlangan shakl va usullarini rad etmaymiz. Bular tashkil etish shakllari va nazorat shakllari. O’quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilishning turli shakllari o’qituvchining kasbiy va pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda turli xil funktsional yuklarni ko’taradi. Ma’ruzalar axborot resurslarini to’ldirishni ta’minlaydi, seminarlar, amaliy mashg’ulotlar madaniy va qadriyatlarni jalb qiluvchilarning «kristallanishiga» yordam beradi, laboratoriya mashg’ulotlari, amaliyot, pedagogik testlar professional va pedagogik dunyoqarashning moslashuvchan va kommunikativ resurslarini safarbar qilishni rag’batlantiradi. Shaxs, uning dunyoqarashini qayta qurish va sifat jihatidan o’zgartirishga olib keladi.

Mustaqil kasbiy faoliyatga kirishishdan oldin pedagog muayyan bilim tajribasini to’plashi, o’z pozitsiyasini, ideallarini va e’tiqodlarini rivojlantirishi kerak. Amaliyot jarayonida kasbiy pedagogik dunyoqarashni shakllantirishning faol jarayoni sodir bo’ladi, nazariy bilimlar real ma’no bilan to’ldiriladi va e’tiqodga aylanadi, bu esa talabaga ham ijtimoiy, ham pedagogik hodisa va faktlarni to’g’ri aniqlash imkonini beradi. Shu maqsadda kasbiy pedagogik amaliyot mazmuniga maktabdagi pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish kiradi.

Turli davrlarda pedagogikaning innovatorlari sifatida ular “ta’lim texnologiyasi” atamasiga o’xshash ta’riflar berganlar. Ularni umumlashtirib, biz o’qitish texnologiyasining ta’rifini beramiz, uning mohiyati integrativ tizimning murakkabligini, shu jumladan, pedagogik maqsadni aniqlashni, mazmunli ma’lumotlarni, o’zlashtirishga qaratilgan mavzu va protsessual jihatlarni ta’minlaydigan tartibli operatsiyalar va harakatlar to’plamini tushunishga bog’liq. bilim, kasbiy ko’nikmalarni egallash va o’quvchilarning o’quv maqsadlari berilgan integrativ shaxsiy fazilatlarini shakllantirish. Bunday integratsion tizimning tarkibiy qismlari quyidagilardir: maqsadlar, mazmun, pedagogik o’zaro ta’sir vositalari, ta’lim jarayonini tashkil etish, o’quvchi, o’qituvchi, faoliyat natijasi hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyasi o’quv jarayonini boshqarishni o’z ichiga oladi, bu o’zaro bog’liq ikkita jarayonni o’z ichiga oladi: o’quvchi faoliyatini tashkil etish va bu faoliyatni nazorat qilish. Bu jarayonlar doimo o’zaro ta’sir qiladi. Hozirgi vaqtda pedagogik ta’limni rivojlantirishning ikki yo’nalishi – an’anaviy va innovatsion yo’nalish mavjud. Tadqiqotlarimizda biz ikkala yo’nalishga ham tayanamiz, lekin biz an’anaviy yo’nalishdan ko’ra innovatsion yo’nalishni afzal ko’ramiz: u shaxsga bo’lgan ijtimoiy talab tabiatidagi real o’zgarishlarni va shaxsning ijtimoiy jarayondagi o’zgaruvchan ro’lini hisobga olishga asoslanadi. . An’anaviy ta’lim ta’limning intizomiy modeli bilan tavsiflanadi, bu ta’limning fundamentalizatsiyasi bilan tavsiflanadi, bu, albatta, juda muhim va dolzarbdir. Pedagogning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini dolzarblashtiruvchi an’anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari va tahliliga to’xtalib o’tamiz. Bizningcha, uzluksiz pedagogik ta’lim tizimida ham an’anaviy, ham innovatsion pedagogik texnologiyalardan oqilona uyg’unlikda foydalanish kerak. Shuning uchun biz an’anaviy yo’nalishni, ayniqsa, ushbu yo’nalishdagi didaktik muammolarni hal qiladigan o’qitishning yaxshi tasdiqlangan shakl va usullarini rad etmaymiz. Bular tashkil etish shakllari va nazorat shakllari. O’quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilishning turli shakllari o’qituvchining kasbiy va pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda turli funktsional yuklarni ko’taradi. Biroq, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar ta’lim sohasida yanada pragmatizmni talab qiladi. Bu o’quv fanlarini o’rganishga tizimli va faollik asosida yondashish bilan mumkin. Bu omil ko’proq innovatsion yo’nalishda o’zini namoyon qiladi. Biz fundamentallashtirishning pragmatizm bilan oqilona kombinatsiyasi o’qituvchining kasbiy va pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish modelini modernizatsiya qilishi mumkinligiga ishonamiz. Biz ushbu yondashuvni o’rganishimizda qo’llaymiz.

Aynan dunyo xalqlari qatori O’rta Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyoti tarixida pedagogik fikr juda muhim o’rin tutadi. Buning yaqqol tasdig’i O’zbekiston xalq pedagogikasi. [2]

**Xulosa.** Muammoni nazariy o'rganish natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, sport va jismoniy mashqlarning estetik ahamiyati vaqt va tarixiy sharoitlardan qat'iy nazar, mavhum va mavjud qiymat sifatida emas, balki aniq tarixiy harakat natijasida namoyon bo'ladi: yangi munosabatlarni o'rnatish, yangi barkamol har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish (4, 6). Zamonaviy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy maktablarda madaniyatning jismoniy va estetik tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri tajribasi keyingi tahlilimiz mavzusiga aylanadi.

Jismoniy va estetik tarbiyaning integrativ jarayonlarini tahlil qilganda, JM va S guruhlar jarayonida bu masala faqat bir yo'nalishda - JM va S guruhlarida estetik tarbiya vositalaridan foydalanish orqali, ko'pincha yuzaki yoki ibtidoiy tarzda hal etilishi aniqlandi. Jismoniy va estetik tarbiya amaliyotiga bunday yondashuv bizga jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'smirlarning jismoniy va estetik tarbiyasini integratsiyalashning samarali "texnologiyasini" joriy etishning eng oqilona yechimini topishga va integratsiya modelini ishlab chiqishga imkon berdi.

Modelning pedagogik ma'nosi shundan iboratki, u talabalarning butun hayotiy faoliyatiga rahbarlik qilishi, uning maqsadlari va ularga erishish yo'llarini belgilashi kerak.

Model bizga ta'lim jarayonining dolzarb va istiqbolli muammolarini ajratib ko'rsatish, kelajakda kutilayotgan va kutilayotgan shaxsiy o'zgarishlar o'rtasidagi yaqinlashuv shartlarini aniqlash, o'rganish va ilmiy asoslash imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Fatullayeva, M. (2023). Особенности эстетического воспитания студентов средствами физической культуры и спорта. // Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 43(43). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11171](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11171)
2. Fatullayeva, Muazzam. "Modern methods of forming the speed of movement of young volleyball players along the field and the accuracy of the ball transfer. // " Центр научных публикаций (buxdu.uz) 33.33 (2023).
3. Фатуллаева, Муаззам Азимовна. "Халқ миллий ўйинлари баркамол авлод тарбиясининг муҳим омили сифатида. // " Образование наука и инновационные идеи в мире 18.5 (2023): 125-130.

4. Fatullayeva, Muazzam. "O‘quv–mashg‘uloti jarayonida yengil atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik qobiliyatlarini tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari. // "Образование наука и инновационные идеи в мире 18.5 (2023): 131-134.
5. Фатуллаева, М. А. (2023). Физическая подготовка спортсменов как важная часть их тренировок. // Образование наука и инновационные идеи в мире, 18(5), 92-95.
6. Фатуллаева, М. А., & Хусенов, Ш. А. (2023). Особенности эстетического воспитания студентов средствами физической культуры и спорта. // Образование наука и инновационные идеи в мире, 18(5), 86-91.
7. Azimovna, F. M. (2022, December). Voleybol o‘yini jarayonida sakrab ijro etiladigan texnik-taktik harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari: 10.53885/edinres. 2022.93. 93.072 Fatullayeva Muazzam Azimovna Vuxoro davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrası o‘qituvchisi. In Научно-практическая конференция (pp. 438-440).
8. Фатуллаева, М. А. (2022). Voleybolchilarni saralab olish va malakali sportchilarni tayyorlashning o‘ziga xos yo‘llari. // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 154-158.
9. Azimovna, F. M. (2022). Peculiarities of aesthetic education of students by means of physical culture and sports. // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 212-215.
10. Фатуллаева, М. А., & Дустов, Б. А. (2022). Мотивация студентов к спортивным занятиям в рамках занятий физической культурой. // Физическая культура. Рекреация. Спорт (pp. 504-511).
11. Fatullayeva, M. (2022). Эффективные методы формирования профессиональных навыков будущих учителей физкультуры и управления физической культурным движением студентов. // Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/5879](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5879)
12. Nematovich, K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. // Journal of Critical Reviews, 10, 470.



## 6-7 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBASI

*Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi II bosqich magistranti*

*Bugungi kunda 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish bir qancha rivojlangan mamlakatlarda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolalarga ta'lim tarbiya berish jarayonida sinovdan o'tgan xorijiy tajribalarga asoslanish- ularning ijtimoiy kompetensiya elementlarini to'la egallagan shaxs sifatida shakllanishida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Garchi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni ko'pgina rivojlangan davlatlarda e'tibor qaratilayotgan asosiy masalalardan biri hisoblansa-da, bu borada o'rganilgan tajribani amaliyotga joriy qilish bilan bog'liq bir qancha murakkabliklarning mavjud ekanligi sohada tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu maqolada biz bir nechta rivojlangan xorijiy davlatlarning yuqorida ta'kidlangan masalalarga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiylashuv, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, 6-7 yoshli bola, xorijiy mamlakatlar, ota-onalar, pedagoglar.*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ

*Сегодня формирование социальной компетентности детей 6-7 лет является одной из наиболее актуальных проблем в ряде развитых стран. Основываясь на апробированном зарубежном опыте, процесс обучения детей служит эффективным инструментом формирования их как личности, в полной мере овладевшей элементами социальной компетентности. Хотя процесс социализации детей считается одним из основных вопросов, которым уделяется внимание во многих развитых странах, тот факт, что существует ряд сложностей, связанных с реализацией полученного опыта в этом отношении, указывает на необходимость проведения исследований в этой области. В данной статье мы рассмотрим уникальные подходы ряда развитых зарубежных стран к вышеуказанным вопросам.*

**Ключевые слова:** *социализация, компетенция, социальная компетенция, ребёнок 6-7 лет, родители, педагоги.*

## FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING THE SOCIAL COMPETENCE OF 6-7-YEAR-OLD CHILDREN

*Today, the formation of social competence of 6-7-year-old children is one of the most urgent issues in several developed countries. Basing on tested foreign experiences in the process of educating children serves as an effective tool in their formation as a person who has fully mastered the elements of social competence. Although the process of children's socialization is considered one of the main issues that are receiving attention in many developed countries, the fact that there are a number of complications related to the implementation of the learned experience in this regard indicates the need to conduct research in the field. In this article, we will consider the unique approaches of several developed foreign countries to the above-mentioned issues.*

**Keywords:** *socialization, competence, social competence, 6-7 year old child, foreign countries, parents, pedagogues.*


**Kirish.** *Ma'lumki, shaxsning rivojlanishi nafaqat uning ichki dunyosi, balki tashqi dunyodagi ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Ba'zan jamiyatning qadr-qimmatini undagi yoshlarga qarab baholanadi, chunki ular jamiyat kelajagi uchun tashabbus ko'rsatadi. Shu boisdan ham bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini tahlil qilish juda ham muhim. Bolada ijtimoiylashuv jarayoni normal kechishi uchun unda yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lishi lozim. Bu bilim, ko'nikma va malakalar fan tilida “kompetensiya” atamasi bilan yuritiladi. Kompetensiya muammolarni hal qilish, qimmatli maqsadlarga erishish, tashqi dunyodagi vaziyatlarni tushunish va ularni boshqarish uchun muhim hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda ijtimoiy kompetensiya boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, yaqin munosabatlarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sharoitlarga moslashish usullarini*



anglatadi. Hozirgi zamonaviy raqamlashtirilgan jamiyatda bolaning ijtimoiy kompetensiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi bir qancha omillar mavjud boʻlib, bunga misol qilib birgina ijtimoiy tarmoqlardagi har xil oʻyin va video maʼlumotlarni olishimiz mumkin. Bolaning oilada ota-ona va kattalar bilan muloqoti kamayib, koʻproq telefon orqali internet tarmoqlariga bogʻlanib qolish holati kundan-kun oshib boryapti. Bu esa, oʻz navbatida, bolalarning ijtimoiy muhitdan va muloqot jarayonlaridan chetlashib qolishga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda 6-7 yoshli bolalar yangi muhitga yaʼni maktab taʼlimiga tayyorgarlik bosqichini boshdan kechiradi. Bu jarayonda ham bolaning ijtimoiylashuv jarayonida oʻzgarishlar kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab taʼlimiga oʻtishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy oʻzgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani oila muhitida maktab taʼlimiga tayyorlash, uni kerakli bilim, koʻnikma va malakalar bilan tanishtirish kerak boʻladi. Ayni paytda shu singari muammolar butun rivojlangan davlatlarda dolzarb masalaga aylangan. Barcha soha qatorida taʼlim-tarbiya sohasida ham dunyo tajribasini oʻrganish va uni oʻz mintalitetimizga moslab qoʻllash jamiyat rivoji uchun, albatta, muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi muammolarga yechim topish maqsadida bir qancha rivojlangan xorijiy davlatlarning bu masaladagi yondashuvlarini oʻrganib chiqamiz.


**Asosiy qism.** Bolaning taʼlim-tarbiyasi va undagi barcha kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga eʼtibor qaratish boʻyicha Yaponiya davlati dunyoda birinchilikni egallab kelmoqda. Yaponiyada oilaviy budjetning katta qismi bolaning taʼlim-tarbiyasi uchun sarflanadi. Ularda oila bolaning ijtimoiylashuvida eng muhim agent vazifasini bajaradi. Ota-onalar taʼlimning barcha sohalarida faol ishtirok etadilar va barcha sohada oʻz farzandiga namuna vazifasini oʻtaydi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi oʻrinda turadi, bola tarbiyasi ularning hayotidagi bosh maqsadidir. Yaponiya maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlarga ajratishgan. Shu tariqa bolalarga kichik yoshdan boshlab jamoada ishlashga oʻrgatadilar.

#### Yaponiya taʼlim tizimining biz uchun namunaviy tomonlari




Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va masʼuliyati, ayniqsa, kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar boʻlib oʻsishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida oʻzlarini maʼsul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida koʻplab metodik qoʻllanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniye orqali koʻplab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Amerikada ham maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar taʼlim tarbiyasi bilan oilada, asosan, onalar shugʻillanishadi. 5 yoshda bolalar “Kinder garden” deb ataluvchi tayyorlov muassasalarda taʼlim-tarbiya olishadi. 6 yoshdan boshlab maktabga chiqa boshlaydi. Amerika bogʻchalarida bolalar yoshiga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyachi mutaxassis qaraydi. Ularning vazifasi hamma oʻz uslubiga koʻra yondashgan holda bolalarga sheʼr, qoʻshiq va quvnoq oʻyinlarni uyushtirib oʻrgatishdan iborat. Ular uchun umumiy qoida va oʻquv dasturlar joriy qilinmagan. Bu esa bolani ijtimoiylashtirishda juda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. 5 yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashgʻulotlarning asosini ularni yangi muhitga, yaʼni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Bogʻchalardagi taʼlim-tarbiya jarayonlari bevosita ota-onalar bilan hamkorlikda ish

olib borishga mo‘ljallangan, u pirovard natijada bolalarni keyingi hayot bosqichiga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak.



Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Germaniya hukumati turli sohalarida sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta‘lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag‘ sarflaydi. U yerda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Nemislar bolalarining ta‘lim-tarbiyasiga yoshlikdan qat‘iy e‘tibor berishadi. Bolalarni bog‘cha yoshidan boshlab jamoaviylik, mehnatsevarlik va biror kasbga yo‘naltirilganlik ruhida tarbiyalashadi. Germaniyada ilmiy tadqiqotlar universitetlar, ilmiy tashkilotlar hamda korporativ markazlarda olib boriladi. Mana shunday tadqiqot institutlaridan biri Gottingendagi Maks Plank tarixiy tadqiqotlar instituti bo‘lib, u yerda eng yirik tarixchi olimlardan biri Yurgen Shurbon bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Olim o‘z ilmiy izlanishlarida bolalik davrining ijtimoiylashuv tarixiga alohida e‘tibor qaratgan bo‘lib, unga ko‘ra boladagi barcha bilim va ko‘nikmalar oilaviy hayotning tartib-qoidalari natijasida yuzaga keladi. Tarixiy davrlardan boshlab bolalar kattalar bilan birgalikda “ishchi guruhlarda” faol ishtirok etib oilani boqishga o‘z hissasini qo‘shib kelishgan. Bu bilan ular atrofda odamlar bilan ishlashga va muloqotga ko‘proq jalb qilingan, natijada bolalarda ijtimoiylashuv ancha barqaror ko‘rsatkichni namoyon etgan.

Germaniyada bolaga bo‘lgan e‘tiborning namunaviy jihatlari quyidagilar:



Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning ta‘lim-tarbiyasi va ijtimoiy muhitdagi holatlari ustidan nazoratning kuchlilik darajasi bo‘yicha Janubiy Koreya davlati yuqori o‘rinlarda turadi. Buni koreys xalqining o‘qish, hisoblash qobiliyati, ya‘ni matematik bilimlarning yuqoriligi va insonlarning o‘zaro muloqatchanligidan ham bilishimiz mumkin. Bolaning birgina matematik saboqlariga bog‘cha yoshidanoq kuchli e‘tibor qaratiladi. Eng kichik yoshidan bolalarga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish va boshqalar bilan muloqot qilishning birinchi ko‘nikmalari, misol uchun yo‘lda yo‘qolib qolishsa qayerga borishi, nima qilishi

kerakligi, ota-onasi kimligi, ularning raqamlari kabilar o‘rgatiladi. Bolalar 3 yoshdan bog‘chalarga qabul qilinib, 5 yoshdan boshlang‘ich maktablarda ta‘lim-tarbiya jarayonlarini davom ettirishadi. Koreyslar bolalarning erta ulg‘ayish tarafdori bo‘lib, 6-7 yoshli bola o‘zi uchun kerakli bilimlarni egallaydi va keyingi yosh davridan biror kasbga yo‘naltirilgan holda jamiyatning faol a‘zosiga aylanadi. Shu orqali ularda ijtimoiylashuv jarayonlari ancha oson kechadi. Janubiy Koreya davlatining ta‘lim-tarbiyasi o‘zbeklarnikiga ancha yaqin bo‘lganligi uchun hozirda O‘zbekiston maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga aynan shu davlatning ta‘lim tizimi andoza sifatida olinmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan fikr yuritishimiz mumkinki, bir qancha rivojlangan davlatlarda bolaning ijtimoiy tarmoqlar va boshqa keraksiz mashg‘ulotlar bilan shug‘illanishga hech qanday ortiqcha vaqti yo‘q. Ayniqsa, oila muhitidagi kuchli e‘tibor bolaning ehtiyojlarini to‘laligicha qondirishga xizmat qiladi. Buning natijasida esa bola o‘zi uchun kerakli narsani uzoqdan emas, balki yon atrofidan izlaydi. Oila, pedagoglar va jamiyat bilan olib borilgan hamkorlik har doim o‘zining ijobiy samarasini beradi. Bu nafaqat bolalar hayotida, hattoki, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik jamiyat rivojining negizi sifatida qaraladi. Prezident Sh. Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq- farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini to‘g‘ri shakllantirishimiz uchun, eng avvalo, ularga ota-onalar va keyingi o‘rinda pedagoglar kuchli e‘tibor qaratib, ularda kechayotgan har xil o‘zgarishlarga jiddiy yondashish va bunga muqobil yechim topishga astoydil harakat qilishi lozim. Axborot vositalaridan kattalar nazorati ostida ijobiy maqsadlar uchun foydalanish esa bolaga, albatta, foydali bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston: Taraqqiyot sari dadil odimlar” Toshkent. 2019
2. Yuldosheva F.M. “Xorijda maktabgacha ta‘lim“, Termiz. – 2018.
3. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari Toshkent - 2015 y.

## TARBIYA VA UNI NAZARIY SHAKLLANTIRISH ASPEKTLARI

*Sobirova Nafisa Yangiboy qizi,*

*Urganch davlat pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasida o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada tarbiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, tarbiyani nazariy jihatdan shakllantirish aspektlari, komil insonni tarbiyalashda tarbiya turlari va tarbiya metodlari, tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to‘g‘ri tanlash, maqsad va unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lish shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqligi, tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, shaxsni kamol topishida tarbiyaning o‘rni yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, kategoriya, tarbiya jarayoni, o‘z-o‘zini tarbiyalash, komil inson, Abdulla Avloniy, xalq pedagogikasi, tarbiya metodlari.

## ВОСПИТАНИЕ И АСПЕКТЫ ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ

*В данной статье рассматриваются понятие воспитания и его содержание, аспекты теоретического формирования воспитания, виды и методы воспитания в воспитании совершенного человека, цель и содержание воспитания, правильный выбор методов, цели и методы её достижения, соответствие социальным требованиям, предъявляемым к формированию личности, целесообразность учёта возрастных особенностей воспитанников в процессе воспитания, роль воспитания в жизнедеятельности человека, освещается значение, роль воспитания в становлении личности.*

**Ключевые слова:** воспитание, категория, процесс воспитания, самовоспитание, совершенный человек, Абдулла Авлони, народная педагогика, методы воспитания.

## ASPECTS OF EDUCATION AND ITS THEORETICAL FORMATION

*This article highlights the concept of upbringing and its meaning and essence, aspects of theoretical formation of upbringing, types and methods of upbringing in the upbringing of a perfect person, the purpose and content of upbringing methods, the correct choice of methods, the purpose and methods of achieving its compliance with social requirements for the formation of a person, the appropriateness of taking into account the education.*

**Keywords:** upbringing, category, upbringing process, self-education, perfect man, Abdullah Avlani, folk pedagogy, training methods.

**Kirish.** Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiya ishlarining mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma‘naviyati ildizlariga e‘tibor qaratish taqozo etiladi [7]. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Jamiyat a‘zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali” ni tayyorlash madaniyatlarni kuzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta‘minlash ma‘lum jins, yoshi ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda va ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a‘zolarining harakatini tartibga solish. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anotamik, fizalogik va psixologik xususiyatlar. Masalan, mas‘uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta‘lim, o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda maskur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh

bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” . Hozirgi vaqtda tarbiya tajriba va baholovchi mulohazalarning katta avlodlarning kichik avlodga bir tomonlama o‘tishi tarzida emas, balki kattalar va bolalarning birgalikda hayot kechirish sohasidagi o‘zaro yordami va hamkorligi tarzida tushunilishi va qabul qilinishi lozim.

**Asosiy qism.** Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning yangilanishi ta’limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi. Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Tarixdan ko‘pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu so‘zlaridan ham tarbiya naqadar muhim ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin[2].

*Tarbiya jarayonini tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:*

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

v) umuminsoniy axloq me‘yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) o‘quvchilarda huquqiy va axloqiy me‘yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas‘ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas‘uliyatni tarkib toptirish;

j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

z) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, xuquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar [5].

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Tarbiya jarayoni- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayoni. Demak, ko‘rishimiz mumkinki, insonning shaxs bo‘lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo‘lishi, dunyoqarashi, ongi his-tuyg‘ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo‘ladi. Shaxsning jamiyatdagi o‘rnini topishi, his-tuyg‘u, kechinmalarini yo‘nalishi, o‘sishi tarbiyaga bog‘liq. O‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsni o‘zida ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan fazilatlarni hosil qilish, takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan ichki faoliyatdir. Inson hayotidagi har xil illat va nojo‘ya holatlar tarbiyadagi xato tufayli yuzaga keladi. Bolalikdan tarbiya to‘g‘ri yo‘naltirilsa bunday “og‘ishlar” inson hayotida yuzaga kelmaydi .

Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o‘zgarlar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridan biridir. Yana insonda e’tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o‘zini-o‘zi anglashi, keng fikr yuritishi o‘zini va boshqalarni fikri, g‘oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir.



Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayonidir.

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi[2].

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, jamoatchilik kasaba uyushmalari, kino-teatr, radio, televidenie, adabiyot va san'at ishtirok etadi. Bu bir tomondan tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan, uni murakkablashtiradi, ba'zan salbiy hollar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tarbiya jarayonining xususiyatlaridan yana biri uning uzoq muddat davom qilishidir. Buning uchun oylab, yillab ishlash talab etiladi. Ma'lumki, tarbiya bolaning maktabga kirishidan ancha ilgari boshlanadi. Maktabdagi yillarida va uni tamomlagandan keyin ham butun umr bo'yi davom etadi. Hayot hamma vaqt odamlarni tarbiyalaydi, ular xulqi va xarakteridagi kamchiliklarni tuzatadi yoki qayta tarbiyalaydi. Tarbiya masalasi murakkab, qiyin masala ekanini, u maktab doirasi bilan cheklanib qolmaganligi, balki bolalarni tarbiyalash uchun “turmush maktabi” ham mavjud. Turmush maktabida odamlar uzluksiz tarbiyalanib boradilar. “Turmush maktabi”dan katta yoshdagi odamlargina emas, bolalar ham ta'lim oladilar. Turmush maktabining mohir ustozlari hayotning o'zi. Bolalar tevarakatdagi kishilar bilan munosabatda bo'ladilar, ijtimoiy ishlarda qatnashadilar. Turmush tajribalarini orttiradilar.

Tarbiya jarayonida bolalarning o'zlari aktiv ishtirok qiladilar, ya'ni ularning o'zlari xulq, qoida normalarini o'zlashtiradilar, o'z o'rtoqlari, jamoa bilan munosabatlarni belgilab oladilar. Agar tarbiyalanuvchi sust, bo'shang, faoliyatsiz bo'lsa, har qanday tarbiyaning ta'siri kuchsiz kechadi. Tarbiyachilarning urinishlari yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Ayniqsa, o'quvchi tarbiyachining ta'siriga qarshilik ko'rsatgudek bo'lsa, tarbiya ta'sir kuchi bo'shashib ketadi. Bunday hollarda tarbiyaning vazifasiga bu qarshiliklarni bartaraf etish hamda bolalarda xulq-atvorni kerakli qoida va normalarini o'zlashtirish istagini hosil qilishga yordam beruvchi motivlarni vujudga keltirish zarurati tug'iladi. Zamonaviy tarbiyachida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda bilim manbayi sanalgan amaliyotning ahamiyati haqida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz[8].

Tarbiya qonuniyatlarining mazmun- mohiyati, bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning birinchi va eng muhim, qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir. Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar — tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamoatchilik dunyoqarashi, mafkura g'oyalari, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar tarbiyaning subyektiv omillari sirasiga kiradi. Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta'minlangan yillar va bunday sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rnatiladigan aloqalari shaxs tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog'liq hisoblanadi. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsni har tomonlama o'rganishi va shu asosda unga to'g'ri psixologik tavsif berishi, shu psixologik tavsif asosida ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.

Tarbiyaning uchinchi qonuniyati- faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish - shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbasi ekanligini e'tirof etishdir. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali ravishda maqsadga muvofiq tashkil qilinsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning oqilona bo'lishi ta'minlansa, tarbiya jarayoni shuncha samarali kechadi.

Tarbiya jarayoni, eng avvalo, jamiyatning eng kichik bo'g'ini oiladan boshlanishi, tarbiyani to'g'ri shakllantirish, odob-axloq qoidalarini yoshlarga singdirishda mutafakkirlarning asarlarida ham qimmatli fikrlar krltirilgan. Jumladan, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan “*Odob as-solihin*” asarida komil inson bo'lib yetishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so'rash, muloqot, uxlash, yo'l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so'z yuritiladi. Suhbat ahlining o'zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o'rin olgan [3].

Tarbiyani pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida quyidagicha tasnif qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Obyektiga ko'ra: tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash.
2. Subyektiga ko'ra: oila tarbiyasi, ta'lim muassasasi tarbiyasi, jamoa tarbiyasi, muhit tarbiyasi.
3. Sohasiga ko'ra: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, diniy tarbiya, ekologik tarbiya.
4. Obyekt mazmuniga ko'ra: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, ruhiy tarbiya.
5. Maqsadiga ko'ra: ongli tarbiya, ixtiyorsiz tarbiya.
6. Darjasiga ko'ra: milliy (sharqona) tarbiya, umuminsoniy tarbiya.

Tarbiya jarayonini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- Tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuv kabilardir;

- Tarbiya ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiya jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, Tarbiya tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, Tarbiya ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

- O'quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiya tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;

- Tarbiya ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiya ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiya ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi[6].

Tarbiya darslari ijodiy, noan'anaviy suhbat, o'yin, oilada, tabiatda, bahs, munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi:

1. Darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
2. Pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
3. Pedagogik texnologiya jarayonida didaktik qoidalar;
4. O'qituvchining mahorat texnikasi.

Pedagogik texnologiyani qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalariga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangliklarni joriy etish;

2. Ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish. O'quv dasturlariga ham befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish;

3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi ijodlarni o'rganib borish;

4. O'quv jarayonida o'quvchi bilan o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish;

5. Ilmiylik - yangi usul vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish;

6. Buning uchun bolalarni dastur mavzulari asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir;

7. Ilgʻor tajribalarga suyanish;

8. Dars maqsadining aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy maʼnaviy qadriyatlar bilan boyitilishi, oʻquvchilarni mustaqil ijodiy faoliyati, darsda “Xalq ogʻzaki ijodi” rubrikasida: maqol, ertaklardan oʻrinli foydalanishi, oʻyin, test savollari, koʻrgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish;

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun har bir oʻqituvchi tarbiyani oʻrgatishda nazariy chuqur bilimga ega boʻlishi zarur. Demak, tarbiya darslarini turli shakllarda tashkil etish mumkin [4].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatini koʻpgina omillar belgilaydi, bularga taʼlimning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, maktabdagi oʻquvchilar bajaradigan ijtimoiy-foydali mehnatni aniqlashtirish, maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, maktabdagi oʻquvchilar olib boradigan ijtimoiy foydali mehnatni aniq maqsadli rejalashtirish, maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy taʼsirini markazlashtirish va birlashtirish, maktabda turli xildagi ish formalarini, jumladan, toʻgaraklarda oʻz-oʻzini tarbiyalash dasturi doirasida ish olib borish kabi omillardan keng foydalanish muvaffaqiyatning garovidir. Yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Oʻquvchilarga tarbiya berish, ularga taʼlim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning oʻz vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. Oʻqish va tarbiya jarayonining uzviyligi taʼlim muassasalari oldiga qoʻyilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiya ishlar bevosita oʻquv jarayoni bilan bogʻlangandir. Har bir fanning predmeti, oʻrganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud boʻlganidek, Tarbiya ishlar metodikasi fanining ham predmeti, oʻrganish obyekti va amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalari bor.

#### Adabiyotlar:

1. Azizxoʻjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006 y.
2. Abdullayeva B.S., Tursunova M.B., Xaydarova M.X. “Boshlangʻich taʼlimda tarbiya fani”. - Darslik. - Toshkent-2022 5-bet.
3. Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshgʻariyning Maʼnaviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan taʼlim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>
4. Abrorxonova K.A., Sobirova M.Sh. (2022) Boshlangʻich sinf “Tarbiya” darslarini tashkil etishning usul va vositalari. // Science and innovation international scientific journal. №1, 54-61, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6468342>
5. Шарифзода С.У.Т, Атамуратова М.М, Сафаева Д.Х, Сапорбоев М.Ш, Каримова Н.Б Общая педагогика (теория педагогики) “BOOKMANY PRINT”, - ТАШКЕНТ-2023
6. Sheraliyeva N.A “Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida tarbiya fanini oʻqitilishning metodik asoslari” “Raqamli taʼlimning zamonaviy tendentsiyalari va ularni taʼlim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yoʻllari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil <https://doi.org/105281/zenodo.10035204>
7. Eshchanova X.X. Yoshlar maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ziyorat turizmining ahamiyati “Xorijiy tillarni oʻqitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami. 365-369-bet
8. Ruzimova I.X. Boʻlajak oʻqituvchilarda kreativlik kompetensiyasini shakllantirish // Eurasian Journal of Social Sciences Philosophy and Culture. -Ilmiy jurnal, 2023-yil. <https://doi.org/105281/zenodo.10349877>.

## OILA VA NIKOH FENOMENI TUSHUNCHASINING TABIATI VA MOHIYATI

*Xudoyqulova Nazokat Rajab qizi,  
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli  
kadrilar tayyorlash instituti «Ijtimoiy psixologiya  
Etnopsixologiya» yo'nalishi 2-bosqich tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada oila va nikoh tushunchasining tabiat va mohiyati, jahon miqiyosida oila nikoh an'analari va qadriyatlariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish omillari, oila-nikoh an'alarining ijtimoiy, hududiy, etno-psixologik xususiyatlarini o'rganish va psixologik tavsifnomasini ishlab chiqish kerakligi bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, nikoh, tenglik, oilaviy munosabatlar, mehr-muruvvat, oila g'ururi, sabr, hayo, qadr-qimmat, iffat, fenomen, pokizalik, sobitqadamlik*

## ПРИРОДА И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ФЕНОМЕНА СЕМЬИ И БРАКА

*В данной статье изложена природа и сущность понятия семья и брак, факторы рационального отношения к семейным брачным традициям и ценностям в мировом масштабе, необходимость изучения и разработки психологической характеристики социальных, территориальных, этнопсихологических особенностей семейно-брачных традиций.*

**Ключевые слова:** *семья, брак, равенство, семейные отношения, доброта, семейная гордость, терпение, жизнь, ценность, целомудрие, явление, целомудрие, стабильность.*

## THE NATURE AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF THE PHENOMENON OF FAMILY AND MARRIAGE

*In this article, it is necessary to study the nature and essence of the concept of family and marriage, the factors of a reasonable attitude towards family and marriage traditions and values at the world level, to study the social, territorial, ethno-psychological characteristics of family-marriage traditions and to develop a psychological description stated.*

**Keywords:** *family, marriage, equality, family relationships, kindness, family pride, patience, admiration, dignity, chastity, phenomenon, purity, stability*

**Kirish.** Jahon miqiyosida oila-nikoh an'analari va qadriyatlariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur vazifani bajarishga yordam berishga yo'naltirilgan zamonaviy tadqiqot-larda oila-nikoh an'alarini saqlash va qadrlash, ularni oilani mustah-kamlovchi omil sifatida qo'llash bilan bog'liq muammolar tadqiq etilmoqda. Shunga qaramasdan, oila-nikoh an'alarining ijtimoiy, hududiy, etno-psixologik xususiyatlarini o'rganish va psixologik tavsifnomasini ishlab chiqish masalalari hanuz dolzarbligacha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi eng yangi tarixida «yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish» dolzarb vazifalar qatorida qayd etilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar har bir shaxs, ota-ona, mahallalarning an'analarga nisbatan yangicha yondashuvini taqozo etadi.

Bunda oila-nikoh an'alarining mohiyati va mazmunini, genezisini o'rganish, insonlarga psixologik ta'sirini tadqiq etish oila-nikoh an'alarining tub asoslari haqidagi ilmiy qarashlarni boyitish hamda oilani hozirgi kunda mustahkamlash va uning jamiyat oldidagi rolini oshirishga yordam beradi

**Asosiy qism.** Yoshlarni sog'lom oila qurish va milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiya-lash imkonini beradi. Ayniqsa, turli hududlarda urf-odatlarining ko'pchilik qismi o'zining asl mazmun-mohiyatini yo'qotib, isrofgarchilik va dabdaba-bozlikka aylanib qolayotganligi oila-nikoh an'alarining oila jamg'armasiga salbiy ta'sirini o'rganish va ortiqcha sarf-xarajatlarni bartaraf etish yo'llarini izlab topish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Zero, bunday o'zgarishlar oila institutiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu qator yetakchi rivojlangan davlatlarda nikohsiz tug'ilganlar, ajralishlar, noto'liq oilalalar sonining ortib borishida namoyon bo'lmoqda, masalan, Fransiyada nikohsiz tug'ilganlar 55%, ajralishlar 55%, noto'liq oilalalar 23%, Buyuk Britaniyada tegishli ravishda 47%, 46%, 28%, AQShda 39,8%, 46%, 27%. Shunday ekan, oila-nikoh an'alarini kompleks o'rganish, ularning hali yaxshi o'rganilmagan ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarni ilmiy tadqiq etish jiddiy ahamiyat kasb etadi.



Tadqiqotlar davomida turli soha vakillarining oila-nikoh an’analari muammosiga yondashuvlarini o’rganish, an’analarning psixologik ta’siri, oilada ota-ona va farzandlarning tib-biy, huquqiy, ma’naviy, pedagogik hamda psixologik savodxonligini oshi-rish orqali ularni oila-nikoh an’analari mavjud illatlardan asrash, o’zbek xalqining oila va nikoh an’analarning ilk ildizlari, ularning ta-raqqiyot bosqichlari, asl mohiyati, shaxs ta’lim-tarbiyasiga ta’siri va ular-ning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi tasavvurlarini to’g’ri shakllantirish bo’-yicha etnopsixologik ilmiy tadqiqot ishlariga ehtiyoj mavjudligi aniqlan-di. Tahlil oila va nikoh an’analari alohida fan sohasida o’rganishning o’zi kifoya qilmasligini, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda qiyin-chiliklar tug’ilishini ko’rsatdi. Bunda samarali ish olib borish uchun oila-nikoh an’analari boshqa fanlar bilan birga kompleks o’rganmoq zarur.

Aytish lozimki, ma’lum bir millatning oila-nikoh muammolarini o’rganishda aynan insonlar jamoasi va xalqlarni o’rganuvchi fanlarning metodologiyasiga tayanmoq zarur. Bunda eng ma’qul yondashuv sifatida kompleks metodni taklif qilamiz. Biz o’zbeklarning oila-nikoh an’analari inson va xalq muammosini o’rganuvchi ijtimoiy va etnik psixologiya, shuningdek, psixologik antropologiya bilan qiyosiy-madaniy psixologiya, din psixologiyasi, etnopsixologiyasi hamda etnosotsiologiya fanlarining yondashuvini sintez qilgan holda kompleks o’rganildi.

Inson hayoti samaradorligining muhim mezonlaridan biri ijtimoiy baho - ya’ni inson tomonidan boshqa odamlarga yetkazgan manfaatining ahamiyati darajasi – sanaladi.

Odatda, ijtimoiy bahoda faoliyat natijasi munosib joy egallaydi, atrofdagilar tomonidan yuqori baholanadi, inson obro’-e’tiborini oshiradi, unga nisbatan hurmatni yuzaga keltiradi. Hatto zamondoshlar mohir omilkor ustaning asarlari yoki olim kashf qilgan davrni munosib baholay olmasalarda ularning unumli mehnat qilgan ota-bobolarimiz haqidagi fikrlari ruhlantiradi, mehnatlari samarasi tan olinganligini undan foydalanayotgan insoniyatda ham ko’rinadi.

Barchaga ma’lumki, qachonki inson uning faoliyatini natijasi haqiqatdan ham kimgadir kerakligini bilsa, uning kuchi va g’ayrati ortadi, hech kimga ahamiyati yo’q, samarasiz mehnatdan inson ruhi tushub ketadi.

“Jamiyat manfaati yo’lida” norasmiy shior ostidagi insonning foydali ish koeffitsienti oshadi, o’ziga ishonch hissi esa, bugun, hozir, ayni daqiqalarda u tomonidan amalga oshirilgan faoliyat kimgadir kerakligi va kimdir buni sabrsizlik bilan kutayotganligida o’z ifodasini topadi.

Gap har bir inson boshqalar uchun sarflaydigan ruhiy, aqliy va jismoniy kuchi foyda keltirayotganining his etilishi, mumkin bo’lgan iqtisodiy va psixologik sharoitlarni yaratilishi zaruriyati haqida bormoqda.

Insonning o’z hayotidan ham yaxlit, ham turli tomonlama qoniqish darajasi uni aql bilan yo’lga qo’yishning ikkinchi mezoni hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni ko’rsatishicha hayotiy qoniqish samaradorlik bilan chambarchas bog’liqdir. Shuningdek, nafaqat erishilgan balki rejalashtirilganlari bilan ham bog’liq.

Moddiy ta’minlanganlikka erishish uchun o’zining bor kuchini safarbar etgan yoki shunday tarzda o’zining hayotini yo’lga qo’ya bilgan, o’zining hayotidan qoniqqan inson uchun ishdan bo’sh vaqtdagi ko’ngilxushlik birlamchi ahamiyatga ega bo’lishi mumkinmi?

Ayniqsa, kuzatish va barcha qiyinchiliklarni sinab ko’rish orqali, masalan, nafaqat qulaylik (komfort) holatni, balki oddiy maishiy sharoitning mavjud emasligi ham turli farazlarga ega bo’lishi mumkin. Biroq nafaqa yoshidagi mingga yaqin odamlardan bittagina so’rovnoma orqali olingan ma’lumotlar ko’rsatishicha hayotdan qoniqishga moddiy omillar ham, hordiq chiqarish va ko’ngilxushlik qilish uchun yaxshi sharoit ham sabab bo’la olmay, balki hayot samaradorligi muhim ahamiyatga ega ekan.

Bu natijani to’g’ri baholash uchun qoniqish va mamnuniyat hislarini farqlay bilish lozim. Mamnuniyat hissi inson o’zining birlamchi ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo’lgan iste’mol faoliyatining ijobiy emotsional foni, holati sharoiti sifatida namoyon bo’ladi. Lekin bu hisni qoniqishdan farqlovchi asosiy tavsifnomasi uni qisqa muddatligi hisoblanadi. Qoniqish juda ham barqaror emotsional holat hisoblanadi. Har doim ham bevosita mamnuniyat hissi kuzatilmaydigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo’naltirilgan mahsuldor o’zgartiruvchi faoliyat natijasida qoniqish yuzaga keladi va rivojlanadi.

Qoniqish hissining barqarorligi bir tomondan shaxsiy hayoti ma’no mazmuniga qadr-qimmatiga egaligini real tasdig’i hisoblangan mehnat natijasida tug’iladi. Boshqa tomondan mehnat natijasi ayniqsa, unga boshqa odamlarning qiziqishi bo’lganda nafaqat muvaffiyatga erishgan paytda balki ma’lum vaqt o’tgandan so’ng ham ko’pincha maqtov, taqdirlash, qo’llab-quvvatlash, o’ziga xos xususiyati va mahoratini e’tirof etish kuzatiladi. Faoliyat mahsuli qanchalik uzoq muddatli bo’lsa, inson boshqa odamlar tomonidan shunchalik uzoq ijobiy fikrni his qiladi. Bu qoniqish hissining barqarorligiga shart-sharoit yaratib beradi.



Inson nafaqat o‘zidan balki shaxsiy hayotidan ham qoniqmaganlik hissini his etishi mumkin. U o‘zining faoliyatidan muloqot va munosabatda bo‘ladigan odamlardan ularning ishga doir yoki axloqiy xususiyatlari va boshqalardan qoniqmagan bo‘lishi mumkin. O‘z o‘rnida buning asosida proeksiyaning psixologik himoya mexanizmi yotadi. Dearli bu o‘zining individual xususiyatlarin anglamaydigan qoniqmaganlikdir .

Jahonda oilaviy ajralishlar o‘sishi; otasiz o‘sayotgan bolalar sonining oshishi; oilaviy-maishiy negizida sodir etilayotgan jinoyatlar, xususan qotillik, zo‘ravonliklar natijasida oila institutining kuchsizlanishi bilan asoslanadi . Qator taraqqiy etgan mamlakatlarda, masalan, Belgiyada nikoh ajralishlari 70%, Ispaniya, Portugaliya va Vengriyada 60 %dan ortiq, Rossiya va AQShda 50 % ortiq, Islandiyada 64 %, Shvesiyada 54 %, Buyuk Britaniyada 38% bolalar noto‘liq oilalarda tug‘ilgan, Yevropa mamlakatlarida ayollarga nisbatan suiqasd qilingan holatlarning 35% oilada bo‘lgan, 17% qarindoshlari tomonidan o‘ldirish holatlari kuzatilgan .

Sotsiologlarning ma‘lumotlariga ko‘ra nikoh va oila sohasida 70 dan kuproq yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi. Oilaviy hayotning deyarli barcha tomonlari doimiy ilmiy nazorat ostiga olingan.

Qadimdan oila olimlar diqqat markazida bo‘lganligi hammaga ma‘lum, shu boisdan dinda va ilohiy yozmalarda (Bibliya, Qur‘on va boshqalar) u munosib o‘rinni egallaydi. Oila o‘zining «ontogenezida» xaetning belgili bosqichlari, sikllaridan o‘tishi hammaga ma‘lum.

Psixolog Devid Bassning ma‘lumotlari alohida e‘tiborga sazovor. Olim tomonidan oltita kontinent va beshta orollarda joylashgan 37 mamlakatlarning 10 mingdan ortiq erkak va ayollardan oila qurish uchun er (xotin) tanlash mezonlari bo‘yicha qanday sifatlar bilan baholanishi tug‘risida anonim so‘rovnoma o‘tkazish natijasida birinchi o‘rinlarni o‘zaro sevgi (bog‘liklik), ishonchilik, emotsional barqarorlik, yetuklik va yoqimli fe‘l-atvor kabi sifatlar egallagan .

D.Bass pressmadaniyat tadqiqotlari natijalari asosida nikohlik sherik tanlashda odamlar anglamagan holda urug‘ turining saqlanib qolishini va davom etishiga bo‘lgan instinktga ishonishini taxmin qilgan.

S.I.Golod monogamiyaning uchta turinining - patriarxal, bola markazlashtirilgan va er-xotinlik - har birini qisqacha psixologik tavsifi bilan, Boltiq bo‘yi, Kavkaz orti va O‘rta Osiyo xalqlarining etnomintaqaviy xususiyatlari bilan bir-biriga bog‘lik misollarni foydalangan holda ko‘rib chiqqan.

N.N.Obozovning ishi oilaviy-nikoh masalalari va er-xotinlar va qarindoshlar orasidagi qarindoshlik mojarolarga bag‘ishlangan. O‘zaro munosabatning shaxsning baxtiga va qanoatlanishiga ta‘siri Sh.Argayning tadqiqotlarining mavzui bo‘ldi. Psixologik yaqinlikni o‘lchash masalalari va ularning yillar bo‘yicha dinamikasi A.Kronik va Ye.Kronik tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Nikoholdi fe‘l-atvorning yosh oila barqarorligiga ta‘sirining masalalarini T.A.Gurko o‘zining tadqiqotlarida ochib berdi. Mojaroli oilada er-xotinlarning fe‘l-atvori muloqot psixologiyasi bilan o‘zaro bog‘likligi O.Kutsar tadqiqotida o‘z ifodasi topgan .

Jahonda onalik timsoli psixoanalitik, etologik va bixevioristik jihatdan, ona fenomenining prenatal psixologiyasi, onalikka tayyorlikning psixologik jabhalari, onalik mustaqil psixologik fenomen sifatida, noto‘liq oilaning kelib chiqish sabablari, yolg‘iz onaning psixologik xususiyatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, oilaviy nizolar, to‘liq va noto‘liq oila farzandlarida ijtimoiy rollarning shakllanishi, noto‘liq oilala farzandlarining xulqiy og‘ishlari sabablari, tengdoshlari bilan munosabat xususiyatlari tadqiq qilingan bo‘lsa-da, o‘smir va ilk o‘spirinlarning istiqboli to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlari shakllanishida ona shaxsining ta‘siri muammosini ijtimoiy psixologik jabhadan tadqiq etishga ehtiyoj bor.

Xorijiy mamlakatlarda bevosita to‘liq va noto‘liq oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijobiy va salbiy jihatlari ayrim tadqiqotlarning predmeti sifatida o‘rganilgan : barqaror va disfunktsional oilalarni o‘rganish an‘analari (V. Satir, 1992, R. Xill, 1948, A.Ye. Lichko, 1989, E.G. Eydemiller, V. Yustiskiy, 1999, Varga A.Ya., V.V. Stolin, 1986, O.A. Karabanova, 2004, N.N. Pоsыsоev, I.A. Mojarovskaya, 2004), oilani insonni ma‘naviy kamolotiga, ruhiy barqarorligiga ta‘siri (Drujinin V.N., 2000, Gumina T.V., 2005, Ivanchenko V. A., 2012,), oila psixologik himoya maskani (R.M.Granovskaya, 1984, E.I. Kirshbaum, A.I. Yermeeva, 1993, L.R. Grebennikov, Ye.S. Romanova, 1996, Ye.V. Chumakova, 1998, V.G. Kamenskaya, 1999, D. Parker i N. Endler, 1990), oila – kichik ijtimoiy guruh va noto‘liq oila bundan mustasno emas (Ye.B. Agafonova, 2004; N.S. Fontalova, 2004; M.Yu. Kazaryan, 2007; B.B. Nusxaeva, 2007; S.A. Trofimova, 2011) va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan .

Hozirgi kunda umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda boshqa turdosh fanlarda to‘liq va noto‘liq oilalardagi shaxslararo munosabatlar muammosining o‘rganilishi, ushbu munosabatlarning konstruktiv va destruktiv oqibatlarini rossiyalik hamda boshqa xorijlik olimlar (V.Satir, S.Brodi, V.Drujinin, A.Antonova, Ye.Sokolova, L.Kovar, S.Golod, V.Ivanchenko, T.Gumina va boshqalar) izlanishlari, o‘zbek oilasining etnopsixologik muammolarini, ularda milliy udumlar, qadriyatlarining bola tarbiyasiga ta‘siri

masalasi M. Davletshin, E. G‘oziev, G‘.Shoumarov, B.Qodirov, V.Karimova, B.Umarov, R.Samarov, N. Sog‘inov, M. Rasuleva, M.Umarova, O.Abdusattorova, H.Haydarova, F.Akramova, N.Salaeva, M.Salaeva, G.Yadgarova va boshqalarning ilmiy ishlarida asoslangan. Alohida tarzda to‘liq va noto‘liq oilalarda bolalarning ijtimoiy hulqini belgilovchi omillar doirasida G.Yadgarova, B.Umarov, G‘.Normurodov izlanishlari o‘rganilgan. Ularda xususan, to‘liq va noto‘liq oiladagi munosabatlarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga ta‘siri, noto‘liq oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit masalasi o‘rganilgan.

Ko‘plab olimlarning ta‘kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o‘zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo‘lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo‘lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg‘un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko‘rgan-kechirganlari uchun o‘z oilasida qo‘llay bilish mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

“Oilaviy munosabatlar” – bu er-xotin, ota-ona va bolalar, bolalar-bolalar va h.k. munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oluvchi keng tushuncha. Shu bilan birga undagi, faqatgina er-xotin munosabatlari bilan cheklanmagan har qanday boshqa munosabatlar o‘zaro tanlov ixtiyorining mavjud emasligiga ishora qiladi.

Er-xotin munosabatlari – bu qarama-qarshi jinsdagi, yetuk yoshli, yaqin qardoshlik rishtalari bilan bog‘liq bo‘lmagan va birgalikda turmush kechirishni ixtiyor qilgan kishilar munosabatlaridir.

Oiladagi munosabatlar muammolariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarning kompleks tahlili sotsiologik, psixologik va ijtimoiy-psixologik, shuningdek, tizimli yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishlarni tahlil etish ularning xususiyatlari va afzalliklarini tushunish imkonini beradi .

1) Sotsiologik yondashuvda oila ijtimoiy muassasa sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv doirasida bajarilgan ishlarga A.I.Baranov, A.G.Xarchev, M.S.Maskovskiy, K.Vitek, S.I.Golod, Ya.IIqepanskiy, N.G.Yurkevich, D.M.Chechet, L.V.Chuyko, Z.I.Yankova va boshqalarning tadqiqotlari kiradi. Yuqorida tilga olingan olimlarning tadqiqot ishlarida oila tarixiy taraqqiyot jarayoni nuqtai nazaridan o‘rganilgan, jamiyatning oilaga, oilaning esa jamiyatga ta‘siri masalalari yoritilgan.

2) Psixologik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarda oila kichik guruh sifatida taqiq etilgan. Ushbu ilmiy yondashuv doirasida qilingan ishlar nisbatan kam. Bunday holat oilani o‘rganishda eksperimental metodlardan foydalanish murakkabligi, shaxsiy tajribaning sub‘ektivligi, so‘rov metodlarining shubhaliligi bilan tushuntirsa bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot ishlari sirasiga Yu.Ye.Alyoshina, L.Ya.Gozman, N.N.Obozova, A.N.Volkova, V.A.Syosenko, V.V.Boyko, V.P.Levkovich, O.E.Zuskova, T.M.Trapeznikova va boshqalarning ishlarini kiritish mumkin.

Psixologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar oilaviy hayotning turli jihatlarini: er-xotin mutanosibligi, oilaviy nizolar, nikohdan qoniqqanlik kabi masalalarni o‘rganishga qaratilgan.

3) tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan olib borilgan oilani o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar – sanoqlidir. Ushbu yo‘nalishda asosan G‘arb olimlaridan S.Kratov, J.Belski, M.J.Koks, R.M.Lerner, R.D.Parklar ish olib borganlar. Bunda oila o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida o‘rganiladi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot yo‘nalishlarida tadqiqot predmetlarida tafvutlar mavjud bo‘lishidan qat‘iy nazar, aksariyat mutaxassislar oila, aholini qayta tiklash (ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan), ijtimoiylashuv, tashqi va ichki madaniyatning axloqiy me‘yorlari va qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda namunali turmush modeli andozasini saqlab qolish kabi muhim vazifalarni bajarishi bilan birga individual va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi vositachi hamdir, degan fikrda yakkidirlar.

Biroq oila tushunchasining tavsifida, uning taraqqiyoti xususidagi ayrim masalalarga bo‘lgan qarashlarda yo‘nalishlar o‘rtasida sezilarli tafvutlar kuzatiladi.

Oilani yaxlit tizim sifatida o‘rganadigan tizimli yondashuv XX asrning 70 yillarida ishlab chiqila boshlandi va tez orada ommalashib ketdi. Mazkur yo‘nalishda ish olib borgan tadqiqotchilar qatoriga K.Bernard, K.Korrals, R.Xill, M.Adolfi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.Lyudvig fon Bertalanfi tomonidan ishlab chiqilgan tizimlarning umumiy nazariyasiga muvofiq: “oila – ushbu oilaga taalluqli a‘zolarining oddiy yig‘indisi bo‘lmay, balki, birinchi navbatda, shu oilaning barcha a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar silsilasidir. Oilani tushunmoq uchun oilaning alohida a‘zolari xolatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, oilaviy tizimni yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilib chiqmoq darkor” .

R.Xill fikriga ko‘ra, tizim sifatida ishlaydigan oila quyidagi alomatlariga egadir:

1) oila a‘zolari barqaror o‘zaro bog‘liq tobelikda bo‘ladilar, zotan ulardan bittasining xulq-atvorida o‘zgarish sodir bo‘lsa, pirovard natijada mazkur o‘zgarish, avtomatik ravishda, oilaning qolgan a‘zolari xulqidagi deformatsiyalarga olib keladi;

2) oila o‘zini muayyan darajada cheklaydigan, nisbatan jips birlikdir;

3) oila – o‘z ijtimoiy muhiti bilan muvozanatni saqlashga intilayotgan “moslashuvchan uyushmadir”;

4) oila, nafaqat tashqi omillar bilan belgilanadi, balki o‘z a‘zolarining ichki ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan u yoki bu vazifalarni ham bajaradi.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.
2. Голод С.И. Прокреация, плюральность эротического ландшафта: история и современное состояние / С.И. Голод // Социс. – 2008. – №12. – С. 82-90.
3. Гольцова Е.В. Факторы социальной среды как детерминанты брачности и рождаемости / Е.В. Гольцова, Я.А. Лещенко // Социс. – 2010. – №2. – С. 125-130.
4. Носкова А.В. Год семьи: некоторые итоги / А.В. Носкова // Социс. – 2008. – № 12. – С. 80-81.
5. Ржаницына Л.С. Алименты на детей как элемент гражданской ответственности / Л.С. Ржаницына // Социс. – 2010. – № 7. – С. 56-63.
6. Рабжаева М.В. Семья в русском обществе: исторический и социокультурный анализ / М.В. Рабжаева // Летняя школа «Общество и гендер» [Электронный ресурс]. – Электрон. дан.– [Рязань]: Рязанский гендерный центр, сор. 2003.
7. Холтураев Аскаржон Панжиевич, ўсмир ўқувчилар ўқув фаолиятида натижага эришишнинг психологик хусусиятлари. // “Psixologiya”, № 1, 2023, 31-36 б.
8. Арон И.С. Мотивация к профессиональному самоопределению подростков, находящихся в особой социальной ситуации развития // Электронный журнал «Психологическая наука и образование» 2015. Том 7. № 1. С. 154–164.
9. George Nitzburg. Internet searches for medical symptoms preceding the seeking of twelve-step addiction treatment information: A web search log analysis. Technology, Mind and Society. Conference. APA. 2019. 165 p.
- 10 Tony X.T. Model minority of a different kind? academic competence and behavioral health of chinese children adopted into white American families // Asian American Journal of Psychology. 2018, Vol. 9, No. 3, 169–178.
- 11 Billur A., Greg J. Improving temporal cognition by enhancing motivation // Behavioral Neuroscience. 2015, Vol. 129, No. 5, 576–588.
12. Xolturayev A.P. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o‘quv faoliyatida natijaga erishish muammosining psixologik tahlili .. N 1 (173) 2023) 36-38.

## XALQ TOPISHMOQLARI – TA’LIM-TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

*Saidova Zokira Tolibovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti*

*Bugun mamlakatimizda xalq ta’limi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Ta’limning barcha jabhalarida ma’naviyatga e’tibor kuchaydi. Maktabda, ayniqsa, boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni har tomonlama bilimi, aqli, axloqan boy, ma’naviyati yuksak inson qilib tarbiyalash masalalariga talab kundankunga qarab kuchaytirilmoqda. Har qanday holatda ham insoniy qadr-qimmatni oshiradigan va ardoqlaydigan, jamiyat va tabiat manfaatlarini himoya eta oladigan, ilm-ma’rifatga intiluvchi fidoyi shaxslarni tarbiyalash ko’da tutiladi. Negaki, bunday insonlar o’z millati qadrini chuqur anglab, uning tiliga, diniga, urf-odatlariga faxr bilan amal qiladilar va bu milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi uchun kurashadilar.*

*Maqolada boshlang’ich maktabda o’qish darslariga bag’ishlangan, jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol usullardan foydalanishning ijobiy ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *badiiy-estetik, ruhiy-ijtimoiy, o’xshatish, qarama-qarshi qo’yish, qiyoslash, shartli ko’chma nom bilan atash, metaforik tasvir usullari.*

## НАРОДНЫЕ ЗАГАДКИ КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

*Сегодня народное образование в нашей стране поднялось на уровень государственной политики. Внимание к духовности возросло во всех аспектах образования. В школах, особенно в начальных классах, с каждым днём возрастает потребность в воспитании из учеников образованных, умных, морально богатых и духовно высоких людей. В любом случае важно воспитывать самоотверженных личностей, способных приумножать и чтить человеческое достоинство, защищать интересы общества и природы, стремиться к просвещению. Ведь такие люди глубоко понимают ценность своей нации, с гордостью следуют её языку, религии и обычаям, борются за сохранение этих национальных ценностей.*

*Статья посвящена занятиям по чтению в начальной школе, в ней подчёркивается положительная значимость использования педагогических технологий и использования новых интерактивных методов в этом процессе.*

**Ключевые слова:** *художественно-эстетическое, духовно-социальное, сравнение, противопоставление, сравнение, именование условным местоимением, способы метафорического изображения.*

## FOLK RIDDLES AS A MEANS OF EDUCATION AND UPBRINGING

*Today, public education in our country has risen to the level of state policy. Attention to spirituality has increased in all aspects of education. In schools, especially in elementary grades, the demand for raising students to become well-educated, intelligent, morally rich, and spiritually high people is increasing day by day. In any case, it is important to educate selfless individuals who can increase and honor human dignity, protect the interests of society and nature, and strive for enlightenment. After all, such people deeply understand the value of their nation, proudly follow its language, religion, and customs, and fight for the preservation of these national values.*

*The article is devoted to reading classes in primary school and emphasizes the positive significance of the use of pedagogical technologies and the use of new interactive methods in this process.*

**Key words:** *artistic-aesthetic, spiritual-social, comparison, contrast, simile, naming with a conventional pronoun, methods of metaphorical depiction.*

**Kirish.** *Milliy tuyg’ularni yoshlar qalbiga sindirishda xalq og’zaki ijodi namunalarining ta’siri g’oyatda katta. Ayniqsa, doston, ertak, qo’shiq, afsona, rivoyat, naql, maqol va topishmoq kabi folklor janrlari xalq hayoti, tarixi, orzu-umidlari, ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari, tabiat boyligi haqidagi qarashlarni o’zida badiiy ifoda etishi bilan alohida e’tiborni tortadi.*

*Istiqlol yillarida o’quv-tarbiya jarayonida folklor namunalaridan foydalanishga katta e’tibor berila boshlandi. Ular ta’lim-tarbiya jarayoninng eng qulay vositalaridan biri sifatida tan olindi.*



Ma'lumki, xalq topishmoqlarida hayvonot va nabotot dunyosi bilan bog'liq tushunchalar o'ziga xos talqin qilindi. Ularda ajdodlarimizning tabiyat olamiga, hayvonot dunyosiga munosabati, ayrim hayvonlarni muqaddaslashtirish bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari, totemistik tasavvur tushunchalari badiiy ifoda qilinishini kuzatish mumkin. Hayvonlar haqidagi topishmoqlar topishmoqlarning alohida mavzuiy turini tashkil etadi. Bu topishmoqlar vositasida bolalar ongiga va qalbiga hayvonot olamiga e'tibor va muhabbat tuyg'usini singdirish juda oson va qulaydir. Zero, xalq topishmoqlari folklorning alohida, mustaqil, qadimiy, ana'naviy va oilaviy janrlaridan biri bo'lib, yaratilgan davridan to hozirgacha o'ziga xos pedagogik muammo sifatida ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Yosh avlodni tarbiyalashda topishmoqlardan foydalanish muayyan ana'naviylikka aylanmoqda. Shuni nazarda tutib, ilmiy ishimizda topishmoqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayvonot olami, ularning foydalari, insonlarga homiy va raqib bo'lgan hayvon turlari, uy va o'rmon hayvonlari bilan tanishtirishning qulay metodik usullari, dars va darsdan tashqari o'qish jarayonidagi o'rni va ahamiyati masalalarini tadqiq qilish, bu ishning samaradorligini belgilab ko'rsatish ko'zda tutildi.

**Asosiy qism.** O'zbek xalq topishmoqlari o'lkamizda yaratilgan bebaho ma'naviy qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Ular milliy madaniyatimizning eng qadimiy va hayotbaxsh ana'nalarini o'zida mujassam etgan betakror badiiy janrlardan biridir. Boy ijodiy salohiyat sohibi bo'lgan ajdodlarimizning ko'p asrlik ijodkorlik tajribasini, hayotiy kuzatishlarini badiiy mahoratini o'zida jonlagan xalq topishmoqlari g'oyat teran va kuchli badiiy-estetik va ruhiy-ijtimoiy quvvat manbai sifatida yosh avlodning ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynaydi. Shuni inobatga olib, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoniga topishmoqlarni olib kirish, singdirish, ularni o'qitish, o'rgatish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Topishmoqlar xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy va ana'naviy janrlaridan biridir. Ularning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati g'oyatda katta. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi xalqning urf-odati, ruhiyati, axloqiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Topishmoqlar o'quvchilarning fikrini kengaytirib, ularni diqqat bilan o'ylashga, kuzatuvchanlikka, ziyraklikka hamda mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Mantiqiy fikr yuritish esa bola nutqining o'sishiga yordam beradi. O'xshatish, qarama-qarshi qo'yish, metaforik (shartli ko'chimga asoslangan) tasvir usullari topishmoqlarning xarakterli xususiyatidir.

Topishmoqlar nihoyatda ixcham, ichki va tashqi qofiyali, hayotiy bo'lganligi uchun ham bolalar ularni tez bilib, xotiralarida saqlaydilar.

Eng muhimi, topishmoqlarda yurtimizning o'ziga xos tabiati, o'simliklar dunyosi va hayvonot olami aks etgan. Ularni tinglash orqali har bir kishining qalbida vatanga muhabbat tuyg'usi uyg'onadi.

Topishmoqlarning hayotiy qamrovi, mavzular olami nihoyatda kengdir. Shu jihatdan ular bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Chunki unda aytilayotgan voqelik bevosita bola ko'z o'ngida jonlangandek bo'ladi. Bundan bolaning qiziqishi va e'tibori kuchayadi. Demak, topishmoqlar tinglovchilarning hissiy-ruhiy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatish qudratiga egadir. Topishmoqlarga xos shu jihat, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Topishmoqlarga xos yana bir muhim xususiyat shuki, ular kishilarga tarbiyaviy o'git berish vazifasina ham ado etadilar. Bu vazifa, asosan, topishmoqlarning mazmuniga singdirib yuborilgan bo'ladiki, natijada uzr bir topishmoq tinglovchi uchun namuna maktabi vazifasini o'tadi.

Topishmoq xalq og'zaki ijodining qadimiy va ana'naviy, mustaqil janrlaridan biri bo'lib, xalq orqasida keng tarqalgan.

Topishmoqlarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati g'oyatda katta. Ular xalq og'zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri bo'lsada, o'zida xalqning urf-odati, ruhiy olami, axloqiy-estetik qarashlarini badiiy aks ettiradi. Topishmoqlar o'quvchilarning fikrini kengaytirib, ularni diqqat bilan o'ylashga, kuzatuvchanlikka hamda mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Mantiqiy fikr yuritish esa bola nutqining o'sishiga yordam beradi. O'xshatish, qarama-qarshi qo'yish, qiyoslash, shartli ko'chma nom bilan atash, metaforik tasvir usullari topishmoqlarning o'ziga xos muhim xususiyatidir.

Topishmoqlar mazmunan juda boydir. Ularda tabiat hodisalari, odam va uning tana a'zolari, hayvonot olami, parranda va qushlar, hasharotlar, o'simliklar dunyosi, ekin va o'simliklar, poliz ekinlari va sabzavotlar, oziq-ovqatlar, mohiyat, ish qurollari, uy-joy va unga tegishli jihozlar, uy-xo'jalikasboblari, olov, tutun, chiroq, kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari, kitob va yozuv, cholg'u asboblari, o'yinlar va o'yinchoqlar, ot asboblari va yo'l, kema va qurol-yaroqlar va hokazolar haqida ma'lumot beriladi.

Hayvonlar haqidagi topishmoqlar qadimiyligi, ana'naviyligi, ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Ularning topishmoqlarning alohida mavzuiy turini tashkil etadi. Bunday topishmoqlar ibtidoiy insonlarning totemistik (u yoki bu hayvonni o'ziga qondosh, ajdod sanab, unga sig'inish, e'tiqodiy munosabatda bo'lish) tushunchalari zahirida vujudga kelgan bo'lib, o'zida kishilarning hayvonot olami bilan bog'liq tasavvur tushunchalarni, fikr-mulohazalarini ifoda etadi.



Hayvonlar haqidagi topishmoqlarda, asosan, biror-bir hayvonning obrazi, unga xos xatti-harakat, belgi-xususiyat talqini beriladi. Biroq uning nomi ochiq aytilmay, yashirin saqlanadi.

Hayvonlar olamini kuzatish natijasida uni bilishga ijtimoiy bu haqdagi topishmoqlar yaratilishiga sabab bo'lgan. Qadimda insonlar sezgir va zo'r, kuchli hayvonlarni go'yo o'z ajdodi, homiysi deb, muqaddaslashtirgan, unga sig'ingan. O'zi yaratgan badiiy asarlarda uning obrazini tasvirlashga uringan. Uni homiy kuch sifatida talqin qilishga harakat qilgan.

Xususan, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi a'zoli o'ziga naf keltiruvchi ot, buqa, it, echki, qo'y, sigir, eshak kabi uy hayvonlarini qadrlab, ularni sharaflashga intilgan. Aksincha, chorvaga ozor yetkazuvchi bo'ri, tulki, shag'ol singari jonivorlarni, yirtqich hayvonlarni tanqid qilganlar.

Hayvonlar haqidagi topishmoqlarning pedagogik ahamiyati katta. Bu xildagi topishmoqlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati kasb etadi. Ularning aytilish jarayoni hayajonli bo'ladi.

Bolalar ham maktabga kelmasidanoq, oilada va bog'chada olib borilgan mashg'ulotlar, suhbatlar, sayohatlar jarayonida, televizor orqali berilgan ko'rsatuvlardan hayvonlarning turlari haqida bilib oladilar. Topishmoq aytish va unga javob topish har bir bolaning sevimli mashg'ulotidir. Topishmoqlar o'zining soddaligi, ravonligi, obrazlilik bilan bolalar uchun juda qiziqarlidir. Topishmoqlarda aytilgan fikrlar bola tomonidan tez va oson o'zlashtiriladi. Shuning uchun bolalar yoshligidan boshlab topishmoqlarga qiziqadilar va ularga alohida muhabbat bilan munosabatda bo'ladilar.

Bolalarni go'zal axloqiy fazilatlariga oshno qilib tarbiyalashda topishmoqlarning roli katta. Shuning uchun bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi har bir kishi, pedagog, tarbiyachi, ota-ona topishmoqlarni yaxshi bilishi, ularning sehirli ta'sir kuchidan samarali foydalana olmog'i lozim.

Topishmoqlar bolalar ongiga tez yetib boradi. Hatto o'qish-yozishni ham o'zlashtirmagan kichik maktab yoshidagi bolalar ham topishmoqlardagi yashirin fikr va obrazni idrok eta oladilar.

Adabiyotdagi hech bir janr bolalarni topishmoqchalik qoyil qoldirishi qiyin. Ularning bolalarga tez va samarali ta'sir ko'rsatishini hisobga olib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunda, albatta, bolalarning topishmoqqa bo'lgan qiziqishiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Darhaqiqat, topishmoqlar bolalarning u yoki bu hodisa, narsa, jonzot haqidagi bilimni oshirishda, xususan, ularning ziyoratligini, topqirligini, mustaqilligini taraqqiy toptirishda qulay va samarali vositadir. Shuningdek, topishmoqlar bolalarning nutqini o'stirishda xizmat qiladi.

Topishmoqlar tilining soddaligi va ravonligi, tasviriy vositalarga boyligi, tuzilishining ixchamligi, mazmuning bolalar ongi va tushunchasiga tez singishi jihatidan bolalarni chiroyli so'zlashga, voqea-hodisalarni, narsalarni xotiralarida uzoq vaqt saqlab qolishga o'rgatishda yaqindan yordam beradi.

Ko'rinyaptiki, topishmoqlarni ta'lim-tarbiya jarayonida o'qish-o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ularni ta'lim jarayonida o'qib-o'rganish usuli o'ziga xos muammolarga ega. Jumladan, har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida topishmoqlardan turlicha usullarda, turli maqsadlarda foydalanadi. Bunda har bir o'qituvchining tajribasi, malakasi, bilimi, ishga yondashishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Qaysidir o'qituvchi topishmoqlardan nutq o'stirish vositasi sifatida foydalansa, yana biri uni axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo'llaydi.

Topishmoqlarni o'rgatishda ham har bir o'qituvchinig o'ziga xos usuli, uslubi bor. Topishmoqlarni ta'lim jarayonida o'rgatishning bir talay usullari bor. Umuman har bir o'qituvchi o'z bilimi, tajribasidan kelib chiqqan holda foydalanadi. Ba'zi o'qituvchi topishmoqni o'zi yoddan aytib, javobini bolalardan so'raydi. Yana boshqasi darslikda keltirilgan topishmoq matnini yo o'zi o'qiydi, yo birorta bolaga uni o'qitiradi.

Ba'zi o'quvchilar topishmoqda yashiringan predmet haqida bolalarga rasm chizishni yoki rasmlar orasidan o'sha narsaning suratini topib ko'rsatishni topshirdi. Ayrim hollarda topishmoqda yashiringan predmetning shaklini plastilin orqali tasvirlab yasashga chaqirdilar. Bolalar bu ishni o'zgacha zavqu-shavq bilan ado etadilar.

Topishmoqlarda tevarak-atrof, borliq voqea-hodisalari, predmetlar haqida ma'lumot berilishi bois ular o'ziga xos tarbiyaviy, didaktik mohiyat kasb etadi. Shuning uchun yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda, ularga aqliy, estetik, axloqiy tarbiya berishda har xil mavzudagi topishmoqlardan keng foydalanishi mumkin.

O'zbek topishmoqlari yosh avlodni milliy ana'nalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Topishmoqlarning kelib chiqishiga qadimgi insonlarning dunyoni bilishiga, borliqni anglashga, tabiat hodisalarining yuz berishi sabablarini tushunishga bo'lgan intilishlar sabab bo'lgan. Qadimgi insonlar ularni o'zga ruhiy olam vakillari boshqarishiga ishongan. Ularni chalg'itish uchun ko'pincha narsa-hodisalarning nomini ochiq-oshkora aytmay, sir saqlab, yashirin va ko'chma ma'nodagi nom bilan atab kelganlar. Shu yo'l bilan yovuz ruhlarni chalg'itishga uringanlar. Narsalarni, jonzotlarni,

hodisalarni o‘z nomi bilan aytmay, ularga xos belgi-xususiyatlarni eslash orqali ishora qilish yo‘li bilan ularni yodga olish usulidan topishmoqlar kelib chiqqan. Dastlab ular sodda ko‘rinishida bo‘lgan. Biroq asta-sekin ular o‘zining dastlabki sodda ko‘rinishini o‘zgartirib, murakkab xarakter, keng mazmuniy qamrov kasb etib borgan.

Topishmoqlar ko‘ngilxushlik, aql o‘yini vositasigina emas, balki bolalar idrokini, zehni o‘stirishda o‘ziga xos tarbiya quroli hamdir. Topishmoq aytish va unga javob topish o‘ziga xos aniq hamda qat’iy tartib qoidalarga ega. Topishmoq aytishuvining qadimiy ana’alariga ko‘ra, kimki uning javobini topolmasa, “shahari”ni beradi. Mana shu jiddiy shart tinglovchini chuqur o‘ylashga, topqirlikka majbur qiladi. Topishmoqlarning asosiy tarbiyaviy kuchi esa ana shunda ko‘rinadi.

Maktablarning boshlang‘ich sinflari uchun tuzilgan darsliklarda topishmoqlarga alohida o‘rin ajratilgan. Masalan, 2005-yilda T.Sattorova, E.Shodmonov, G.Turdiyevlar tomonidan tuzilgan 1-sinf “O‘qish kitobi”ga jami 48 ta topishmoq kiritilgan. Chunki ular bolalarning nutqini, dunyoqarashini, bilimini, tasavvur-tushunchasini, mustaqil va ijodli fikrlash qobiliyatini, obrazli va ifodali o‘qish malakasini shakllantirish uchun juda qulaydir. Ular bolalarning turli fanlar bo‘yicha egallagan bilimlarini umumlashtirishga yaqindan yordam beradi.

### Adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. –T.: 2007. -185 b.
2. Самойленков Ф.М. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. –М.: Просвещение, 2009. –254 с.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. –Toshkent, 2005. -149 b.
4. Sodiq S. Ijodning o‘ttiz lahzasi. -T.: Sharq, 2007.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2011. 423 b.
6. S.Z. Tolibovna, “Taksis va aspektuallik kategoriyasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri”, Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 11, 32-36
7. Tolibovna, Saidova Zakira. "Ingliz tili darslarida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish." // Pedagog journali, 1.1 (2023): 736-736.
8. Tolibovna, Saidova Zakira. "Taxis category and sphere of temporary influence. // "American journal of science and learning for development 1.2 (2022): 137-138.
9. Saidova, Z. T. "Taxis as a conceptual and functional-semantic category. // " Экономика и социум 2-1 (93) (2022): 105-108.

## PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

### MARKAZIY OSIYOLIK MUTAFAKKIRLAR VA ALLOMALARNING AQLIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI FIKRLARI TAHLILI

**Boboqulov Chori Urolovich,**

*Termiz Davlat Universiteti Sport boshqaruvi kafedrasasi o'qituvchisi  
boboqulovchori0@gmail.com*

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni shaxmat o'yini orqali aqliy qobiliyatini rivojlantirish, shu bilan birgalikda, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, jamiyat va ta'lim muhitida yanada muvaffaqiyatli moslashishi uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lishi xususida bayon qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy rivojlanishida yuqori ko'rsatkichlarga erishishida, shaxmatning ijobiy xususiyatlari juda samarali. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantirishda markaziy osiyolik mutafakkirlar va allomalarning aqliy qobiliyatni rivojlantirish haqidagi Payg'ambarimiz Muhammad sallolohi alayhi vassallom, Farobiy, Abu Rayhon ibn Ahmad Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Erkin Vohidovlarning hayotiy hamda ilmiy tajribalari, rus psixologi Lev Semenovich Vigotskiy, shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga, shaxmat sport turiga bo'lgan e'tiborlari keng va ilmiy yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich sinf o'quvchilari, shaxmat o'yini, aqliy qobiliyatlar, jismoniy tarbiya vositalari, kreativ salohiyat, bilimlar, bilimlarni o'zlashtirish, psixologik qobiliyatlar, qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik eksperiment, ruhiyat, ong va tafakkur, shatranj musobaqalari.*

### АНАЛИЗ ВОЗРЕНИЙ МЫСЛИТЕЛЕЙ И УЧЕНЫХ СРЕДНЕЙ АЗИИ О РАЗВИТИИ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

*В данной статье описано развитие умственных способностей детей младшего школьного возраста посредством игры в шахматы, а также то, что они имеют большие возможности для всестороннего развития личности, более успешной адаптации в обществе и образовательной среде. Положительные свойства шахмат очень эффективно помогают учащимся младших классов достичь высокого уровня умственного развития. В статье приведены взгляды и научно освещены жизненный и научный опыт мыслителей и учёных Средней Азии о развитии интеллектуальных способностей учащихся начальных классов, среди которых Пророк наш Мухаммед, да благословит его Бог и дарует ему мир, Фараби, Абу Райхан ибн Ахмад Беруни, Абу Али ибн Сина, Амир Темур, Алишер Навои, Абдулла Авлони, Эркин Вохидов, российский психолог Лев Семенович Выготский, а также проанализировано внимание Президента Республики Узбекистан к молодёжи и шахматному спорту.*

**Ключевые слова:** *младшие школьники, игра в шахматы, умственные способности, средства физического воспитания, творческий потенциал, знания, приобретение знаний, психологические способности, развитие способностей, педагогический эксперимент, дух, разум и мышление, шахматные соревнования.*

### ANALYSIS OF THE OPINIONS OF CENTRAL ASIAN THINKERS AND SCIENTISTS ABOUT THE DEVELOPMENT OF MENTAL ABILITY

*This article describes the development of mental abilities of children of primary school age through the game of chess, as well as the fact that they have great opportunities for all-round development of the individual, more successful adaptation in the society and educational environment. The positive features of chess are very effective in helping elementary school students achieve high levels of mental development. On the development of the mental ability of Central Asian thinkers and scholars in the development of the mental ability of primary school students, our Prophet Muhammed Sallallahu Alayhi Wasallam, Farabi, Abu Rayhan ibn Ahmad Beruni, Abu Ali ibn Sina, Alisher Navoi, Abdulla Avloni, Russian psychologist Lev Semenovich Life and scientific experiences of Vygotsky, Erkin Vahidov, Amir Temur. At the same time, the attention of the President of the Republic of Uzbekistan to the youth, the sport of chess, and the methods used in chess training are widely and scientifically covered.*

**Keywords:** *primary school students, chess game, mental abilities, physical education tools, creative potential, knowledge, knowledge acquisition, psychological abilities, ability development, pedagogical experiment, spirit, mind and thinking, chess competitions.*

**Кирриш.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxmat o‘yini orqali aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- bolalarning aqliy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shaxmat o‘yini orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish;
- shaxmat orqali bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish;
- shaxmat o‘yini orqali bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma‘lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish;
- shaxmat o‘yini orqali o‘quvchilarning kelajakni ko‘ra olish qobiliyatini rivojlantirish;
- shaxmat o‘yini bilan o‘quvchilarning vaziyatni tahlil qila olish va unga to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rgatish.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari.**

- ✓ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning samarali usullari aniqlandi;
- ✓ Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shaxmat o‘yini orqali o‘quvchilarning ma‘lumotlarni tahlil qila olish salohiyatini rivojlantirishning metodik tizimiga shaxmat o‘yini misolida tavsiyalar qo‘shildi;
- ✓ shaxmat o‘yini orqali o‘quvchilarning bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usi shakllanishi isbotlandi;
- ✓ shaxmat o‘yini orqali bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar va xususiyatlar rivojlantirildi;
- ✓ shaxmat o‘yinida duch keladigan kombinatsiyalar orqali o‘quvchilarning kelajakni ko‘ra olish qobiliyati rivojlantirildi;
- ✓ shaxmat o‘yini bilan o‘ynash davomida o‘quvchilarning vaziyatni tahlil qila olish va unga yurish kombinatsiyalarida eng samarali usulni tanlash, bu orqali kelajakda duch keladigan muammolarni hal qilish uchun eng samarali usulni tanlay olishga o‘rgatildi.

**Tadqiqotning obyekti.** sifatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo viloyati, Xorazim viloyati va Toshkent viloyatlarining umumta‘lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan 360 nafar respondent ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti.** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, so‘rovnomalalar); pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Yuksak darajada aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan kishilar o‘tmishda ham, hozirgi kunda ham qadrlanib kelingan va ularning faoliyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ma‘lumki, har bir inson yoshligidanoq o‘ziga xos, takrorlanmas individual psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan holda voyaga yetadi. Ba‘zi kishilar yoshligidanoq aqlan zukkoligi, zehni o‘tkirligi bilan ajralib turadilar va kishilarni lol qoldiradigan aql-zakovatga ega bo‘ladilar. Tabiat in‘omi hisoblangan bunday qobiliyat ayni vaqtda jamiyat boyligi hamdir. Faqat rivojlangan, yuksak taraqqiyotga intilgan jamiyatgina iste‘dodlarni shakllantiradi, asrab-avaylaydi, uning to‘liq namoyon bo‘lishi uchun barcha moddiy, maishiy, ma‘naviy shart-sharoitlarini yaratib bera oladi. Ana shunday hollardagina iste‘dod o‘z jamiyatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy jihatdan yanada rivojlanishi uchun qudratli omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli mustaqil respublikamiz oldida mustaqil fikrlovchi, ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim muammo turibdi. Bu kabi muammoni hal qilishda birinchidan, iste‘dodli yoshlarni izlash va ularni alohida yo‘naltirilgan maktab, litsey, kollejlarda o‘qitish, ikkinchidan, o‘rta va past aql ko‘rsatgichiga ega bo‘lgan bolalar bilan rivojlantiruvchi psixokorreksion mashg‘ulotlar olib borish orqali ularning aqliy saviyasini imkon darajada oshirishdek vazifalar hozirgi paytda respublika ta‘lim tizimi, xususan, pedagog va psixologlar oldida ko‘ndalang turibdi. Zero jamiyatning har bir a‘zosi davlatimiz taraqqiyoti uchun o‘z



ulushini qo'sha olish darajasiga erishmog'i zarur. Shundagina jamiyatimiz milliy istiqloq g'oyasini to'liq ro'yobga chiqarish salohiyatiga ega bo'lib boradi. Aqli raso, o'z qadr- qimmatini anglab yeta olgan, ezgu niyatli, bukilmas irodaga ega bo'lgan yoshlarni hech qaysi kuch maqsad sari tanlagan yo'lidan qaytara olmaydi.

Rivoyatlardan ma'lum bo'lishicha, Payg'ambarimiz Muhammad sallolohi alayhi vassallom aql va ilm jihatdan hech kimga nasib etmagan aql-zakovatga ega bo'lib, eng yuksak darajaga erishganlar. Payg'ambarimiz Muhammad sallolohi alayhi vassallom o'z hadislarida «Kishini to'g'ri yo'lga boshlaydigan va egri yo'llardan qaytaradigan birdan bir tayanchi-aqlidir»-deb ta'kidlaydilar. Haqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi hayotida faqat ezguliklar qiladi va ezguliklar ko'radi [11].

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan ko'plari aql, tafakkur hamda aqliy qobiliyat, ularning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida o'z fikr mulohazalarini tegishli adabiyotlarda bayon etganlar. Jumladan, O'rta Osiyo va butun Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi, o'z davri ilg'or falsafiy fikrining asosiy tomonlarini ijodida chuqur aks ettirgan mutafakkir, olim Abu Nosir Farobiy insonlarga xos bo'lgan aql va aqliy qobiliyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan [12].

Farobiyning ta'kidlashicha: - «Kishilar jismoniy va aqliy qobiliyat, kuch-quvvatda bir-birlaridan farq qiladilar. Bu farq ularning kasb-hunar va bilimlarni qay darajada egallaganliklarida ifodalanadi» Bir turdagi kasb-hunar va bilimlarining darajasiga qarab odamlar ma'lum xislat va fazilat kasb etadilar. Bu fazilatlar kishilardagi iste'dod va qobiliyat darajasi yetuk va nuqsonli bo'lishiga bog'liqdir [8.9.].

Ta'lim-tarbiya ahlari ham bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat sezilib turadi. Shuningdek, Farobiy aql orqali, tafakkur yordamida bilishning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xarakat qilgan. U tafakkur mavhumlikka, umumiylikka, bevositalikka, ya'ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega bo'lib, olamdagi voqea va hodisalarning umumiy qonuniyatlarini bilib olishga yordam beruvchi yagona vositadir deb tushuntiradi. Farobiyning ta'limotiga ko'ra, tafakkur orqali inson borliqning sezgilarga ma'lum bo'lmagan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, fan tug'risidagi bilimlarga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, Farobiy aqliy qobiliyatning qator psixologik xususiyatlari, jumladan, uning faqat insongagina xos ekanligi individuallik xarakter kasb etishi, ishlash mexanizmlari va shu kabilarni chuqur tahlil qilgan. Shunday qilib, Farobiyning aqliy qobiliyat va iste'dod borasidagi fikrlari asosida aqliy qobiliyatning shaxs hayoti, faoliyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yuqori ekanligini e'tirof etish mumkin.

Abu Rayhon ibn A'xmad Beruniy (973-1048y) ta'lim va tarbiya masalalariga chuqur qiziqqan olimdir. U bilimlarni egallash, haqiqatga erishish, aqliy fikr yuritish, fanlarni o'rganish, xayot va faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi shuningdek, ta'lim va tarbiya uslublari xususidagi g'oyalarni ilgari surgan. Beruniy insonning barcha mavjudotlardan ustunligi uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi. Shuning uchun ham yer yuzidagi barcha hayvonlar unga bo'ysunadilar, aks holda inson eng kichik hayvondan ham o'jiz bo'lar edi-deb ta'kidlaydi.

Beruniy inson tashqi olamni bilishda asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotlardan ustun turishini aloxida ta'kidlab, «Inson aqlga muvofiq bilish orqali odamning mohiyati xaqidagi bilimlarni o'zlashtiradi. Lekin bilimlarning cheki yo'q va hamma bilimlarni tez egallash mumkin emas», deb ta'kidlaydi. Shu boisdan inson o'zi bilib olgan narsalar bilan kifoyalanib qolmay, balki doimo yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilishi kerak. Uning fikricha, inson bilish, tushunish, fikrlash, muhokama kilish, mulohaza yuritish, o'ylab topish singari iste'dodga egadir. Inson tafakkurining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga chog'ishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, xaqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkin».

Ruxiyat, ong va tafakkur barcha hodisalarning ta'siriga bog'likdir, chunki inson tafakkuri doimo voqelikni bilishga qaratilgandir. «Ammo inson,-deydi Beruniy, narsa hodisalarning sifat xususiyatlari haqida bilim beruvchi hissiy bilish darajasida to'xtab qolmaydi, balki narsalarning chuqur va atroflicha bilish, shu narsalar haqida fikr yuritishni talab qiladi». Tafakkur, aqliy qobiliyat tufayli inson narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtiradi, qiyoslab ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi, yangi bilimlarning ob'ektiv voqelikka mosligini tekshirib ko'radi. Shuningdek, aqliy qobiliyat tufayli inson u yoki bu darajada turli bilimlarni o'rganishga chanqoqlik his qiladi.

Aqliy qobiliyat, tafakkur haqida muhim fikrlarni bildirgan allomalardan yana biri Abu Ali ibn Sinodir. U (960- 1037 y) U «Tayr» asarida insonlarni do'stlikka, bilish, o'rganishga chaqiradi. «Bir- biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar», deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning «Xayy ibn Yakzon» qissasida kishi fe'l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun ilmi mantiqni bilishga da'vat etadi, chunki bu ilm kishi didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqda shunday deydi: «Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoni fe'l-



atvorini bilib olishing yordam beradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan. Garchi bu asar aql, ilm-fan, ma'rifat haqida hikoya qilsa-da unda olim, aql, farosat, odob kabi insoniy xususiyatlarni psixologik jihatdan mohirona ta'riflab bera olgan. Haqiqatdan ham, olim ta'kidlaganidek, kishi farosat ilmidan bahramand bo'lgandagina har tomonlama kuchli va sermulohaza bo'ladi, aks holda esa inson ruhiy jihatdan tubanlikka yuz tutadi va ruhan ojiz bo'lib qoladi.

«Aql-ilmning makoni, muqaddas joy, buning ma'nosi haqiqiy fan, ya'ni aqlda yolg'onchilik, tubanlik, yomonlik kabi illatlar bo'lmasligi kerak. Qissadagi oqib turgan chashma mantiq ilmi, unda cho'milish esa mantiqni egallashdir. Mantiq ilmini egallagan kishi Bahri Muhitda cho'kmaydi», deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

Butun dunyoga mashhur ulug' shoir Alisher Navoiy aqliy bilish masalalariga taalluqli bo'lgan fikrlarni ilgari surdi Navoiy aqliy bilishning asosiy vazifasi-voqelikni, tabiatni o'rganishi, yomoni yo'qotish, yaxshini barpo qilish, undan foydalanishdir-deb uqtiradi. «Aqliy bilishning birinchi darajali vazifasi voqelikni to'g'ri aks ettirish, insonni shu olamda, shu hayotda baxtli, xurram hayot bilan ta'minlashdan iborat» - deydi Navoiy. Navoiy insonni mavjud narsalar bilan bog'laydigan omil uning his (sezgi) a'zolaridir, deb bilish jarayonida sezgilarning o'rniga katta e'tibor qaratadi. Inson birinchi navbatda o'zining hissiy a'zolari orqali mavjud narsalar haqida ma'lumotlar oladi, shu tufayli hislar voqelikni bilish manbalaridandir, deb ta'kidlaydi. Navoiy odam tanasini bir qal'aga, mavjud voqelikni shu qal'ani o'rab olgan tashqi olamga o'xshatadi: aqlni shu qal'a saroyida turgan shohga; besh his a'zolarini shu qal'ani mamlakat (tashqi olam) bilan bog'lab, xabar berib turadigan besh yulga, besh muxbirga o'xshatadi. Navoiyning o'z ta'biri bilan aytganda, besh xis a'zolari quyidagilardir: 1-ko'z, ko'ra bilish qobiliyati (bosira); 2-quloq, eshitish a'zosi (somna); 3-sezish a'zosi (momisa); 4-hidlash a'zosi (shomia); 5-ta'm bilish a'zosi (zoika). Dunyoni bilish jarayoni ana shu his a'zolarining bergan ma'lumotlaridan boshlanadi. Bu ma'lumot va xabarlar ko'pincha birinchi taassurot, yuzaki, tartiblashmagan, hamisha to'xtovsiz va vaqti-vaqti bilan kelib turadigan bo'lganliklari uchun ularni (xofiza) miya to'playdi, saqlab yuradi. So'ngra esa tafakkur ishga tushadi va o'sha xabar ma'lumotlarni o'zicha ishlaydi, chuqurlashtiradi, kengaytiradi va muayyan xulosa chiqaradi.

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va pedagog Abdulla Avloniy 1878- yil 12- iyulda Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan va eski maktabda ta'lim olgan. Abdulla Avloniy aql, tafakkur va uni tarbiyalash masalasiga alohida to'xtalib, «Fikr tarbiyasi eng - keraklisi, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirishda muallimlarning roli katta ahamiyatga ega», - deb ta'kidlagan. Shuningdek, Avloniy bolaning fikrini biron narsaga qaratish, o'sha narsa ustida o'ylashiga erishish uchun uning diqqatini yaqqol narsalarga yo'naltirish, oldiga aniq masala qo'yish va masalaga javob topish uchun unda ehtiyoj paydo qilish kerakligini bayon qilgan Olimning yuqorida keltirilgan fikrlari aqliy qobiliyatning ahamiyati, shakllantirish yo'llarini chuqur anglash imkonini beradi.

Mutafakkirlar aqliy qobiliyatning xususiyatlar ahamiyati, zarurati haqida juda asosli dalillar keltirib o'tganlar. Bunday fikrlar davr nuqtayi nazardan juda progress fikrlar xisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining aqliy qobiliyat yuzasidan bildirgan fikrlari muammoni mukammal o'rganish, amaliy ishlarni olib borish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, aqliy qobiliyatni O'rganish bilan bir qatorda uni rivojlantirish imkoniyatlarini axtarish vazifasini qo'yadi. Mutafakkirlarning fikrlari asosida inson tafakkuri, aqliy qobiliyati tufayli ulug' ekanligini uni to'g'ri, ma maksadli rivojlantirish orqali insoniyat stuklikka erishishi muqarrar ekanligini chuqur anglash mumkin.

Psixologiya metodologiyasidagi madaniy-tarixiy yondashuv haqida gapirganda, uning asoschisi - rus psixologi Lev Semenovich Vigotskiy (1896-1934) haqida bir necha so'z aytish kerak. "Yuqori aqliy funksiyalarning rivojlanish tarixi" asarida L.S. Vygotskiy shaxs tomonidan insoniyat sivilizatsiyasi qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonida psixikaning rivojlanishining madaniy-tarixiy nazariyasini ishlab chiqdi. Tabiat tomonidan berilgan aqliy funksiyalar "tabiiy" rivojlanishning yuqori darajadagi "madaniy" funksiyalariga aylantiriladi, masalan, mexanik xotira mantiqiy, impulsiv harakatlar - o'zboshimchalik bilan, assotsiativ vakolatxonalar - maqsadga muvofiq fikrlash, ijodiy xayolga aylanadi. Ushbu jarayon interiorizatsiya jarayonining natijasidir, ya'ni, tashqi ijtimoiy faoliyat tuzilmalarini o'zlashtirish orqali inson psixikasining ichki tuzilishini shakllantirish. Bu shaxsning insoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi tufayli psixikaning chinakam insoniy shaklini shakllantirishdir.

Lev Vygotskiyning sotsial-madaniy nazariyasi kognitiv rivojlanishda ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va madaniy ta'sirlarning rolini ta'kidlaydi. Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasi (ZPD) kontseptsiyasini taklif qildi, bu bola mustaqil ravishda nima qila olishi va o'qituvchi yoki tengdoshi kabi bilimdonroq kishining yordami bilan nimaga erisha olishi o'rtasidagi farqni anglatadi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchilar o'zlarining ZPD doirasida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun o'rganish tajribasini to'plashlari mumkin,

hamkorlikdagi faoliyat, boshqariladigan ko'rsatmalar va tengdoshlarning o'zaro ta'siri orqali yuqori aqliy funksiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bugun O'zbekiston farzandlari har bir sohada o'z iste'dod va salohiyatini namoyon etyapti. Men, ayniqsa, shaxmat ishqibozi sifatida bu go'zal o'yin bilan bog'liq voqeliklarni muntazam kuzatib boraman. Esimda, istiqloqlning ikkinchi yilidayoq shaxmatchilarimiz Butunjahon shaxmat olimpiadasida ikkinchi o'rinni olgan edi. O'shanda shunday quvonganmizki. Sho'ro zamonida, rosti, hech kim emas edik. O'zbekistonning na futboli, na kurashi, na shaxmatini biron bilardi. Yurtimizda shaxmat bo'yicha shunday nufuzli musobaqaning o'tkazilayotgani ham nafaqat sportimiz, umuman, jamiyatimiz hayotida katta bir voqea hisoblanadi. Chunki shaxmat - intellektual o'yin, shaxmatda erishilgan daraja xalqning intellektual qudratini ko'rsatib beradi.

*Erkin Vohidov shaxmat haqida quydagicha to'xtalgan, „Biz shaxmat olamida yetakchi mavqega ega xalqlardan birimiz. Sohibqiron Amir Temur davrida Samarqandda, Alisher Navoiy davrida Hirotda shatranj musobaqalari tez-tez o'tkazilib turilgani manbalardan ma'lum“.*

Shaxmat Sharqda dunyoga kelgan. Uning vatani Hindiston ekanligi to'g'risida Firdavsiy ham, boshqa tarixchilar ham yozgan. Lekin yapon arxeologlari 1972- yili Surxondaryodagi Dalvarzintepadan topilgan buyumlarga asoslanib, shaxmatning asl vatani shu joylar ekan, degan xulosaga kelishdi. Albatta, bu bilan biz «shaxmat vatani» degan nomni Hindistondan tortib olish niyatimiz yo'g'-u, lekin shu faktning o'zi ham shaxmatning yurtimizda qadim-qadimdan sevib o'ynab kelinganini anglatadi.

Tarixga boqasizmi, bugungi kunni olib ko'rasizmi, iste'dodli odamlarning ko'pchiligi shaxmatni sevishiga iqror bo'lasiz. Masalan, o'zingiz tilga olgan Amir Temur shaxmatga faqatgina vaqtini xush o'tkazish vositasi emas, bugungi tilimiz bilan aytganda, taktik nazariy bilim olish vositasi sifatida ham qaragan. O'zi ham o'ynagan, atrofidagilarni ham bunga rag'batlantirgan. Temuriylar saroyidagi bu an'ana yillar o'tib Alisher Navoiy hazratlari davrida ham davom etgan. Bu haqda Mirzo Bobur ham yozganlar. Uning guvohlik berishicha, Navoiyning uyida o'z davrining mashhur shoirlari, san'atkorlari tez-tez yig'ilib turgan.

Yuqorida aytganimiz kabi Amir Temur shaxmatga faqatgina vaqt o'tkazish emas, baliki xayotining bir qismi bo'lgan. Misol tariqasida Amir Temur bilan Saroymulkxonim uchrashuvi haqida Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari shunday bayon qiladi.

“Bir kecha tushida (Bayonqulixon) Shayx ul-a'lamni ko'rdi. Aydilar: xilofi shar'iy qilmagil, turgil, qizlaringni erga bergil. Bayonqulixonning to'qqiz qizi bor edi. Uyqudan turib barcha qizlarini ja'm qildi. Barchasidan kichigi Saroy Mulk xonimcha edi, aydi, ey ota, sizning davlatingiz soyasidan hech joyga bormasmen, er ham qabul qilmasmen, dedi.” Podshoh kunlardan bir kuni tushida yana bir bor Shayx ul-a'lamni ko'radi. Bu mo'tabar zot podshohdan Saroymulkxonimni turmushga berishini so'raydi. Ertangi kuni xon qizini huzuriga chorlaydi. Qiz esa “maning xohishimga qarasangiz?! Mani Tarag'ay Bahodir o'g'liga (Amir Temurga) beringiz” deydi. Biroq, Shahrizabz begi Tarag'ay bahodir bilan xon o'rtasidagi munosabatlar sovuqlashganligi tufayli Bayonqulixon ushbu nikohga rozilik bermaydi. “Temurnoma”da Saroymulkxonim Bayonqulixonning qizi deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslini olganda, tarixiy manbalar uning Qarshi shahrida hokimlik qilgan amir Qozonxonning qizi bo'lganligini, 1341-yilda Qarshida tug'ilganligini dalolat beradi.

Bayonqulixon arzanda qizini Amir Temurga uzatishga unamagach, malika otasiga “kimdan kim men bilan shaxmat o'ynab yutsa, g'olibga xotin bo'laman, garchi u cho'pon bo'lsa ham” deydi. Xon bu musobaqaga rozilik beradi. Malika qul yigit usti boshini kiyib, shaxmat musobaqasiga keladi; ”Xonimcha aydi; man qulbachalaringiz sifatida bo'lay. Siz ayting, kim bizni qulbachamiz bilan shatranj o'ynamoq da'vosin qilur, har kim shuni yutsa man unga qulimni in'om qilurman. Xon andin keyin qizin so'zin qabul qilib, xo'p dedi”.

Tong sahardan shaxmat ustalari musobaqaga kela boshladilar. Xonlik jarchilari butun Buxoroga bu haqda xabar qildilar. “Odamlar-o, odamlar! Eshitmadim demanglar!” Ammo musobaqaga kim kelsa ham Saroymulkxonimga teng kelolmadi. U xonlikda dong'i ketgan shaxmat ustalarini ham mag'lubiyatga uchratadi. “Andin keyin jarchi bozorlarda nido qilur edi. Amir Sohibqiron bu ovozni eshitib, chiqib so'rdi, jarchi voqeani bayon qildi. Ammo shatranj o'ynamoqqa misli yo'q erdi. Amir aydi; Men ham bilirman. Andin keyin Amir Sohibqironni olib bordilar. Xon ko'rdikim, bir turk bacha, egnida chakmon, boshida telpak. Xon buyurdikim, qulbachani (Saroymulkxonim) kelturinglar. Darhol kelturdilar. Amir bildikim, o'g'il libosini kiyibdur, ammo o'zi qizdur. Filhol, ko'rib bir-biriga ko'ngil berdilar”.

Shundan so'ng, xontaxta ustiga shaxmat olib kelib qo'ydilar. Amir Temur xonga yuzlanib o'z shartini izhor etadi: “Sohibqiron aydi: man shart bilan o'ynagayman. Xon aydi: shart shulki, agar yutsang, bu qulbacha senikidir. Amir aydi: boy bersam nima qilurman? Xon aydi: Sandan hech tama' yo'q. Amir aydi: gar man yutquzsam shu g'ulom bachaga qul bo'lurman. O'zi yoshurun oshiq bo'lib erdi. Emdi shatranj

o‘ynay berdi uch bisotgacha. Har bisotigacha bir kecha va bir kun o‘tib keta berdi”. Ko‘rinib turibdiki, bu “raqiblar” shaxmat o‘yini hadisini olgan, xalqaro grossmeysterlarni eslatadi. Biz keltirayotgan mazkur voqea bir afsona, xolos. Ammo, Sohibqiron Temur hayotda ham o‘z zamonining tengi yo‘q yirik shaxmat ustalaridan biri bo‘lgan. Tarixchi Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” kitobida Sohibqiron Temur katta shaxmat o‘ynaganini yozgan: “O‘z fikrini peshlash maqsadida u muttasil shatranj o‘ynaydi. Uning himmati kichik shatranj (o‘ynash)dan oliy bo‘lib, u katta shatranj o‘ynaydi. Temur shatranj o‘ynab, shatranjchilarning allomasi Alouddin (at Tabriziy)ga: “Go‘yo men mulk siyosatida yagona bo‘lganim kabi, sen shaxmat olamida tengi yo‘qsan”, (shuningdek yana u) bizlardan, ya‘ni men va mavlono Ali Shayxdan, har qaysimizning san‘atimiz karomatlariga ega bo‘lib, benazir kishilarmiz, – derdi. Shaxmat o‘yini-yu mansubalari ilmida uning o‘ziga xos sharhi bo‘lib, u bilan o‘yinda chuqur o‘ylamasdan (uning) fikri haddiga yetishga hech bir kimsa qodir emasdi. Men (Ibn Arabshoh)ga hikoya qilishlaricha, u, Olloh yuzini karomatli qilg‘ur, amirul mo‘miniyn Alini tushida ko‘rgan. Ali unga bir xaltada shaxmat tutqazgach, shundan keyin hech bir inson undan g‘olib chiqmagan. Uning o‘yin paytidagi (shatranj majlislaridagi) sifatlaridan biri shu ediki, u hech tafakkur qilmay, faqat (uning) raqibi uzoq o‘ylab fikrga cho‘mganidan keyin o‘ynagach, u hech bir tadbir ko‘rmasdan yurib qo‘yardi. Bir vaqtning o‘zida u (at Tabriziy) ikki raqib bilan g‘oyibona o‘ynardi va hisoblashi natijasida o‘z tomonida qanday donalar va raqiblari tomonidan qanday donalar borligini bilardi. U va Amir (Temur) katta shatranj o‘ynardilar”.

Musobaqada Amir Temur g‘olib keldi. “Axir, xonimcha etakin silkitib, turub uyiga ketti. Xon hayron bo‘ldi. Bul anoyi kishi deb fahmlab erdi, lekin Amir Sohibqiron man Tarag‘ay bahodur, o‘g‘liman deb ma‘lum qilmadi”. Sababi xon janglardan birida Amir Tarag‘ay bahodurni tashlab qochib ketadi. Shundan so‘ng Sohibqiron Temurning otasi “agarda xon jangda nomardlik qilib qochmaganida, jangda g‘olib bo‘lar edik”, deb gapiradi. Bu gap esa xonning qulog‘iga yetib boradi va u Tarag‘ay bahodurdan qattiq xafa bo‘ladi. Ana shu bois u Amir Temurni kuyov qilishni xohlamaydi. Xon garchi shaxmat musobaqasi g‘olibini tongda saroyga kelishini aytgan bo‘lsa-da, mulozimlarga uni huzuriga qo‘ymaslikni tayinladi. “Ertasi bir cho‘ri Sohibqironni axtarib kelib, bir qog‘oz xat yozilganni berdi. Aytibdurkim, “hamd ila durud adosidin so‘ngra ur yorijonimga salom va payom bo‘lsunkim, ushbu siz bilan shatranj o‘ynagan qul bacha xon qizi Saroy Mulk xonimcha bo‘lurman. Ishtiyoqi muhabbat manda bo‘lsa va soim bog‘inda jamolim chirog‘inda umid qilsa xonga kelib arz qilsun. Otam odil bo‘lsa, mani anga bersa kerak. Mabodo boshqa qulbachani bersa olmasun, noma tamom vassalom”.

Amir Temur xon bilan gaplashadi. Bayonqulixon uning huzuriga boshqa qul yigitchalarni yuboradi. Biroq u Saroymulkni talab qiladi. Vazir Siroj Qamariy Sohibqiron Temurga uchrashib, “ul xonning o‘zini qizidur, borgil, mulukona to‘y asbobini kelturgul...” deydi. Biroq ko‘p o‘tmay Amir Temur o‘g‘irlikda ayblanib, “tuhmat” bilan zindonga tashlanadi. Vaqti soati yetib, Bayonqulixon vafot etadi. Taxtni valiahd Baroqxon egallaydi. Amir Temurning zindonda ekanligi barchaning xayolidan ko‘tariladi. Fursatdan foydalangan zindonbon ham “mahbus”ni qo‘yib yuboradi.

Shundan so‘ng Amir Temur Saroymulkxonim bilan uchrashish baxtiga muayassar bo‘ladi. Biroq visol uzoqqa cho‘zilmaydi. Baroqxon bu ikki oshiq-u ma‘shuqni ta‘qib qila boshlaydi. “Amirning a‘zosi yetmish joyidan yarador bo‘lub, Amir o‘zidin ketib yiqildi. Muqarrar qildilarkim, o‘ldi deb oyog‘idan sudrab, Shayx Hasan Boxurziy maydoniga olib borib tashladilar”. Ammo u qirq kunda tariqat piri Shayx Hasan ko‘magida shifo topib ketdi. Saroymulkxonim esa jallod qulidan qutilib, Shahrisabzga yo‘l oldi. Afsonalardan ijodiy foydalanilgan “Temurnoma” asarida Tarag‘ay Bahodur tomonidan kelin izzat-ikrom bilan kutib olinganligi, ko‘p o‘tmay Sohibqiron ham yori huzuriga qaytganligi, to‘y-u tamosha bo‘lganligi haqida yozilgan.[10]

**Xulosa.** Yuqorida bayon qilgan ma‘lumotlarimizda quydagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Markaziy Osiyolik mutafakkirlar va allomalarining aqliy qobiliyatni rivojlantirish hamda hayot yo‘li amaliy tajriba bo‘lib, biz uchun amaliy tajriba bo‘lib hisoblanadi.

Nazariy asoslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aqliy qobiliyatlarni shakllantirish bo‘yicha qimmatli tushunchalarni beradi, o‘qituvchilarga kognitiv o‘sishni va akademik yutuqlarni rag‘batlantirish uchun yo‘l xaritasini taklif qiladi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, axborotni qayta ishlash nazariyasi va ko‘p intellekt nazariyasi kabi nazariyalarni tushunish va qo‘llash orqali o‘qituvchilar yosh o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan boyitilgan o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Pedagoglar o‘quvchilarning bilim qobiliyatlarini tarbiyalash orqali kelajak avlodning kelajak intellekt va imkoniyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini takidlab o‘tgan.

Bizlamizki, sohib qiron Amir Temur o‘z hayoti yo‘lida hamda barcha harbiy yurishlari chog‘ida biz yoritayotgan shaxmat inson uchun nechog‘lik muhim ekanligini isbotlagan. Misol tarzida Amir Temur tuzuklarida ham bu masalada alohida e‘tirof etilgan.

Navoiy insonni mavjud narsalar bilan bog‘laydigan omil uning his (sezgi) a‘zolaridir, deb bilish jarayonida sezgilarning o‘rniga katta e‘tibor qaratadi. Bilamizki, inson sezgi a‘zolari orqali tashqi muhit bilan aloqalarni samarali tashkil etadi. Biz tadqiq etayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantirishda ham sezgi sistemasidan foydalangan holda rivojlantiramiz. Albatta, nafaqat shaxmat o‘ynash jarayonida hayotimizning har bir daqiqasi sezgi a‘zolarisiz biron faoliyatni amalga oshira olmaymiz. Shunday ekan sezgi a‘zolari biz uchun hayotimizda eng muhim xususiyatlarimizdan biri ekanligini sezgan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxmat o‘yini orqali aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali foydalanish darkor.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi PQ-347-sonli “Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Norboev, N.N. Shaxmat nazariyasi va metodikasi. “Yosh kuch”. Toshkent 2020 yil
4. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.: Moliya. 2003 yil.
5. Muhiddinov.M. Shaxmat. Toshkent 2007 yil.
6. Boboqulov Ch.U. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxmat o‘yini orqali aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning tarbiyaviy imkoniyatlari”. Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendirio‘. 2023-yil.
7. Ulaboyevich, B. G. (2023). Methodology of Organizing Physical Education Lessons with School Students in Hot Climate Conditions. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 264-267.
8. Форобий А.Н. Фозил одамлар шахри / Масъул муҳаррир: академик М.Хайруллаев. Тузувчи: ф.н.н. М.Махмудов. Муҳаррир: Т.Иброҳим, А.Файзулла. Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 11-19 б.
9. Шарафутдинова Х. Г. Узлуксиз таълим тизимида ақлий қобилият диагностикаси ва психокоррекцияси // Монография Тошкент : "Innovatsiya-ziyo" – 2019.
10. Qorayev Sh. Amir Temur va Saroymulxonim tanishuvi – shaxmatda kim yutgan edi? // maqola: eliktron jurnal 8-Aprel 2022.
11. Махкамов У. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони / Тошкент: Наврўз, 1994, 15-16-б
12. Махмуд. Х. Ахлоқ гулистони ва одоб бўстони / Тошкент: Наврўз, 2016.



**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**

1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.


**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.





Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU** 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2024-yil 3-son (102)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 27.03.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 28.03.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	--	--